

ABULQOSIMOV H.P., MUMINOV N.G.

XUFYONA IQTISODIYOT



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

ABULQOSIMOV H.P., MUMINOV N.G.

XUFYONA IQTISODIYOT

O‘quv qo‘llanma

Toshkent
«YANGI NASHR»
2020

UDK 338.22
BBK 65.9

O‘zbekiston Milliy universiteti o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

T.T. Jo‘rayev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

D.M. Karimov, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Abulqosimov H.P., Muminov N.G.

Xufyona iqtisodiyot: o‘quv qo‘llanma. H.P. Abulqosimov,
N.G. Muminov – T.: Yangi nashr, 2020. – 304 b.

O‘quv qo‘llanma “Xufyona iqtisodiyot” fani dasturiga muvofiq yozilgan bo‘lib, unda ushbu fanning ilmiy-nazariy asoslari va asosiy tushunchalarining mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, qo‘llanmada jamiyatda rasmiy va norasmiy iqtisodiyot sektorlarining roliga, xufyona iqtisodiyot va uning shakllari hamda sektorlari, korrupsiya, norkobiznes, terrorizm iqtisodiy nazariyalarining asoslarini yoritishga keng o‘rin berilgan.

Qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat yo‘nalishi talabalari, magistrantlar, ilmiy izlanuvchi va doktorantlar hamda professor-o‘qituvchilar, shuningdek xufyona iqtisodiyot, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bilan qiziquvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

BBK 65,9(50‘)-56

ISBN-

© Abulqosimov H.P., Muminov N.G. 2020

© “YANGI NASHR”, 2020

KIRISH

Xufyona iqtisodiyot (uni norasmiy, kuzatilmagan, yashirin iqtisodiyot deb ham atashadi) insoniyat jamiyatida davlat boshqaruvi shakllanishining dastlabki davrlaridan boshlab mavjud bo‘lib, hozirgi vaqtga kelib dunyoning barcha mamlakatlari uchun dolzarb muammoga aylangan. Xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi miqyoslari har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi ijtimoiy-iqtisodiy holatiga va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish xususiyatlariga bog‘liqdir. Shuning uchun har bir mamlakat iqtisodiyotida xufyona iqtisodiyotning o‘rni va roli ham turlichadir. Tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, xufyona iqtisodiyotning miqyoslari rivojlangan mamlakatlarda birmuncha kamroq, rivojlanayotgan, shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o‘tish maqsadida chuqur islohotlarni amalga oshirayotgan sobiq sotsialistik mamlakatlarda kengdir. Shu boisdan xufyona iqtisodiyotning mohiyati, vujudga kelish va rivojlanish sabablarini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’sirini, uni ko‘lamlarini keskin kamaytirish, unga qarshi kurash masalalarini o‘rganish, tadqiq qilish barcha davlatlar uchun dolzarb ahamiyatga ega. Iqtisodiy adabiyotlarda bu masalalar xx asrning 70-yillaridan boshlab ilmiy jihatdan tadqiq etilmoqda.

Iqtisodiyot fanida iqtisodiyotning zamonaviy taraqqiyoti xususiyatlari institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan jamiyatda amal qiluvchi formal va noformal institutlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri sifatida tadqiq qilinmoqda. Shartli ravishda iqtisodiy-huquqiy tadqiqotlarni uch yo‘nalishga bo‘lib tadqiq etish mumkin:

1) huquqning iqtisodiy nazariyasi (konsepsiyalari) – legal biznes faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalarining iqtisodiy samaradorligini (R.Kouz, R.Pozner va boshq.), hamda huquqiy normalarning xo‘jalik amaliyotiga ta’sirini (R.La Porta) o‘rganish;

2) xufyona (yashirin) iqtisodiyotni o‘rganish – rasmiy hisob-kitob va nazoratdan yashirinadigan va ko‘pchilik hollarda noqonuniy xarakterga ega xo‘jalik faoliyati (E. De Soto);

3) jinoyat va javobgarlikning iqtisodiy nazariyasi – kasbiy faoliyatning alohida turi sifatida jinoyatchilarning faoliyatini, hamda jinoyatchilikni kamaytirishning turli uslublarini samaradorligini o‘rganish (G.Bekker va boshq.)

Ushbu uch yo‘nalish ko‘pchilik hollarda ustma-ust tushadi, lekin predmet va metodlardagi farq sezilib turadi. Huquqning iqtisodiy nazariyasi rasmiy (“oq”) iqtisodiyotni o‘rganishadi; xufyona iqtisodiyot bo‘yicha mutaxassislar asosan norasmiy (“kul rang”) sektorga e‘tibor qaratishadi; jinoyatchilikning iqtisodiy nazariyasi kriminal (“qora”) biznesni o‘rganishadi.

Huquqning iqtisodiy nazariyasi va jinoyatchilikning iqtisodiy nazariyasi neoinstitutsionalizmning oqimlari hisoblanadi. Xufyona iqtisodiyotni tadqiq etish bilan ko‘pincha an’anaviy institutsionalizm namoyandalari bo‘lgan iqtisodchi va sotsiologlar shug‘ullanishadi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyot va jamiyatning globallashuvi, integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi mamlakatlar o‘rtasidagi rasmiy chegaralarning yemirilib borishiga olib kelmoqda. Rivojlangan dunyo birlashib chegaralarni yo‘q qilib ittifoqlar tashkil etmoqda. Bunday sharoitda dunyoning har qanday burchagida yuzaga kelgan ilg‘or (ham yaxshi, ham yomon ma’noda) usullar jadal ravishda butun dunyoga tarqab ketmoqda. Shu sababdan iqtisodiyotning norasmiy iqtisodiyotni namoyon bo‘lish shakllarini, ularni aniqlash va baholash usullarini, shu bilan birga unga qarshi kurashi (zarur bo‘lgan hollarda) yoki legallashtirish yo‘nalishlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida “Islohotlarimizga jiddiy to‘sqinlik qilayotgan “yashirin iqtisodiyot”ga barham berilmas ekan, sog‘lom raqobat ham, qulay investitsiya muhiti ham shakllanmaydi. Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, “yashirin iqtisodiyot”ning vujudga kelish omillarini chuqur tahlil qilib, unga qarshi kurashish dasturini tasdiqlasin”¹, -deb ta’kidlagan.

Xufyona iqtisodiyotning namoyon bo‘lish shakllaridan biri bo‘lgan korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda salbiy ta’sir etadi. Shu boisdan korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish masalalari barcha mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга murojaatnomasi. 2020 йил 24 январь. //Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.

“To‘rtinchidan, afsuski, jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi. Tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish, kadastr, qurilish, litsenziya, bojxona, bank, davlat xaridlari kabi sohalarda korrupsiyaga duch kelayotganini Prezident nomiga kelib tushayotgan ko‘plab murojaatlar ham, matbuot va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ham yaqqol ko‘rsatib turibdi. **Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a‘zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlarini bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak**”²,-deb jamiyat oldiga muhim vazifani belgilab berdi.

Mamlakatimiz aholisini “halollik vaksinasi” bilan emlash uchun xufyona iqtisodiyot, korrupsiya masalalari bo‘yicha zaruriy tushunchalarni barcha ta’lim tizimlarida o‘quvchi va talabalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o‘qitish, ularning ongiga singdirib borish maqsadga muvofiqdir. Keyingi yillarda Oliy ta’lim muassasalarida xufyona iqtisodiyot fanini o‘qitish boshlanda. Bu fanni asosiy o‘qitiladigan fanlar jumlasiga kiritib, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqish va nashr qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur o‘quv qo‘llanma bu boradagi dastlabki ishlardan biri bo‘lib, unda talabalarda xufyona iqtisodiy faoliyatning vujudga kelish sabablari, mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari hamda unga qarshi kurash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi asosiy tushuncha va ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadi qo‘yilgan. Mualliflar o‘quv qo‘llanmani kelgusida yanada takomillastirish bo‘yicha kitobxonlarning, mutaxassis va professor-o‘qituvchilarning fikr-mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

² O‘sha yerda.

I BOB. XUFYONA IQTISODIYOTNING TARKIBI, SABABLARI VA OQIBATLARI

1.1. Xufyona iqtisodiyotning mohiyati

1.2. Xufyona iqtisodiyotni namoyon bo'lishining asosiy shakllari va sohalari

1.3. Xufyona iqtisodiyotning rivojlanish sabablari va omillari

1.4. Xufyona iqtisodiyot rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari

1.1. Xufyona iqtisodiyotning mohiyati

Xufyona iqtisodiyot mavjudligiga dastlab 20-asrning 30-yillarida e'tibor bera boshladilar. XX asrning 70-yillaridan boshlab xufyona iqtisodiyotni ilmiy tadqiq qilish boshlandi. Xufyona iqtisodiyotni tahlil qilish rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ingliz sotsiologi K.Xart tomonidan birinchilar qatorida boshlandi U "uchinchi dunyo" mamlakatlarida ko'plab shaharliklarning rasmiy iqtisodiyotga aloqador emasligini aniqladi. U norasmiy iqtisodiyot atamasini ilmiy muomalaga kiritdi. Daromad olishning formal va noformal shakllari o'rtasidagi farq ish haqi va o'zini o'zi ish bilan band qilish asosida topilgan daromad o'rtasidagi farq sifatida izohlandi³. P.Gutman (AQSh) xufyona iqtisodiyot ko'lamiga va roliga e'tibor qilish lozimligini asosladi⁴.

Fernando de Soto "Boshqa yo'l" asarida xufyona iqtisodiyotni xalqning korrupsiyalashgan davlatning qashshoqlashayotgan aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishga layoqatsizligiga nisbatan stixiyali va ijodiy reaksiyasi (javobi) deb atadi. U tarnsaksiya xarajatlarini oshkoralik (legallik) va nooshkoralik (nolegallik) kriteriyalari asosida guruhlashni taklif etgan.

20-asrning 70-yillar ikkinchi yarmi- 80-yillarning boshlarida rivojlangan mamlakatlar olimlari va siyosatchilari amaldagi iqtisodiyot ko'lamlari rasmiy iqtisodiyot ko'lamlaridan ortiqroq ekanligini aniqladilar. E. Feyg xufyona iqtisodiyot ko'lami 70-

³Hart K. Informal Urban Income Opportunities and Urban Employment in Ghana //Journal of Modern African Studies.1973.Vol. 11. №1. P.61-90).

⁴ Gutmann P. The Subterranean Economy // Financial Analysts Journal. 1977. № 34. P. 20.

yillarning oxirida AQSh rasmiy YaIM ning uchdan bir qismini tashkil etishini baholadi. Bu baho AQSh Kongressining Iqtisodiy qo‘mitasida maxsus muhokama qilindi. Faygning fikriga ko‘ra, har bir alohida xufyona iqtisodiyot turining tafsifi uning vakillari buzadigan institutsional qoidalar to‘plami bilan belgilanadi, ya’ni ularning faoliyati qoidalar va normalarning o‘rnatilgan tizimi doirasidan tashqariga chiqadi yoki uni chetlab o‘tadi va, o‘z navbatida, o‘lchanmaydi va ijtimoiy jihatdan hisobga olinmaydi⁵.

1991 yilda Jenevada Yevropa statistiklarining yashirin va norasmiy iqtisodiyotga bag‘ishlangan konferensiyasi bo‘lib o‘tgan. Uning materiallari asosida rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida xufyona iqtisodiyot statistikasi bo‘yicha maxsus ko‘rsatmalari nashr etilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda xufyona iqtisodiyotga turli ta’riflar berilgan:

1. Xufyona iqtisodiyot qonun asosida man qilingan faoliyat turlari deb ta’riflanadi.

2. Xufyona iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatning kuzatilmagan va yashirin faoliyat turi.

3. Xufyona iqtisodiyot rasmiy statistikada u yoki bu sabablarga ko‘ra hisobga olinmagan har qanday iqtisodiy faoliyat bo‘lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilmaydi hamda soliqqa tortishdan chetda qoladi⁶.

Xufyonalik – shaxslarning kundalik faoliyatni tashkil qilishda mavjud huquq(qonun) normalaridan foydalanishdan bo‘yin tovlash va yozilmagan huquqqa, ya’ni an’analar va urf-odatlarida qayd etilgan normalarga hamda mulkchilik huquqlarini almashish va himoyalash yuzasidan kelib chiqqan nizolarni hal etishning huquq doirasidan chetga chiquvchi mexanizmlariga murojaat etishidan iborat⁷.

Xufyona iqtisodiyot - nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmalar, jamiyatdagi iqtisodiy mynocabatlarni o‘z ichiga oluvchi murakkab

⁵ Qarang: Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: нео-институциональный подход. –М.: РТТУ, 2000. -147 с.

⁶ Qarang: Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х, Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019.-485-бет.

⁷ Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х, Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019.-485-бет.

ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, balki, avvalo, jamiyat tomonidan nazorat qilib bo‘lmaydigan, mamlakat aholisining bir qismini tashkil qiluvchilarning shaxsiy va guruhiiy manfaatlarni qondirish, ya’ni katta miqdorda qo‘shimcha daromad (foйда) olishni ko‘zlab davlat organlari boshqaruvi va nazoratidan yashirgan holda, davlat va nodavlat mulkdan hamda iqtisodiy boylik, tadbirkorlik qobiliyatidan jinoiy yo‘l bilan foydalanishdir.

Xufyona rejimda almashuvlarni amalga oshirish ham xarajatlar bilan bog‘liq. Xarajatlarning bir turida tejalishga erishgan xufyona iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi sub’ektlar boshqa xarajatlarni ko‘proq amalga oshirishadi – ular «xufyonalik bahosi»ni to‘lashga majburdirlar. Xufyonalik bahosi bir necha unsurlardan tarkib topadi.

1. *Huquqiy qoidalardan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq xarajatlar* quyidagilarni o‘z ichiga oladi: soliq va boshqa moliyaviy maslahatchilar xizmatlariga haq to‘lash; ishlab chiqarish hajmining cheklanishi va reklama natijasida yo‘qotilgan foyda (korxon qanchalik katta bo‘lsa va u reklama kompaniyasini qanchalik faol yuritsa, nazorat qiluvchi organlarning e‘tibori doirasiga tushish imkoniyati unda shunchalik katta); «ikkiyoqlama» buxgalteriyani yuritish xarajatlari va shu munosabat bilan yuzaga keladigan korxonadagi hisob yuritish va nazorat qilishdagi qiyinchiliklardan ko‘riladigan yo‘qotishlar.

2. *Daromadlar transferti bilan bog‘liq xarajatlar*. Barcha iqtisodiy sub’ektlar bilvosita soliqlar va inflyatsiya solig‘ini to‘lashadi. Lekin oshkora iqtisodiy sub’ektlardan farqli o‘laroq, xufyona iqtisodiy sub’ektlar buzilgan mulkchilik huquqlarini himoyalash yuzasidan davlatga murojaat eta olishmaydi. Bunga, shuningdek, kredit olish bilan bog‘liq qiyinchiliklarni ham qo‘shimcha qilish lozim.

3. *Soliqlar va ish haqiga hisoblab yozishlardan bosh tortish bilan bog‘liq xarajatlar*. Daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta fondiga va pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlardan bosh tortish korxonaga ish haqini to‘lashga tejash imkonini beradi, lekin bunda mehnatning o‘rnini sarmoya bilan bosish va texika bilan qayta jihozlashdan manfaatdorlikni pasaytiradi. De Soto xufyona qayd etilgan mulkchilik huquqlarini ta’riflash uchun «jonsizlantirilgan kapital»

atamasidan foydalanadi: ushbu kapitaldan garov sifatida foydalanish, uni garovga investitsiya qilish, erkin sotish, ba'zan esa shunchaki meros qilib qoldirish mumkin emas.

4. *Shartnoma tizimidan foydalanishning imkonsizligi bilan bog'liq xarajatlar.* Shartnomalarni tuzishning xufyona tadbiri unda ko'plab iqtisodiy sub'ektlar ishtirok etadigan uzoq muddatli loyihalarning amalga oshirilishini qiyinlashtiradi. Shartnomani qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ilgan hollarda sud yoki arbitrajga murojaat eta olishmaydi.

5. *Xufyona bitimning mutlaq ikki tomonlama xususiyati bilan bog'liq xarajatlar.* Faoliyatni va uning natijalarini qonundan yashirishga urinish xufyona bitim ishtirokchilari doirasini mumkin qadar cheklashga undaydi.


6. *Nizolarni hal etishning xufyona tartibotlaridan foydalanish xarajatlari.* Yuzaga kelgan nizolarni hal etish uchun birinchidan, ko'p sonli qarindoshlar, yurtdoshlar va boshqa «o'zinikilar» bilan yaxshi munosabatlarni ushlab turish e'tibor belgilarini qaratish uchun vaqt va xizmatlar almashish uchun mablag'lar talab qiladi. Ikkinchidan, sud va kuchlilik tuzilmalari funksiyasini bajaruvchi mafiya xizmatlariga murojaat etish o'ziga xos soliqni to'lash zarurati bilan shartlangan⁸.

Xufyona iqtisodiyotga kategoriya sifatida metodologik yondashuvlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy yondoshuvda xufyona iqtisodiyot global, makro- va mikrodarajada, shuningdek, institutsional jihatlari tadqiqi qilinadi;
- huquqiy yondoshuvda tartibga solishning normativ tizimiga munosabati, ya'ni rasmiy, davlat ro'yxatiga olishdan, nazoratidan qochish e'tiborga olinadi;
- hisob-statistik statitik organlarda ro'yxatga va hisobga olinmagan;
- kriminalogik yondashuvda jamiyatga, shaxsga zarar keltiruvchi faoliyatlar hisobga olinadi;
- kompleks yondashuvda barcha yondashuvlar va kriteriyalar asosida xufyona iqtisodiyot tadqiq qilinadi;

⁸Беркинов Б.Б. Институционал иктисодиёт: ўқув қўлланма / Б.Б. Беркинов; ТДИУ, Институционал ва иктисодий тадқиқотлар маркази. – Т.: Yangi nashr, 2011. – 66-68-бетлар.

– kibernetik yondashuvda xufyona iqtisodiyot o‘zini o‘zi tartibga soluvchi va boshqaruvchi tizim sifatida qaraladi, xufyona iqtisodiyot rivojlanishini prognozlashtirishning iqtisodiy-matematik modellari ishlab chiqiladi (1.1.1-rasm).



1.1.1-rasm. Xufyona iqtisodiyotga metodologik yondoshuvlar⁹

Xufyona iqtisodiyot sohasidagi faoliyat miqyosi va xarakterining o‘zgaruvchanlik chegaralari juda kengdir – jinoiy faoliyatdan (masalan, narkobiznesdan) olinadigan katta daromadlardan tortib, to tuzatilgan jo‘mrak uchun vodoprovodchi ustani bir shisha aroq bilan “mukofotlash”gacha jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Xufyona iqtisodiy faoliyat o‘zining natijaviyligi ko‘ra ishlab chiqarish va qayta taqsimlash faoliyatlari turlariga bo‘linadi. Rasmiy iqtisodiyotga munosabati bo‘yicha xufyona iqtisodiyotning ichki iqtisodiyot va parallel iqtisodiyot kabi turlari mavjud. Xufyona iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish bosqichlari bo‘yicha quyidagi turlari aniqlanadi:

⁹ Кормишкина Л.А., Лизина О.М. Теневая экономика: учеб.пособие для вузов /Л.А. Кормишкина, О.М. Лизина.-Саранск: Мордов. Ун-та, 2009.-С.11 asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

- xufyona ishlab chiqarish;
- xufyona taqsimot;
- xufyona ayirboshlash;
- xufyona iste'mol.

Xufyona ishlab chiqarish noqonuniy, hisobga olinmagan, yashirin, mayda ishlab chiqarish, sifatsiz mahsulotlar chiqarish, ishlab chiqarish resurslaridan noratsional foydalanishda namoyon bo'ladi.

Xufyona taqsimlash daromadlarni noqonuniy taqsimlash, maxsus taqsimot, davlat mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, fuqarolar xususiy mulkiga tajovuz qilish va unga nisbatan jinoyatlarda ifodalanadi.

Xufyona ayirboshlash noqonuniy savdo, xaridorlarni aldash, noqonuniy tarzda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish shakllarida yuz beradi.

Xufyona iste'mol noqonuniy yo'l bilan topilgan ne'matlarni iste'mol qilish, xizmatlardan noqonuniy foydalanish, jamiyatda qabul qilinmagan, kishilarning destruktiv ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan mahsulotlarni iste'mol qilish hamda ana shunday xarakterdagi xizmatlardan foydalanish (Qarang: 1-.1.1-jadval).

1.1.1-jadval.

Xufyona iqtisodiy faoliyat klassifikatsiyasi kriteriyalari¹⁰

Asosiy kriteriyalar	Xufyona faoliyat turlari
Natijaning tavsifiga bog'liq ravishda	-ishlab chiqarish faoliyat – qayta taqsimlash faoliyati
Rasmiy iqtisodiyotga munosabati bo'yicha	-ichki iqtisodiyot – parallel iqtisodiyot
Takror ishlab chiqarish sikli bosqichlari bo'yicha	-xufyona ishlab chiqarish; – xufyona taqsimot; – xufyona ayirboshlash; – xufyona iste'mol
Alohida sohalarni muvofiqlashtirish	-xufyona bozor – norasmiy iqtisodiyot

¹⁰ Голованов Е.Б. Теневая экономика. Конспект лекций.-Челябинск, 2015.-С.8.

mexanizmiga bog'liq ravishda	
Bozor turlari bo'yicha	-iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorida; – investitsiya tovarlari bozorlarida; – moliya bozorlarida; – mehnat bozorlarida; – boshqa bozorlarda (axborot, texnologik, intellektual mulk)

Bozor turlari bo'yicha xufyonaviy iqtisodiy faoliyat turlari iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorida; investitsiya tovarlari bozorlarida; moliya bozorlarida; mehnat bozorlarida; boshqa bozorlarda (axborot, texnologik, intellektual mulk) mavjud bo'ladi.

Xufyona iqtisodiy faoliyati uzoq vaqtdan beri rasmiy iqtisodiyot doirasidan tashqariga chiqdi va jamiyatning barcha sohalarida parazit edi: uy xo'jaliklari iqtisodiyotidan tortib yirik korxonalariga qadar, davlat faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan va mamlakat aholisining hayot darajasi va turmush tarzini o'zgartirgan. Bularning barchasi, xufyonali iqtisodiyotni quyidagi ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy iqtisodiyotning alohida segmenti sifatida ko'rib chiqish kerak, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi:

- universallik;
- yaxlitlik;
- rasmiy iqtisodiyot bilan huquqiy iqtisodiy tuzilmalar, shuningdek, davlat va jamiyat institutlari orqali o'zaro yaqinlashish orqali o'zini namoyon qiladigan tashqi muhit bilan bog'liqlik;
- xufyona iqtisodiyotida barqaror aloqalar va munosabatlar mavjud bo'lgan tarkibi, uning yaxlitligi va o'ziga xosligini ta'minlash turli xil ichki va tashqi o'zgarishlar bilan uning asosiy xususiyatlarini saqlab qolish qobiliyati; iyerarxiya (strukturaning alohida holati sifatida) - xufyona iqtisodiyotining qismlari va elementlarini yuqoridan pastgacha tartibda joylashtirish;
- o'z-o'zini tashkil etish va uzluksiz rivojlanish, jahon iqtisodiy munosabatlariga organik qo'shilish qobiliyati; amaldagi maqsadlarga

erishish uchun odatiy uslublar va usullarning umumiylikidan iborat maqsadga muvofiqligi va universal ishlash mexanizmining mavjudligi;

- bir-biriga qarama-qarshi ikkita ikkita tamoyilning mavjudligi - konstruktiv (ishlab chiqarish sektori) va buzuvchi (jinoiy sektor).

Aytish lozimki, xufyona faoliyatning turli xillari sifat jihatdan farqlanadi. Shu sababdan, xufyona iqtisodiyotning muammolarini to‘g‘ri tushunib yetish uchun uning asosiy segmentlari va sektorlarini ajratish kerak bo‘ladi.

1.2. Xufyona iqtisodiyotni namoyon bo‘lishining asosiy shakllari va sohalari

Mashhur iqtisodchi E.Fayg xufyona iqtisodiy harakatlarning to‘rtta xilini ajratadi: nolegal (maxfiy, yashirincha), hisobga olinmagan, ro‘yxatga olinmagan va norasmiy iqtisodiy faoliyat.


1. Nolegal iqtisodiyot. Nolegal iqtisodiyot tijoratning qonuniy shakllari sohasini belgilab beruvchi, yuridik normativlarni buzuvchi iqtisodiy faoliyat tomonidan ishlab topilgan daromadning sinonimi sifatida ishtirok etadi. Nolegal tadbirkorlar ta‘qiqlangan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda va ularni taqsimlashda ishtirok etadi (giyovondlik moddalarini noqonuniy ishlab chiqarish, chayqovchilar tomonidan valyuta ayirboshlanishi va h.k.).

2. Hisobga olinmagan iqtisodiyot. Hisobga olinmagan iqtisodiyot institutsional jihatdan o‘rnatilgan, soliq kodeksida qayd etilgan fiskal qoidalarni chetlab o‘tuvchi yoki ulardan bo‘yin tovlovchi iqtisodiy faoliyatni o‘z ichiga oladi. Hisobga olinmagan iqtisodiyotdan olingan daromadlar soliq organlariga xabar qilinmaydi. Bunda “soliq bo‘shlig‘i” – soliq tushumlarini nazarda tutuvchi summa bilan amalda olingan daromad o‘rtasidagi farq yuzaga keladi.

3. Ro‘yxatga olinmagan iqtisodiyot. Ro‘yxatga olinmagan iqtisodiyot hukumat statistika organlarining talablariga ko‘ra belgilangan institutsional qoidalarni chetlab o‘tuvchi iqtisodiy faoliyat turidan tarkib topgan. Bu yerda davlat milliy statistika tizimida ro‘yxatga olinmagan daromad summasi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. E.Faygning fikriga ko‘ra, ro‘yxatga olinmagan daromad

– bu amaldagi umumiy daromad bilan statistika tizimi tomonidan qayd etiladigan daromad o'rtasidagi farqdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda uyda ishlab chiqarish ro'yxatga olinmagan iqtisodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

4. Norasmiy iqtisodiyot. Norasmiy iqtisodiyot jamiyat foydasini hamda mulkchilik munosabatlarini, litsenziyalashni, mehnat shartnomalarini, moliyaviy kreditlash va ijtimoiy sug'urtalash munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar va ma'muriy qoidalar bilan belgilangan huquqlarni buzgan holda alohida xarajatlarni tejovchi iqtisodiy faoliyatni o'z ichiga oladi. U norasmiy faoliyat yurituvchi iqtisodiy agentlar tomonidan olinadigan daromadlar bilan o'lchanadi¹¹ (1.2.2-rasm).



1.2.2-rasm. E.Fayg nuqtai nazaridan xufyona iqtisodiyot shakllari¹²

Xufyona iqtisodiyot milliy xavfsizlikka tahdid sifatida alohida shaxslar, shaxslar guruhi, institutsional sub'ektlari o'rtasidagi moddiy ne'mat va xizmatlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va

¹¹ Qarang: Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: нео-институциональный подход. –М.: РТТУ, 2000. –С.147-148; Беркинов Б.Б. Институционал иктисодиёт: ўқув қўлланма / Б.Б. Беркинов; ЎЗР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент давлат иктисодиёт ун-ти, Институционал ва иктисодий тадқиқотлар маркази. – Т.: Yangi nashr, 2011. – 64-65-бетлар.

¹² Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: нео-институциональный подход. –М.: РТТУ, 2000. –С.147-148

iste'mol qilish yuzasidan bo'ladigan munosabatlar yig'indisi bo'lib, uning natijalari rasmiy statistikada hisobga olinmaydi va soliqqa tortilmaydi.

Xufyona iqtisodiyot amal qilishi davlat iqtisodiy xavfsizligiga potensial va real xavf, tahdid soladi. U normal iqtisodiy jarayonlarga, rasmiy iqtisodiyotda sodir bo'ladigan daromadlarning shakllanishi va taqsimlanishi, xalqaro savdo, investitsiyalash, iqtisodiy o'sish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy fanda iqtisodiyotning qaysi sektorga, ya'ni norasmiy, kiriminal, fiktiv, xufyona yoki ochiq, rasmiy iqtisodiyotga tegishli ekanligini aniqlashda quyidagi mezonlar asos qilib olinadi:

- davlatning fiskal (soliq) manfaatlari;
- YaIMning real hajmi;
- huquqiy parametrlar;
- ho'jalik sub'ektlari o'zaro harakati tavsifi.

Xufyona iqtisodiyot daromadlarni soliqqa tortishdan yashirishda namoyon bo'ladi. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash usullari quyidagilardan iborat:

– turli banklarda bir necha hisob raqamlarini ochib, ular orqali buxgalteriya hisobida to'liq ko'rsatilmagan holda pul operatsiyalarini amalga oshirish;

– trast, veksel va boshqa hisoblardan foydalanish;

– "ikkiyoqlama buxgalteriya" yuritish, naqd pullar bilan muomala qilish, shu orqali daromad va pul tushumlarini soliqdan yashirish;

– korxonani bir shahar, tumanda ro'yxatdan o'tkazish, ammo hisob raqamini boshqa shahar, tumandagi banklarda ochish orqali soliq to'lashdan korxonani ro'yxatga olingan joyda va faoliyat yuritgan joyda ham qochadi, ya'ni bo'yin tovlashadi;

– hisobga olinmagan xarajatlar hisobiga sotilayotgan mahsulot (xizmat, ishlar)ning tannarxini oshirib ko'rsatish;

– rasmiy hisob va to'lov xujjatlarida tomonlarning kelishuviga asosan bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmatlar) qiymati past narxlarda ko'rsatiladi, uning qolgan qismini naqd pul shaklida o'zaro taqsimlab oladilar. Naqd pullardagi daromad soliqqa tortishdan yashiriladi.

Xufyona iqtisodiyot diorasida amalga oshiriladigan operatsiyalarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

– to‘liq buxgalterlik hisobidan chiqarilgan, hech qayerda hisobga olinmaydigan ho‘jalik-moliya operatsiyalari. Bunday operatsiyalarni huquqiy jihatdan ro‘yxatga olingan va umuman ro‘yxatga olinmagan korxonalar tomonidan amalga oshiriladi;

– qisman yashirilgan operatsiyalar. Bunda korxonalar tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarning bir qismi, ya’ni olingan daromadning bir qismi buxgalteriya hisobga olinmaydi, soliqqa tortishdan yashiriladi.

Xufyona iqtisodiyot amaldagi qonunchilikka zid kelishi yoki zid kelmasligi nuqtai nazaridan kriminal, jinoiy yoki kuzatilmagan xufyona iqtisodiyot sektorlariga ajratiladi. Kriminal, ya’ni jinoiy, qora xufyona iqtisodiyotda umuman iqtisodiy faoliyat yashiriladi. Kuzatilmagan, norasmiy iqtisodiyot sektorida sarf xarajat yoki daromad yashiriladi yoki umuman hisobga olinmaydi¹³.

Xufyona faoliyatning turlarini farqlashning uch mezonidan foydalaniladi: ularni “oq” (“birinchi”, rasmiy) iqtisodiyot bilan bog‘liqligi, hamda iqtisodiy faoliyatning sub’ektlari va ob’ektlari. Shu nuqtai nazardan yashirin iqtisodiyotni uch sektor (soha)ga ajratish mumkin (1.2.1-jadval):

- “ikkinchi” (“oq yoqalilar”);
- “kul rang” (“norasmiy”);
- “qora” (“maxfiy”) yashirin iqtisodiyot.

1.2.1-jadval

Yashirin iqtisodiyotning farqlanish mezonlari¹⁴

Asosiy belgilari	“Ikkinchi” yashirin iqtisodiyot	“Kul rang” yashirin iqtisodiyot	“Qora” yashirin iqtisodiyot
Sub’ektlari	Rasmiy (“oq”) iqtisodiyot sektori menejerlari	Norasmiy guruhlar	Professional jinoyatchilar

¹³ Qarang: Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. - СПб.: Питер 2007. Глава 12; Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в система рыночного хозяйства: Учебник. –М.: Дело, 2005. –С 11-43.

¹⁴ Латов Ю.В., Ковалев С.Н. Теневая экономика: Учебное пособие для вузов. / Под. ред. д.п.н., д.ю.н., проф. В.Я.Кикотя; д.э.н., проф. г.М.Казиахмедова. – М.: «Норма», 2006. -С. 15.

Ob'ektlari	Ishlab chiqarishsiz daromadni qayta taqsimlash	Oddiy tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish	Taqiqlangan va kamyob bo'lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish
“Oq” iqtisodiyot bilan bog‘liqligi	“Oq” iqtisodiyot bilan ajralmas	Nisbatan erkin	“Oq” iqtisodiyotga nisbatan avtonomdir

Xufyona iqtisodiyotni o‘rganish va tahlil etish taxminan yarim asrdan buyon davom etayotgan bo‘lsa ham, olimlarda va tahlilchilarda uni tahlil qilishning yagona yondashuvi hanuzgacha mavjud emas. Masalan, ingliz tilidagi manbalarda “informal economy” (norasmiy iqtisodiyot), “underground economy” (yashirish (maxfiy) iqtisodiyot), “shadow economy” (soyadagi (pana) iqtisodiyot), “black economy” (qora iqtisodiyot) kabi terminlarni uchratish mumkin, va bu terminlar turli tadqiqotchilarda turli ma’noni anglatmoqda¹⁵.

“Ikkinchi” yashirin iqtisodiyot – bu “oq” iqtisodiyot ishchi va xodimlarining o‘z ish joylarida yashirincha, qonun bilan taqiqlangan iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari bo‘lib, ushbu faoliyat avval yaratilgan milliy daromadning yashirin qayta taqsimlanishiga olib keladi. Bu faoliyat bilan, asosan, boshqaruv mahkamasidagi “obro‘li odamlar” (“oq yoqalilar”) shug‘ullanganligi sababli yashirin iqtisodiyotning ushbu turini “oq yoqalilar”, deb nomlashadi. Jamiyat nuqtai nazaridan “ikkinchi” yashirin iqtisodiyot hech qanday yangi tovar va xizmatlarni yaratmaydi. “Ikkinchi” iqtisodiyotda bir necha odamlar boshqa odamlarning yo‘qotishlari evaziga naf ko‘radilar (daromad oladilar). “Ikkinchi” yashirin iqtisodiyot – shaxsiy ehtiyoj va davlat tomonidan hisobga va ro‘yxatga olinmaydigan ehtiyojlarni qondirish maqsadida alohida fuqarolar o‘rtasida va ularning norasmiy birlashmalari o‘rtasidagi mustaqil iqtisodiy munosabatlardir. Bu munosabatlar fuqarolarning davlatning xo‘jalik mexanizmidagi xatolar, aholi talablari, xohishlari inobatga olinmasligiga qarshi aks ta’siridir.

¹⁵ Муминов Н.Г. Яширин иқтисодиётнинг моҳияти, сабаблари ва оқибатлари: назарий ёндашув // Иқтисод ва молия, №8, 2016. Б.3.

Bular eng avvalo:

a) moliya va soliq xizmatlarining soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashni rag‘batlantiradigan darajada zaifligi;

b) rivojlangan bozor tizimining noqonuniy resurslar manbalariga tayanishga majbur etadigan darajada mavjud emasligi;

v) haddan ziyod va, shu jumladan, qonunlarga xilof ravishda ma‘muriylashtirilganlik;

g) nodavlat tadbirkorlikka nisbatan davlatning hozirdagi siyosatining uzoq muddatlarga mo‘ljallanganligiga shubha tug‘ilishi.

“Kul rang” yashirin iqtisodiyot – qonun tomonidan taqiqlanmagan, lekin ro‘yxatga olinmaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy faoliyatdir. “Oq” iqtisodiyot bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan va uning hisobiga tekinxo‘rlik qilib yashaydigan “ikkinchi” yashirin iqtisodiyotdan farqli o‘laroq “kul rang” yashirin iqtisodiyot nisbatan mustaqil faoliyat yuritadi. Litsenziya, soliq va boshqalarga ketadigan xarajatlardan qochish maqsadida xususiy ishlab chiqaruvchilar ongli ravishda rasmiy ro‘yxatdan o‘tishmaydi, yoki bu faoliyat to‘g‘risidagi hisobot umuman ko‘rib chiqilmaydi. Bu sektorda mustaqil ishlab chiqaruvchilar yoki litsenziyaga ega bo‘lish, soliq to‘lash va boshqa shu kabi xarajatlardan qochib rasmiy hisobga olinishdan ongli ravishda bo‘yin tovlashadi, yoki bunday faoliyat to‘g‘risida hisobot umuman nazarda tutilmagan bo‘ladi.

“Qora” yashirin iqtisodiyot (uyushgan jinoyatchilik iqtisodiyoti) – qonun tomonidan taqiqlab qo‘yilgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq noqonuniy iqtisodiy faoliyatdir. “Qora” yashirin iqtisodiyot “kul rang” iqtisodiyotga rasmiy iqtisodiyotdan nisbatan ko‘proq ravishda ajralgandir. Keng ma‘noda normal iqtisodiy hayotga to‘g‘ri kelmaydigan, uni buzadigan barcha faoliyat turlari “qora” yashirin iqtisodiyotga kiradi. Bu faoliyatga faqatgina zo‘ravonlikka asoslangan qayta taqsimlash (o‘g‘rilik, bosqinchilik, tovlamachilik) emas, balki jamiyatni yemiradigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish ham (narkobiznes, qimor o‘yinlari, fohishabozlik, reket) kiradi. Kriminal, jinoiy xufiyona iqtisodiyotni noqonuniy ishlab chiqarish, yashirin ishlab chiqarish va ongli ravishda oldindan rejalashtirib, g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab qilingan jinoyatlar tashkil etadi.

Noqonuniy ishlab chiqarishga biznes va tadbirkorlik shaklida tashkil etilgan qonunchilikda qat'iy man qilingan faoliyat turlari kiradi. Bunday faoliyat turlariga quyidagilar kiradi:

- qurol-yarog‘lar ishlab chiqarish va sotish;
- narkobiznes;
- kontrabanda;
- qimorxonalar, qimor o‘yinlarini tashkil etish;
- odam savdosi;
- fohishalik va h.k.

Ushbu faoliyat turlari yashirin, nolegal korxonalar, sex, yashirin biznes va tadbirkorlik sub’ektlari yoki rasmiy ravishda faoliyat yuritayotgan korxonalar (firmalar) shaklida tashkil etiladi. Yashirin, jinoiy xufiyona iqtisodiyot doirasida uyushgan jinoyatchilik vujudga kelib rivojlanadi. Uyushgan jinoyatchilikka asoslangan jinoiy xufiyona iqtisodiyot ko‘pgina holatlarda yuqorida bayon qilingan qonunchilikda man qilingan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va sotish bilan shug‘ullanadi.

Jinoiy uyushgan iqtisodiy faoliyat shakllaridan biri reketdir. Reket odamlarni qo‘rqitish, shantaj qilishga asoslangan biznes deb hisoblanadi. Bunday faoliyat turlariga rasmiy iqtisodiy hayotda to‘liq inkor etilgan, ular bilan kelisha olmaydigan, rasmiy iqtisodiyotning buzilishiga olib keluvchi xatti-harakatlar kiradi. Ushbu taklif etilayotgan tasniflashni absolyutlashtirish kerak emas. Yashirin iqtisodiyotning turli shakllari o‘rtasida keskin chegara mavjud emas. Masalan, uyushgan jinoiy guruhlar norasmiy sektor korxonalaridan “o‘lpon” yig‘ishlari va o‘zlarining daromadlarini poklab olish uchun qonuniy tadbirkorlar bilan aloqalaridan foydalanishlari mumkin (qarang:1.2.2-jadval).

Xufiyona iqtisodiyot barcha tovarlar va xizmatlar, resurslar bozorini hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab oladi. Shuningdek, huquqiy shaxs maqomiga ega bo‘lmagan, rasmiy ro‘yxatga olinmagan va huquqiy shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar xufiyona iqtisodiyot sub’ektlari bo‘lishi mumkin.

1.2.2-jadval

Xufyona iqtisodiyot turlarining tavsifi¹⁶

	Kriminal iqtisodiyot	Majburiy nolegal iqtisodiyot
Sub'ektlar	An'anaviy kriminal, mafiya, oligarxlar, korrupsiyalashgan mansabdorlar, yirik va o'rta biznes	Kichik va o'rta tadbirkorlar, o'zini o'zi ish bilan band etganlar, uy xo'jaligi
Maqsad va motivlari bo'yicha faoliyat tavsifi	Qasddan, shaxsiy boyishga yo'naltirilgan	Yashab qolish uchun majbur bo'lganligi
Insofsiz raqobat usullari	Soliqlarni to'lamaslik, bozorlardagi kelishuvlar, davlat organlari xodimlarini sotib olish, raqobatsilarga jismoniy bosim o'tkazish	Soliqlarni to'lamaslik
Oqibatlari, zararlar ko'lami bo'yicha faoliyatlar tavsifi	Ochiq ijtimoiy xavfli, jinoiy ko'rinishdagi faoliyatlar	Jamiyatga jiddiy zarar keltirmaydigan nolegal(norasmiy) faoliyatlar
Aholining munosabati	Negativ	Tarafdor, sabrli

Huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jalik sub'ektlari yashirin ishlab chiqarish va ayirboshlash bilan shug'ullanadilar. Rasmiy ro'yxatga olinmagan xo'jalik sub'ektlariga quyidagilar kiradi:

– uy xo'jaligi va korxonalariga naqd pulga yoki natura shaklidagi to'lovlar asosida mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkor sifatida rasmiy ro'yxatga olinmagan jismoniy shaxslar;

¹⁶ Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства: учебник.-М., 2005. С.34.

- aholigi pullik uy va boshqa xizmatlar ko‘rsatish;
- legal tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi yashirin korxonalar, sexlar. Ularning faoliyati statistika va buxgalteriyada hisobga olinmaydi.

Xufyona iqtisodiyot mikro, mezo, makro va megaiqtisodiyot darajalarida faoliyat yuritadi. Jahon miqyosida xufyona iqtisodiyot bank va korporativ sohalarida moliyaviy-iqtisodiy jinoyatlar, narkobiznes, foxishabozlik, odam savdosi, pornabiznes, yashirin qurol savdosi, “harom pullarni oqlash”, ya’ni jinoyatchilik orqali topilgan pullarni legallashtirish hamda korrupsiya shakllarida namoyon bo‘ladi.

Xufyona iqtisodiyotining iyerarxik tarkibi tarkibiy qismlar o‘rtasidagi ko‘plab munosabatlar bilan tavsiflanadi, ularning eng xarakteristikasi muvofiqlashtirish va bo‘ysunishdir. Muvofiqlashtirish (gorizontal tartib) va bo‘ysunish (vertikal tartib) zamonaviy xufyona iqtisodiyotiga xosdir, shuning uchun xufyonali iqtisodiyot nafaqat iyerarxik, balki tarmoq tuzilmasi hamdir. Xufyona iqtisodiyotining aniq tuzilishi mamlakatda xuddi shunday rasmiy boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan parallel davlatning mavjudligi to‘g‘risida xulosa chiqarishimizga imkon beradi.

Xufyona iqtisodiyoti piramida prinsipiga muvofiq tashkil etilgan. Piramidaning shakli tasodifan tanlanmagan. Birinchidan, u xufyona iqtisodiyoti sub’ektlarining o‘zaro ta’sirining vertikaliligini ("pastda joylashgan" ning "yuqorida joylashgan" ga bog‘liqligi) qo‘llab-quvvatlaydi. Ikkinchidan, ma’lum miqdordagi taxminlar bilan har bir gorizontal segmentdagi ishtirokchilar soni aniq ko‘rsatilgan.

Odatda, piramida uchta segmentdan iborat ko‘rinadi (birinchisi yuqori). Albatta, har bir mezo-, mikro- va makro darajadagi hukumat uchun, piramidaning tarkibi har xil bo‘ladi. Federal darajadagi piramidaning yanada batafsil qurilishi bilan, har bir segment, ehtimol, davlat tuzilishining piramidalari va mezo-mikro birlashganda elementlar guruhlari tomonidan shakllangan ma’lum bir relyefni aks ettiradi.

Tetraedral piramidaning sammiti quyidagilardan iborat: 1) ijro etuvchi hokimiyatning birinchi shaxslari, shuningdek, qonun chiqaruvchi organlarning yordamchilari, zarur qarorlarni qabul qilish uchun haqiqiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan sud, tergov, moliya

organlarining birinchi vakillari; 2) moliyaviy va sanoat kapitali - kapitali mikro va mezoskal budjetiga to'g'ri keladigan tadbirkorlar; 3) uyushgan jinoiy uyushma - bir tomondan, katta biznesning vakillari, ikkinchi tomondan - jinoiy olamning vakillari bo'lgan jinoiy ishbilarmonlar; 4) pravoslav cherkovining avtoritar iyerarxik instituti davlat aralashuvi bilan yopilgan katta pul oqimi bilan ko'chmas mulkning eng yirik egasidir.

Piramidaning o'rta segmentini tadbirkorlar, ishbilarmonlar, moliyachilar, sanoatchilar tashkil etadi. Bu odamlarni bir narsa birlashtiradi - oddiy bozor iqtisodiyotiga ega mamlakat o'rta sinfining asosi bo'lish istagi va imkoniyati. Bu sinf shuningdek o'z pozitsiyalarini shaxsiy foydalari uchun ishlatadigan bir qator "o'rtacha" (ta'sir doirasi bo'yicha) mansabdor shaxslar, jinoiy unsurlarni o'z ichiga oladi.

Piramidaning o'rta qismidagi xufyona ishchilarining potensial ittifoqchilari, bizning fikrimizcha, uchinchi segmentning haddan tashqari qismi - yollangan ishchilar, oddiy davlat xizmatchilari, oddiy jinoiy elementlar bilan ifodalanadigan piramidaning oyoqlari.

Xufyona darajalari va faoliyat shakllarining ramzi quyidagicha bo'lishi mumkin: rasmiy, oligarx, jinoiy element, tadbirkor, yollangan ishchi. Shunga o'xshash taqsimotlar noaniq darajalar va iqtisodiy faoliyat shakllarini belgilash bilan mos keladi (jinoiy unsurlar bundan mustasno). Buning sababi shundaki, mamlakat aholisining katta qismi xufyonali faoliyat bilan shug'ullanadi.

1.3. Xufyona iqtisodiyotning rivojlanish sabablari va omillari.

Xufyona iqtisodiyot rivojlanishi, birinchi navbatda, davlat tomonidan iqtisodiyot tartibga solinishiga javoban paydo bo'lgan munosabat sifatida qabul qilinishi kerak. Tartibga solish jarayoni cheklovlarisiz bo'lmaydi, cheklovlarni puxta o'ylamay joriy etish ularga amal qilmaslikni yuzaga keltiradi, ayniqsa, buning oqibatida biron naf ko'rish mumkin bo'lsa. Xufyona iqtisodiyotning ko'p turlari (masalan, soliq to'lashdan bosh tortish) davlat tomonidan tartibga solish jarayonidagi kamchiliklar sababli yuzaga keladi, masalan boshqaruvning byurokratlashtirilganligi, soliq stavkalari yuqoriligi va h.k. Xufyona iqtisodiyotining rivojlanishi, bir tomondan, davlatning

aralashuvi haqiqatiga munosabatdir. Cheklovlarsiz tartibga solish mumkin emas va asossiz cheklovlar ularning buzilishiga olib keladi, ayniqsa bu foydali bo'lsa. Xufyona iqtisodiyotining ko'plab turlari (masalan, soliq to'lashdan bo'yin tovlash) ko'p jihatdan davlat tomonidan tartibga solishning kamchiliklari bilan izohlanadi:

– menejmentning byurokratizatsiyasi, soliqlarning haddan tashqari ko'pligi va boshqalar. Biroq, hatto eng yaxshi markazlashtirilgan boshqaruv tizimi ham xufyona iqtisodiyot hajmini kamaytirishi mumkin, ammo uni bartaraf eta olmaydi. Va eng kam soliq bo'lgan taqdirda xam, soliq to'lovchilarning bir qismi majburiy ravishda to'lashdan bo'yin tovlashadi.

– boshqa tomondan, zamonaviy xufyona iqtisodiyoti nafaqat bozor erkinligini cheklashga urinishlar natijasida, balki bozor munosabatlarining o'ziga xos xususiyati tufayli ham paydo bo'ldi. Bozor iqtisodiyoti foyda olish, daromadlarni taqsimlash asosida qurilgan. Diniy etika va ijtimoiy o'zini tutishning boshqa shakllari foyda uchun bo'lgan tashnalikni qondirishi mumkin, ammo uni bartaraf eta olmaydi. Shuning uchun, "jekpotni" urish uchun imkoniyat paydo bo'lganda, odamlar (yoki odamlar guruhleri) ko'pincha o'zlarining shaxsiy manfaatlariga erishish uchun uzoq muddatli ijtimoiy manfaatlardan voz kechadilar. Har qanday holatda ham foyda olishga chanqoqlik "ikkinchi" va "qora" xufyona iqtisodiyotiga xosdir.

Iqtisodiy faoliyatni xufyona amalga oshirish, birinchi navbatda, qonun doirasidagi harakat bilan, ya'ni yuqori transaksiya xarajatleri bilan bog'liq. Transaksiya xarajatlarining tasnifiga asoslangan holda, ta'kidlash lozimki, bunda asosan shartnomani tuzishdagi yuqori xarajatlar, mulkchilik huquqlarini tafsirlash va uchinchi shaxslardan himoyalash xarajatlari nazarda tutiladi. De Soto ushbu xarajatlarni «qonunga bo'ysunish bahosi», deya ta'riflaydi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– qonundan foydalanish xarajatlari (yuridik shaxsni ro'yxatga olish, litsenziya olish, bankda hisobvaraqlar ochish, yuridik manzilga ega bo'lish va boshqa rasmiyatchiliklarni bajarish xarajatlari);

– qonun doirasida faoliyatni davom ettirish zarurati bilan bog'liq xarajatlar (soliqlarni to'lash); mehnat munosabatlari sohasida

qonun talablarini bajarish (ish kunining uzunligi, eng kam ish haqi, ijtimoiy kafolatlar); oshkora sud tizimi doirasida nizolarni hal etishda sud xarajatlarini to'lash¹⁷.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, xufyona iqtisodiyot hajmini kamaytirish mumkin, ammo eng yaxshi markazlashtirilgan boshqaruv tizimiga ega mamlakat ham uni butunlay yo'q qila olmaydi. Soliq stavkalari eng past darajada bo'lgan taqdirda ham ba'zi bir soliq to'lovchilar soliq to'lashdan qochishadi.

Ikkinchi tomondan qaraganda, zamonaviy xufyona iqtisodiyot faqatgina bozor erkinligini cheklash natijasida vujudga kelgan, deb bo'lmaydi, bunga ma'lum jihatdan bozor munosabatlarining tabiati ham sabab bo'lgan. Bozor xo'jaligi foydani ilohiylashtirishga, daromadga sig'inishga asoslangan holda shakllantiriladi. Shu sababdan bir lahzada katta daromadga ega bo'lish imkoniyati yuzaga kelganda, ba'zi insonlar yoki insonlar guruhi jamiyat manfaatlaridan o'zlarining manfaatlarini yuqori qo'yishadi. Boylikka ega bo'lish ishtiyoqi ko'proq "ikkinchi" va "qora" yashirin iqtisodiyot uchun xosdir.

Xufyona iqtisodiyotning vujudga kelish va rivojlanish sabablari va omillari xilma-xil bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Antropologik omillar, ya'ni insonning qarama-qarshi tabiati, undagi yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash xususiyatlari.

2. Iqtisodiy omillar: davlatning soliq siyosatidagi kamchiliklar, bozorning tovar va xizmatlar bilan to'yinmaganligi; iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasidagi muvozanat va balansning mavjud emasligi; iqtisodiyotning siklik tebranishlari, aholi xarid qobiliyatining pastligi; transaksiya xarajatlarining yuqoriligi;

3. Huquqiy omillar: qonunchilik bazasining takomillashmaganligi, iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmining mukammal emasligi; huquqni himoya qilish organlari faoliyatining samarasizligi;


4. Ijtimoiy-siyosiy omillar: ijtimoiy-siyosiy vaziyat, davlatga ishonch darajasi; jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hal

¹⁷ Qarang: Беркинов Б.Б. Институционал иқтисодиёт: ўқув қўлланма / Б.Б. Беркинов; ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент давлат иқтисодиёт ун-ти, Институционал ва иқтисодий тадқиқотлар маркази. – Т.: Yangi nashr, 2011. – 61-62-бетлар.

etilishi darajasi; aholining ijtimoiy-psixologik kayfiyati; davlatning xususiy mulk va sektorga munosabati;

5. Ijtimoiy omillar: aholining tabaqalanishi darajasi; ishsizlik darajasi; kam ta'minlangan aholi qatlamlarining ko'lami; mehnat migrantlarining ko'pligi; mehnat munosabatlari, mehnat sharoitlari, ish haqi tizimi; ijtimoiy kafolatlar, pensiya ta'minoti;

6. Ma'muriy omillar: davlat boshqaruvi tizimidagi kamchiliklar; byurokratiya, davlat xizmatchilarining kompetentlik va mas'uliyatlilik darajasi; tadbirkorliklarga ma'muriy bosim, xomiylik qilishga majburlash darajasi va boshqalar (qarang: 1.3.1-rasm).



1.3.1-rasm. Xufyona iqtisodiyot rivojlanishi omillari¹⁸

Shakllangan xufyona iqtisodiyotining yana bir qancha omillari guruhlari mavjud. Sabablar va sharoitlar iqtisodiy sohada xufyona faoliyatini shakllantirish jarayonida boshqacha rol o'ynaydi. Agar sabablar aslida uni yuzaga keltirsa, unda sharoitlar bu hodisani keltirib chiqarmaydi, balki avlod jarayonlariga ta'sir qiladi va uni aniqlashda ishtirok etadi. Xufyona iqtisodiyoti davlat va iqtisodiyot mavjud bo'lgan har qanday jamiyatda mavjud. Iqtisodiy sohada noqonuniy xatti-harakatlarning sabablarini ikki darajada ko'rib chiqish mumkin:

¹⁸ Кормишкина Л.А., Лизина О.М. Теневая экономика: учеб. пособие для вузов /Л.А. Кормишкина, О.М. Лизина.-Саранск: Мордов. Ун-та, 2009.-15-19-бет ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

- ma'lum bir iqtisodiy tizimning muhim xususiyatlari bilan bog'liq fundamental sabablar: bozor, buyruq-ma'muriy, o'tish davri;
- asosan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat bilan bog'liq aniq sabablar.

Bozor iqtisodiy tizimiga xos bo'lgan xufyona iqtisodiy faoliyatining muhim omillari uning asosiy institutlari - bozor va davlatning disfunktsiyalari hisoblanadi.

Bozor, iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirishning muhim mexanizmlaridan biri bo'lib, cheklangan iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlanishini ta'minlashi kerak. Biroq, u qaytarib bo'lmaydigan, ichkarida mavjud bo'lgan disfunktsiyalarga ega, ular iqtisodiy nazariyada nuqsonlar, nomukammalliklar yoki kamchiliklar deb nomlanadi.

Bozor yetishmovchiligi bu uning faoliyatining ichki namoyonidir, bu bozor sub'ektlarini jamiyat uchun maqbul bo'lmagan yoki istalmagan iqtisodiy qarorlar qabul qilishga, ya'ni Pareto Optimallik mezoniga javob bermaydigan qarorlarni qabul qilishga undaydi.

Potensial jinoyatchilar bozorning buzilishlariga duch kelmoqdalar, chunki ular minimal xarajatlar bilan foydalanilishi yoki yaratilishi mumkin bo'lgan vaziyatlar va noqonuniy daromad olish va yuridik javobgarlikdan qochish uchun xavf tug'diradi.

Davlatning muvaffaqiyatsizliklari noqonuniy foyda olish uchun xufyonali faoliyatda ham qo'llanilishi mumkin.

Shunday qilib, davlat nazoratidan yashirilgan har qanday ma'lumot noqonuniy bitimlar mavzusiga aylanib, jinoiy vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, axborot to'g'risidagi noqonuniy kelishuvning natijalari har xil shakllarga ega bo'lishi mumkin: bozor turi (pul shaklida ifodalangan foyda olish) yoki bozorga xos bo'lmagan, guruhlar yoki jamoalar agar ma'lumotni oshkor qilmaslik uchun to'lov har qanday harakatni amalga oshirishga yoki biron-bir norasmiy qoidalarga rioya qilishga majbur bo'lsa. Ushbu jarayonni quyidagi mexanizmlar orqali ham tavsiflash mumkin:

- giperselektuallik;
- sudraluvchi effekt;
- oldingi rivojlanish trayektoriyasiga bog'liqlik.

Shunday qilib, bozor va davlat iqtisodiy sohada ijtimoiy xavfli harakatlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadigan tubdan tuzatib bo‘lmaydigan kamchiliklarga (nomukammalliklarga) ega. Bozor va davlatning tuzatib bo‘lmaydigan nomukammalligi davlatning rolini haddan tashqari kuchaytirish sharoitida ham, davlatni o‘ziga xos vazifalarini bajarishdan asossiz chiqarib tashlash bilan ham kuchayadi.

Iqtisodiy tizimning chuqur xususiyatlari bilan bog‘liq asosiy sabablar va sharoitlar bilan bir qatorda, xufyona iqtisodiy faoliyatning sabablari majmui alohida mamlakatlar, sanoat, bozor, korxonalarining iqtisodiy holatining yanada aniq sharoitlari bilan bog‘liq. Eng muhim sabablarga quyidagilar kiradi:


- 1) moliya-kredit tizimini rivojlanishidagi nomuvofiqliklar;
- 2) iqtisodiyotni barterizatsiya qilish;
- 3) iqtisodiyotdagi tarkibiy nomutanosibliklar;
- 4) iqtisodiyotdagi monopolizm;
- 5) aholining ijtimoiy tabaqalanishi;
- 6) ajratilgan annuitet miqdorining oshishi;
- 7) korxonalarining moliyaviy ahvoli yomonlashishi.

1.4. Xufyona iqtisodiyot rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari

Xufyona iqtisodiyotga dualizm xos bo‘lib, bu uning ikkiyoqlama rolidan, ya’ni: pozitiv (ijobiy) – biznes rivojlanishi bo‘yicha salbiy sharoitlarni yumshatish; negativ (salbiy) – jamiyat daromadlarining qayta taqsimlanishidagi salbiy oqibatlarning vujudga kelishi va aholi turmush darajasining yomonlashuvi, iqtisodiyotni boshqarish tizimi samaradorligining pasayishining yuz berishida namoyon bo‘ladi. Shunga muvofiq ravishda xufyona iqtisodiyotga uch guruh o‘zaro bog‘langan funksiyalar xosdir (qarang: 1.4.1-rasm).

Xufyona iqtisodiy faoliyat oqibatlarini bir xil baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Xufyona iqtisodiyotning ko‘pgina turlari (ayniqsa “kul rang”) rasmiy iqtisodiyotni rivojlanishiga to‘siqlik qilmasdan, balki unga ko‘maklashadi ham. Shveysariyalik iqtisodchi Diter Kassel

bozor xo‘jaligida xufyona iqtisodiyot rivojlanishining uchta ijobiy funksiyalarini ajratib ko‘rsatgan:



1.4.1-rasm. Xufyona iqtisodiyotning asosiy funksiyalari¹⁹.

1) “iqtisodiy “moylash” (“smazka”) – qonuniy (rasmiy) va xufyona iqtisodiyot o‘rtasida resurslarni qayta taqsimlash yordamida iqtisodiy kon’yunkturada darajalar o‘rtasidagi farqlarni tekislash (rasmiy iqtisodiyotda inqiroz bo‘lgan davrda ishlab chiqarish resurslari o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki “soya”ga oqib o‘tadi va inqiroz tugagandan so‘ng rasmiy ko‘rinishga o‘tadi);

¹⁹ Голованов Е.Б. Теневая экономика. Конспект лекций.-Челябинск, 2015.- С.16.


2) “ijtimoiy amortizator” – nomaqbul ijtimoiy qarama-qarshiliklarni yumshatish (xususan, norasmiy bandlik kam ta’minlanganlarning moddiy holatini yengillashtiradi);

3) “ichiga o’rnatilgan stabilizator” – xufyona iqtisodiyot o’zining resurslari bilan rasmiy iqtisodiyotni ta’minlab turishi (noramiy daromadlardan rasmiy sektorda tovar va xizmatlarni sotib olish uchun foydalaniladi, aylantirib, poklab olingan jinoyatchilik kapitali soliqqa tortiladi va h.k).²⁰

Umuman olganda, xufyona iqtisodiyotning jamiyatga ta’siri ijobiydan ko’ra ko’proq salbiydir. Xufyona iqtisodiyotning “ikkinchi” va “qora” turlari eng katta zarar keltiradi. Bir tomondan, jamiyat daromadlari nisbatan kam sonli imtiyozli guruhlar (byurokratlar, mafiya) foydasiga noijtimoiy qayta taqsimlash qayta taqsimlanadi. Ikkinchi tomondan, iqtisodiyotning markazlashgan boshqaruv tizimi buziladi: qo’shib yozishlar hukumatda yanglish farovonlik hissini vujudga keltiradi, aslida esa chuqur islohotlar zarurdir; “yashirin” bandlik hukumatning yangi ish o’rinlarini yaratish bo’yicha harakatlari ishsizlikni kamaytirishga olib kelishiga yo’l qo’ymaydi, ammo budjet taqchilligini oshiradi va h.k. Xufyona iqtisodiyotning har qanday shaklini rivojlanishi xo’jalik etikasiga putur yetkazadi. Agar bu tendensiyalar juda chuqurlashib ketsa, insonlar umumqabul qilingan “o’yin qoidalari” to’g’risidagi tushunchani yo’qota boshlashadi, “hamma narsa mumkin” shiori ostida yashay boshlashadi, natijada jamiyat tartibsizlikka va beqarorlikka yuz tutadi.

Xufyona iqtisodiyotning ijobiy va salbiy samaralarining nisbati uning miqyosiga bog’liq bo’ladi (1.4.2-rasm)

²⁰Qarang: Cassel D., Cichy U. *The Shadow Economy and Economic Policy in East and West: A Comparative System Approach // The Unofficial Economy. Consequences and Perspectives in Different Economic Systems / Ed. By S. Alessandrini and B. Dallago.* Gower, 1987. P. 140-141.



1.4.2-rasm. Xufyona iqtisodiyot samaralarining uning miqyosiga bog‘liqligi²¹

Ijobiy samara parabola bo‘yicha o‘sib boradi, ya’ni xufyona iqtisodiyotning nisbiy kattaligi oshib borgan sari uning o‘shish sur‘atlari sekinlashib boradi. Ammo yashirin iqtisodiyot kattalashib borgan sari salbiy samara keskin o‘shish tendensiyasiga ega bo‘ladi. Bu holda natijaviy samara avvaliga ijobiy (+) belgiga ega bo‘lgan holda o‘shib boradi (**OA** qism), so‘ng uning o‘shishi to‘xtaydi (**A** nuqtasi), pasayish jarayoni boshlanadi (**AB** qism), undan keyin natijaviy samara salbiy qiymat (-)ga ega bo‘ladi, va u jadal o‘shib boradi (**B** nuqtadan keyin).

Ushbu grafik model xufyona iqtisodiy faoliyat miqyosini nazorat qilish muhimligini aks ettiradi. Agar xufyona iqtisodiyot kattaligi **OA**ga teng bo‘lsa, jamiyat farovonligi maksimallashadi, chunki bu holda natijaviy samara maksimal darajadagi ijobiy qiymatga ega

²¹ Латов Ю. В., Ковалев С. Н. Теневая экономика. Учебное пособие для вузов / под ред. д.п.н., д.ю.н., проф. В.Я. Кикотя; д.э.н., проф. Г. М. Казиахмедова. М., 2006. 336 с.

bo'ladi. Xufyona iqtisodiyot kengayib borishining maksimal chegarasi **OB** gacha borishi mumkin, bunda ijobiy va salbiy samaralar o'zaro so'nib boradi. Xufyona iqtisodiyotning hajmi **OB**dan oshib ketsa, jamiyat zarar ko'ra boshlaydi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida MDH mamlakatlarida yuqori darajadagi xufyona (eng avvalo yuqori darajada jinoiylashgan) iqtisodiy munosabatlar tizimi shakllana boshlandi²² va u bir qator xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Birinchidan, xufyona iqtisodiyot ulushi katta bo'lib, iqtisodiyotning dominant, norasmiy va g'ayrihuquqiy munosabatlar muhim o'rin tutuvchi sektoriga aylanib bormokda. Ba'zi MDH mamlakatlarida davlat apparatining yoppasiga korrupsiyalashgani, huquq va sud tizimi rolining sustligi, ularning ma'muriy apparatiga, yashirin moliyaviy kapitalga tobeligi bugungi kunning real voqeligidir.

Ikkinchidan, iqtisodiyotda moliyaviy guruhlar (klanlar) shakllandi. Ular yirik kapital qo'yilmalarini boshqaradigan davlat hokimiyati organlari «qanoti» ostida bo'lgan hokimiyat xo'jalik tuzilmasi bo'lib, keng ko'lamdagi tadbirkorlik (eng avvalo, tijorat) faoliyati bilan shug'ullanadilar. O'z faoliyati bilan bu moliya guruhlar bozorda, asosiy tovar guruhlar bozorida va, ayniqsa, tashqi savdoda raqobat kurashini cheklaydilar. Yashirin moliya kapitalining iqtisodiyotdagi monopol hukmronligi orqali o'ta katta daromadlar olishining yana bir oqibati – aholining katta qismi qashshoqlashib ketishidir.

Uchinchidan, xufyona iqtisodiyot rivojlanishi oqibatida mamlakatning budjet tizimi buziladi, daromad va xarajatlarini taqirlash yoki kamaytirish, cheklashlar yuzaga keladi. Moliya kapitali guruhlar budjet mablag'laridan katta daromadlar olish yo'lida foydalanadilar, budjet mablag'lari va davlat mulki bilan turli qing'ir ishlarni amalga oshiradilar, bunday sharoitda davlat moliyaviy

²² Artikovich, A.S., Kurbandurdievich, M.K. (2020). THEORETICAL BASIS OF METHODS OF MEASUREMENT AND FUNCTIONING OF THE SHADOW ECONOMY. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24 (2), pp. 1360-1370. <https://www.psychosocial.com/article/PR200435/10137/>. DOI: 10.37200/IJPR/V24I2/PR200435

muammolarni hal qilish uchun qarz mablag'larini olishga majbur bo'ladi. Shu bilan birga, bu voqelik iqtisodiyotning real sektori qisqarishiga, korxonalarining ko'p qismi sinishiga va, oxir oqibatda, ularning deyarli 30 foizi bankrotlikka uchrashiga, uchdan ikki qismi esa bankrotlik ostonasiga kelib qolishiga olib keladi.

To'rtinchidan, xufyona iqtisodiyot milliy daromad iste'mol qilinishiga, foyda qayta taqsimlanishiga olib keladi. Yashirin daromadlarning ortib borishi esa yashirish ishbilarmonlarga xizmat ko'rsatuvchi noishlab chiqarish tuzilmalarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Xalq xo'jaligining aksariyat aholining turmush farovonligini ta'minlovchi tarmoqlari (xalq iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, ta'lim va shu kabilar) inqirozga yuz tutadi.

Beshinchidan, xufyona iqtisodiyot vakillari o'z kapitalining asosiy qismini xorijga olib chiqib joylashtiradilar. Ekspertlarning fikricha, o'tgan asrning 90-yillarining birinchi yarmida Rossiyadan olib chiqib ketilgan kapital 150-300 mlrd. AQSh dollarini tashkil qiladi. Bu tizim barqaror ravishda takror ishlab chiqiladi va bu takror ishlab chiqarishning bosh mexanizmi, shakllangan jinoiy moliyaviy kapital umumdavlat miqyosida iqtisodiy-siyosiy qarorlar qabul qilishda amalda dominant rolga ega bo'lib, boshqa barcha xo'jalik sub'ektlari ichida yuqori raqobatdosh bo'ladi.

Xufyona iqtisodiy munosabatlarning jamiyatning iqtisodiy hayotidagi o'rni haqida gapirganda, zararli organizm sifatida xufyona iqtisodiyoti tushunchasi uning ko'plab turlari, ayniqsa, "Qora" iqtisodiyot, kelajakda rasmiy iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qilishdan ko'ra ko'proq yordam beradi.

Darhaqiqat, hisoblangan ko'rsatkichlar dinamikasiga rioya qilsak, so'nggi o'n yilliklarda deyarli barcha guruhlar mamlakatlari iqtisodiyotida xufyonali iqtisodiyotning nisbatan o'sishi barqaror tendensiyasi kuzatildi. Bundan tashqari, xufyona faolligining ta'siriga bog'liqlikning sezilarli darajada oshishi iqtisodiyotining muhim rivojlanish yo'nalishlaridan biridir.

Xufyona iqtisodiyotining sobiq SSSR hududida o'zgarishi uning ko'p funktsionalligi va xilma-xilligi bilan bog'liq, chunki u keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarga ta'sir qiladi va bu ta'sir ijobiy

ham, salbiy hamdir. Shu bilan birga, xufyonali iqtisodiyotning ijobiy va salbiy ta'sirlarining nisbati, u qaysi iqtisodiyotda va qaysi iqtisodiy tizim doirasida rivojlanayotganiga bog'liq ravishda katta farq qiladi.

So'nggi paytlarda bu mamlakatlarda iqtisodiy jarayonlar xufyonali iqtisodiyot tuzilmalari kengayishining o'ta noqulay oqibatlari bilan ajralib turadi. Demokratlashtirish va iqtisodiy faoliyatning bozor asoslarining kengayishi natijasida federal va mintaqaviy darajada iqtisodiy rivojlanish ustidan nazoratni sezilarli darajada murakkablashtirishi xufyona sohasi ko'lamining iloji boricha ko'payishiga olib keladi.

Yaqin kelajakda xufyona tovarlari va xizmatlariga talabni kamaytiradigan omillar juda ko'rinmas, ammo qora xufyona iqtisodiyotining cheksiz o'sishi uchun jiddiy sabablar yo'q. Shunday qilib, munozaralar, ehtimol, xufyonali iqtisodiyotni yo'q qilish haqida emas, balki qonuniy iqtisodiyot va noqonuniy iqtisodiyot o'rtasidagi dinamik muvozanatni saqlash, uni rivojlangan mamlakatlarda maqbul darajaga yetkazish haqida bo'lmasligi kerak. Bu xufyona iqtisodiyotiga maqsadli qarshi kurash usullari va mexanizmlarini yanada izlash va takomillashtirishni talab qiladi.

Nazorat savollari:

1. Xufyonalik deganda nimani tushunasiz?
2. Xufyona iqtisodiyot tushunchasining mazmuni nimadan iborat?
3. Xufyona iqtisodiyot tushunchasining mazmuniga qanday metodologik yondashuvlar mavjud?
4. Xufyona iqtisodiy faoliyat turlari nimalardan iborat?
5. Xufyona iqtisodiyotning qanday shakllari bor?
6. Xufyona iqtisodiyotning asosiy sohalarini ta'riflang.
7. Xufyona iqtisodiyot sektorlarining farqlarini ko'rsatib bering
8. Xufyona iqtisodiyotning rivojlanish sabablari va omillari nimalardan iborat?
9. Xufyona iqtisodiyotning rivojlanish oqibatlarini tushuntirib bering.
10. Xufyona iqtisodiyotning salbiy va ijobiy oqibatlarini izohlab bering.

II BOB. XUFYONA IQTISODIYOTNI O‘LCHASH VA UNING MIQYOSLARI

2.1. Xufyona iqtisodiyotni o‘lchashning mikrousullari

2.2. Xufyona iqtisodiyotni o‘lchashning makrousullari

2.3. Xufyona iqtisodiyot miqyoslari.

2.4. O‘zbekiston Respublikasida xufyona iqtisodiyot ko‘lami.

2.1. Xufyona iqtisodiyotni o‘lchashning mikrousullari

Xufyona iqtisodiyot miqyosini o‘lchash murakkab masaladir. Bu hol Xufyona iqtisodiyotning pinhoniyl xususiyatga egaligi va u har qanday o‘lchash va hisoblardan chetda bo‘lishga intilishi bilan bog‘liqdir. Lekin yashirin faoliyatning hajmiga baho berish iqtisodiy rivojlanishni tahlil etish va davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirish uchun zarurdir. Rivojlangan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot ko‘lamlarini aniqlashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. **Indikatorlar uslubi.** Ularning tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita (egri) uslublar mavjud. To‘g‘ridan-to‘g‘ri uslublar o‘z ichiga maxsus kuzatuv, so‘rovlar o‘tkazish, ayrim soliq to‘lovchilar daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni aniqlash maqsadida tekshirishlar, tahlillar o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Bilvosita (egri) uslublar o‘z ichiga bandlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha, monetar uslublarini o‘z ichiga oladi.

2. **Yengil modellashtirish uslubi,** ya‘ni determinantlarni baholash. Ushbu uslubda xufyona iqtisodiyotni aniqlashtiruvchi jami ko‘rsatkichlar tanlab olinib, uning nisbiy hajmlari hisoblanadi.

3. **Tarkibiy uslublarda** turli ishlab chiqarish tarmoqlarida xufyona iqtisodiyot hajmlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, axborotlardan foydalaniladi.

4. **Aralash uslublarda** xufyona iqtisodiyot hajmlariga bog‘liq o‘lchovlardan ya‘ni determinant va indikatorlarni hisobga olgan holda modellar yaratiladi.

5. Xufyona iqtisodiyotni baholashda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni **integral baholash.**

6. **Rasmiy statistika ko'rsatkichlarini turli qayta va qo'shimcha hisoblashlar** asosida xufyona iqtisodiyotni va uning alohida elementlarini baholash¹.

Xufyona xo'jalik aylanmasi, tabiiyki, rasmiy statistikaga kiritilmasligi bois, xufyona iqtisodiyot o'lchamlarini baholash muammosi o'ta dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqsad uchun quyidagi yondashuvlardan foydalaniladi:

– **monetar usul**, u xufyona hisob-kitoblarda faqat naqd mablag'lardan foydalanilishi to'g'risidagi gipoteza asosida quriladi (naqd pul massasi harakatining dinamikasi xufyona iqtisodiyotning o'lchamlari haqida fikr yuritish imkonini beradi);

– **xarajatlar va daromadlar balanslari usuli**, unda deklaratsiya qilinadigan daromadlar va xarajatlar summasi, tovarlar va xizmatlar iste'molining real hajmlari bilan taqqoslanadi;

– **bandlikni tahlil qilish**, u shuni nazarda tutadiki, uzoq vaqt mobaynida saqlanib kelayotgan ro'yxatga olinmagan ishsizlikning yuqori darajasi xufyona sektorda bandlik uchun keng imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi (ro'yxatga olinmagan ishsizlar soni xufyona iqtisodiyotning o'lchamlaridan bilvosita dalolat beradi);

– **texnologik koeffitsiyentlar usuli**, u xarajatlarning ma'lum texnologik koeffitsiyentlari asosida mahsulot ishlab chiqarishning real hajmi haqidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi (masalan, iste'mol qilinadigan elektr energiyasining dinamikasi va deklaratsiya qilinadigan mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlar taqqoslanadi);


– **uy xo'jaliklari va korxonalar rahbarlari o'rtasida so'rov o'tkazish usuli**, u xufyona iqtisodiyotning o'lchamiga ekspert baholarini beradi;

– **sotsiologik usul**, u xufyona bitimlar amalga oshiriladigan alohida me'yorlarni, ularning jamiyatda tarqalganligini, bitimlarni tuzishda qanchalik qo'llanishini tahlil qilishdan iborat²³.

¹ Qarang: Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность: Ростов на Дону: Феникс, 2007. С-171.

²³ Беркинов Б.Б. Институционал иқтисодиёт: ўқув қўлланма / Б.Б. Беркинов; ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент давлат иқтисодиёт ун-ти, Институционал ва иқтисодий тадқиқотлар маркази. – Т.: Yangi nashr, 2011. – 65-66-бетлар.

Zamonaviy iqtisodchilar tomonidan yashirin iqtisodiyotni o'lchashning ko'pchilik usullari ishlab chiqilgan²⁴. Ularni shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo'lish mumkin:



2.1.1-rasm. Xufyona iqtisodiyotni o'chash usullari

- mikro darajadagi usullar (to'ridan-to'g'ri, bevosita);
- makro darajadagi usullar (bilvosita) (qarang: 2.1.1-rasm).

Xufyona iqtisodiyotni mikro darajada o'lashda bevosita

²⁴Yashirin itisodiyot miqyoslarini o'lash usulbarini batafsil tahlili quyidagi ilmiy asarlarda yoritilgan: Николаева М.И., Шевякова А.Ю. Теневая экономика: методы анализа и оценки. М., 1987; Бокун Н., Кулибаба И. Проблемы статистической оценки теневой экономики // Вопросы статистики. 1997. № 7; Попов В. В. Методы измерения теневой экономики и их использование в постсоветской России // Экономическая теория преступлений и наказаний. Теневая экономика в советском и постсоветском обществах / Под ред. Л.М. Тимофеева и Ю.В. Латова. М., 2002. Вып. 4/2.; Муминов Н.Г., Жўрабоев И.Б. Яширин иктисодиётни ўлчаш усуллари // Иктисод ва молия, №12, 2016. 2-8 бет.

(to'g'ri) usullardan foydalaniladi: xufyona iqtisodiyotning miqyosini baholash uchun so'rovlar, ochiq tekshirish usuli va iqtisodiy-huquqiy tahlilning maxsus usullari.

1. So'rovlar.

So'rov orqali o'tkaziladigan tadqiqotlar ijtimoiy izlanishlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, anonim intervyu usuli. Bunda intervyuda qatnashayotgan respondentlarni shartli ravishda 4 guruhga ajratish mumkin:

- “*yashirin faoliyatchilar*” – noqonuniy iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiruvchi va buni tan olishga tayyor bo'lgan shaxslar;

- “*bevosita kuzatuvchilar*” – yashirin muhitda bo'lib, uni ichidan kuzatayotgan, lekin noqonuniy bitimlarda qatnashayotganini qayd etmaydigan shaxslar;

- “*tashqi kuzatuvchilar*” – yashirin iqtisodiyotni u yoki bu faoliyatiga baho beruvchi respondentlar bo'lib, ular bu faoliyatga qo'shilmaydi yoki qo'shilganini tan olmaydi.

- “*jabrlanuvchilar*” – yashirin iqtisodiyot va korrupsiyadan jabr ko'rgan, lekin yashirin faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan shaxslar.

So'rov natijalari ma'lumotlar ishonchliligi nuqtai nazaridan “yashirin faoliyatchilar” va “bevosita kuzatuvchilar” afzalligini ko'rsatmoqda. Ammo boshqa ikki guruh tomonidan berilgan ma'lumot ham muhim sanaladi.

2. Ochiq tekshiruv usuli.

Ochiq tekshiruv usulini qo'llash valyuta, bojxona, bank, soliq sohasida, monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzish, yong'in xavfsizligi va sanitariya normalariga rioya qilmaslik kabi qonunbuzarliklarni aniqlash va oldini olish bilan shug'ullanuvchi nazorat organlarining vakolatidir. Ochiq tekshirish usuli, masalan soliq tekshiruv yordamida olingan natijalardan hisob-statistika maqsadlarida foydalaniladi.

3. Iqtisodiy-huquqiy tahlilning maxsus usullari.

Xufyona iqtisodiyotning miqyosini o'lchash va uni baholash uchun iqtisodiy-huquqiy tahlilning maxsus usullarini qo'llash muhim sanaladi. Ushbu usullar maxsus iqtisodiy va buxgalterlik ko'nikmalarini yuridik amaliyotda samarali qo'llash imkonini beradi.

Iqtisodiy-huquqiy tahlil usullarini quyidagi 3 turga ajratish mumkin:

- buxgalteriya tahlili usuli;
- hujjatlashtirilgan tahlil usuli;
- iqtisodiy tahlil usuli.

Buxgalteriya tahlili usuli hisobdagi nomuvofiqlik va og‘ishlarni aniqlash uchun buxgalteriya hisobini (balans, hisoblar va ikki yoqlama yozuv; baholash va kalkulyatsiya, inventarizatsiya va hujjatlashtirish) tadqiq etishni nazarda tutadi.

Hujjatlashtirilgan tahlil usuli deganda buxgalteriya hujjatlarini tadqiq etish tushuniladi va hisob hujjatlarining tashqi ko‘rinish yoki mazmuni namoyon etish xususiyatlari o‘rganiladi. Hujjatli tahlilning maqsadi hujjatlardagi noaniqliklarni aniqlashdan iborat.

Iqtisodiy tahlil usuli normal iqtisodiy faoliyatdan chetlashish sabablarini aniqlashda yordam beradi.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning mos kelmasligini aniqlashda quyidagi iqtisodiy jinoyatni aniqlash usullari qo‘llaniladi:

- taqqoslashlar usuli;
- maxsus hisob ko‘rsatkichlari usuli;
- stereotiplar usuli;
- to‘g‘irlanadigan ko‘rsatkichlar usuli.

Taqqoslashlar usuliga korxonada iqtisodiy faoliyatining xususiyatini ochib beruvchi va bir necha hisobot davrlaridagi ko‘rsatkichlar tahlili davomida qarama-qarshiliklarni aniqlovchi tanlanma ko‘rsatkichlar kiradi. Qarama-qarshiliklar quyidagi juft ko‘rsatkichlarning o‘zgarishida aniqlanishi mumkin: texnologik ehtiyojlar va mahsulot ishlab chiqarish uchun elektroenergiya iste‘moli; foyda hajmi va mahsulot ishlab chiqarish; xom ashyo iste‘moli va mahsulot ishlab chiqarish. Ichki taqqoslash tahlilidan foydalanishda bir necha muddat davomidagi korxonada faoliyati ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslanadi. Ushbu usul yashirin daromadlar va pullarni poklab olish jarayonlarini aniqlashda samaralidir. Taqqoslama tahlilning mohiyati shundaki, taqqoslanayotgan davrlar uchun foyda hajmidagi o‘zgarishlar aniqlanadi va ushbu og‘ishlarning sabablari tadqiq etiladi. Agar ushbu o‘zgarishlarni

tushuntirib beradigan ishonarli sabablar ko'rsatilmasa, bu hol xo'jalik faoliyatidagi salbiy o'zgarishlar va daromadlarni soliqqa tortishdan yashirish, deb tan olinadi. Xo'jalik faoliyatini tekshirish korxonada qanday oborotlarga erishilganligi va natijada qanday daromadlar olinganligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Nazoratdagi kalkulyatsiya daromadlarni yashirish yoki pullarni poklab olish yuz berganini isbotlaydi.

Maxsus hisob ko'rsatkichlari usuli quyidagilarga asoslangan: korxonada faoliyatini tahlil qilish jarayonida iqtisodiy jinoyat qilinganda albatta o'zgaradigan hisob ko'rsatkichi aniqlanadi. Maxsus hisob nomini olgan bu ko'rsatkich normal sharoitda faoliyat yuritayotgan korxonada uchun hisoblanadi. Amaldagi va etalon hisoblangan maxsus hisob ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqning mavjud bo'lishi jinoyat sodir etilganligining isbotidir.

Stereotiplar usuli iqtisodiy faoliyatning oddiy sharoitlarida kam uchraydigan va jinoyatchilik hodisalarini aks ettiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi g'ayrioddiy bog'liqliklarni izlash uchun mo'ljallangan. Oddatda, bu usulning 5 ko'rinishini ajratib ko'rsatishadi: "qizil bayroq" usuli, sof qiymat tahlili usuli, kassa kamomadini hisoblash usuli, pul aylanishini hisoblash usuli, xarajatlarni qoplashni hisoblash usuli.

"*Qizil bayroq*" usuli eng ko'p tarqalgan usul bo'lib, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklardan ogoh etadi. Masalan, kayting²⁵ kabi jinoyatchilikning belgisi – bu 1) bir kishi yoki kompaniyaga muntazam ravishda tez-tez chek yozib berish; 2) cheklarni bir kishining turli banklardagi hisob raqamlariga yozib berish; 3) omonatchi o'zining balansini tekshirishni so'rab tez-tez murojaat qilishi hisoblanadi.

Sof qiymat tahlili usulining mohiyati: ma'lum bir davr davomida soliq to'lovchining turmush darajasi keskin o'sib ketishi, birinchidan, soliqqa tortilishi zarur bo'lgan daromadlar evaziga, ikkinchidan, soliqqa tortilmaydigan daromadlar evaziga, uchinchidan, bir marotabalik pul daromadlari (yutuqlar, sovg'alar, meros va boshq.) evaziga amalga oshishi mumkin. Agar hisob-kitob qilinganda mol-

²⁵Kayting - inkassatsiyadan o'tmagan summaga chek berish

mulk va shaxsiy iste'mol o'sishi (qabul qilingan ustama va ajratmalarni hisobga olgan holda) soliq to'langan daromadlar hajmidan katta bo'lsa, mol-mulkning qo'shimcha o'sishi deklaratsiya qilingan daromadlar qatoriga kirmaydi va noqonuniy xususiyatga ega bo'ladi.

Kassa kamomadini hisoblash usuli. Bu tekshiruv usulidan kassa kitobida hisobga olinadigan naqd pul mablag'lari kelib tushadigan kichik va o'rta korxonalarni taftish qilayotganda foydalaniladi. Kassadagi kamomadni hisoblashning mohiyati shundaki, korxonaga egasi kassada mavjud bo'lgan puldan oshig'ini bera olmaydi. Agar ma'lum bir muddat ichida amalga oshirilgan xarajatlar kassadagi dastlabki mavjud summa va shu davr ichida kelib tushgan pul tushumlaridan ortiq bo'lsa, bu kassa kamomadi mavjudligidan dalolat beradi va korxonani taftish qilishga asos bo'ladi. Agar kassa kamomadini asoslovchi sabablar ko'rsatilmasa, daromadlar yashirilayotganligi taxmin qilinadi.

Pul aylanishini hisoblash usuli daromadlar va xarajatlar tahlili bilan bog'liq. Pul aylanishini hisoblashning 2 turi mavjud:

- ishlab chiqarish va xususiy sohaga xos umumiy pul aylanishini hisoblash;
- faqat ishlab chiqarish yoki faqat xususiy pul tushumlari va to'lovlari hisobga olinadigan pul aylanishini hisoblash.

Pul aylanishini hisoblash usuli quyidagini anglatadi – soliq to'lovchi ma'lum bir vaqt oralig'ida daromad sifatida kelib tushayotgan mablag'dan ko'proq mablag' sarflay olmaydi va to'play olmaydi.

Xarajatlarni qoplashni hisoblash usuli tekshirilayotgan shaxsda mavjud bo'lgan summa bilan naqd ko'rinishda amalga oshirilgan to'lovlarni taqqoslashga asoslangan. Bu usul pul aylanishini hisoblash usulining soddalashtirilgan ko'rinishidir. Xarajatlarni qoplashni hisoblashda soliq to'lovchining boshqa daromad manbalari ham nazarda tutiladi.


Bu usul soliq to'lovchining mol-mulki to'g'risida ma'lumot yetarli bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

To'g'irlanadigan ko'rsatkichlar usuli. Ushbu usul korxonaga iqtisodiy ko'rsatkichlarini va u faoliyat yuritayotgan tashqi muhitni

tahlil etishdan iboratdir. Misol tariqasida biror-bir korxonada tomonidan ma'lum bir tovarni sotish hajmi dinamikasini va ushbu tovar bozori kon'yunkturasi o'zgarishini tahlil qilishni keltirish mumkin. Talab pasayib borayotgan sharoitda mahsulot sotilishining hajmi sezilarli o'sishi yashirin iqtisodiy faoliyat mavjudligidan dalolat beradi.

2.2. Xufyona iqtisodiyotni o'lchashning makrousullari

Yashirin iqtisodiyotni makrodarajada o'lchash uchun bilvosita usullardan foydalaniladi. Ular ko'pincha rasmiy statistikaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga, soliq va moliya organlarining ma'lumotlariga asoslanadi. Makrousullarga quyidagilar kiradi: tafovut usuli, bandlik ko'rsatkichlari usuli ("italyancha" usul), monetar usul, texnologik koeffitsiyentlar usuli, ekspert usuli, tarkibiy usul, mayin modellashtirish (determinantlarni baholash) usuli.



2.2.1-rasm. Xufyona iqtisodiyotni o'lchashning makrousullari²⁶

²⁶ Головина Е.Б. Теневая экономика. Конспект лекций.-Челябинск,2015.-С.24. asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

Xufyona iqtisodiyot ko‘lamlarini o‘lchashning makro usullarini ko‘rib chiqamiz.

1. Tafovut usuli

Bu usul bir xil iqtisodiy ko‘rsatkichlar borasidagi ma’lumotlar va statistik hujjatlarni solishtirishga asoslangandir. Ushbu usuldan foydalanishga misol qilib turli usullar bilan hisoblangan daromadlar va xarajatlarni taqqoslash; makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni muqobil baholash; tovar oqimlari usulini ko‘rsatish mumkin.

Daromadlar va xarajatlarni taqqoslash. Ushbu usuldan xonadon xo‘jaliklarining barcha daromadlarini barcha xarajatlar bilan taqqoslash orqali foydalaniladi. Ko‘pchilik hollarda, daromadlar xarajatlardan kam bo‘lib chiqadi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni muqobil baholash. Ushbu usuldan bilvosita ma’lumotlar yordamida hisoblangan YaIM hajmini rasmiy statistika ma’lumotlari bilan solishtirish yordamida yashirin sektor hajmini aniqlashda foydalaniladi. XVJ tomonidan Xitoyda o‘tkazilgan tadqiqot ushbu usuldan foydalanishga klassik misol hisoblanadi, bunda iqtisodiyot indikatori sifatida va yashirin iqtisodiyot miqyosini aniqlash uchun elektr energiyasidan foydalanish ko‘rsatkichidan foydalanilgan edi.

Tovar oqimlari usuli. Bu usuldan statistika xizmatlari yaxshi rivojlangan ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida keng foydalaniladi. Tovar oqimlari usulining asosiy mazmuni shundaki, tovar oqimlari (ya’ni, ishlab chiqarishdan to foydlangunga qadar bo‘lgan harakat) makroko‘rsatkichlarni emas, balki alohida muhim mahsulotlar yoki tovarlar guruhini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

2. Bandlek ko‘rsatkichlari usuli (“italyancha” usul)

“Italyanacha” usul Italiya statistika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va qo‘llaniladi. Ushbu usul yashirin iqtisodiyot parametrlarini aniqlash masalalarida keng qo‘llanilmoqda.

Ushbu usulni ishlab chiqish jarayonida mutaxassislar ishlab chiqarish (ayniqsa, kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohasida) bo‘yicha aniq ma’lumotlarni to‘plash juda murakkabligini e’tiborga olishgan. Buning asosiy sababi – soliqlar to‘lash bazasini yashirish maqsadida ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini kamaytirib ko‘rsatishdir.

Kichik korxonalar faoliyatini statistik registrga kirgizish uchun ham ulardan ma'lumot olish juda murakkabdir. Shu bilan birga, Italiya iqtisodiyoti uchun sonli kichik korxonalar soni juda ko'pligi xosdir.

Italiyalik statistika mutaxassislari asosiy urg'uni ishchi kuchi sarflarini o'rganishga qaratishgan. Birlamchi ma'lumotlar maxsus tashkil etilgan xonadon xo'jaligini tadqiq etish natijasida olinadi. Xonadon xo'jaliklari tasodifiy tanlov asosida tadqiq etiladi. Tekshirish jarayonida beriladigan savollar so'rov qilinuvchilar tomonidan u yoki bu tarmoqda ishlab bergan soatlar hajmi bilan bog'liqdir. Ushbu yondashuvning yutug'i shundaki, daromadlari to'g'risida so'ralmayotgan kishilarga o'zlarining ish vaqtlari haqidagi axborotni yashirish yoki o'zgartirib ko'rsatishga ehtiyoj bo'lmaydi. So'ngra ushbu axborotlar umumlashtiriladi va ishlab berilgan o'rtacha inson-kun o'lchoviga o'tkaziladi. Tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish me'yorlarini belgilash uchun ham shunday tekshirishlar o'tkaziladi.

Ushbu usulning quyidagi turlari mavjud: 1) amaldagi va rasmiy ro'yxatdan o'tkazilgan bandlik darajasi o'rtasidagi farq asosida; 2) hafta davomida amalda ishlab berilgan ish vaqti va rasmiy qayd etilgan ish vaqti o'rtasidagi farq asosida.

3. Monetar usul

Ushbu usul yashirin iqtisodiyotning muhim bir jihatiga asoslanadi: agar qonuniy iqtisodiyotda anchadan beri deyarli barcha hisob-kitoblar naqdsiz pul yordamida amalga oshirilsa, yashirin iqtisodiyotda bitim tuzishda naqd pullardan foydalaniladi.

Ushbu g'oyadan konkret foydalanishning ko'pgina variantlari mavjud. Bular – pul operatsiyalari hajmi tahlili, naqd pulga bo'lgan talab tahlili, hamda ekonometrik usullar.

Pul massasi hajmini kuzatish orqali yashirin iqtisodiyotning hajmi va dinamikasiga baho berish mumkin. Har bir mamlakatda pul massasi markaziy bank tomonidan emissiyalanadi va uning hajmi ma'lumdir.

Ammo ushbu mezonni tanlash doimo ham to'g'ri emas, chunki foydalanilayotgan ko'rsatkichlar ko'pgina jarayonlarga bog'liqdir (masalan, inflyatsiyaga). Bir tomondan pul massasini va taqdim etuvchi veksellari hajmini, ikkinchi tomondan yalpi ichki mahsulotning o'sishi sur'atlarini taqqoslash ishonchliroqdir.

Monetar usulga asoslangan yashirin iqtisodiyotni baholashning yanada murakkabroq usullari mavjud. Bunda qo‘shimcha ravishda daromadlar, soliqlar, foiz stavkalari o‘zgarishi natijasida, hamda yashirin iqtisodiyotning faoliyati natijasida naqd pul mablag‘larining ulushi tebranib turadi deb taxmin qilish kerak. Hisobga olinmagan omillarni baholash yashirin iqtisodiyot miqyosini aniqlash imkonini beradi.

Norasmiy sektorda to‘lovlar nafaqat naqd pul bilan, balki boshqa usullar bilan ham amalga oshiriladi. Masalan, barter, ya‘ni ayirboshlashda to‘lov vositasi sifatida taqdim etuvchining qimmatli qog‘ozlaridan foydalanish odatiy holdir.

Ikkala sektorda pul aylanishi tezligi bir xilligini aniqlash murakkabdir. U norasmiy sektorda samaraliroq bo‘lishi mumkin. Norasmiy sektorda tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchidan to‘g‘ri iste‘molchiga kelib tushadi, va buning uchun kamroq pul va vaqt kerak bo‘ladi. Rasmiy sektorda esa tovarlar ko‘p sonli vositachilar qo‘lidan o‘tib boradi.

4. Ekspert usuli

Ekspert baholashlardan foydalanish murakkab va kam o‘rganilgan yashirin iqtisodiyotni o‘rganishning zarur shart-sharoiti hisoblanadi.

Ushbu usulning mazmuni quyidagicha. Ekspert birinchi navbatda biron-bir tarmoq bo‘yicha ma‘lumotlarga qay darajada ishonish mumkinligini aniqlaydi. Oddiy manbalardan ma‘lumotlar to‘plangandan so‘ng ularni avtomatik tarzda ma‘lum darajagacha hisoblab chiqishadi. Ekspertlar tomonidan ekspert bahosi usuli ishlab chiqiladi.

Ushbu usulni qo‘llashni muammosi shuki, malakali ekspertni topish qiyin.

5. Texnologik koeffitsiyentlar usuli elektr quvvati ishlab chiqarish va iste‘mol qilish, transportda yuk tashish va boshqa bilvosita yengil hisoblanadigan ko‘rsatkichlarni rasmiy ma‘lumotlar bilan taqqoslash yordamida sanoat ishlab chiqarish dinamikasini taxminiy aniqlashni ifodalaydi. Bu usuldan foydalanish shart-sharoitlari bo‘lib yuqori darajada rivojlangan bozor munosabatlari, elektr quvvati va yuk tashishning adekvat narxlari hisoblanadi. Agar narxlar tartibga

solinadigan bo‘lib, elektr quvvatining real qiymatini aks ettirmasa yoki imtiyozlar mavjudligi sababli elektr quvvatini iste‘mol qilish uchun uzoq vaqt pul to‘lanmasa, elektr quvvatini iste‘mol qilish dinamikasi sanoat ishlab chiqarishi dinamikasidan katta farq qilishi mumkin.

6. *Mayin modellashtirish (determinantlarni baholash) usuli* yashirin iqtisodiyotni aniqlovchi omillar yig‘indisi bilan bog‘liq va uning hajmini o‘lchashga yo‘naltirilgandir.

7. *Tarkibiy usul* ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida yashirin iqtisodiyotning hajmi to‘g‘risida ma‘lumotni qo‘llay olishga asoslangandir.

Bir qator rivojlangan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotning ko‘lami to‘g‘risida yuqorida ko‘rib o‘tilgan usullar yordamida olingan ma‘lumotlar bir-biriga zid bo‘lib, yalpi milliy mahsulot (YaMM)ga nisbatan 1 foizdan 33 foizgacha bo‘lgan oraliqda tebranib turadi.

Hisob-kitoblar ko‘satmoqdaki, bevosita (to‘g‘ri) usullar ishonchli, lekin eng pasaytirilgan natijalarni beradi. Ularning asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat: ma‘lumotlarni yig‘ish murakkabligi va so‘rov natijasida olingan ma‘lumotlarni ataylab buzib ko‘rsatish.

Jahon amaliyotida qo‘llaniladigan usullarning turli-tumanligi yashirin iqtisodiyot tarkibi hajmining miqdorini va natijalar to‘g‘riligi mezonini baholashning yagona uslubiyati yo‘qligidan dalolat beradi. Har bir mamlakatning o‘ziga xosligi, statistik materiallarda kamchiliklarning mavjudligi har bir muayyan hodisada ushbu hodisaga mos bo‘lgan usul yoki bir qancha usullar kombinatsiyasidan iborat bo‘lgan usullarni tanlashga asoslanadi. Har xil usullarni birgalikda qo‘llash yashirin iqtisodiyotni ob‘ektiv baholashning yo‘nalishlaridan sanaladi.

2.3. Xufyona iqtisodiyot miqyoslari

Xufyona iqtisodiyotning miqyosi ko‘pincha iqtisodiy tizim turiga bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlik bir xil xarakterga ega emas²⁷. Shu narsa

²⁷Jahonning turli mamlakatlarida yashirin iqtisodiyotning miqyoslari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan quyidagi adabiyotlarda tanishib chiqish mumkin: Шнайдер Ф. Черная дыра // Эксперт. 2000. № 12.; Шнайдер Ф., Энсте Д. Рост теневой экономики во всем мире // Экономическая теория преступлений и наказаний.;

ayonki, to‘liq davlatlashtirilgan (davlat tasarrufiga o‘tgan) va mutlaq davlat tasarrufidan chiqarilgan iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot bo‘lmaydi: birinchi holatda davlat har qanday yashirin faoliyatni taqiqlaydi, ikkinchi holatda esa hech qanday nazorat bo‘lmaydi va “soyada yashirinish”ga ehtiyoj ham qolmaydi. Xufyona faoliyat markazlashtirilgan va demarkazlashtirilgan xo‘jaliklar orasidagi “chegara hududlari”da kengayib boradi: bir tomondan, kuchsizlanib borayotgan markazdan boshqariladigan iqtisodiyotda nazorat qilish imkoniyatlari kamayib boradi; ikkinchi tomondan, davlatlashtirilayotgan bozor xo‘jaligida doimo ham samarali bo‘lmagan nazorat choralari ko‘payib boradi.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha (2.3.1-jadval), rivojlangan mamlakatlar orasida yashirin iqtisodiyot G‘arbiy Yevropaning ba’zi mamlakatlarida eng katta, AQShda nisbatan o‘rta, Yaponiya, Shveysariya kabi mamlakatlarda minimal hajmga ega. Ushbu farqni Yevropaning ko‘pchilik mamlakatlaridagi aralash iqtisodiyotning yuqori darajada “davlatlashtirilganligi”, amerikacha individualizmning salbiy sarf-xarajatlari va Yaponiyadagi “jamiyat rizoligi” muhiti bilan tushuntiriladi. Yaponiyada hatto gangsterlar ham narkobiznes, reket va fohishabozlikdan olgan daromadlaridan soliq to‘lashadi.

Jahonda har yili yashirin sektorda kamida 8 trln. AQSh dollari miqdorida qo‘shilgan qiymat yaratiladi, bular korxonalarining buxgalteriya hisobotlarida va alohida mamlakatlar, hamda xalqaro tashkilotlar rasmiy statistikasida o‘z aksini topmaydi. Shunday qilib, ko‘lam jihatidan global yashirin iqtisodiyotni dunyodagi eng katta YaIMga ega bo‘lgan AQSh iqtisodiyoti bilan taqqoslash mumkin.

1990- yillarning ikkinchi yarmida yashirin iqtisodiyot rivojlangan mamlakatlarda YaIMning o‘rtacha 12 foiziga, o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida – 23 foiziga, rivojlanayotgan mamlakatlarda – 39 foiziga teng edi.

Bozor munosabatlari taraqqiy etgan mamlakatlarda yashirin sektorning miqyoslari doimo o‘sib bormoqda. 1998 yilda yashirin sektor eng katta ulushga ega bo‘lgan mamlakat Gretsiya (rasmiy YaIMning 29.0 foizi) hisoblangan edi. Eng katta yashirin sektorga ega mamlakatlar qatoriga Italiya (27.8%), Ispaniya (23.4%) va Belgiya

(23.4%) ham kiradi. O‘rtacha ko‘rsatkichlarga Irlandiya, Kanada, Fransiya va Germaniya (14,9 dan 16,3 foizgacha) kabi mamlakatlar egadir. Yashirin sektorning miqyosi eng kam mamlakatlar – Avstriya (9,1%), AQSh (8,9%) va Shveysariyada (8,0%). Shunday qilib, nisbatan farovon mamlakatlarda ham yashirin iqtisodiyotning mutlaq hajmi katta ko‘rsatkichlarga ega: AQSh – 700 mlrd. AQSh doll., Italiya – 310 mlrd. AQSh doll., Buyuk Britaniya – 190 mlrd. AQSh doll.

2.3.1-jadval

Ba’zi rivojlangan mamlakatlarda 1990- yillarning boshlarida xufyona iqtisodiyotning miqyosini baholash, YaIMga nisbatan foizda²⁸

Rivojlangan mamlakatlar	xufyona iqtisodiyot miqyosi			
	Pulga bo‘lgan talab bo‘yicha baholash (S. Djonson)	Pulga bo‘lgan talab bo‘yicha baholash (F. Shnayder)		Elektr quvvatini sarflash bo‘yicha baholash
Italiya	20,4	24,0	22,8	19,6
Ispaniya	16,1	17,3	16,1	23,9
Portugaliya	15,6	-	-	16,8
AQSh	13,9	8,2	6,7	10,5
Niderlandiya	11,8	12,7	11,9	13,5
Shvetsiya	10,6	17,0	15,8	10,8
Germaniya	10,5	12,5	11,8	15,2
Fransiya	10,4	13,8	9,0	12,5
Yaponiya	8,5	-	-	13,7
Buyuk Britaniya	7,2	11,2	9,6	13,6
Shveysariya	6,9	6,9	6,7	10,2

1980-1990 yillarda yashirin sektorning miqyosi jadal o‘shishi Gretsiya, Italiya, Shvetsiya, Norvegiya va Germaniyada kuzatilgan. Masalan, Germaniyada yashirin iqtisodiyotning hajmi 1975 yildan 1997 yilgacha 5 marotaba o‘sdi – 60 mlrd. AQSh dollaridan 300 mlrd. AQSh dollarigacha. Germaniyada norasmiy sektor rasmiy YaIMdan tezroq yiliga 8 foiz sur‘at bilan o‘sib bordi.

²⁸ Schnaider F., Enste D. Increasing Shadow Economies All Over the World – Fiction or Reality? A Survey of the Global Evidence of their Size and of their Impact from 1970 to 1995. (<http://www.economics.uni-linz.ac.at/Members/Schneider/EnstSchn98.html>)

Sobiq sotsialistik mamlakatlarda turli tadqiqotlar natijalariga ko'ra 1990-yillarning birinchi yarmida Gruziyada (YaIMning 43-51%), Ozarbayjonda (34-41%) va Rossiyada (27-46%) yashirin sektor eng katta ulushga ega bo'lgan. Sobiq ittifoq mamlakatlariga xos xususiyat shu bo'ldiki, xufyona iqtisodiyotning miqyosi 1990 yildan 1995 yilgacha o'rtacha 26 dan 35 foizgacha o'sdi. Sobiq ittifoq makonidagi ko'pgina kompaniyalar (hatto yirik, davlat kapitali qatnashgan kompaniyalar) rasmiy iqtisodiyotdagi qonuniy faoliyat bilan bir qatorda yashirin operatsiyalarni ham amalga oshirishadi. O'tish davrida esa bu mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot miqyosi yanada oshib ketgan (2.3.2-jadval).

2.3.2-jadval

Sobiq sotsialistik mamlakatlarida xufyona iqtisodiyot miqyosi, YaIMga nisbatan foizda²⁹

Mamlakatlar	D.Kaufmann - A.Kaliberdilar uslubiyati bo'yicha			M. Lasko uslubiyati bo'yicha		
	1989	1992	1995	1989	1992	1995
Ozarbayjon	12,0	39,2	60,6	ma'lu mot yo'q	43,9	52,8
Belarus	12,0	13,2	19,3	ma'lu mot yo'q	33,7	46,4
Bolgariya	22,8	25,0	36,2	»	ma'lu mot yo'q	ma'lu mot yo'q
Chexiya	6,0	16,9	11,3	»	»	»
Estoniya	12,0	25,4	11,8	16,9	37,4	35,8
Gruziya	12,0	52,3	62,6	ma'lu mot yo'q	58,0	57,0
Vengriya	27,0	30,6	29,0	»	ma'lu mot	ma'lu mot

²⁹ Quyidagilar yordamida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan: Johnson S., Kaufmann D., Shleifer A. Politics and Entrepreneurships in Transition Economies // The William Davids – on Institute, University of Michigan. Working Paper Series.No.57; Lasko M. Hidden Economy – an Unknown Quantity? Comparative Analysis of Hidden Economy in Transition Countries, 1989-1995 // Economics of Transition. 2000. Vol.8. No.1. P. 135.

					yo‘q	yo‘q
Qozog‘iston	12,0	24,9	34,3	12,0	33,8	37,9
Latviya	12,0	34,3	35,3	17,3	41,7	43,7
Litva	12,0	39,2	21,6	17,6	47,4	46,0
Moldova	12,0	37,3	35,7	ma‘lu mot yo‘q	ma‘lu mot yo‘q	ma‘lu mot yo‘q
Polsha	15,7	19,7	12,6	»	»	»
Ruminiya	22,3	18,0	19,1	»	»	»
Rossiya	12,0	32,8	41,6	»	37,8	39,2
Slovakiya	6,0	17,6	5,8	»	ma‘lu mot yo‘q	ma‘lu mot yo‘q
Ukraina	12,0	33,6	48,9	»	37,4	52,8

Sharqiy Yevropada xufyona iqtisodiyot Bolqon mamlakatlarida - Makedoniya, Xorvatiya va Bolgariyada (YaIMga nisbatan taxminan 40 foiz) keng rivoj topdi. Albaniyada iqtisodiyot deyarli to‘liq yashirin sohada faoliyat yuritadi³⁰.

Sovet ittifoqida xufyona iqtisodiyotning o‘sishi XX asrning 70-yillaridan boshlab namoyon bo‘la boshladi. Agar 1970-yillarning boshida sovet yashirin sektori YaIMga nisbatan 3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1980-yillarning oxiriga kelib uning hajmi 10-15 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiyotning xufyona sektori rivojlanayotgan va o‘tish davrini o‘z boshidan kechirayotgan sobiq sotsialistik mamlakatlarda eng katta miqyosga ega bo‘ldi. Xufyona iqtisodiyot darajasi Ozarbayjon, Nigeriya, Ukraina, Rossiya, Shri-Lanka, Braziliya kabi mamlakatlarda eng yuqoridir (2.3.3-jadval).

³⁰Albaniya iqtisodiyotining to‘liq “yashirinlashgan”ini yaqqol misoli bo‘lib avtomobil bozoridagi holat hisoblanadi. Albaniyada, fuqaroning o‘rtacha yillik daromadi 70 dollarni tashkil etadi, 1990-yillarning oxiriga kelib rasmiy statistika bo‘yicha 3,2 mln. aholiga 500 mingta avtomobil to‘g‘ri kelar edi (ularning 60% - qimmatbaho “Mercedes”lar edi). Ko‘pgina avtomobillar yashirin daromadlarga sotib olinmagan edi, balki G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridan o‘g‘irlab kelingan edi.

2.3.3-jadval

Xufyona iqtisodiyot miqyosi yuqori bo'lgan mamlakatlar (2017 yil, YaIMga nisbatan %da)³¹

Mamlakatlar	Xufyona iqtisodiyot ko'lami YaIMga nisbatan %
Ozarbayjon	67
Nigeriya	48
Ukraina	46
Rossiya	39
Shri-Lanka	38
Braziliya	35
Pokiston	32
Bolgariya	30
Estoniya	28
Keniya	27

Aytish lozimki, Rossiya Federatsiyasi statistika organlari tomonidan milliy hisob-kitoblarga ko'ra, mamlakatda keyingi yillarda xufyona iqtisodiyot darajasi pasayib bormoqda. Chunonchi, xufyona iqtisodiyot miqdori YaIMga nisbatan 2015 yildagi 28,1%dan 2018 yilda 20%gacha pasaydi, Norasmiy ish bilan bandlarning ularning umumiy sonigva nisbatan ulushi 2015-2017 yillarda 20,5%dan 18,7%gacha kamaydi. Xufyona ish haqining umumiy ish haqi va YaIMdagi ulushi ham bir muncha kattadir (qarang:2.3.4-jadval).

³¹Xalqaro diplomli va sertifikatli buxgalterlar assitsiatsiyasi (ACCA) tomonidan tuzilgan.// ACCA ma'lumotlari (PБК 2017)

2.3.4-jadval

Rossiya Federatsiyasida xufyona iqtisodiyot miqyosi ko'rsatkichlari dinamikasi³²

Ko'rsatkichlar	2015y	2016y	2017y	2018y
Yalpi ichki mahsulot, trln rub	83,1	86	92	103,6
Xufyona iqtisodiyot miqdori, trln rub	23,4	24,3	18,9	20,7
Xufyona iqtisodiyot miqdorining YaIMga nisbati, %da	28,1	28,3	20,5	20
Noramiy ish bilan bandlik, mln kishi	14,8	15,4	13,4	
Norasmiy ish bilan bandlarning umumiy bandlar sonidagi ulushi, %	20,5	21,2	18,7	M.y.
Xufyona ish haqining umumiy ish haqi miqdoridagi ulushi, %	25,4	23,3	M.y	M.y
Xufyona ish haqining YaIM dagi ulushi, %	11,6	12	M.y	M.y

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 2015 yil boshida xufyona iqtisodiyot miqyosini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, ularda rivojlangan mamlakatlar hisoblangan Angliya, Avstriya, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlarda bu ko'rsatkich ushbu ittifoqqa kirgan sobiq sotsialistik respublikalar bo'lgan Sharqiy Yevropa va Boltiqbo'yi respublikalaridagiga qaraganda ancha past darajadadir (qaraang: 2.3.5-jadval).

³² Росфинмониторинг, Росстат (РБК, 2019) ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi

2.3.5-jadval.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida xufyona iqtisodiyot ko‘lami³³ (2015 yil boshida, YaIMga nisbatan %da)

Mamlakatlar	Xufyona iqtisodiyot ko‘lami, YaIMga nisbatan %da
Bolgariya	30,6
Ruminiya	28
Estoniya	26,2
Litva	25,8
Sloveniya	23,3
Polsha	23,3
Gretsiya	22,4
Vengriya	21,9
Italiya	20,6
Ispaniya	18,2
Chexiya	15,1
Fransiya	12,3
Germaniya	12,2
Angliya	9,4
Avstriya	8,2

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ayrim rivojlangan mamlakatlarda ham xufyona iqtisodiyot ko‘lamlari ham o‘sib bormoqda. Masalan, Italiyada 1970 yilda uning YaIMga nisbatan ulushi 10,7%ni tashkil etgan bo‘lsa, 1997 yilda 27,3%ni, 2011 yilda esa 26,24%ni, 2017 yilda 26,5%ni tashkil etgan. 2025 yilga biroz bu ko‘rsatkich pasayib, 26,37%ni tashkil etishi bashorat qilinmoqda. Bunday tendensiya quyidagi jadvalda keltirilgan ko‘plab mamlakatlarda kuzatiladi. Global miqyosda va ko‘plab rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda 2025 yilga borib, xufyona iqtisodiyot miqyoslari pasayib borishi bashorat qilinmoqda (qarang: 2.3.6-jadval).

³³ Xalqaro diplomli va sertifikatli buxgalterlar assitsiatsiyasi (ACCA) tomonidan tuzilgan.// ACCA ma’lumotlari (PБК 2017).

2.3.6-jadval.

Jahonning ayrim mamlakatlaridagi xufyona iqtisodiyot darajalarining o'zgarishi tendansiyalari (2011-2025 yillar, YaIMga nisbatan %da)³⁴

Mamlakatlar	2011	2016	2017	2020	2025	2011-2025yy o'rtacha
Global	23,1	22,66	22,5	22,11	21,39	22,35
Avstraliya	12,82	11,4	11,09	10,24	8,89	10,85
Ozarbayjon	47	67,04	66,12	56,73	58,38	58,05
Braziliya	35,57	34,76	34,75	34,48	34,2	34,69
Bolgariya	30,28	29,93	29,85	29,56	29,56	30,06
Kanada	14,82	14,4	14,15	13,95	13,8	14,3
Xitoy	10,53	10,15	10,17	10,05	9,9	10,12
Estoniya	27,78	28,48	28,4	28,09	26,46	27,83
Gonkong	14,39	14,2	14,14	13,88	13,65	14,05
Hindiston	18,62	17,22	16,55	15,7	13,6	16,35
Indoneziya	17,34	16,53	16,49	16,24	16,7	16,51
Irlandiya	14,74	14,17	13,59	13,57	12,78	13,84
Italiya	26,24	26,32	26,5	26,56	26,37	26,37
Yaponiya	10,22	10,08	9,89	9,42	7,86	9,5
Keniya	27,88	26,82	26,79	26,6	26,72	26,89
Latviya	25,45	24,57	24,17	23,21	20,79	23,61
Litva	27,87	26,27	26,01	25,54	25,79	26,23
Malayziya	28,83	23,24	22,9	21,9	21	23,6
Nigeriya	50,73	48,37	47,7	46,99	46,11	47,93
Pokiston	32,5	31,78	31,99	32,41	33,89	32,46
Polsha	24,59	23,68	23,42	22,95	22,13	23,33
Rossiya	39,33	39,07	39,29	39,37	39,3	39,19
Singapur	11,57	12,54	12,88	13,36	14,06	12,86
Janubiy Afrika Respublikasi	23,48	23,29	23,33	23,71	24,19	23,59
Shri Lanka	39,5	37,76	37,33	36,46	34,85	37,13
Turkiya	27,43	25,72	24,95	23,85	21,55	24,7

³⁴ Xalqaro diplomli va sertifikatli buxgalterlar assitsiatsiyasi (ACCA) tomonidan tuzilgan.// ACCA ma'lumotlari (PBK 2017)

Ukraina	45,16	45,96	46,12	46,1	45,98	45,84
Buyuk Britaniya (Qo'shma qirollik)	11,83	11,47	11,29	11,19	10,83	11,33
AQSh	8,2	7,78	7,69	7,42	6,94	7,59

Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Malayziya, Turkiya, Hindiston, Avstraliya, Yaponiya, va AQSh mamlakatlarida xufyona iqtisodiyot miqyoslari keskin kamayishi kutilmoqda. Shu bilan birga Singapur, Ukraina, Pokiston, Janubiy Afrika Respublikasi kabi mamlakatlarda bu ko'rsatkichning birmuncha o'sishi bashorat qilinmoqda. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra 2019 yilda xufyona iqtisodiyotning jahon miqyosidagi o'rtacha darajasi YaIMga nisbatan 17,2%ni tashkil etadi. Ammo bu ko'rsatkich turli mamlakatlarda bir-birlaridan farqlanadi. Masalan, eng past ko'rsatkich Shveysariyada bo'lib, 8,6%ni, eng yuqori ko'rsatkich Boliviya qayd etilgan bo'lib, 66,4%ni tashkil etgan. O'zbekistonning eng yaqin savdo hamkorlari bo'lgan Xitoyda -12,9% ni, Rossiyada 43,6%ni tashkil etgan³⁵.

Shunday qilib, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida xufyona sektor qiymat parametrlari bo'yicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar orasidagi o'rtacha holatni egallab turibdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, deyarli barcha mamlakatlarda yashirin iqtisodiy faoliyatning asosiy hajmi "ikkinchi" va "kul rang" xufyona iqtisodiyotga to'g'ri keladi. Uyushgan jinoyatchilik guruhlarining daromadlari yashirin daromadlarning umumiy hajmida kichik ulushga ega.

2.4.O'zbekiston Respublikasida xufyona iqtisodiyot ko'lami.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligida 2019 yil 17 sentyabrda "O'zbekistonda xufyona iqtisodiyot: baholash, sabablari va uni qisqartirish yo'llari" mavzusida o'tkazilgan davra suhbatida O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotning YaIMga nisbatan ulushi 40-50%ni tashkil etishi bayon qilindi.

³⁵ Специалисты выявили основные причины существования теневой экономики Узбекистана // <https://www.spot.uz/ru/2019/09/18/shadow/>

BMT Taraqqiyot dasturi konsultantlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari ham ushbu davra suhbatida e'lon qilindi. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyot miqyosini monetar usullar asosida, shuningdek, respublika hududlarida 700 dan ortiq korxonalar va 30 nafar tadbirkor o'rtasida so'rovlar o'tkazish yo'li bilan baholangan. Xufyona iqtisodiyotning asosiy sabablari soliq turlarining, yig'imlar, majburiy ajratmalar sonining va ular miqdorining ko'pligi ekanligi ta'kidlandi. Ushbu sabablarga korxonalarda yetarli miqdorda mablag'larning yo'qligi, banklar bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni va to'lovlarni amalga oshirishdagi, xizmat ko'rsatish sifati, kredit stavkalarining yuqoriligi bilan bog'liq muammolar ham kiradi. Noiqtisodiy tavsifdagi sabablarga tadbirkorlarning bilim va tajribalarining, raqobat, ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli emasligi, biznesni tashkil etish va yuritishdagi ma'muriy to'siqlarning mavjudligi, korrupsiya va mulk huquqining himoya qilinmaganligi kiradi³⁶.

BMT taraqqiyot dasturi loyihasi doirasida monetar yondashuv asosida amalga oshirilgan hisob-kitob natijalariga ko'ra, O'zbekistonda "xufyona iqtisodiyot" salmog'i 46,4 foizni tashkil etadi³⁷.

Ayrim ekspertlarning fikricha, O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning YaIMdagi hajmi 50 foiz atrofida. Agarda raqamlarga murojaat etadigan bo'lsak, 2019 yilda respublikamizda Davlat budjeti daromadlar qismi 102,6 trln so'mni tashkil qilmoqda. Yalpi ichki mahsulot qiymati 424 trln so'm qilib belgilandi. Shunda ekspertlar fikriga ko'ra, yashirin iqtisodiyotning 50 foiz ulushi 212 trln.so'mni tashkil etmoqda. Ushbu summadan yashirin iqtisodiyotning optimal hajmi 15% ($424 * 15\% = 64$)ni chiqarib tashlanganda, 148 trln so'm ($212 - 64$) mablag' iqtisodiyotdan tashqarida aylanayotgani ma'lum bo'ladi. Agarda biz ushbu mablag'ning belgilangan tartibda qonuniy aylanmasiga erisha olsak, Davlat budjetiga soliqlar to'lanishi

³⁶ Специалисты выявили основные причины существования теневой экономики Узбекистана // <https://www.spot.uz/ru/2019/09/18/shadow/>

³⁷ Одилжон Иминов. "Яширин иқтисодиёт"нинг яширинмаган сирлари // <http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/67316-yashirin-iqtisodiyotning-yashirinmagan-sirlari>

natijasida qo‘shimcha o‘rtacha 15-20 trln.so‘m (2,3 mlrd AQSh dollariga teng) mablag‘ tushirilishi mumkin. Bugungi kunda bitta umumta‘lim maktabini yangitdan qurish uchun o‘rtacha 5 mlrd so‘m mablag‘ sarflanadi. Demak, bir yillik yashirin iqtisodiyot keltirayotgan zararga teng mablag‘ni 4 mingga yaqin umumta‘lim maktablari qurish yoki aholi turmush sharoitlarini yanada yaxshilash uchun yo‘naltirish imkoni paydo bo‘ladi³⁸.

O‘zbekistonda valyuta qora bozorini yo‘q qilish uchun noqonuniy valyuta qora bozorlarini qonuniylashtirgan holda belgilangan intervallar doirasida bozor narxlarida savdo qiluvchi valyuta ayirboshlash shahobchalarini tashkil qilish darkor. Naqd xorijiy valyutani bemaolol rasmiy soliq to‘lab faoliyat yuritadigan xususiy shahobchalarda almashtirish imkonini berish kerak. Shundan so‘ng yashirin savdo qilayotgan valyuta sotuvchilarni qattiq jazolash lozim.

Davlat tomonidan naqd pulsiz savdo qilayotgan tadbirkorlarga imtiyoz preferensiyalar berish orqali qo‘llab-quvvatlash mamlakatimiz iqtisodiyoti barqarorligini yanada ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, rivojlangan davlatlarda bugungi kunga kelib naqd pul muomalasi maksimal darajada qisqartirilgan, barcha pul aylanishi bank orqali amalga oshirilishi davlat iqtisodiyotining rivojlanishiga olib kelishi hech kimga sir emas.

«O‘zbekozikovkatxolding» xolding kompaniyasi raisi Tohirjon Jalilov O‘zbekiston meva-sabzavot mahsulotlari xufiya bozori hajmini 6,8 milliard dollarga baholadi. Kompaniya ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019 yilning birinchi yarmi yakunlari bo‘yicha xolding korxonalarida umumiy ishlab chiqarish hajmi 18,2 trln so‘mni tashkil etdi. Kutilishicha, yillik hajm taxminan 38 trln so‘mga teng bo‘ladi. «Bu juda kam. O‘ylaymanki, bizda 90-100 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqariladi. Kompaniyalar past ko‘rsatkichlar qayd etilgan hisobotlarni taqdim etadi. Korxonalar esa kuniga 24 soat ishlayapti. Qolgan mahsulotlar qayerga ketyapti? Bozorga chiqarilmoqda,

³⁸ Мақсуд Курбонбоев. Депутат фикри: Яширин иқтисодиётнинг келиб чиқиш сабаблари, жамиятга таъсири ва бартараф этиш йўллари.// <https://kun.uz/news/2019/05/04/deputat-fikri-yashirin-iqtisodiyotning-kelib-chiqish-sabablari-jamiyatga-tasiri-va-bartaraf-etish-yollari>

masalan, «O‘rikzor»ga, naqd pulga. Albatta, bularning barchasi hech qayerda hisobga olinmaydi»³⁹, - dedi Tohirjon Jalilov.

Xolding rahbarining ta’kidlashicha, kompaniya xufiya iqtisodiyotga qarshi kurashni tadbirkorlar yo‘lidagi to‘siqlarni olib tashlash orqali amalga oshirmoqchi⁴⁰.

O‘zbekistonda xufiyona iqtisodiyot ko‘lamining kattaligini norasmiy iqtisodiyot sektorida band bo‘lgan kishilar sonining kattaligi ham ko‘rsatib turibdi. 2020 yil 18 fevral kuni Toshkentda «O‘zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat qurilishining yangi bosqichi, mamlakatni demokratik modernizatsiyalashda parlament va hokimlik vakillik organlarining rolini oshirish» mavzusida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining o‘rinbosari B.X.Umrzoqov «[2020 yil 1 yanvar holatiga] band bo‘lgan aholi soni 13 million 541 ming nafar kishini tashkil etadi. Shundan 5 million 7 yuz ming kishi rasmiy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanadi. 8 millionga yaqini esa norasmiy. Ya’ni bu toifadagi insonlar har kuni norasmiy ishlab, cho‘ntagini pulga to‘ldirib uyga borishadi. Bolalari, maktab, bog‘chalar va hokazolarga berishadi. Lekin davlatga bular bir tiyin ham soliq to‘lamaydi, to‘lovlarni qilmaydi. Ya’ni davlatimizning qudratiga, quvvatiga hissa qo‘shmaydigan 8 million aholimiz bor»⁴¹, – deb ma’lumot berdi. U prezident murojaatnomasida ayni shu toifadagi insonlarni rasmiy sektorga o‘tkazish masalasi qo‘yilganini ta’kidladi.

B.X.Umrzoqovning so‘zlariga ko‘ra, bu boradagi ishlar 2019 yilning aprel oyida boshlangan. Har bir norasmiy fuqaro ishlayotgan korxonaga, muassasaga, tashkilotlarga ogohlantirish berilgan. 2019 yil 1 sentyabriga qadar ana shu toifadagi insonlarni rasmiylashtirish, rasmiy jihatdan to‘lovlarni belgilash masalasi qo‘yilgan. 2019 yili

³⁹ Ўзбекистон мева-сабзавот маҳсулотлари яширин бозорининг ҳажми маълум қилинди//<https://kun.uz/news/2019/08/13/ozbekiston-meva-sabzavot-mahsulotlari-yashirin-bozorining-hajmi-malum-qilindi>.

⁴⁰ O‘sha yerda.

⁴¹ Вазир ўринбосари: «Ўзбекистонда 8 миллионга яқин киши бир тийин ҳам солиқ тўламайди»//<https://kun.uz/news/2020/02/18/vazir-orinbosari-ozbekistonda-8-millionga-yaqin-kishi-bir-tiyin-ham-soliq-tolamaydi>

qisqa muddatda 480 ming kishini norasmiydan rasmiyga o'tkazildi. Norasmiy band bo'lgan aholini rasmiy bandga o'tkazish tezlik bilan hal bo'ladigan masala emas. Buni 3-4 yilda, ko'rsatkichlarni asta-sekin oshirgan holda amalga oshirish mumkin. Shu boisdan 2020 yilda taxminan 550 ming, keyingi 2021 yili 1 millionga yaqin kishini [rasmiy sektorga] o'tkazish tadbirlarini belgilab qo'yilgan⁴². Bundan ko'rinib turibdiki, norasmiy sektorda ish bilan band bo'lgan kishilarni rasmiy sektorga o'tkazish chora-tadbirlarini amalga oshirish asosida xufyona iqtisodiyot ko'lamini kamaytirishga erishiladi. Xufyona iqtisodiyot ko'lamlarining kattaligi unga qarshi kurash masalalarining naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Nazorat savollari:

1. Xufyona iqtisodiyot miqyosini o'lchash nima uchun kerak?
2. Xufyona iqtisodiyot miqyosini o'lchash usullari qanday guruhlardan iborat?
3. Xufyona iqtisodiyotni o'lchashning mikrousullarini tushuntirib bering.
4. Xufyona iqtisodiyotni o'lchashning mikrousullariga qanday usullar kiradi?
5. Xufyona iqtisodiyotni o'lchashning makrousullarini tushuntirib bering?
6. Xufyona iqtisodiyotni o'lchashning makrousullariga qanday usullar kiradi?
7. Xufyona iqtisodiyotni baholashning turli usullarini taqqoslang.
8. Xufyona iqtisodiyot miqyoslarini ko'rsatib bering.
9. Nima uchun rivojlangan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot miqyoslari rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga qaraganda kamroq?
10. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyot miqyoslari to'g'risida qanday ma'lumotlarga egasiz?

⁴² Вазир ўринбосари: «Ўзбекистонда 8 миллионга яқин киши бир тийин ҳам солиқ тўламайди»//<https://kun.uz/news/2020/02/18/vazir-orinbosari-ozbekistonda-8-millionga-yaqin-kishi-bir-tyin-ham-soliq-tolamaydi>

III BOB. IQTISODIY TIZIMLAR TARAQQIYOTIDA XUFYONA IQTISODIYOTNING O‘RNI

3.1. Xufyona iqtisodiyot jahon iqtisodiy tarixining elementi

3.2. Xufyona iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiruvchi omil sifatida

3.3. Xufyona iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotni sekinlashtiruvchi omil sifatida

3.1. Xufyona iqtisodiyot jahon iqtisodiy tarixining elementi

O‘z fuqarolariga ma‘lum bir majburiyatlar yuklovchi va cheklovlar o‘rnatuvchi davlat paydo bo‘lishi bilan “ijtimoiy kelishuv”ni pisand qilmaydigan shaxslarning davlatdan tashqari faoliyati – yashirin iqtisodiyot vujudga keladi.

Industriyalashtirishgacha bo‘lgan rivojlanish sharoitida – osiyocha ishlab chiqarish usuli hukmron jamiyatlarda – yashirin iqtisodiy faoliyatning har uchchala turi uchraydi. “Suvda suzib yurgan baliq uni ichmoqdami yoki yo‘qmi, aniqlash qanchalik qiyin bo‘lsa, amaldorning davlat mulkini o‘zlashtirayotganini aniqlash ham shunchalik qiyindir”⁴³. Bunday fikrlar uzoq zamonlar Misrdan Xitoygacha bo‘lgan kenglikda keng tarqalgan edi. Davlat boshqaruvi ilmi to‘g‘risidagi Sharq traktatlarida davlat cho‘ntagi bilan o‘z cho‘ntagini adashtiradigan amaldorlarning riboxo‘rligi (poraxo‘rligi) ustidan arzlar juda ko‘p uchraydi. Xitoy jamiyatshunoslik fanining yuksak yodgorligi hisoblangan – “Yan te lun” (“Tuz va temir to‘g‘risida bahs”) asarini xo‘jalik yuritishning norasmiy (“kul rang”) sektori to‘g‘risidagi eng qadimgi “stenogramma” (eramizdan avval 81 y.) deb hisoblash mumkin: tuz va temirga davlat monopoliyasi ushbu noyob mahsulotlarni ommaviy ravishda yashirin ishlab chiqarishga olib keldi. “Qora” yashirin iqtisodiyotga misol qilib papiruslarda yozilgan Qadimgi Misrdagi maqbaralarni talon-taroj qiluvchilar faoliyatini keltirish mumkin.

Yevropada antik va o‘rta asrlarda davlat hali jamiyat ustidan ommaviy nazorat o‘rnatishga intilmas edi, va yashirin iqtisodiy faoliyat Sharq mamlakatlaridagiga nisbatan kam darajada rivojlangan

⁴³ “Artxashastra” qadimgi Hindiston traktati

edi. Shunday bo'lsa-da, yevropaliklar ham bu davrda yashirin iqtisodiy faoliyat to'g'risida tasavvurga ega bo'lganlar. Masalan, G'arbiy Yevropada "kul rang" (norasmiy) iqtisodiy faoliyat sexlarda qabul qilingan tartib-qoidalarga, imtiyozlarga rioya qilmaydigan sexdan tashqari faoliyat ko'rinishida rivoj topgan. "Oq yoqali" yashirin iqtisodiyotga misol qilib nasroniy mamlakatlardagi sudxo'rlikni keltirish mumkin. Diniy huquq bilan foiz evaziga qarz berish taqiqlangan bo'lsa-da, bu bilan kichik milliy-diniy guruhlar (birinchi navbatda, yahudiylar)dan tashqari oqsuyak va cherkov feodallari ham shug'ullanganlar.

Jamiyatni industrialashtirishgacha bo'lgan sharoitda industrialashtirish jamiyatdagi o'zgarishlar yashirin tadbirkorlik faoliyatining barcha turlari keskin rivojlanishiga olib keldi. Kapitalistik ishlab chiqarishning ilk shakllari (masalan, tarqalib ketgan manufaktura) qonuniy sex hunarmadchiligiga nisbatan ommaviy "maxfiy" oppozitsiyani namoyon etadi. XVI–XVIII asrlarda O'rta va Karib dengizlarida, Hind okeanida dengiz qaroqchiligi rivojlanib, dengiz marshrutlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Davlatchilik rivojlangan barcha mamlakatlarning davlat apparati korrupsiya va davlat mulkini talon-taroj qilishga duchor bo'ldi.

"Protestant etikasi" raqobatga ijozat beruvchi, lekin zo'raonlik va qonunbuzarlikni inkor etuvchi "halol biznes" shaklida boylik ortidan quvishni boshlagandan so'ng kapitalizm mustahkam oyoqqa tura boshladi. Yangi davrda yashirin biznesning ba'zi shakllari qonuniylashib bordi (masalan, bank sohasi) va uning eng jinoyi shakllari bilan (qaroqchilik, korrupsiya) kurash qat'iyilashib bordi. "Klassik" kapitalizm davrida yashirin iqtisodiyot biroz chekinsa-da, lekin butunlay yo'q bo'lib ketmadi. Masalan, XIX asrga qadar amal qilgan savdoni cheklash oddiy tovarlarning ommaviy kontrabandasini yuzaga keltirdi; qullar bilan savdo qilish kontrabandasi esa XIX asr o'rtalariga qadar ravnaq topdi. XX asr boshlaridagi bozor xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning kuchaytirilishi zamonaviy tipdagi uyushgan jinoyatchilik shakllanishiga olib keldi.

Xufyona iqtisodiyot rivoj topishining yangi bosqichi XX asrning o'rtalaridan boshlandi⁴⁴. U xo'jalikning global transformatsiyasi,

⁴⁴ Муминов Н.Г. Иктисодий тизимлар тараққиётида яширин иктисодиётнинг ўрни // Иқтисод ва молия, №2, 2018. Б.11.

o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiy faoliyatning kengayib borishi ushbu mamlakatlarning zamonaviy industrial mamlakatlarga va jahon bozoriga qo‘shilib borishi bilan bog‘liqdir. 1970-yillardan boshlab “sotsialistik” mamlakatlar iqtisodiyoti jinoiylashuvi industrial jamiyatni ma‘muriy boshqaruv modelining bozor boshqaruvi modeli oldidagi yengilishi natijasida yuzaga keldi. Sobiq sotsialistik mamlakatlarda 1990-yillardagi radikal iqtisodiy islohotlar davomida “buyuk jinoiy inqilob” bo‘lib o‘tdi, va yashirin iqtisodiy faoliyatning barcha turlari keskin rivoj topa boshladi.

Xufyona iqtisodiyotning o‘sishi industrializatsiyadan keyingi jamiyatga qadam qo‘yayotgan rivojlangan mamlakatlar uchun ham xos bo‘lib, ularda shaxs erkinligi sifat jihatdan o‘sishi alohida ahamiyatga molik. Norasmiy bandlikning o‘sishi, “qo‘llarni bog‘laydigan” davlat cheklovlarini aylanib o‘tishga intilish, iste’molchilarning “taqiqlangan ne‘matlar”ga intilishi yuqori darajada rivojlangan jamiyatlarni tizimli modernizatsiyalashning qo‘shimcha samarasidir.

Shunday qilib, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizimning rivojlanishi (ibtidoiy jamoa tuzumidan tashqari) albatta yashirin iqtisodiy munosabatlarni rivojini ham taqazo etadi. Shunday ekan, bu munosabatlar tasodifiy emas, balki formatsion taraqqiyot natijasida qonuniy yuzaga kelgandir.

3.2. Xufyona iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiruvchi omil sifatida

Jamiyat taraqqiyoti muntazam ravishda amalga oshirilayotgan innovatsiyalar bilan bog‘liqdir. Innovatsiyalar deganda ko‘pincha texnik xususiyatga ega ixtirolar nazarda tutiladi, aslida esa yangi institutlar (yangi “o‘yin qoidalari”)ning ixtiro qilinishi ham texnik ixtirolardan ko‘ra ko‘proq ahamiyatga egadir. Masalan, aksiyadorlik jamiyatlarining “ixtiro qilinishi” kapitalistik iqtisodiyot taraqqiyoti uchun bug‘ mashinasi ixtirosidan ko‘ra ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lgan. Ammo institutsional novatorlik doimo har qanday jamiyatda ko‘pchilikni tashkil etuvchi an’anaviy qadriyatlar tarafdorlarining qarshiligiga duch keladi. Qonunchilik me‘yorlari ko‘pchilikning

xohishini aks ettirgani sababli, yangi “o‘yin qoidalari”ning paydo bo‘lishi qonunchilikning buzilishi orqali amalga oshiriladi. Binobarin, institutsional novatorlik o‘zida albatta eski rasmiy (qonuniy) va yangi norasmiy (noqonuniy) amaliyotlar raqobatini mujassamlashtiradi.

Fridrix fon Xayek qayd etishicha, raqobat tadqiqot jarayoni sifatida juda muhim bo‘lib, raqobat vaqtida tadqiqotchilar foydalanilmagan imkoniyatlarni qidiradilar va boshqa insonlarga ko‘rsatadilar⁴⁵. Bu “raqobat, ixtiro jarayoni kabi” o‘zida albatta qonuniy iqtisodiyotning yashirin iqtisodiyot bilan raqobatini ham mujassamlashtiradi. Yangi qoidalarning norasmiy xususiyati ularni amalga oshirishda qo‘shimcha xarajatlarini keltirib chiqaradi, shu sababdan eski rasmiy va yangi norasmiy o‘yin qoidalari o‘rtasidagi raqobatda an‘anaviy tizim bilan taqqoslaganda katta afzalliklarni ta‘minlovchi yangi qoidalar g‘olib chiqadi.

Xufyona iqtisodiyotning ushbu innovatsion roli tizimlararo siljishlarda (bir iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o‘tishda) yaqqolroq aks etadi. Sobiq ittifoqning so‘nggi o‘n yilligida yashirin iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bunga yaqqol misol bo‘lishi mumkin.

1970-yillarda sovet xufyona iqtisodiyotining “kashf” etilishi xorijiy sovetologlar tomonidan “sotsialistik lager” mamlakatlaridagi markazlashtirilgan reja, total hisobot va nazoratga asoslangan mustaqil xo‘jalik faoliyati o‘rganilishi bilan bog‘liqdir. Birinchi tadqiqotchilar sobiq SSSR iqtisodiyotida amal qilayotgan mexanizmlar rasmiy e‘lon qilingan va sovet matbuotida targ‘ib etilayotgan modeldan farq qilishini qayd etishgan. Bu borada Aron Katsenelinboygen ilg‘or surgan konsepsiya juda qiziqarlidir. Unda to‘liq rejalashtiriladigan sovet xo‘jaligida go‘yoki bozor munosabatlarini batafsil tasniflanishi amalga oshirilgan. Taklif etilayotgan yondashuvda yashirin munosabatlar g‘ayrioddiy hodisa emas, balki bozor aloqalari tizimining tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo‘lgan. Maqola muallifi quyidagicha fikr bildirgan: “Sovet tajribasi marksistik yondashuvdan farqli o‘laroq

⁴⁵ Qarang: *Хайек Ф. фон. Конкуренция как процедура открытия // Мировая экономика и международные отношения. 1989. № 12. С. 13.*

rejali sotsialistik tizim bozor elementlariga muhtoj ekanligini ko'rsatdi. SSSRda mavjud bo'lgan bozorlarning bir qator turlari haqida to'xtalib o'tish mumkin"⁴⁶.

Shunday qilib, A. Katsenelinboygen sovet iqtisodiyotini rasmiy-rejali munosabatlarning bozor (qonuniy, yarimqonuniy va umuman noqonuniy) munosabatlari bilan o'ziga xos sintezi sifatida o'rganishni tavsiya etgan. Buning natijasida sovet xo'jaligi tizimining yashirin ko'pukladiligi masalasi ko'tariladi. 1980-yillarda sovetologlar SSSRda to'liq rejalashtirish va markazdan boshqarish pardasi ortida aralash tipdagi iqtisodiy tizim yashiringan degan fikrga kelishgan edi. Bunda norasmiy va nazorat ostida bo'lmagan ishlab chiqarishning ahamiyati rasmiy ishlab chiqarishning ahamiyatidan kam emas.

1960-1980 yillarda SSSRda oddiy tovar va xizmatlarning yashirin bozori rivojlanishi "oddiy sovet odamini" bozor munosabatlari to'g'risidagi quyidagi ba'zi elementar tushunchalar bilan tanishtirdi: insonlar o'rtasida o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatish kerak – "sen – menga, men – senga" tamoyili asosida; pul – buyuk o'lchov vositasi; savdo-sotiq tanlovga imkoniyati bo'lishi va tomonlarning o'zaro roziligi bilan amalga oshiriladi. Sovet tizimida deyarli barcha insonlar noqonuniy bozor munosabatlari ishtirokchisi bo'lganligi, hamda yashirin bozor munosabatlarining ommaviyligi 1990 yillarda iqtisodiyotning bozor modernizatsiyalashuvi jarayonini yengillashtirdi – ko'pgina bozor institutlari (masalan, vositachilik savdosi) bo'sh joyda emas, balki shu yashirin tuzilmani oshkorlashtirish orqali vujudga keldi. Aynan sovet yashirin iqtisodiyoti (kam sonli dissidentlarning "chiqishlari" emas) ma'muriy-buyruqbozliq iqtisodiy tizimidan bozor xo'jaligiga o'tishni tayyorlashda katta rol o'ynadi.

Xufyona iqtisodiyot faqatgina tizimlararo emas, balki tizim ichidagi siljishlarning ham tashabbuskoridir. Masalan, erkin raqobat kapitalizmidan "monopolistik" kapitalizmga o'tish AQShda (boshqa mamlakatlarda ham) ochiqdan-ochiq qonunni buzuvchi "qaroqchi-baronlar"ning (Djon Rokfeller yoki Djon Morgan kabi) faoliyati bilan bog'liqdir.

⁴⁶Qarang: Каценелинбойген А. Цветные рынки и советская экономика / Советская экономика и политика. Книга третья. Boston, 1988.

3.3. Xufyona iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida

Institutsional innovatsiyalarni paydo bo'lishi uchun yashirin iqtisodiyot ijobiy ta'sir ko'rsatsa, uni ildiz otishi uchun esa, aksincha, xavflidir. Yangi "o'yin qoidalari" ommaviy tus olishi uchun, ular jinoiylilik belgilarini yo'qotishlari va rasmiy hayotda va omma ongida o'rnashgan bo'lishi kerak. Ammo yashirin iqtisodiy faoliyat "soyada yashash"ni yengillashtiruvchi ko'pgina me'yorlarni yuzaga keltiradi, lekin "soyadan chiqishga" to'sqinlik qiladi. Shu sababdan, sobiq norasmiy "o'yin qoidalari"ni qonuniylashtirish yangi institutsional amaliyotni yashirinlik "merosi"dan "tozalash" uchun kurashni bekor qilmaydi.

Yangi "o'yin qoidalari" noqonuniy maqomga ega bo'lgan bir vaqtda, ularning ishtirokchilari qonunni (yoki boshqa umumqabul qilingan me'yorlarni) buzishga mohirlik bilan yondashishlari zarur. Ammo qonunga bunday befarq munosabat uzoq muddat davom etishi mumkin emas. Har qanaqa ishbilarmonlik madaniyati qonunni hurmatlaydi, aks holda biznes "qoidasiz o'yin"ga aylanadi va o'z-o'zidan yemirilib ketadi. Shu sababdan xufyona iqtisodiy faoliyat sektoridagi munosabatlarni qonuniylashtirish qonunsizlikni qonuniylashtirish degani emas.

Xufyonalik "merosi"ning boshqa elementi bu – yashirin sektor munosabatlarida ular rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning elementlari mavjudligidir. Yashirin iqtisodiy munosabatlar qonuniylashayotganda, bu elementlar jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi elementlarga aylanadi va chetga chiqarilib tashlanishi zarur.

Sobiq ittifoqning 1980-yillaridagi yashirin iqtisodiyotni tadqiq etuvchi ko'pchilik olimlar uning bozor xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlagan holda, yashirin iqtisodiyot sub'ektlarini kelajakdagi "normal" bozor munosabatlarining agentlari sifatida e'tirof etilmaganini qayd etdilar. L.Timofeyevning yozishicha "Bugungi kunda avvalgi tuzumda raykom sekretari bo'lganlar hozirgi vaqtda banklar va birjalarning prezidentlari bo'lib olishgani ahloqshunoslarni xavotirga solmoqda. Ular xususiy mulk asosida bo'lsa ham, huddi avvalgidek, mamlakatdagi barcha moddiy boyliklarni tasarruf etishadi. Ming afsuski, bozor qonunlari shuni

taqozo etadi”⁴⁷. Ushbu holatni muqarrarligini siyosatchi Andranik Migranyan ham ta’kidlagan edi: “O’g’irlanishi kerak bo’lgan narsa tezroq o’g’irlanishi zarur. Bu o’g’irlikni tugatishning yagona usulidir”⁴⁸. Ammo tabiiy savol tug’iladi: “o’g’ri”ning bilim va ko’nikmasi o’g’irlangan buyum va resurslarni samarali boshqarish uchun yetarlimikan?

Zamonaviy tadbirkorlar ko’pchilik holatda sovet davrida yashirin sexlar ochib ish yuritganlar yoki “eski” xo’jalik-partiya elitasi vakillari hisoblanishadi. Ular kuyungan holda ishlab chiqarishlarini takomillashtirishga harakat qilishayotganlari yo’q. Ular boshqa yengilroq, kamsarf, risk darajasi kam usulardan foydalanishmoqda. Ularning xatti-harakati – Veber bo’yicha “halol daromad”ga va Shumpeter bo’yicha ijodiy o’zini namoyon etishga intilish emas, balki bu Marks bo’yicha “barcha insoniy qonuniyatlarni poymol qilmoq”likdir. Sovet davridagi yashirin “ma’muriy bozor” qatnashchilari hozirgi vaqtda normal bozor raqobatining dushmanlari sifatida faoliyat yuritishmoqda. Bunday nobozor yoki bozorga qarshi faoliyat ularni avval ham sog’lom bozor munosabatlariga qo’shilmaganliklaridan dalolat beradi.

Ba’zi tadqiqotchilar sobiq Sovet Ittifoqi davridagi yashirin iqtisodiyotda noqonuniy bozor sektori mavjud bo’lgan, odamlarni xo’jalik yuritishga to’siq bo’luvchi ma’muriy cheklovlardan ozod etilsa, mamlakatda birdaniga iqtisodiy erkinlik iqtisodiy taraqqiyotning sababchisi bo’ladi, degan fikr bildirganlar. Ammo iqtisodiyotni boshqarishda davlatning aralashuvi katta ahamiyatga ega ekanligi e’tiborga olinmagan.

Sovet xo’jalik tizimida aslida bitta emas, balki ikkita parallel xufyona iqtisodiyotlar mavjud edi – bozor (kamyob va noyob tovarlarni noqonuniy ishlab chiqarish) va ma’muriy-buyruqbozlik (tanish-bilishchilik evaziga noqonuniy imtiyozlarga ega bo’lish). Bu ikki tizim mohiyatan bir tanganing ikki tomonidir, chunki rollarni almashish umumiy qoida sifatida qabul qilingan edi. “Yashirin sex” yurituvchisi o’z biznesi bilan faqatgina mahalliy (yoki undan ham yuqoriroq)

⁴⁷ Тимофеев Л.М. Институциональная коррупция. М.: 2000. С.231.

⁴⁸ O’sha yerda. С.232.

rahbariyatning xayrixohligi ostida shug‘ullanishi mumkin edi. Bu holatda kam xarajatli va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati “sovg‘a” berish qobiliyatichalik ahamiyatga ega emas.

Ikki tomonlama faoliyat yuritish bozor institutlarini paydo bo‘lib, shakllanib borishida ham o‘z aksini topdi. Xufyona iqtisodiy munosabatlar odamlarni rasmiy hujjatlarga norasmiy yondashuvga, inson kapitalini rivojlantirishda malakani oshirishga emas, balki “kerakli” odamlar bilan munosabatlar o‘rnatishga undadi. Iqtisodiy tizim taraqqiyotida yashirin iqtisodiyot funksiyalarining ikkiyoqlamaligi universal qonuniyatni yuzaga keltiradi: yashirin iqtisodiy munosabatlar institutsional innovatsiyalarning yo‘nalishlarini belgilaydi, ammo ommaviy ravishda joriy etish jarayonida ularni “orqaga tortish”ni boshlaydi.

Nazorat savollari:

1. Xufyona iqtisodiyotni jahon iqtisodiy tarixining elementi sifatida ta’riflang?
2. Xufyona iqtisodiyot kapitalizm rivojlanishi davrida rivojlanishiga nima sabab bo‘lgan?
3. Xufyona iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichini tavsiflab bering.
4. Xufyona iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiruvchi omil sifatida ta’riflang?
5. Nima uchun xufyona iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiruvchi omil bo‘ladi?
6. Xufyona iqtisodiyotning ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiruvchi omil bo‘lishiga nima sabab bo‘ladi?
7. Nima uchun xufyona iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotni sekinlashtiruvchi omil bo‘ladi?
8. Xufyona iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotni sekinlashtiruvchi omil sifatida ta’riflang.
9. Xufyona iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotni sekinlashtiruvchi omil bo‘lishiga misollar keltiring.
10. Hozirgi vaqtda xufyona iqtisodiyotning ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta’siri nimalarda ko‘rinadi?

IV BOB. “IKKINCHI” XUFYONA IQTISODIYOTNING UMUMIY TAVSIFI.

4.1. Buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida davlat sektoridagi “oq yoqalilar” xufyona iqtisodiy faoliyati

4.2. Bozor xo‘jaligining tijorat sohasida xufyona iqtisodiy faoliyatning “oq yoqali” shakllari

4.3.Xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish tajribalari.

4.1. Buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida davlat sektoridagi “oq yoqalilar” xufyona iqtisodiy faoliyati

“Ikkinchi” yashirin iqtisodiyot qonuniy iqtisodiy faoliyatning teskari ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yashirin munosabatlarning asosiy sub’ektlari xo‘jalik rahbarlari bo‘lsada, oddiy fuqarolar ham ularning ishtirokchilari bo‘lishi mumkin. "Oq yoqali" ("ikkinchi") xufyona iqtisodiyoti - "oq" iqtisodiyot xodimlarining ish joylarida yashirin va taqiqlangan iqtisodiy faoliyati bo‘lib, bu qonun tomonidan taqiqlangan, ilgari yaratilgan milliy daromadlarni yashirin ravishda qayta taqsimlashga olib keladi. Asosan bunday ishlarni yuqori martabali xodimlardan ("oq yoqali mansabdorlar") "hurmatli odamlar" olib borishadi, shuning uchun bunday xufyona iqtisodiyoti "oq yoqalar" deb ham ataladi. Xozirgi zamon iqtisodiyotida “ikkinchi oq yoqalilar” xufyona iqtisodiyoti dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida mavjuddir.

Sobiq sotsialistik tuzum sharoitida buyruqbozlik iqtisodiyoti shakllangan bo‘lib, unda ham “ikkinchi oq yoqalilar” xufyona iqtisodiyoti keng miqyosda mavjud bo‘lgan. Sobiq Sovet ittifoqida buyruqbozlik-rejali iqtisodiyoti sharoitida davlat sektoridagi “oq yoqalilar” xufyona iqtisodiy faoliyatining vujudga kelishi va rivojlanishiga quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar sabab bo‘lgan:

– markazlashgan rejali iqtisodiyotning tovar va xizmatlarning defitsitligi (taqchilligi) bilan tavsiflanishi. Kishilar tovar va xizmatlar taqchilligi sharoitida o‘z ehtiyojlarini qondirish va qo‘shimcha daromad olish maqsadida noqonuniy faoliyat bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lganlar;

– ishlab chiqarish vositalariga ijtimoiy mulkchilikning mavjudligi natijasida mulk kishilardan begonalashtirilganligi hamda egasiz mulkka aylanganligi. Buning natijasida kishilarda unumli mehnatga rag‘bati susaygan va turmush darajasi erkin bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan ancha past darajada bo‘lgan. Sobiq buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida kishilarda egasiz mulkni va xo‘jalik sub‘ektlaridagi resurslarni va ularda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ishlab chiqarilgan noqonuniy o‘zlashtirish, tashmachilik yo‘li bilan o‘z moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanishga intilish kuchaygan;

– erkin tadbirkorlik faoliyatining jamiyat uchun yot faoliyat sifatida tugatilganligi hamda unga yo‘l qo‘ymaslik. Buning natijasida kishilar o‘zlarining tadbirkorlik qobiliyatlarini xufyona iqtisodiy faoliyat sohalarida namoyon qilganlar⁴⁹.

Xufyona iqtisodiyot sovet xo‘jalik tizimida uni to‘ldiruvchi hamda muhim iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi sektorga aylangan. Uning iqtisodiy vazifasi rasmiy sovet iqtisodiyoti faoliyatidagi kamchiliklarni, ya‘ni tovar va xizmatlardagi kamyoblikni ma‘lum darajada yumshatishga xizmat qilgan. Xufyona iqtisodiy faoliyat natijasida kishilar qo‘shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lishi va o‘z moddiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini ma‘lum darajada kengaytirishga erishganlar. Bu uning ijtimoiy vazifasi bo‘lgan.

Buyruqbozlik-rejali iqtisodiyoti sharoitida kishilar faoliyatlarining normalar tizimi surunkali taqchillik, ya‘ni resurslarning yetishmasligini o‘zida namoyon etadi. Taqchillikning ma‘lum darajada barqarorlashuvi hamda iqtisodiy agentlar ushbu darajaga moslashuvi tizimda *normal taqchillik* holatini yuzaga keltiradi. Bunda buyruqbozlik iqtisodiyoti uchun xos bo‘lgan taqchil tovar va xizmatlar uchun navbatning normal uzunligi, resurslar va tayyor mahsulotlarning normal zahiralari va hokazolar tushuniladi. Boshqacha aytganda, nafaqat Valras bo‘yicha umumiy muvozanat iqtisodiy tizimning barqaror holati bilan cheklaniladi, balki tizim

⁴⁹ Qarang: Кормишкина Л. А., Лизина О.М. Теневая экономика: учеб. пособие для вузов / Л. А. Кормишкина, О. М. Лизина. – Саранск : Изд-во Мордов. ун-та, 2009. – С.77.

hatto muvozanatsiz holatda ham barqarorlashishi mumkinligi namoyon bo'ladi.

Buyruqbozlik iqtisodiyotining normal holatlari uchun zarur bo'lgan normalardan biri oddiy utilitarizm hisoblanadi. Bunda individ tomonidan o'z foydaliligini oshirilishi o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, **oddiy utilitarizm** - individning samarali faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holda o'z foydaliligini oshirishga intilishidir.

Individ iste'mol madaniyatidagi oddiy utilitarizm "kvartira – mashina – dala hovli" uchligida aks etadi. Individda bunday idealning tarqalishi va qulay hayot sharoitlarini ta'minlashga intilish sho'rolar (sovetlar) jamiyati namunasida XX asrning 70-80-yillardagi o'ziga xos shaklga ega tendensiyalar bilan tavsiflanadi. Bunda iste'molning ma'lum darajasiga erishish uchun noyob (taqchil) resurslardan foydalanish imkoniyati samarali mehnat bo'yicha emas, balki ma'lum kasb toifasidagi xodimlar (savdo sohasi, byurokratik apparat, temir yo'l va havo yo'li transporti xodimlari, chet elga chiqish imkoniyatidagilar) o'rtasida bo'lingan edi.

Buyruqbozlik iqtisodiyoti normalari tizimining ikkinchi unsuri to'liqsiz ratsional faoliyat bilan izohlanadi. Bunda, birinchi navbatda axborotning cheklanganligi va to'liqsizligi bilan shartlangan to'liqsiz ratsionallik tushuniladi. Iqtisodiy agentlar erkin shakllanmagan narx va taqchil resurslar sharoitida narxlardagi mavjud axborotni narxga taalluqli bo'lmagan – zahiralalar hajmi, navbatlarning uzunligi va hokazolar haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldiradilar.

Ishonch normasi ikkita shaklda davlatga ishonch sifatida va bir birini yaxshi bilgan shaxslar doirasi bilan cheklangan mikrodarajadagi ishonch sifatida mavjud bo'ladi. Bu norma ham uy xo'jaligida, ham korxonada amal qiladi. Uy xo'jaligining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida og'irlik markazining oila-qarindoshchilik tarkibiga, do'stlar va tanish-bilishlarga ko'chiriladi. Korxonalar xatti-harakatini ham huddi shunday ta'riflash mumkin. Ulardan har biri barqaror sherikchilik doirasiga ega bo'lib, bunda ushbu korxonalar rahbarlari o'rtasida shaxsiy darajada ishonchli munosabatlar yo'lga qo'yiladi. Ya'ni, direktorlar o'rtasida o'zaro yordam va o'zaro ishonch tamoyillari asosiga qurilgan korporativ munosabatlar shakllanadi.

Buyruqbozlik iqtisodiyotining navbatdagi bazaviy normasi «*sen – menga, men – senga*», yoki o‘zaro xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi kelishuvdir. Taqchil resursni olishning keng tarqalgan variantlaridan biriga ko‘ra, iste‘molchi va yetkazib beruvchi vaqti vaqti bilan vazifalarini almashtirib turadi, ya‘ni “bugun men po‘lat berib turaman, sen esa ertaga boltdan yordam qilib turasan”.

Har qanday o‘zaro munosabatning davlat nazorati ostida bo‘lishiga qaramay buyruqbozlik iqtisodiyoti doirasida qonunlar partiya manfaatlariga bo‘ysungan. Buning uchun rasmiy asos bo‘lmas-da, partiya qarorlari *de facto* qonun kuchiga ega bo‘lgan. Hatto e‘lon qilingan *de yure* umumxalq mulkchilik shakli ham *de facto* mulkchilik shakli bilan, xususan, byurokratik organlar – «idoralar» (vazirliklar va idoralar) mulki bo‘lgan. Byurokratiyaning bunday o‘zboshimchaligi oddiy fuqarolarning qonunga nisbatan munosabatiga aks ta‘sir o‘tkazgan. Boshqacha aytganda, buyruqbozlik iqtisodiyotida iqtisodiy sub‘ektlarning xatti-harakati *qonunga tilda buysunish* normasi sifatida tavsiflanadi⁵⁰. S.Kordonskiy sovet iqtisodiyotidagi faoliyat darajalari va xufyona iqtisodiy faoliyat tarkibining tavsifini ishlab chiqqan (4.1.1-jadval).

4.1.1-jadval.

Sobiq SSSRdagi iqtisodiy makonning tarkibi⁵¹.

Faoliyat darajalari	Faoliyat shakllari			
	nomenklatura (rahbarlik)	fuqarolik (yashab qolish)	xufyona (ishlab chiqarish)	kriminal (o‘g‘irlik)
Nomenklatura	Birinchi shaxslar	amaldorlar	xufyona nomenklatura	Kriminallashtirilgan amaldorlar
Fuqarolik	Nomenklaturadagi fuqarolar	Oddiy fuqarolar	Amaldorlar bilanaloqasi bor kishilar	Kriminallashtirilgan fuqarolar

⁵⁰ Qarang: Беркинов Б.Б. Институционал иқтисодиёт: ўқув қўлланма / Б.Б. Беркинов; ЎЗР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тош. Давлат иқтисодиёт ун-ти, Институционал ва иқтисодий тадқиқотлар маркази. – Т.: Yangi nashr, 2011. – 40-42-бетлар.

⁵¹Кордонский С. Рынки власти. Административные рынки СССР и России. М., 2000. С. 106.

Xufyonaviy	Xufyonaviy nomenklatura	Xususiy faoliyat yurituvchilar	Sexoviklar	Kriminallashtirilgan xufyona faoliyat yurituvchilar
Kriminal faoliyat	Nomenklaturadagi o'g'rilar	Maishiy o'g'rilar	Reketirlar	O'g'rilar

Umuman olganda “ikkinchi oq yoqalilar” xufyona iqtisodiyoti avj olgan tizimlardan biri, rejali iqtisodiyotning sovet tipidagi iqtisodiyotni yoppasiga hisob va nazorat tizimi to'g'risidagi tasavvurni hosil qilsada, bu tasavvur amaliyotga to'liq mos kelmaydi. Rejali iqtisodiyotda davlat keng qamrovli rejalashtirish va bir markazdan barcha iqtisodiy jarayonlarni qat'iy rejalashtirish va limitlashtirishni amalga oshirishga intiladi. Amaldagi ho'jalik mexanizmi ko'plab norasmiy komponentlarning mavjud bo'lishini taqazo etadi. Unga quyidagilar kiradi:


1) *norasmiy an'analar iqtisodiyoti* – bu normativ xujjatlarda qayd etilmagan, hammaga amaliyotda yaxshi ma'lum bo'lgan, umum qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy o'zaro munosabatlar (korxonalar rahbarlarining shaxsan kelishuvi asosida fondlashtirilgan materiallarni norasmiy tarzda ayirboshlash, «shabashniklarga» va xizmat ko'rsatish sohasi xodimlariga norasmiy qo'shimcha xaq to'lashni misol sifatida keltirish mumkin);

2) *qo'shib yozishlar iqtisodiyoti (fktiv iqtisodiyot)* quyi bo'linmalarining nazorat qiluvchi tashkilotlarga iqtisodiy axborotlarni buzib taqdim etishi (ishlab chiqarilgan mahsulotlarning miqdori va sifatini oshirib ko'rsatish, resurslarni yashirish);

3) *shaxsiy suist'emol iqtisodiyoti (poraxo'rlik iqtisodiyoti)* – kamyob resurslarni (ishlab chiqarilgan xomashyolar, ish o'rinlar, uy-joy va h.k.) qayta taqsimlashga mas'ul shaxslar korrupsiyasi (qarang:4.1.1-rasm).

1970-1980-yillarda «sotsialistik» mamlakatlardagi “ikkinchi” chuqur va keng rivojlandi. Xufyona iqtisodiyot umum miqyosga chiqdi. Amalda barcha korxonalar u yoki bu darajada noqonuniy faoliyat bilan shug'ullangan. G'arb sovetologlari SSSR iqtisodiyoti aralash iqtisodiyotning o'ziga xos modifikatsiyasi-total rejalashtirilgan iqtisodiy shirmasida xufyona bozor munosabaatlari

yashiringan, degan xulosaga kelganlar. Bu xufyona iqtisodiy munosabatlar markazlashtirilgan nazoratga antiteza, islohotlarga to'sqinlik qiluvchi, uni bo'g'uvchi klapan, bozor surrogati hisoblanadi.



4.1.1-rasm. Sobiq Sovet Ittifoqidagi xufyona iqtisodiyot komponentlari

Bu xufyona iqtisodiy munosabatlar markazlashtirilgan nazoratga antiteza, islohotlarga to'sqinlik qiluvchi, uni bo'g'uvchi "klapan", bozor surrogati hisoblanadi. V. Nayshul, o'z kuzatishlarini umumlashtirib, "Brejnev" davrini byurokratik bozor deb nomlagan. Chunki, bu davrda nafaqat kamyob tovarlar, balki korxonalar uchun tuzatilgan reja, mansab-lavozimlar, mukofotlar, unvonlar, horijiy komandirovkalar va boshqalar ham tovarga aylangan.

Bu sovet totalitarizmi rejimini rad etadigan bir qator tushunchalarni keltirib chiqardi. "Sotsializm" tizimi ostida xufyona iqtisodiy faoliyatining umumiyiligini (Sovet Ittifoqi buni kamroq noqonuniy deb bilgan) kashf etib, G'arb sovetolog olimlari shunday xulosaga kelishdi. Sobiq Sovet Sotsialistik respublikalari misolida Slovakiya respublikasi tahlil qilingan va ushbu mamlakat iqtisodiyoti allaqachon yashirin ko'rinishga kelgan, yashirin xufyona bozor munosabatlarini yashirishning keng qamrovli rejasi ostida aralash iqtisodiyotning boshqacha uslubini paydo qilgan degan xulosaga kelishgan edi. Ushbu iqtisodiy munosabatlar nafaqat markazlashtirishning antitesi, balki islohotchining, bozor o'rnini bosadigan, yashirin harakati bosimi ostidagi o'ziga xos shart bo'lishi

mumkin. Ushbu umumiy kuzatishlar to‘g‘risida rus eko-iqtisodchisi V. Nayshul “Brejnev” davrida tovarlar kam yoki kam bo‘lgan "byurokratik bozor" to‘g‘risida xulosa chiqaradi.


«Brejnevizm» nafaqat byurokratik bozor, shu bilan birga “Klan sotsializmi” deb ham nomlangan bo‘lib, u shaxsiy sadoqatga, yaqinlikka, bog‘liqlikka asoslangan. Sovet xufyona iqtisodiyoti ma‘muriy-qo‘mondonlik tizimi tamoyili asosida amal qilgan. Bu yondoshuv tarafdorlari sovet tizimidan keyingi Rossiyada “klanli sotsializm” “klanli kapitalizm” ga transformatsiyalashdi deb hisoblaydilar. Buning oqibatida biznesni tashkil etish jarayonida tijoriy iqtisodiy huquqbuzarlik keng tarqaldi (masalan, soliqlarni yig‘ib olmaslik ba‘zi baholashlarga ko‘ra 40%ga yetgan). Davlat huquqlarining buzilishi – daromadlarni soliqdan yashirish, ekologik qonunchilikni buzish kabilar.

4.2. Bozor xo‘jaligining tijorat sohasida xufyona iqtisodiy faoliyatning “oq yoqali” shakllari

1949 yilda amerikalik kriminolog Edvin Saterlend “oq yoqalilar orasida jinoyatchilik” konsepsiyasini shakllantirgan edi. Ushbu konsepsiyaga binoan xufyona, qonunchilikka qarshi faoliyat “yirik biznes” kundalik amaliyotining ajralmas tarkibiy qismidir. Saterlend AQShdagi 70 ta yirik nomoliyaviy korporatsiyalarni iqtisodiy qonunchilikni buzish aylovi bo‘yicha sud jarayonlari statistikasini tahlil qilib, quyidagi xulosaga keldi: sud tomonidan jami 980 ta ayblov hukmi chiqarilgan bo‘lib (shu jumladan, savdo erkinligini buzganlikda ayblash bo‘yicha – 307 ta, majburiyatlarni buzganlikda ayblash bo‘yicha – 222 ta, mehnat qonunchiligini buzganlikda ayblash bo‘yicha – 158 ta), o‘rtacha har bir korporatsiyaga 14 tadan hukm to‘g‘ri keladi⁵². Shunday ekan, yirik firmalarni “ideal jinoyatchi” sifatida tasavvur qilish mumkin: ular ataylab, uyushgan va tizimli ravishda (retsdivistlar kabi) keng miqyosda huquqiy me‘yorlarni buzishadi, lekin bu ularni tadbirkorlik olamida o‘z o‘rnini saqlashga xalal bermaydi.

⁵² Qarag‘an: Овсянникова И.П. Теневая экономика: учеб. пособие / И.П. Овсянникова; ФГБОУ ВО РГУПС. – Ростов н/Д, 2015. – С.21.

Rivojlangan mamlakatlarda biznesning soyadagi jihatlari yanada chuqurroq tahlil qilinishi natijasida jinoyatchilik va qonunchilikka asoslangan faoliyat o'rtasidagi chegara muntazam ravishda qalqib turishi aniqlandi. Iqtisodiy jinoyatning quyidagi asosiy turlari mavjud (qarang: 4.2.1-rasm).



4.2.1-rasm. Iqtisodiy jinoyatning asosiy turlari

1. Raqobat qoidalarini buzish – tijorat borasidagi poralar, monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzish, sanoat sohasidagi josuslik. *Narx belgilashni kelishib olish bo'yicha (til biriktirish).* Konunlarga murojaat qilinadigan bo'lsa, ularda narxni muqim qilish g'ayriqonuniy ekanligi ta'kidlangan. Narx tizimi bo'yicha barcha nayrangbozliklar qonunlar bilan qat'iy taqiqlangan. Ammo, raqiblar o'rtasida narxni muqim qilish bo'yicha kelishuvlar jinoyat hisoblanadi. Beixtiyor bir xil narxlar ham belgilangan bo'lishi mumkin va bu yerda qonun buzilmagan bo'ladi. Qoidaga muvofiq narxni muqim qilish (agar ular qonuniy foyda olishga qaratilgan bo'lsa) bo'yicha kombinatsiyalar jinoiy javobgarlikka tortish uchun

asos bo'la oladi. Har qanday holda ham narxning birligi sun'iy yuzaga keltirilgan deb hisoblanadi.

Narx bo'yicha kelishuvlarning isboti bo'lib, odatda raqobatchilarning uchrashuvlari, narx ro'yxatlari hamda boshqa hujjatlarning mavjudligi va bu hujjatlarni bir-biriga taqdim etishlari xizmat qiladi. Narxlarni muqim qilish bo'yicha operatsiyalarning maqsadi – u yoki bu tovarni sotish bilan shug'ullanuvchilar o'rtasidagi raqobatni yo'qotishdir. Raqobatlashayotgan firmalar tovarlarni kelishgan narxda sotishga ahd qiladilar. Bunday kelishilgan narxlar, odatda, raqobat kurashi sharoitidagidan yuqori bo'ladi. Narxni muqim qilishning yana bir keng tarqalgan ko'rinishi - bu ularni sun'iy pasaytirish yoki ko'tarishdir. Bunday holatda raqib kompaniyalar o'zaro nima bilan savdo qilish va qaysi narxda mahsulotni sotishni kelishib oladilar. Mustaqil faoliyat yurituvchi tadbirkorlar, iste'molchilarning manfaatlariga zid bo'lsa ham, albatta, qonunlar doirasida narxlarni o'zlariga foyda keltiradigan miqdorda belgilashlari mumkin.

Bozorda o'zining ustun mavqeini suiste'mol qilish. Bu turdagi huquqbuzarliklar, eng avvalo, narxni belgilashda cheklashlar qo'yish, o'z raqiblarini baykot qilish orqali faoliyatini cheklash, ularning mahsulotlarini sotishdan bosh tortish, mahsulotni yetkazib berishni cheklash yoki taqiqlash, dempingni qo'llash, vositachilar uchun mahsulotni sotish narxi va hududi chegaralarini belgilab qo'yish faqat o'zlarining yakkaxonligini talab qilish va boshqalar.

Narxni belgilashdagi diskriminatsiya (cheklashlar) sotuvchining, bir tomondan, bir turdagi mahsulotni xaridorlarga turli narxlar nisbatida, ikkinchi tomondan, tovarni ishlab chiqarish xarajatlariga nomutanosib tarzda sotishga urinishida qo'llaniladi. Narx adolatli bo'lishi uchun u sarf-xarajatga yaqin bo'lishi lozim. Raqibni bozordan yoki biron hududdan siqib chiqarish uchun yirik firma va kompaniyalar turli imtiyozli narxlar tizimini qo'llaydilar va shu orqali o'zlarining hukmron holatlarini saqlashga urinadilar. Bu esa ularga muayyan bir muddatdan so'ng narxni oshirib, mononol foyda olishga imkon tug'diradi.

Sanoat shipionaji. Hozirda ushbu jinoyat turi kompyuter yordamida yoxud raqibning turli firma idoralarida ishlaydigan

xizmatchilarini sotib olish vositasida sodir etilmoqda. Jinoyatlar raqibning ilmiy izlanishlari xususidagi ma'lumotlarni olish, faoliyatini aniqlash, uning mahsulotlarini sotuvchi tashkilotlar xususidagi axborotlarni olish, iste'molchilarining ro'yxati hamda hisob hujjatlarini o'rganish orqali sodir etiladi.

2.Iste'molchilar huquqlarini poymol etish – soxta reklama, sifatsiz tovarlarni ishlab chiqarish. Bu guruh jinoyatlarga savdoda, iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishda va iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohalarida sodir etilgan hamda iste'molchiga ziyon yetkazish bilan bog'liq javobgarliklar kiradi. Xususan, AKShda 1964 yili qabul qilingan "G'irrom savdo amaliyoti to'g'risida umumiy qonun"da firma, kompaniyalar jinoiy faoliyatlarining quyidagi ko'rinishlari keltirilgan:

- tovarni sotishda, xizmatlarni bajarishida ularni o'zga tovar va xizmatlar deb o'tkazish:

- resurslar, xomashyolar, tovar assortimenti va xizmat ko'rsatish bo'yicha atrofdegilarni chalg'itish;

- soxta vakolatxona va nomlardan foydalanish;

- tovar va xizmatlarni maxsus tavsiflarga, xususiyatlarga, ingrediyentlarga, afzalliklarga, yuqori sifatga ega qilib ko'rsatish;

- amalda o'zgargan, ishlatilgan, eskirgan tovarlarni yangi, original sifatida tavsiya etish;

- amalda tovarni unga xos bo'lmagan sifat, nav, alohida standart, uslub, modelga ega deb tavsiya etish;

- raqibning tovar va xizmatlariga xos bo'lgan afzalliklarni pasaytirib ko'rsatish, bunday holatni tasdiqlovchi soxta hujjatlarni taqdim etish;

- tovar va xizmatlarni soxta reklama qilish;

- narxni pasaytirishni asoslash xususidagi yolg'on arizalarni tarqatish;

- raqibni chalg'itadigan boshqa xatti-harakatlar.

Bu borada amalda barcha mamlakatlar qonunchiligida sifatsiz dorilar va medikamentlar, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarganligi va sotilishini tashkil qilgani uchun javobgarlik ko'zda tutilgan (masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 186-moddasi).

3. Yollanma ishchilar haq-huquqlarini poymol etish – mehnat shartnomalari va xavfsizlik texnikasi me'yorlarini buzish.

4. Kreditorlarning huquqlarini poymol etish – zayom kapitali bilan suiiste'mol qilish (soxta bankrotlik, subsidiyalar bilan bog'liq tovlamachilik va boshqalar).

Soxta bankrotlik. Soxta bankrotlik qalloblik yo'li bilan mavjud bo'lgan firma nomiga olingan kreditlarni qaytarmay, suiiste'mol qilish oqibatida yoki soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash natijasida sodir etiladi.

Tovlamachilik yordamida amalga oshirilgan kredit operatsiyalari bir necha bosqichdan iborat bo'ladi:

- tovarlarni kreditga olish;
- sotib olingan molni sotish yoki boshqa xatti-harakatni amalga oshirish;
- o'z harakatlarini bekitish;
- kreditorlarga qarzni to'lamaslik;
- bankrotlik xususidagi petitsiya, so'rovni tegishli idoralarga topshirish.

Bunday bankrotlik rejalashtirilgan deb tasniflanadi. Bunday jinoyatlar bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket uch bosqichdan iborat xatti-harakatdan tashkil topadi. Uch bosqichli bankrotlikda, eng avvalo, yangi firma yoki kompaniya tashkil etiladi. So'ng bankda hisob raqami ochiladi va operatsiyalar amalga oshiriladi. Kompaniya turli tovar yetkazuvchilardan tovar (mol) ola boshlaydi va ularga to'lash uchun kredit olishga bankka murojaat etadi.

Kompaniya olingan kreditni yangi tovar (mol) yetkazib beruvchilarni izlab topishga, tovarlarni sotib olishga sarf qiladi, to'lov muddati kelgan kreditlarni to'lashni kechiktirib, paysalga solib boradi. Kompaniya o'z buyurtmalarini ko'paytirib, so'ng ularni past narxlarda o'g'irlangan tovarlar bilan savdo qiladiganlarga yoxud mahsulotning kelib chiqish manbai bilan qiziqmaydiganlarga sotadi. Tadbirkorlar tovar bo'yicha tushumlarni oladilar, ularni yoki bekitadilar, yoki ish faoliyatlarini tugatishadi, ana undan sung o'zlarini bankrot deb e'lon qilishadi. Bazi hollarda jinoyatchilar quyidagicha ish tutadilar: faoliyat ko'rsatib turgan, katta summada krediti bor firma yoki korxonani sotib oladilar. Tovarlarni ko'p

miqdorda xarid qilib, so'ng o'zlarini bankrot deb e'lon qiladilar.

Subsidiyalar borasidagi tovlamachilik. Bu boradagi jinoyatlar serfoyda bo'lib, u keng tarqalgandir. Bu jinoyatlar davlatning rasmiy subsidiyalarini bu mablag'larni olishga huquqi yo'q shaxslarga (yuridik va jismoniy) rasmiylashtirish asosida amalga oshiriladi. Davlat subsidiyalari, odatda, qishloq xo'jalik korxonalarini rivojlantirishga, qurilishga hamda eksport- import savdo operatsiyalarini amalga oshirishga ajratiladi. Aksariyat hollarda, xususan, Germaniyada tashqi iqtisodiy savdo-sotiqni rivojlantirishga ajratilgan subsidiyalar borasidagi tovlamachilik ko'p uchraydi. Masalan, mahsulotini dunyo bozorida past narxda sotadigan raqobatdosh bo'lmagan firmalarga, agar xukumat shu firmalar orkali mahsulotini sotishga manfaatdor bo'lsa, subsidiyalar ajratadi. Hukumat Afrika va Osiyo mamlakatlariga tovar sotadigan firmalarga ko'proq subsidiyalar ajratadi. Bunday holatdan foydalanish maqsadida firmalar mamlakatlar bilan o'z vakillarining vositachiligida soxta shartnoma tuzadilar va shu asosda katta pul mablag'lariga ega bo'ladilar, tovarlarni ko'p miqdorda subsidiya olish huquqini bermaydigan o'zga mamlakatlarga olib borib sotadilar.

Tovlamachilikning yana bir turi tovarlarni import qilayotganda yuzaga keladi. Bu holatda jinoyatchilar rivojlangan mamlakatlardan tovarni sotib olish uchun subsidiyalarni olib, aslida tovarlarni rivojlanayotgan mamlakatlarda xarid qilib, ularni Yevropa savdo mahsulotlari deb o'tkazadilar. Bu tovlamachiliklar tovar hujjatlarini soxtalashtirish, lavozimdagi shaxslarga pora berish va shu kabilar orqali sodir etiladi. Bu ko'rinishdagi tovlamachiliklar real mavjud firmalar tomonidan amalga oshiriladi. Lekin amaliyotda soxta firmalarning ham subsidiya olishlari tez-tez uchrab turadigan holga aylanib qoldi. Bunday hollarda ikkiyoqlama tovlamachilik yuzaga keladi – amalda yo'q firma subsidiya oladi. Ikkinchi tomondan, soxta firmani tashkil qilgan jinoyatchilar tashqi savdoga to'lanadigan katta miqdordagi soliqlarni to'lashdan qutulib qoladilar.

Balans vedomostlari bo'yicha tovlamachilik. Balans vedomostlarini qalbakilashtirish ulardagi kamomadni, tovlamachilikni, kreditlar bo'yicha nayranglarni hamda kompaniyaning salbiy moliyaviy holatini yashirish maqsadida

amalga oshiriladi. Balans vedomostlarida kompaniyaning to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari soxtalashtiriladi. Bu xatti-harakatlarga yana aksionerlarni jalb qilish ham nazarda tutiladi. Kapital mablag'lar bo'yicha tovlamachilik ham balans vedomostlarini soxtalashtirishning oqibati sifatida keng tarkalgan. Balans borasidagi tovlamachilik jinoyatlarining eng markazida yashirilgan (xufyona) zahiralari deb nomlangan kapital yotadi-ki, u balans vedomostini ko'zdan kechirayotgan begona shaxslarga ko'rinmaydigan real kapitaldir.

Shunday qilib, kompaniyaning real kapitali vedomostlarda ko'rsatilmaydi, yana bir qism mablag'lar aksionerlardan ham yashiriladi. Bunday yashirilgan zaxiralarning mavjudligini asoslashda kompaniya raxbarlari bunday zaxiralar ogar moliyaviy holat yuzaga kelgan ziyonlarni koplash, ularni foyda topishga burish mumkinligini e'tirof etadilar.

5. Davlat huquqlarini poymol etish – daromadlarni soliqlardan yashirish, ekologik qonunchilikni buzish.

Davlat moliya tizimiga tajovuz bilan bog'liq jinoyatlar. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, korporatsiyalarning tashqi savdo operatsiyalaridan va shu kabilardan keladigan foydadan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlardan bo'yin tovlash bo'yicha faoliyatlari iqtisodiyotga sezilarli ziyon yetkazadi. Odatda, korporatsiyalarning bunday xatti-harakatlariga boshqa, masalan, subsidiyalar, kreditlar bo'yicha tovlamachilik, foydani yashirish va boshqalar sabab bo'ladi. Kompaniya va firmalar yana soxta firmalarni tashkil qilish, foydani filantrop, xayriya fondlariga (ular soliqlardan ozod qilinganlar) o'tkazish, hisob raqamlarini yashirish, balans vedomostlarini qalbakilashtirish kabi ishlardan keng foydalanadilar.

Ushbu qonunbuzarliklarning ko'pchiligi kundalik hayotimizda shunchalik ko'p uchraydiki, ularni me'yordan og'ish deb qabul qilib bo'lmaydi. Masalan, tijorat borasidagi poralarning ish yuzasidan pora (pora oluvchi o'z funksional vazifasini bajarishi uchun olgan pora. Masalan, bojxona xodimi tovarlarni bojxona nazoratidan tezroq o'tkazish uchun pora olishi) tadbirkorlik sohasida oddiy hol deb qabul qilingan. AQShda hatto xalqaro bitimlar tuzishda mavjud bo'lgan komission mukofotlar ("choy-chaqa"puli)ni soliqqa tortiladigan

summa miqdoridan (ya'ni soliqqa tortish bazasidan) chiqarib tashlashga ruxsat berilgan. Sekinlatadigan (to'xtatadigan) poralardan foydalanishgina jinoyatchilik deb hisoblanadi. Bunday poralar mas'ul shaxs o'z funktsional majburiyatlarini sekin bajarishi (bajarmasligi) uchun beriladi (masalan, bojxona xodimi kontrabandani o'tkazib yuborishi). Qonuniy va noqonuniy o'rtasidagi chegara soliq to'lashda yanada nozikdir: "soliq to'lashdan qochish"ning ikki xili mavjud – birinchisi, soliq to'lovchi qonunchilik me'yorlarining kamchiliklaridan foydalanib, soliq to'lovlarini kamaytiradi; ikkinchisi, soliq to'lovchi qonunchilikni buzgan holda o'z daromadlari hajmini yashiradi.

Iqtisodiy jinoyatlarning ko'pchilik mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan aniq ta'rifi yuq. Shuning uchun ham hozircha ularning umumlashgan bir tasnifi xususida gap bo'lishi mumkin emas. Jinoyatlar qonunlar asosida, ya'ni qaysi qonunlar buzilishiga qarab yoki jinoyatchi tajovuz qilgan ob'ekt yoki biron-bir iqtisodiy jinoyatga taalluqliligi nuqtai nazaridan guruhlanadilar. Bunday tasnifga asos qilib professor G. Kayzer (Germaniya) tavsiya etgan guruhlashni ko'rsatish mumkin.

1. Bank aksiyadorlik jamiyatlari tizimidagi, kredit muassasalari, sug'urta va erkin raqobat (ishonchni suiiste'mol qilish), soxta bankrotlik hamda mualliflik huquqi va markirovka qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar.

2. Soliqlarni to'lashdan bosh tortish, subsidiyalar sohasidagi ko'zbuyamachilik boj to'lovi bilan bog'liq jinoyatlar, ta'magirliq poraxo'rlik.

3. Mehnat muhofazasi sohasidagi qonunchilikni buzishlar, iste'molchilarga qarshi hamda atrof muhitni muhofaza qilishga qarshi qaratilgan jinoyatlar.

4. Boshqa tovlamachiliklar va chayqovchilik.

Professor N. Shneyder iqtisodiy sohadagi jinoyatchilarning ob'ekti bo'lmish iqtisodiy tizimning uch sektorini alohida ajratadi:

1) bank kredit sohasiga qarshi bo'lgan jinoiy tajovuzlar;

2) qurilish sohasida va ko'chmas mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar;

3) transport va sayohat, turizm sohasida amalga oshiriladigan jinoyatlar.

XX asrning 80-90 yillarida g'arb mutaxassislari o'zlarining ushbu muammolarga bag'ishlangan asarlarida sof iqtisodiy jinoyatlarning to'la va aniq ro'yxatini tuzishga harakat qildilar va bu ishda ular asosiy e'tiborni korporatsiyalarda amalga oshirilgan jinoyatlarga qaratdilar. Olimlar fikricha, korporatsiyalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar iqtisodiy jinoyatchilik ta'rifiga mos tushadi. Ularga quyidagi jinoyatlar turini kiritish mumkin.

1. Aksioner, kompanon va ta'sischilarga ziyon yetkazilgan kapital mablag'larni suiiste'mol qilishdan kelib chiqadigan jinoyatlar (buxgalteriya hujjatlaridagi, aksiyalar bo'yicha sodir etilgan firibgarliklar, yo'q kompaniyalarga aksiyalarni sotish va hokazolar).

2. Depozit kapital (banklarga joylashtirilgan pul yoki qimmatbaho qog'ozlar)ni suiiste'mol qilish, kreditorlarga ziyon yetkazish (soxta bankrotlik, tovlamachilik, subsidiyalar bilan firibgarlik qilish).

3. Erkin raqobat qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar.

4. Iste'molchi huquqini buzish bilan bog'liq jinoyatlar.

5. Davlatning moliya tizimini buzishga qaratilgan jinoyatlar (masalan, foydani yashirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, ishlab chiqarish va savdo qonun qoidalarini buzish va boshqalar).

6. Tabiatni muhofaza qilish bilan bog'lik jinoyatlar (masalan, atrof-muhitni ifloslantirish, qurilish normalari va nizomlarini buzish va boshqalar).

7. Ijtimoiy cyg'ypta va nafaqa to'lash sohasidagi, texnika xavfsizligini buzish bilan bog'liq jinoyatlar.

8. Tijorat sohasidagi poraxurlik.

9. Kompyuter texnikasi orqali amalga oshiriladigan jinoyatlar (xakerlar).

Jinoyatning bu turlari o'tgan asrning 70-yilaridan boshlab olimlar tomonidan iqtisodiy jinoyatlar toifasiga kiritildi, chunki ular natijasida yetkazilgan zararlar juda katta miqdorni tashkil qila boshladi. Shuni ta'kidlash lozimki, kompyuter jinoyatining hammasi ham iqtisodiy jinoyatlar toifasiga kirmaydi, ularning ba'zilari oddiy tovlamachilik bo'lib, bu jinoyat zamonaviy texnika yordamida sodir

etiladi. Ba'zi mutaxassislarning fikricha, bunday jinoyatlarni umumiy jinoyatlar toifasiga kiritish lozim. Ammo olimlar iqtisodiy jinoyatlar toifasiga ma'lumotlarni yoki dasturlarni soxtalashtirish (kompyuter manipulyatsiyalari), kompyuter sabotaji va mashina vaqtini o'g'irlash kabi jinoyatlarni qo'shmoqdalar.

Kompyuter jinoyatlari. Kompyuter jinoyatlarini, odatda, EHMlarda ishlash huquqiga ega xizmatchilar sodir etadilar. Xizmatchilar, ma'muriyat vakillari, boshqaruvchilar professional dastur tuzuvchilarga nisbatan ko'proq aybdor bo'ladilar. AQShda sodir etilgan kompyuter jinoyatlarining har mingtadan yettitasigina professional dastur tuzuvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Kompyuter jinoyatlari bilan bog'liq muammolarning yaqin yillarda yuzaga kelishiga qaramasdan, ularni tasniflash masalasi aniq yo'lga tushgan. Olimlar ushbu jinoyatchilikniig quyidagi turlarini ajratadilar:

1. Jismoniy suiiste'mollik - o'z ichiga:

- anjomlarni buzish, yo'qotish;
- dastur yoki axborotni yo'q qilish;
- yolg'on, soxta ma'lumotlarni kiritish;
- turli yetkazuvchilar (disketa, perfokarta va boshqalar) dagi axborotlarni o'g'irlashni qamrab oladi.

2. Operatsion suiiste'molchilik o'z ichiga firibgarlikni (o'zini boshqa shaxs o'rnida tavsiya etish), sanksiyasiz kompyuterlarning oxirgi malumotlarini chiqaruvchi qurilmalardan foydalanishni oladi.

3. Dasturlar bo'yicha suiiste'mollik o'z ichiga mantiqiy bomba, troyaliklar oti va boshqa shu kabi nomlar bilan atalgan dasturlarni matematik ta'minlanganlik tizimiga kiritishni oladi. Birinchi dasturda kompyuterga muayyan bir davr ichida topshiriq kiritiladi yoki sanksiyalanmagan harakat qo'shiladi, ikkinchisida esa oddiy mavjud dasturga suiiste'molchining topshirig'i kiritiladi.

4. Elektron suiiste'molliklar o'z tarkibiga sxemali va apparatli o'zgarishlarni, muayyan bir davrda dasturni o'zgartirish kabi natijalarni beruvchi o'zgarishlarni oladi.

Olimlar o'rtasida bu turdagi jinoyatlarni yanada qisqa tavsiflash fikrlari mavjud: 1) EHMlarga yoki ularning alohida qismlariga nisbatan vandalizm; 2) EHMdan axborotni o'g'irlash; 3) EHM orqali

yoki uning yordamida o'g'irlik sodir etish. Birinchi turdagi jinoyatlar EHM egasiga ziyon yetkazish, EHMni ishdan chiqarish maqsadida amalga oshiriladi. Jinoyatchi tomonidan o'chirib yuborilgan magnit tasmadagi axborotni tiklash juda ko'p vaqtni va katta pul mablag'larini taqozo etadi. EHMlardan axborotni hamda qimmatli dasturlarni o'g'irlash raqibni obro'sizlantirish yoki raqib firma ma'lumotlarini tarqatish maqsadida amalga oshiriladi. Bu jinoyatlarni sodir etadiganlar firma, kompaniya to'g'risida ma'lumotlarga hamda EHMga kirish imkoniyati bo'lgan shaxslardir. Bunday xatti-harakatdan maqsad kompyuter yordamida shaxsiy maifaatni qondirishdir.

Jinoyatchilar tovar va mulklarni o'g'irlash bilan birga, EHMga tovarlarni belgilangan joyga jo'natish xususida buyurtmalarni kiritishi va shunga yarasha qo'llanmalarni ishlab chiqishi mumkin. Eng ko'p xavf moliya sohasidagi jinoyatlardan yuzaga keladi. Hisoblash texnikasi orqali amalga oshirilgan oddiy firibgarliklar jinoyatchilarga soxta jamg'armalarni va ularga foydalarni olish imkonini beradi. Bir necha yillik tajriba hamda tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborotning EHM orqali o'tishining barcha bosqichlarida u jinoiy tajovuzga duch kelishi mumkin ekan. Jinoyatchilar EHMlarga yolg'on yoki eskirgan, soxta hisob raqamlari va shu kabilarni kiritishlari va natijada katta daromadlarni o'zlashtirishlari mumkin.

4.3.Xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish muammolari

Iqtisodiy hayotni tartibga soluvchi huquq tarmoqlari ichida muhim o'rinni ma'muriy-huquqiy tartibga solish va uning asosiy shakli bo'lgan monopoliyalarga qarshi kurash hamda moliyaviy qonunchilik egallaydi. Ammo oxirgi o'n yillikning o'ziga xos tomoni iqtisodiy faoliyatga nisbatan jinoyat huquqining rivojlanishi bo'ldi.

G'arb mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xosligi turli davrlarda xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan boshqarishning bir xil emasligidadir. Ba'zida davlatning nazorat funksiyasi kuchaygan, ba'zida esa iqtisodning rivojlanish darajasiga qarab susaygan bo'ladi. Bu moyillikni AQSh misolida yaqqol ko'rish mumkin. AQSh da G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq davlat sektori hech qachon katta ulushni tashkil qilmagan, keng

hajmdagi milliylashtirish o'tkazilmadi, ya'ni davlat tomonidan tartibga solish davlat boshqaruviga aylanmadi.

Amerika hukumati boshqa mamlakatlarda qo'llanilgan dunyo bozoridagi raqobat kurashida o'z pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida trestlarga yordam berish, rag'batlantirish siyosatidan foydalanmagan. AQSh sharoitida xo'jalik faoliyatini davlat tomonidan boshqarishning asosiy ko'rinishi antitrust qonunchiligini yaratish bilan bog'liq bo'lgan. Bu faoliyat, birinchi navbatda, alohida monopolistik uyushmalarning o'z manfaatini ustun qo'yish siyosatiga qarshi halol raqobatni saqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu borada yaratilgan qonunchilik uncha katta bo'lmagan monopoliyalar manfaatini himoya qilishga qaratilgan.

Ma'lumki, katta monopolistik uyushmalar, gigant korxonalar raqobat kurashining keskinlashuviga sabab bo'ladi. Qonunlar ichida 1890 yil qabul qilingan Sherman qonuni alohida o'rin tutadi. Bu qonun o'zga normativ moddalardan farqli o'laroq, monopoliyalarni qonundan tashqarida deb e'lon qilgan va bu qonunga itoat etmaganlar uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan. Sung Kleyton (1914 yil), Robinson-Petman (1936 yil), Seller Kefauer (1950 yil) va boshqa qonunlar qabul qilingan.

Ammo hayot shuni ko'rsatdiki, trestlar faoliyatini boshqarish umuman olganda, kam samarali bo'lib kelmoqda. Qonunlarning bo'zishi xususidagi ishlarni hal etish yillar davomida tugallanmay qolgan. Bu esa, o'z navbatida, yirik monopolistik uyushmalarga bir necha, ba'zi hollarda o'n yillab o'z faoliyatlarini davom ettirish, imtiyozlardan foydalanish natijasida katta-katta daromadlar olish imkonini bermoqda. AQSh da har yili minglab firma qo'shilishib, yiriklashib bormoqda. 70-yillarda ularning soni yiliga 2 mingdan oshib ketgan edi. Bunday sharoitda davlat tomonidan qattiq nazorat qilish zaruriyati tutilgan, ayniqsa, 70-yillarda bu ishga katta e'tibor berilgan va, birinchi navbatda, iste'molchining huquqini himoya qilish (masalan, XX asrning 60-yillarida 20 dan ortiq, 70-yillarda esa 150 dan ziyod qonun iste'molchilar huquqini himoya qilish)ga qaratilgan bo'lsa, 80-yillarda bu siyosat borasida bir oz yumshoqlik, sustkashlik kuzatildi.

Hukumat bu yillarda ishlab chiqarishni konsentratsiyalash, kapitalning yirik korporatsiyalar qo'lida jamlanishiga yo'l berdi.

Natijada yangi yirik korporatsiyalar davri boshlandi. Ammo mutaxassislarning fikricha, so‘nggi yillarda bunday siyosatning salbiy natijalari namoyon bo‘la boshladi. Jamoatchilik fikrini o‘rganish korporatsiyalar siyosatiga qarshi chora-tadbirlarni, ular faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatmoqda.

1985 yildan boshlab, yana eski monopoliya va raqobat bo‘yicha qonunchilikka rioya qilish kuchaytirildi. 1981-1987 yillar mobaynida Antitrust boshqarmasi yiliga o‘rtacha 80 tadan jinoiy ishi sudga yo‘lladi.

Trestlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik nafaqat AQShda, balki Yevropa mamlakatlarida ham mavjud. Yevropada bu borada vujudga keltirilgan tizim amerikaliklar tizimidan bir oz farq qiladi. Kanada, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda ham shunga o‘xshash qonunlar qo‘llaniladi.

Yevropa tizimi nafaqat Yevropa mamlakatlarida, balki Avstraliya, Yangi Zelandiya va boshqa mamlakatlarda ham qabul qilingan. Bu tizim asosida (Sherman qonunidan farqli o‘laroq) monopoliyalarni g‘ayriqonuniy deb e‘lon qilish yotmaydi. Monopoliyalar mavjudligi tan olinib, qonunlar ular tomonidan yo‘l qo‘yilgan jinoiy ish va mumkin bo‘lgan suiste‘mliklarga qarshi kurash choralarini belgilaydi.

Germaniya Federativ Respublikasidagi tizim AQSh va Yevropada shakllangan tizimlar o‘rtasidagi oraliq tizimdir. G‘arb mutaxassislarning fikricha, umuman olganda antimonopol qonunchiligi iqtisodiy jinoyatlarning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan korporatsiyalar jinoyatiga qarshi qaratilgan vositalardan biridir.

Ko‘pgina qonuniy me‘yorlar iqtisodiy jinoyatlarga qarshi iqtisodiy faoliyat sohasini tartibga solishga qaratilgan. Rivojlangan bozor munosabatlari mavjud mamlakatlarda davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvi savdo sohasidagi, qishloq xo‘jaligini tartibga soluvchi, soliq, bank va moliya qonunchiligi orqali amalga oshiriladi. Bu qonunlarning ko‘pchilik moddalarida sodir etilgan huquqbuzarliklarga jinoiy javobgarlik ko‘zda tutilgan.

Bu sohadagi qonunchilikning rivojlanishi iqtisodiy jinoyatlarga nisbatan, mas‘uliyatni kuchaytirish tomon bormoqda. Bunga yorqin misol sifatida XX asrning 30-40 yillarida AQSh da qabul qilingan bir qator qonunlarni keltirishimiz mumkin. Ularda barcha xatti-harakat

uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. 1933 yilda qabul qilingan Qimmatbaho qog'ozlar to'g'risidagi, 1934 yilda qabul qilingan Qimmatbaho qog'ozlarni ayirboshlash to'g'risidagi, Kredit shartnomasi to'g'risidagi (1939 yil), Qimmatbaho qog'ozlar egasining himoyasi to'g'risidagi (1940 yil) va boshqa qonunlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Qonunchilik rivojlanishining keyingi bosqichi XX asrning 70- 80 yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda barcha rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi maxsus qonunlar qabul qilindi, mavjudlari muayyan darajada ko'rib chiqilib, jazolarni og'irlashtirish tomonga o'zgartirildi. Xususan, AQShda: Tovar ayirboshlash to'g'risidagi (1976 yil). Bank jamg'armalari siri to'g'risidagi (1976 yil), Trestlarga qarshi protsedura va sanksiyalar to'g'risidagi (1974 yil) qonunlarga asosan oldingi qonunlarga o'zgartishlar kiritilib, bu boradagi g'ayriqonuniy xatti-harakatlar og'ir jinoyatlar turkumiga kiritildi va mas'uliyat kuchaytirildi.

Jinoyatchilikni nazorat qilish to'g'risida (1976 yil) qabul qilingan qonunda AQShda bu bo'yicha mutasaddi tashkilotga trestlarga qarshi qaratilgan qonunlarni buzganligi uchun korporatsiyalarni jinoiy javobgarlikka tortish borasida shtatlarga yordam berish va ular imkoniyatini oshirish maqsadida mablag'lar ajratish yuklatilgan.

1977 yili qabul qilingan Xalqaro korrupsiya to'g'risidagi qonun Amerika konsernlariga xorijiy mamlakatlarning rasmiy vakillariga pora berishni tasdiqlaydi. 1978 yildagi qonun asosida tibbiy yordam ko'rsatishning Mediker va Medikeyd dasturlari bo'yicha firibgarlik uchun sanksiyalar kuchaytirilgan va Sog'likni saqlash, Ta'lim hamda Ijtimoiy ta'minot vazirliklariga har qanday vrach yoki tibbiyot xodimiga o'sha dasturlarda ishtirok etishni taqiqlash huquqini beradi. Kompyuter tizimi himoyasi to'g'risidagi (1979yil), Kredit kartochkalarini soxtalashtirish va qalbakilashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi (1984 yil) qonunlar AQSh Qonunlar to'plamining 1029 bo'limdan iborat Moliya sohasida va ularga kirish vositalarini ishlab chiqarish bilan bog'liq nokonuniy faoliyat to'g'risidagi 18-bo'limini to'ldirdi. Bu bo'lim soxta kirish vositalarini –kredit kartochkalari, raqamlar, hisob-kitob schyoti raqamlarini ishlab chiqarish, foydalanish yoki o'zga shaxsga berish borasida sodir etilgan huquqbuzarliklarni o'z ichiga oladi.

GFRda 1974 yili ko'pgina huquqbuzarliklarga jinoiy javobgarlik belgilangan, vijdotsiz raqobat to'g'risidagi qonunga (1909 yil qabul qilingan) o'zgartirishlar kiritilgan. 1976 hamda 1986 yillarda keyinchalik Jinoyat kodeksiga qo'shilgan iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash qonunlari qabul qilingan.

1976 yili qabul qilingan qonunda soxta bankrotlikka, kredit va subsidiyalar bo'yicha firibgarlikka, sudxo'rlikka javobgarliklar ko'zda tutilgan. Shuningdek, kompyuter yordamida firibgarliq soxta pul ishlash, sanoat shpionaji, kompyuter sabotaji, cheklar va kredit kartochkalar bo'yicha suiiste'molchiliklar, turli mukofotlarni o'zlashtirishlarga javobgarlik ko'zda tutilgan yangi qonun ham qabul qilingan.

Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash chora-tadbirlari xususida gapirganda, shuni ham nazarda tutish kerakki, bu voqelik yangi bo'lmasa-da, biron-bir mamlakatda shu kunga qadar ularga qarshi kurashning kompleks dasturi ishlab chiqilmagan. Mavjud dasturlar yo cheklangan yoki ko'z-ko'z qilish uchun ishlab chiqilgan. Bunday holatning yuzaga kelishi iqtisodiy jinoyatlarning, bir tomondan, jamiyatning bazis munosabatlari bilan, ikkinchi tomondan, ustqurma munosabatlari bilan bog'liqligidadir. Ba'zi tadqiqotchilar iqtisodiy jinoyatlarni bozor munosabatlarining immanent sharti, erkin tadbirkorlikning mavjudligi, uni ta'minlash uchun jamiyat to'laydigan majburiy to'lov mukofotdir, deb ta'kidlaydilar. Bunday qarashlar muayyan ravishda mazkur jinoyatlarga qarshi kurash olib borishni murakkablashtiradi.

Bu o'rinda yana iqtisodiy o'sish sikllari va iqtisodiy jinoyatchilik o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini ham ta'kidlash lozim. Iqtisodiy inqirozlar davrida, bir tomondan, iqtisodiy jinoyatlarning o'sishi (og'ir iqtisodiy sharoitda har qanday vositalar bilan moddiy holatini yaxshilashga urinish bilan bog'liq), boshqa tomondan, bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashning kuchayganligini kuzatish mumkin (bunday holat iqtisodiy jinoyatlarning o'ziga xos hususiyati bilan bog'liq bo'lib, iqtisodga yoki uning alohida tarmog'iga zarar yetkazadigan eng muhimi, bu jinoyatlar inqirozlar davrida, iqtisod zaiflashganda namoyon bo'ladi).

Iqtisodiy jinoyatlarni tag-tugi bilan yo'q qilish mumkin emasligini tushungan g'arb mutaxassislari ularning masshtablarini cheklash

zaruriyati xususida fikr bildirmoqdalar. Ammo bu masalani yechishda bir qator ilmiy, amaliy va texnik qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashni murakkablashtiradigan yuqorida qayd etilgan iqtisodiy jinoyatlar tushunchasining noaniqligi, qonunchilikning takomillashmaganligi, bu jinoyatning aniq, muayyan jabrlanuvchisi yoʻqligi va boshqalar) omillardan tashqari, bunday jinoyatlarni aniqlash va ochish katta muammo ekanligini ham taʼkidlash mumkin.

Nazorat savollar

1. Nima uchun sobiq rejali iqtisodiyot sharoitida xufyona iqtisodiyot vujudga kelgan?

2. Buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida davlat sektoridagi “oq yoqalilar” xufyona iqtisodiy faoliyatining asosiy shakllari nimalardan iborat?

3. Nima uchun aynan XX asrning 70-80-yillarida sovet iqtisodiyotida xufyona iqtisodiyot miqyoslari kuchaygan?

4. Gʻarb sovetologlari Brejnevizm deb atalgan davrga qanday izoh berganlar?

5. Bozor xoʻjaligining tijorat sohasida xufyona iqtisodiy faoliyatning “oq yoqali” shakllari nimalardan iborat?

6. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy jinoyatlarning asosiy turlarini tavsiflab bering.

7. Soxta bankrotlikning maznuni nimadan iborat va u qanday salbiy oqibatlariga olib keladi?

8. Isteʼmolchilar huquqlarini buzishga qaratilgan iqtisodiy jinoyatlarga misollar keltiring.

9. Xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish tajribalarini izohlab bering.

10. Oʻzbekistonda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi qanday chora-tadbirlar koʻrilmogʻda?

11. Oʻzbekistonda koronavirus tarqalishi munosabati bilan kiritilgan karantin davrida qanday iqtisodiy jinoyalarga qarshi qanday kurash olib borildi.?

V BOB. KORRUPSIYA VA UNGA QARSHI KURASH

5.1. Korruptsiyaning mohiyati, turlari va evolyutsiyasi

5.2. Korruptsiyaning vujudga kelish sababalari

5.3. Korruptsiyani o'ldirish va uning ko'lamlari.

5.4. Korruptsiyaning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri

5.5. Korruptsiyaga qarshi kurash yo'llari

5.1. Korruptsiyaning mohiyati, turlari va evolyutsiyasi

Korruptsiya (lat.corruptio – aynish, poraga sotilish) – mamlakat iqtisodiy resurslariga, davlat mulkini taqsimlash jarayonlarida uning bir qismiga ega bo'lish maqsadida uyushgan jinoiy guruhning shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug'-aymoqlarining manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yuvchi davlat xizmati amaldorlarini o'z domiga ilintirib, ulardan foydalanishi va ular bilan birikib, qo'shib ketishidir. Korruptsiya – xavfsizlikka tahdid soluvchi hodisa va xufyona iqtisodiyotning ko'rinishidir⁵³.

Xalqaro hujjatlarda birinchi bor korruptsiya tushunchasiga BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan "Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksi"da to'xtalangan bo'lib, unda korruptsiya deganda "... mansabdor shaxsning har qanday shakldagi mukofot evaziga o'z mansab vakolatlari doirasida mazkur mukofotni beruvchi shaxs manfaatlarini ko'zlab, lavozim yo'riqnomasi qoidalarini buzgan holda yoki buzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki harakatsizligi" tushuniladi deyilgan. BMT Bosh Assambleyasining 1990 yil Gavanada korruptsiya muammolariga bag'ishlab o'tkazilgan mintaqalararo seminarida qabul qilingan Davlat xizmatchilari uchun xalqaro xulq-atvor kodeksida "korruptsiya – bu mansabdor shaxslarning shaxsiy yoki guruh manfaatlarini ko'zlab mansabini suiiste'mol qilish, shuningdek, davlat xizmatchilari tomonidan o'zlari egallab turgan xizmat vazifalaridan g'ayriqonuniy foydalanish ko'rinishlaridir", deyiladi.

⁵³ Qarang: Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодиётга оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати.-Т.: "ABU MATBUOT-KONSALT",2017.- 292-бетлар.

Yevropa Kengashi guruhining korrupsiya muammolari bo'yicha 1995 yil 22-24 fevralda Strasburgda o'tkazilgan birinchi sessiyasida "korrupsiya – davlat yoki xususiy tizim mansabdor shaxslarini ularning mansab vakolatlari doirasida o'zlarining vazifalarini buzib bajarishlari uchun ularni pora evaziga og'dirib olinishidir", deb ta'rif berilgan.

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiyaga eng qisqa, lekin keng qamrovli ta'rif quyidagicha berilgan: "Korrupsiya - bu shaxsiy naf ko'rish maqsadida davlat hokimiyatini suiiste'mol qilishdir". Korrupsiya – mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarini shaxsiy boylik orttirish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat jinoyat. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham korrupsiya deyiladi. Korrupsiya davlat apparati va parlament faoliyatida avj oladi. Saylanadigan lavozimlarga va deputatlikka nomzodlar saylov kompaniyasini o'tkazishda xarajatlarni to'lash korrupsiya ko'rinishlaridan biridir. Keyinchalik saylangan kishi turli imtiyozlar, yordam, xizmatlar ko'rsatib "o'z qarzini" qaytaradi, uzadi. Aksariyat korrupsiya lobbizm (monopoliyalarning qonunchilik organlari va amaldorlarga tazyiq o'tkazish bilan shug'ullanadigan muassasa va agentlari tizimi) bilan bog'langan⁵⁴.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuniga binoan *korrupsiya* – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish; *korrupsiyaga oid huquqbuzarlik* – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish; *manfaatlar to'qnashuvi* – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning,

⁵⁴ Qarang: Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодиётга оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати.-Т.: "ABU MATBUOT-KONSALT",2017.- 292-293-бетлар.

tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat⁵⁵.

Umuman olganda, korrupsiya – bu o'z xizmat lavozimidan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanishdir. U yashirin iqtisodiyotning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Shu sababdan, korrupsiyaning iqtisodiy tahlili faqatgina kapitalistik dunyoda emas, balki sobiq ittifoq hududida ham keng rivoj topgan⁵⁶.

N. Makiavelli korrupsiyaga qiziqarli ta'rif bergan: shaxsiy manfaatlar yo'lida jamoa imkoniyatlaridan foydalanish. Korrupsiya – bu faqatgina poraxo'rlik emas, uning ko'lami ancha keng. Bu tushuncha o'zida ham poraxo'rlikni (kasbiy burchini bajarmaslik uchun mukofot berish), ham nepotizmni, ham shaxsiy maqsadlarda jamoa mablag'larini noqonuniy o'zlashtirishni mujassamlashtiradi. Ko'pincha korrupsiya deganda hukumat byurokratlarini tomonidan shaxsan boyib ketish uchun fuqarolardan pora, noqonuniy pul daromadlari olish tushuniladi. Kengroq ma'noda olganda korrupsion munosabatlarning ishtirokchilari bo'lib faqatgina davlat amaldorlari emas, balki firma menejerlari bo'lishlari mumkin; porani faqatgina pul bilan emas, balki boshqa shakllarda berish mumkin; korrupsion munosabatlarning tashabbuskorlari sifatida davlat amaldorlari emas, balki tadbirkorlar namoyon bo'ladi.

O'z xizmat lavozimini suiste'mol qilish shakllari turli-tumanligi sababli, turli mezonlar bo'yicha korrupsiyani turli shakllarini ajratishadi (qarang: 5.1.1-jadval).

⁵⁵ Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши кураш тўғрисида”ги қонуни. 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419-сон.

⁵⁶Коррупсия муаммолари quyidagilarda yoritilgan: *Жилина И.Ю., Иванова Н.Н.* Экономика коррупции // Социально-экономические аспекты коррупции. М., 1998. С. 30-62. Коррупсия iqtisodiyoti bo'yicha quyidagilarni ham o'rganib chiqish zarur: *Полтерович В.* Факторы коррупции // ЭИММ. 1998. № 3. С. 30-39; *Левин М., Цирик М.* Коррупция как объект математического моделирования // ЭИММ. 1998. № 3. С. 40 - 58; *Левин М., Цирик М.* Математическое моделирование коррупции // ЭИММ. 1998. №4. С. 40-62.

5.1.1-jadval


Korrupsion munosabatlarning tipologiyasi⁵⁷

Korrupsiyani tiplarga ajratish mezonlari	Korrupsiya turlari
Kim o'z xizmat lavozimini suiste'mol qiladi	<ul style="list-style-type: none"> • Davlat (davlat amaldorlari korrupsiyasi); • Tijorat (firma menejerlari korrupsiyasi); • Siyosiy (siyosiy arboblar korrupsiyasi)
Kim korrupsiya munosabatlari tashabbuskori hisoblanadi	<ul style="list-style-type: none"> • Rahbar shaxsiy tashabbusi bilan porani so'rab olishi (ta'magirlik) • So'rovchi tashabbusi bilan pora berib, sotib olish
Kim pora beruvchi	<ul style="list-style-type: none"> • Individual pora (fuqaro tomonidan) • Tadbirkorlik porasi (qonuniy firma tomonidan) • Pora berib, jinoiy sotib olish (jinoiyatchi tadbirkorlar, masalan, narkomafiya tomonidan)
Pora oluvchining korrupsiya mavjudligidan oladigan manfaati shakli	<ul style="list-style-type: none"> • Pul ko'rinishidagi poralar • Xizmatlar almashuvi (patronaj, nepotizm)
Pora beruvchi nuqtai nazaridan korrupsiya maqsadlari	<ul style="list-style-type: none"> • Tezlashtiruvchi pora (porani oluvchi o'z funksional majburiyatini tezroq bajarishi uchun beriladi) • Sekinlashtiruvchi (to'xtatuvchi) pora (porani olgan shaxs o'z xizmat majburiyatlarini buzishi uchun beriladi) • "Yaxshi munosabatda bo'lish uchun" pora (porani olgan shaxs pora beruvchini behuda bezovta qilavermasligi uchun beriladi)
Korrupsion munosabatlarning markazlashuvi darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • Demarkazlashgan korrupsiya (har bir pora beruvchi shaxsiy tashabbusi asosida faoliyat yuritadi) • Markazlashtirilgan korrupsiya - «quyidan yuqoriga» (quyidagi amaldorlar tomonidan olinadigan pora ular va yuqoriroqdagi amaldorlar o'rtasida taqsimlanadi) • Markazlashtirilgan korrupsiya -

⁵⁷ Теневая экономика: учеб. пособие / И.П. Овсянникова; ФГБОУ ВО РГУПС. – Ростов н/Д, 2015. – С.22-23.

	«yuqoridan quyiga» (yuqori darajadagi amaldorlar tomonidan olinadigan poralar qisman ularning qo‘l ostidagilarga o‘tadi)
Korrupsion munosabatlarning tarqalish ko‘lami	<ul style="list-style-type: none"> • Quyi korrupsiya (hukumatning quyi va o‘rta qatlamlarida) • Yuqori korrupsiya (yuqori lavozimdagi amaldorlar va siyosatchilarda) • Xalqaro korrupsiya (jahon xo‘jaligi munosabatlari sohasida)
Korrupsion aloqalarning muntazamligi (amalga oshirilishi) darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • Epizodik korrupsiya • Tizimli (institutsonal) korrupsiya • Kleptokratiya (korrupsiya hukumat munosabatlarining ajralmas tarkibiy qismi sifatida)

Iqtisodchi Berdhenning fikriga ko‘ra, makroiqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichiga eng katta salbiy to‘lqinni olib kiruvchi omil aynan korrupsiya hisoblanadi. Uning ko‘rinishlari turlicha bo‘lishi mumkin: poraxo‘rlik, tovlamachilik, firibgarlik, nepotizm (shaxsiy aloqalar asosida “o‘z qanoti ostiga olish”) va h.k. (5.1.1-rasm).



5.1.1-rasm. Korrupsiyaning asosiy turlari

Poraxo‘rlik xufyona iqtisodiyotning bir turi bo‘lib, turli konsultantlar, agent, vositachilarga, rasmiy shaxslarga xizmatlariga haq to‘lash ham hisoblanadi. Bunda pora beruvchi naf yoki foyda olish kabi maqsadlarini amalga oshirish maqsadida unga sharoit

yaratib beruvchi mansabdor, vakolatli shaxslarga pora beradi⁵⁸.

Poraxo‘rlikni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

- biznesni boshlash uchun ruxsat olish, ro‘yxatdan o‘tish, qulay sharoit yaratishga intilish;
- korxonalar raqobatchilarini yo‘ldan olib tashlash, ularni bozordan, faoliyat sohasidan surib chiqarish;
- davlat xizmatlariga, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishga erishish, bu yo‘lda mansabdor shaxslar tazyiqi, qarshiligini yengish;
- soliq to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlikni kamaytirishga intilish;
- tartibga solinuvchi narxni oshirish uchun ruxsat olish;
- o‘z xodimlari, o‘zining va oilasining, biznesining xavfsizligini ta‘minlash maqsadida pora berishga majbur bo‘lish⁵⁹.

Tovlamachilik – aldash, laqillatish, qo‘rqitish yo‘li bilan kishining mol-mulki, pulini olib qo‘yish, undan foydalanish; firibgarlik. *Tovlamachi* – kishilarni tovlab, laqillatib, qo‘rqitib kun ko‘ruvchi; firibgar⁶⁰.

Firibgar – firib beruvchi, hiylagar, aldoqchi; aldamchilik, tovlamachilik, makru hiyla bilan shug‘ullanuvchi kimsa. **Firibgarlik** – aldamchilik, hiylagarlik. *Firibgarlik* – aldov yoki ishonchni suiste‘mol qilish yo‘li bilan begona mulk yoki mulkka nisbatan huquqni qo‘lga kiritish (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 168-modda). *Firibgarlik* - korxonalar rahbariyati yoki xizmatchilari orasidan bir yoki bir nechta shaxsning hisob va hisobot ma‘lumotlarini ataylab noto‘g‘ri aks ettirishi va taqdim etishini, shu jumladan, hisob yozuvlarini qalbakilashtirish va boshlang‘ich hujjatlarni soxtalashtirish, hisob yozuvlarini qasddan o‘zgartirish, xo‘jalik operatsiyalari mazmunini o‘zgartirish va qonunchilik hamda korxonalar siyosatida o‘rnatilgan qoidalarni buzish. *Firibgarlik* – rahbariyat, boshqaruvni amalga oshiruvchilar, xodimlar orasidan bir

⁵⁸ Маънавият: изоҳли луғат. –Т.: Фафур Фулом НМИУ, 2009. 476-477-бет.

⁵⁹ Qarag: Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность: Ростов Н/Дону: Феникс, 2007. С164-165.

⁶⁰ Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодийта оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати.-Т.: “ABU MATBUOT-KONSALT”,2017.- 292-293-бетлар.

yoki bir nechta kishi yoki uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy va adolatsiz manfaat olish uchun aldov yordamida ataylab qilingan harakatdir. “Firibgarlikka qo‘l urgan odamlar odatda o‘z harakatlarini oqlashga arziydigan harakatlar, deb ishonadilar” (Amerika Diplomli buxgalterlar instituti, 2003). Bank sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, firibgarlik qilgan xodim odatda o‘zi aldayotgan korxonada ko‘p yillik stajiga ega bo‘ladi. Asosan, bular vakolatlarga ega bo‘lib, ilgari o‘z ishiga nisbatan e’tiroz va tanbehlar olmagan muhandis-texniklar sirasiga kiruvchi xodimlardir. Ko‘pincha ular firibgarlik qilish uchun ruxsat etilgan kompyuter tizimlaridan foydalanadilar, qolaversa, bu ishni asosan bankning oddiy ish soatlarida qiladilar⁶¹.

Korrupsiya keng miqyosda hisob-kitob olib boruvchi va nazoratni amalga oshiruvchi har qanday markazlashgan davlat faoliyatining orqa tomonidir. Korrupsiya o‘zi paydo bo‘lgan muhit – davlat kabi qadimiydir. Qadimgi Hindistonning Manu Qonunlarida (eramizdan avvalgi II asr) “amaldorlar birovning mol-mulkini egallab olishga intiluvchi“ va “badniyatlik maqsadida pul undiruvchi” ekanliklari to‘g‘risida gapirilgan.

Professional davlat amaldorlari hali bo‘lmagan antik tarixning dastlabki bosqichlarida korrupsiya mavjud bo‘lmagan.

Ibtidoiy va erta sinfiy jamiyatlarda yo‘lboshchi yoki sarkardalarga yordam so‘rab qilingan murojaat uchun haq to‘lash keng yoyilgan. Davlat apparati murakkablashib, uning professionalligi oshib borgani sari vaziyat ham o‘zgarib bordi. Oliy toifadagi hokimiyat quyi pog‘ona xizmatchilariga qat’iy belgilangan haq to‘lashni talab qilgan davrda ular murojaat qiluvchi fuqarolardan yashirin ravishda o‘z xizmat majburiyatlarini bajarganliklari uchun qo‘shimcha xaq olishga intilganlar.

Antik tarixning so‘ngi davrida korrupsiya vujudga kelib rivojlana boshlandi. Rim imperiyasida shunday davlat amaldorlari paydo bo‘lganda, ular haqida “u boy provinsiyaga kambag‘al bo‘lib kelib, kambag‘al provinsiyadan boy bo‘lib ketdi”, deb gapirishar edi. Bu

⁶¹ Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодийта оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати.-Т.: “ABU MATBUOT-KONSALT”,2017.- 292-293-бетлар.

davrda rim huquqida «*corrumpire*», ya'ni aynish, poraga sotilish atamalarining sinonimi bo'lib mansabni suiste'molchilikning barcha turlarini ifodalashga xizmat qilgan.

Markazlashgan hukumat hokimiyati kuchsiz bo'lgan davrda (masalan, Yevropada o'rta asrlarning dastlabki bosqichlarida) xizmat holatidan aholidan shaxsiy manfaat uchun pora olish umumqabul qilingan normaga aylangan edi. Rossiyada o'rta asrlarda voyevoda va amaldorlar g'aznadan ish haqi va pomestyalar olishdan tashqari nizolarni hal qilganliklari uchun aholidan haq olishlari odatiy hol hisoblangan.

Davlat hokimiyati markazlashib borgani sari fuqarolarning mustaqilligi tobora cheklanib borgan. Bu esa quyi va oliy toifadagi amaldorlar tomonidan qat'iy nazoratdan qochishni istagan fuqarolar foydasiga qonunni yashirincha buzishga yo'l ochgan. Poraxo'r amaldorlarni omma oldida qattiq jazolash ham odatda natija bermagan, chunki ularning o'rnini yangilari egallagan. Markazlashgan hukumatda amaldorlarni yalpi nazorat qilish imkoniyati bo'lmagan. Shu boisdan korrupsiyaning "chidasa bo'ladigan normasi" bilan cheklanishga, faqat uning eng xavfli ko'rinishlariga qarshi choralar ko'rilgan. Bunday holat ayniqsa, osiyo ishlab chiqarish usuli jamiyatlarida mavjud bo'lgan. Mustamlakachilikdan oldingi Sharq mamlakatlarida hukmdorlar umumiy "nazorat va hisob" tizimini joriy qilishga intilgan bo'lsalarda, boshqa tomondan muntazam ravishda o'z cho'ntagini davlat g'aznasi bilan almashtirib qo'yayotgan amaldorlarning ochko'zligidan shikoyat qilishgan. Masalan, "Artxashastra" muallifi ochko'z amaldorlar tomonidan davlat mulkini o'g'irlashning 40 ta vositasini keltirgan va asalni faqat og'izga solgan vaqtdagina his qilish mumkin bo'lgani kabi podsho mulkini uni boshqaruvchi amaldor tomonidan eng oz miqdorda bo'lsa ham o'zlashtirilmasligi mumkin emas", deb ta'kidlagan.

Davlat amaldorlarining shaxsiy daromadlariga jamiyat tomonidan munosabatda tub burilish G'arbiy Yevropda yangi tarixiy davrda tubdan o'zgardi. Jamoat shartnomasi g'oyasiga ko'ra fuqarolar davlatga soliq to'laydilar, davlat esa maqbul bo'ladigan qonunlarni ishlab chiqadi va ularning so'zsiz amalga oshirilishini

nazorat qiladi. Shaxsiy munosabatlar o'rniga xizmat yuzasidan bo'ladigan munosabatlar qaror topadi, shu boisdan amaldorlar tomonidan ish haqidani tashqari shaxsiy daromad olishlari ijtimoiy ahloq va qonun normalariga zid deb targ'ib qilish boshlandi. Bundan tashqari neoklassik iqtisodiy nazariya g'oyasi iqtisodiy erkinlik g'oyasini ilgari surib, kishilar o'z ishlarini o'zlari bajarishini va o'z yo'llaridan yurishlarini, davlatning esa iqtisodiyotga aralashmasligi lozimligini asosladilar. Agar amaldorda tartibga solish imkoniyatlari kamaysa, u holda ularning pora olish imkoniyatlari ham kamayadi. Pirovardida markazlashgan davlatda amaldorlarning korrupsiyasi yo'q bo'lmagan bo'lsa ham, har holda keskin kamayadi.

Rivojlangan mamlakatlarda korrupsiya rivojlanishi evolyutsiyasida XIX va XX asrlar yangi bosqich bo'ldi. Bu davrda bir tomondan, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, shuningdek amaldorlar hukmronligi kuchaydi. Ikkinchi tomondan, yirik biznes vujudga kelib, raqobat kurashida "davlatni sotib olish" usulidan keng foydalana boshlandilar. Bunda ular siyosatchilar va yuqori davlat xizmatchilari faoliyatini yirik kapital manfaatlarini himoya qilishga bo'ysundira boshladilar. Rivojlangan mamlakatlarda, shu jumladan, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida, ikkinchi jahon urushidan keyin siyosiy partiyalar ahamiyati osha borgani sari partiyaviy korrupsiya avj ola boshladi. Yirik kompaniya, moliyaviy-sanoat guruhlar, o'zlarining manfaatlariga mos keladigan qonunlarni qabul qilinishini ta'minlash maqsadida ro'yobga chiqarish uchun saylovoldi jarayonlarida partiya kassalariga mablag' ajrata boshladilar. Yirik siyosatchilar o'z mavqeilaridan shaxsiy daromad olish manbai sifatida foydalana boshladilar. Masalan, Yaponiyada hozirgi vaqtda ham siyosiy arboblal xususiy kompaniyalarga foydali shartnomalar olishlarida ko'maklashganlari uchun kelishuvdan foiz olishga harakat qiladilar. Keyingi yillarda Janubiy Koreya Respublikasining bir necha prezidentlarining korrupsiya majoralari tufayli javobgarlikka tortilganliklari ham bunga misol bo'ladi. Ayni paytda ichki firma xizmatchilari mustaqilligining oshirilganligi tufayli, ularning ham o'z mavqeilarini suiste'mol qilish holatlari ko'paymoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida ko'plab "uchunchi dunyo" mamlakatlari mustaqillikka erishganlarida so'ng ularda ham

korrupsiya kuchaydi. Bunga Filippin, Indoneziya va boshqa ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda yuz bergan korrupsiya majorali misol bo‘ladi. Misol uchun Filippindagi prezident Markos va Indoneziya prezidenti Suxarto o‘z davrida korrupsion faoliyatlari natijasida juda katta boylik to‘plaganlari hamda shuning uchun ham ular hokimiyatdan sharmandalarcha chetlatilganlar. Filippin, Paragvay, Gaiti va ko‘plab afrika mamlakatlarida kleptokratik rejimlar vujudga kelgan ediki, ularda korrupsiya barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini qamrab olgan bo‘lib, porasiz hech nima qilib bo‘lmay qolgan edi. Bunday mamlakatlarda oilaviy klanlar paydo bo‘lgan edi.

Korrupsiyaning “pastdan yuqoriga”, ya’ni boshliq barcha ayblovlarni quyi pog‘ona amaldorlarga to‘nkash imkoniyatiga ega bo‘ladigan tizimi bilan birga “yuqoridan pastga” tizimi ham mavjud bo‘lgan. Bu tizimda boshliq porani bevosita o‘zi olib, uni o‘zining qo‘l ostidagi xodimlari bilan bo‘lishgan. Bunday tizim Janubiy Koreyada mavjud bo‘lgan⁶².

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar va savdo aloqalarining rivojlanishi ham korrupsiyani rag‘batlantiridi. Yirik transmilliy kompaniyalar muzokaralar o‘tkazish xarajatlariga yuqori lavozimdagi amaldorlarga beriladigan sovg‘alarni (poralarni) kiritadigan bo‘lishdi. O‘tgan asrning 70-yillarida amerika “Lokxid” firmasining GFR, Yaponiya va boshqa davlatlardagi yuqori martabali siyosatchilariga o‘zlarining unchalik yaxshi bo‘lmagan samolyotlarini sotishda yordam berganliklari uchun juda katta miqdorda sovg‘a (pora) berganliklari bilan bog‘liq majoralar sodir bo‘lgan edi.

Korrupsiya 1990 yillarda sobiq sotsialistik, ya’ni bozor iqtisodiyotiga o‘tishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilayotgan o‘tish iqtisodiyoti davlatlarida juda keng rivoj topdi. Davlat hokimiyati tarkibida faoliyat yuritayotgan yuqori davlat amaldorlari bir vaqtning o‘zida ham davlat ishida, ham o‘zlarining tijorat ishlarida katta lavozimlarida ishlab, o‘z shaxsiy manfaatlari yo‘lida mavqelarini suiste’mol qilganlar. Bunday holat hozirgi vaqtda ham


⁶²Qarang: Теневая экономика: учеб. пособие / И.П. Овсянникова; ФГБОУ ВО РГУПС. – Ростов н/Д, 2015. – С.26.

bir qancha o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida davom etmoqda. XXI asrning boshlarida jahon va Yevropa futbol uyushmalari rahbarlari bilan bo‘lgan korrupsion majoralar bunday illatning jamiyatning barcha sohalariga va global miqyosda keng yoyilganligidan dalolat beradi.

5.2. Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari.

Korrupsiyani iqtisodiy tahlil qilishga 1970 yillarda neoinstitutsional yo‘nalishdagi Amerika iqtisodchilari asarlarida nazariy asos solingan edi. Uning asosiy g‘oyasi shunda ediki, iqtisodiy hayotning turli sohalarini davlat tomonidan tartibga solish bilan bog‘liq renta (eksport-import cheklovlarini joriy etish, korxonalar yoki tarmoqlarga subsidiyalari va soliq imtiyozlari berilishi, narxlar ustidan nazoratning mavjudligi, ko‘pchilik valyutalar kurslari siyosati va boshqalar) mavjud bo‘lsa, korrupsiya paydo bo‘ladi va rivoj topadi. Shu bilan birga korrupsiyaga past darajada maosh oluvchi amaldorlar intiladilar. Keyinchalik empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, agar mamlakatda tashqi savdo cheklovlari kam bo‘lsa, sanoat siyosati barcha korxonalar va tarmoqlar uchun teng imkoniyatlar asosida olib borilsa, hamda davlat amaldorining maoshi xususiy sektorda shu malakaga ega xodimning maoshidan ko‘p bo‘lmasa, korrupsiya ko‘lami qisqarib boradi.

Hozirgi zamon iqtisodiyot fanida korrupsiyaning sabablari ko‘p ekanligi ta’kidlanib, uning iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy-madaniy omillari alohida ajratiladi (qarang: 5.2.1-rasm).



5.2.1-rasm.Korrupsiya sabablari

Korrupsiyaning *iqtisodiy* sabablari – bu, birinchi navbatda, davlat

xizmatchilarining past darajadagi maoshlari, hamda ularning firma va fuqarolar faoliyatiga ta'sir etish vakolatining yuqoriligidadir. Amaldorlarda qandaydir noyob ne'matlarni taqsimlash vakolati mavjud bo'lsa, korrupsiya rivoj topadi. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan va o'tish davri mamlakatlarida ko'proq sezilsa, rivojlangan mamlakatlarda ham namoyon bo'ladi. Masalan, AQShda muhtoj oilalarga imtiyozli ravishda uy-joy berish dasturini amalga oshirish davrida korrupsiya qayd etilgan edi.

Korrupsiyaning *institutsional* sabablariga quyidagilar kiradi: davlat muassasalari faoliyatining yuqori darajada yopiqligi; hisobot tizimi beso'naqayligi (kattaligi); qonun chiqarish tizimida oshkoralikning yo'qligi; bekorchixo'jalarni keng tarqalishiga va ko'rsatgan xizmatlaridan qat'iy nazar xizmat pog'onalaridan yuqoriga ko'tarilishga imkon beruvchi davlatning zaif kadrlar siyosati.

Korrupsiyaning ijtimoiy-madaniy sabablari: jamiyatda odob-ahloq tushunchalari yo'qolib ketishi; fuqarolarning yetarli darajada axborotga egaligi va tashkilotchiligi, "hokimiyat egalari"ning o'zboshimchaligiga jamiyat barmoq orasidan qarash (qarang:5.2.1-jadval).

5.2.1-jadval.

Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari tasnifi

Iqtisodiy sabablar	Institutsional sabablar	Ijtimoiy-madaniy sabablar
davlat xizmatchilarining past darajadagi maoshlari	davlat muassasalari faoliyatining yuqori darajada yopiqligi	jamiyatda odob-axloq tushunchalarining zayflashishi va yo'qolib ketishi
davlat xizmatchilari vakolatining yuqoriligi	hisobot tizimining beso'naqayligi (kattaligi)	fuqarolar huquqiy ongi va madaniyatining pastligi
	qonun chiqarish tizimida oshkoralikning yo'qligi	"hokimiyat egalari"ning o'zboshimchaligiga jamiyatning barmoq orasidan qarash muhiti
	davlatning kadrlar siyosati zaifligi	

Ushbu uch guruh omillar amal qilayotgan mamlakatlarda (bular, birinchi navbatda, rivojlanayotgan va sobiq sotsialistik mamlakatlar) korrupsiya avj olgan bo‘ladi. Aksincha, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida esa bu omillar zaif bo‘lib, u yerda korrupsiya ham kam rivojlangan.

Korrupsiyaning vujudga kelishiga sabab bo‘ladigan omil va sharoitlar yana quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– amaldagi qonunchilikning takomillashmaganligi, undagi ziddiyatlar, qonun va qonun osti me‘yoriy hujjatlarining bir-biriga zidligi, qonunlarni amaliyotga joriy qilish mexanizmining ishlamasligi;

– davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo‘jalik boshqaruvida byurokratiya, ma‘muriyatchilikning rivojlanganligi, boshqaruv tizimida mansabdor shaxslarning haddan tashqari ko‘payib ketishi, boshqaruv tizimida bir-birining funksiyalarini takrorlashlarning ko‘pligi;

– biznes va tadbirkorlikni ro‘yxatga olish, ruxsat berish va ularni tugatish protseduralarining haddan tashqari chigalligi, ko‘p bosqichli ekanligi, murakkabligi;

– ishbilarmon va tadbirkorlarning huquqiy bilim, huquqiy madaniyatining yo‘qligi yoki sayozligi;


– davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, ishbilarmon, tadbirkorlarning ahloqi-ma‘naviyatining sayozligi va boshqalar⁶³.

Korrupsion munosabatlarining sabablari va mohiyatini tushuntirish uchun iqtisodchilar odatda “kafil bo‘lgan kishi (prinsipal) – ijrochi (agent) – rahnamolik ko‘rgan (mijoz)” modelidan foydalanadilar (5.2.2-rasm).

Bu modelda markaziy hukumat prinsipal (**P**) faoliyat yuritadi: u qoidalarni belgilaydi va o‘rta ham quyi bo‘g‘in amaldorlariga, ya‘ni agentlarga (**A**) aniq vazifalar beradi. Bunda amaldorlar markaziy hukumat bilan alohida fuqarolar yoki firmalar, ya‘ni mijozlar (**M**) o‘rtasida vositachilik qiladi. Soliqlar to‘lanishi evaziga agent prinsipal nomidan mijozlarga turli xil xizmatlarni ko‘rsatadi (firmalar faoliyatini litsenziyalashtiradi, fuqarolarga ijtimoiy nafaqalarni

⁶³Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Х, Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.:Ноширлик ёғдуси, 2019-497-бет.

taqdim etadi, xodimlarni davlat xizmatiga yollashni amalga oshiradi va hakazo). Masalan, soliq xizmati doirasida prinsipal sifatida soliq xizmati rahbari timsolida davlat namoyon bo‘ladi, agentlar – soliq to‘lovchilar, mijozlar – soliq to‘lovchilar namoyon bo‘ladi. Soliqlarni to‘lash evaziga soliq to‘lovchilar qonuniy faoliyat yuritish imkoniyatiga egadirlar, aks holda ularni jarimalar va boshqa jazolar kutadi.



5.2.2-rasm. Korrupsiyaning «prinsipal-agent-mijoz» modeli⁶⁴

Tartibga solish tizimining sifati ushbu tizimda prinsipal va agent o‘rtasida manfaatlar borasida nizolar paydo bo‘lishiga bog‘liq. Umuman olganda, hukumat har bir mijozga shaxsan xizmat ko‘rsatishga na vaqti, na imkoniyati bor. Shu sababdan, mijozlarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatini ma‘lum bir qoidalar doirasida amaldorlarga topshiradi. Amaldorlar-agentlar o‘z mijozlarini hukumat-prinsipaldan yaxshiroq bilganlari sababli ular bilan samarali ishlay oladilar. Lekin prinsipalga ko‘p sonli prinsipal-agentlar o‘z vazifalarini bajarishi ustidan nazorat qilish murakkabdir. Bunda

⁶⁴ Qarang: Теневая экономика: учеб. пособие / И.П. Овсянникова; ФГБОУ ВО РГУПС. – Ростов н/Д, 2015. – С.28.

amaldorlar o'z faoliyatining asl natijalarini ataylab yashirgan bo'lishlari ham mumkin. Amaldor-agentning rostgo'yligini to'liq nazorat qilib bo'lmaganligi sababli, agent rostgo'y bo'lish yoki bo'lmaslikni o'zi hal etadi. Amaldorning qarori halol mehnati uchun olishi mumkin bo'lgan haq va suiiste'mollik uchun kutilayotgan jazoga bog'liqdir.

Amaldor-agentga uning mijozlaridan beriladigan noqonuniy mukofotlar turli sabablar bo'yicha berilishi mumkin. Fuqaro yoki firma amaldorga tegishli xizmatlarni tez, "navbatdan tashqari" ko'rsatishi uchun pora berishi mumkin (tezlashtiruvchi pora). Ko'pincha, amaldorlarga davlat tomonidan tayinlangan xizmatlarni ko'proq ko'rsatib, soliqlarni qonunchilik bilan belgilangan hajmdan kamroq darajada olish uchun pora beriladi (to'xtatuvchi, sekinlashtiruvchi pora). Amaldor turli o'ylab topilgan bahonalar bilan faoliyatga halaqit berishning keng imkoniyatlariga ega; bunda amaldorga o'zboshimchalik qilmasligi uchun pora beriladi ("yaxshi munosabatda bo'lish uchun" pora).

Korrupsiyani oldini olish maqsadida javobgarligi katta bo'lgan xodimlarga juda yuqori maosh belgilanadi va shu bilan birga ular tomonidan xizmat burchini bajarmaganligi uchun jazo choralari qat'iylashtiriladi. Ammo ko'pchilik tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, aksariyat hollarda davlat tomonidan beriladigan maosh potensial pora beruvchilarning moliyaviy imkoniyatlari bilan raqobatlasha olmaydi. Agentning yetarli darajadagi maoshi zaruratdir, lekin u korrupsiyani oldini olishga yetarli chora hisoblanmaydi. Shu sababdan davlat-prinsipal yuqori darajadagi rag'batlarni "halol mehnatga chaqiriq" bilan to'ldiradi. Bu, hukumat agentlarni o'z manfaatlarini o'ylashlariga qarshi ruhiy to'siq yaratishga intilishini anglatadi. Buni qo'shimcha ta'lim va ideologik (g'oyaviy) targ'ibot mexanizmlari orqali amalga oshirish mumkin. Undan tashqari, hukumat-prinsipal amaldor-agentlar faoliyati ustidan nazorat qilishning muhim vositasi hisoblangan mijozlar bilan bevosita aloqa o'rnatish (aholidan shikoyatlar qabul qilish)ni rag'batlantiradi.

Shunday qilib, "agent-mijoz" o'zaro munosabatlari agentlar maoshi va ularning vakolatlari kengligiga bog'liqdir, "prinsipal-

agent” o‘zaro munosabatlari esa – prinsipalning agentlar ustidan nazorati va mijozlarning prinsipalga ta’siri darajasiga bog‘liqdir. Ahloqiy me’yorlar bu tizimda barcha munosabatlar turlariga ta’sir etib, qonunchilik me’yorlaridan chetlashish mumkin bo‘lgan darajani aniqlaydi.

Korrupsiyaning asosiy sabablarini ba’zi iqtisodchilar quyidagi formula orqali ifodalashadi:

korrupsiya = monopoliya + zo‘ravonlik - javobgarlik

bu formula shuni anglatadiki, korrupsiyaning imkoniyatlari ba’zi faoliyat turlarini bajarish uchun davlat monopoliyasi (masalan, qurol-yarog‘ sotib olish) va amaldorlar faoliyatini nazoratsizligi bog‘liqdir, hamda suiste’mollik evaziga jazoga teskari bog‘liqdir⁶⁵.

5.3.Korrupsiyani o‘lchash va uning ko‘lamlari

Hozirgi vaqtda korrupsiyani xis etish (*indeks vospriyatiya korrupsii* (Corruption Perceptions Index – CPI)), Transparency International (Xalqaro shaffoflik notijorat nodavlat tashkiloti tomonidan hisoblanadi. Bu tashkilot turli mamlakatlarda 3 yil mobaynida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, mazkur indeksni e’lon qiladi. Bu tadqiqot natijalari biznesmen va analitiklarning turli mamlakatlarning korrupsiyalashganligi to‘g‘risidagi sub’ektiv baholari bilan taqqoslanadi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida har bir mamlakat 10 ballik shkala bo‘yicha baholanadi. 10 ball - korrupsiya yo‘qligini, 0 ball esa eng yuqori darajadiligini, ya’ni shaffoflikning minimalligini, yo‘qligini ifodalaydi.

Korrupsiyani his etish indeksi 1995 yildan beri hisoblanadi. Tadqiqot bazasi yildan-yilga kengaymoqda. 1995 yilda CPI jahonning 41 mamlakati bo‘yicha, 2003 yilda esa 133 mamlakatni qamrab olgan. Mazkur indeks 2003 yilda 13 ta mustaqil tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan 17 ta ijtimoiy fikrlarni tadqiqot etish natijalariga ko‘ra hisoblangan. Yakuniy ro‘yxatga uchta tadqiqot bilan qamrab olingan mamlakatlarga kiritilgan.

⁶⁵ Qarang: Теневая экономика: учеб. пособие / И.П. Овсянникова; ФГБОУ ВО РГУПС. – Ростов н/Д, 2015. – С.29.

Transparency International xalqaro huquqni himoya qilish tashkiloti tomonidan har yili tuziladigan Korrupsiyani his etish indeksida O‘zbekiston 2016 yilda 156, 2017 yilda 157, 2018 yilda esa 158 o‘rinni egallagan. 2018 yilda reytingning birinchi beshtalikka Daniya, Yangi Zelandiya, Finlyandiya, Singapur va Shvetsiya kiradi. Ushbu reytingda Qozog‘iston - 124, Qirg‘iziston-132, Rossiya-138, Tojikiston-152 va Turkmaniston 161-o‘rinni egalladi. Sobiq SSSR tarkibiga kirgan mamlakatlar ichida Estoniya birinchi yigirmatalikka kirgan. Korrupsiya darajasining pasayib borayotganligiga Estoniyada “elektron hukumat”ning faol joriy qilinayotganligi sabab bo‘lmoqda. AQShda Transparency International ekspertlarining baholashicha, 2018 yilda korrupsiya holati yomonlashdi. Mamlakatda korrupsiya bo‘yicha ball 71 ballgacha pasaydi va 2011 yildan beri birinchi marta top 20-talikdan chiqib ketdi. Bunga sabab qilib AQShda hokimiyatning yuqori pog‘onalarida etik normalarning yomonlashuvi degan vaj ko‘rsatilgan. Korrupsiya bo‘yicha global reytingda Janubiy Sudan, Suriya va Somali oxirgi o‘rinlarni egallagan⁶⁶.

Global korrupsion chaqiriqlar reytingini The Risk Advisory Group (Risk xavflari to‘g‘risida maslahat guruhi) xalqaro tashkilot ham tuzadi. Bu tashkilot “Korrupsion chaqiriqlar-2019” hisobotini e‘lon qilgan. Hisobot Korrupsion chaqiriqlar darajasi” («Uroven korrupcionных vyzovov»), -“Korrupsiya tahdidi” («Ugroza korrupsii»), - “Korrupsiya to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga erisha olmaslik” («Nedostupnost informatsii o korrupsii») bo‘limlardan iborat.

“Korrupsion chaqiriqlar darajasi” indeksi Risk Advisoryning yettida mintaqaviy bo‘limlarining ekspertlari tomonidan tuzilgan. Ular har bir mamlakatni 1) xorijiy investorlarning davlat kontraktlari, litsenziyalari yoki ruxsatnomalarini olish jaryonlarida uchragan korrupsion holatlari, 2) mahalliy biznes sub‘ektlarining kundalik faoliyati davomida kichik masshtabdagi rasmiy korrupsiya holatlariga duchor bo‘lishlari nuqtai nazardan baholashgan.

“Korrupsion chaqiriqlar darajasi” indeksining uch bo‘limi bo‘yicha Yangi Zelandiya, Avstraliya, Singapur, Birlashgan Qirollik,

⁶⁶ Transparency: в Узбекистане ситуация с коррупцией ухудшается из года в год/<https://kun.uz/ru/news/2019/01/29/transparency-v-uzbekistane-situatsiya-s-korrupsiyey-uxudshayetsya-iz-goda-v-god>

Irlandiya, Fransiya, Germaniya kabi mamlakatlar korrupsiya darajasi eng past bo‘lgan mamlakatlar tarkibiga kiritildi (qarang:5.3.1-jadval).

5.3.1-jadval.

Korrupsiya darajasi eng past bo‘lgan mamlakatlar (2019 yil)⁶⁷

Korrupsion chaqiriqlar darajasi	Korrupsiya tahdidi	Korrupsiya to‘g‘risidagi ma’lumotlarga erishish qiyinligi (nedostupnost)
Yangi Zelandiya	Yangi Zelandiya	Yangi Zelandiya
Avstraliya	Singapur	Avstraliya
Birlashgan Qirollik (Buyuk Britaniya)	Irlandiya	Birlashgan Qirollik (Buyuk Britaniya)
Fransiya	Germaniya	Fransiya
Singapur	Daniya	Latviya
Latviya	Islandiya	Malayziya
Chexiya Respublikasi	Norvegiya	Chexiya Respublikasi
Estoniya	Finlyandiya	Hindiston
Irlandiya	Yaponiya	Italiya
Gonkong	Lyuksemburg	Singapur

Korrupsiya darajasi eng past bo‘lgan mamlakatlar o‘nligiga rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda Singapur, Hindiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar hamda Chexiya Respublikasi, Latviya va Estoniya kabi sobiq sotsialistik lagerga kirgan respublikalar ham kiritilgan.

Korrupsiya darajasi eng yuqori bo‘lgan mamlakatlar o‘nligiga uch bo‘lim bo‘yicha Turkmaniston, Liviya, Somali, Yemen, Markaziy Afrika Respublikasi, Shimoliy Koreya, Kongo Demokratik Respublikasi, Janubiy Sudan, Suriya, Gvineya-Bisau, Eritreya, Avg‘oniston, Laos va Venesula kabi mamlakatlar kiritilgan (qarang: 5.3.2-jadval).

⁶⁷ В каких странах Центральной Азии наиболее высокий уровень коррупции?// [https:// kun.uz/ru/news/ 2019/04/08/ mvf-strany-s-vysokim-urovнем-korrupsiisobirayut-menshe-nalogov](https://kun.uz/ru/news/2019/04/08/mvf-strany-s-vysokim-urovнем-korrupsiisobirayut-menshe-nalogov)

5.3.2-jadval.

Korrupsiya darajasi eng yuqori mamlakatlar(2019yil)⁶⁸

Korrupsion chaqiriqlar darajasi	Korrupsiya tahdidi	Korrupsiya to'g'risidagi ma'lumotlarga erishish qiyinligi (nedostupnost)
Turkmaniston	Liviya	Turkmaniston
Liviya	Somali	Liviya
Somali	Yemen	Somali
Yemen	Markaziy Afrika Respublikasi	Yemen
Shimoliy Koreya	Kongo Demokratik Respublikasi	Shimoliy Koreya
Janubiy Sudan	Janubiy Sudan	Janubiy Sudan
Suriya	Suriya	Suriya
Kongo Demokratik Respublikasi	Gvineya-Bisau	Kongo Demokratik Respublikasi
Eritreya	Avg'oniston	Eritreya
Laos	Venesula	Laos

Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ushgu guruhdagi ko'pchilik mamlakatlarda turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar tufayli krizis holatlari yuz berayotgan, iqtisodiy holati ancha zaif mamlakatlar hisoblanadi. Shuningdek, bu mamlakatlarda tadbirkorlik va xorijiy investiyalar kiritilishi uchun noqulay muhit mavjuddir.

The Risk Advisory Group (Risk xavflari to'g'risida maslahat guruhi) xalqaro tashkiloti e'lon qilgan "Korrupsion chaqiriqlar-2019" hisobotida Markaziy Osiyo mamlakatlarida korrupsiya darajasi o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra uch ko'rsatkich bo'yicha Qozog'iston 50, Qirg'iziston 52, O'zbekiston 70, Tojikiston 72 va Turkmaniston

⁶⁸ В каких странах Центральной Азии наиболее высокий уровень коррупции?// [https:// kun.uz/ru/news/ 2019/04/08/ mvf-strany-s-vysokim-urovнем-korrupsiisobirayut-menshe-nalogov](https://kun.uz/ru/news/2019/04/08/mvf-strany-s-vysokim-urovнем-korrupsiisobirayut-menshe-nalogov)

96 ball to'plab, global reytingda quyi pog'onalarni egallaganlar (qarang: 5.3.3-jadval).

5.3.3-jadval.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida korrupsiya darajasi (2019yil, ball)⁶⁹

Mamlakatlar	Korrupsion chaqiriqlar darajasi	Korrupsiya tahdidi	Korrupsiya to'g'risidagi ma'lumotlarga erishish qiyinligi	jami
Qozog'iston	28	10	12	50
Qirg'iziston	29	10	13	52
O'zbekiston	38	12	20	70
Tojikiston	39	13	20	72
Turkmaniston	51	14	31	96

Aytish lozimki, 2019 yilning mart oyida O'zbekiston Korrupsiyaga qarshi Stambul harakat rejasi 20-monitoring uchrashuvida tavsiyalarning bajarilishi bo'yicha taraqqiyotga erishganligi uchun eng yuqori reytingini olishga muvaffaq bo'ldi⁷⁰.

Korrupsiya darajasini o'lchashga xizmat qiluvchi CPI indeksi turli mamlakatlar amaldorlarining pora olishga moyilligini ifodalasa, tadbirkorlarning pora berishga moyilligini aniqlash uchun *Transparency International* pora beruvchilar indeks – (*Bribe Payers Index – VPI*)dan foydalanadi. Bu indeks ham 10 ballik shkala bilan o'lchanadi. Qanchalik bu ball past bo'lsa, eksporter kompaniyalar shunchalik pora berishga moyil bo'ladilar hamda amaldorlarni sotib olishga yuqori darajada intilishlarini ko'rsatadi. Bu indeks bo'yicha Shvetsiya korrupsiya darajasi eng past mamlakat hisoblanadi.

⁶⁹ В каких странах Центральной Азии наиболее высокий уровень коррупции?// [https:// kun.uz/ru/news/ 2019/04/08/ mvf-strany-s-vysokim-urovнем-korrupsi-sobirayut-menshe-nalogov](https://kun.uz/ru/news/2019/04/08/mvf-strany-s-vysokim-urovнем-korrupsi-sobirayut-menshe-nalogov)

⁷⁰ В ОЭСР отметили улучшение ситуации с борьбой с коррупцией в Узбекистане // <https://kun.uz/ru/news/2019/03/29/v-oesr-otmetili-uluchsheniye-situatsii-s-borboy-s-korrupsiyey-v-uzbekistane>

CPI i BPI indekslaridan tashqari turli mamlakatlarda korrupsiya rivojlanishini taqqoslash uchun jahon korrupsiya barometri (*Global Corruption Barometer*), iqtisodiy erkinlik indeksi (*Index of Economic Freedom*), shaffof emaslik indeksi (*Opacity Index*) va boshqa indekslardan foydalaniladi.

O‘zbekistonda korrupsiya dinamikasi. O‘zbekiston Korrupsiyaga qarshi kurashda uzoq muddatli ijobiy dinamikani namoyish etuvchi 16 ta davlatdan biridir.

Transparency International xalqaro tashkilotining Korrupsiyani his etish indeksi bo‘yicha, 2010 yildan beri O‘zbekiston har yili o‘z mavqeini yaxshilamoqda. 2019 yilda O‘zbekiston 25 ball bilan 180 o‘rindan 153-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2010 yilda 16 ball bilan 172-o‘rinni egalladi⁷¹.

Transparency International tashkilotining 2016 yildagi global Korrupsiya barometriga ko‘ra, O‘zbekistondagi respondentlarning atigi 18 foizi pora bergani haqida xabar bergan va respondentlarning atigi 23 foizi Korrupsiyani mamlakatdagi uchta eng jiddiy muammolardan biri sifatida qayd etgan. Respondentlarning so‘rovlariga ko‘ra, yo‘l harakati xavfsizligi politsiyasi (so‘ralganlarning 17 foizi ularga pora berganligini tan olgan) va ta‘lim va tibbiyot xodimlari (respondentlarning 16 foizi) eng korrupsionerlardir. Respondentlarning Korrupsiya to‘g‘risida xabar berishiga nima to‘sqinlik qiladi, degan savolga, 39% ular bu savolga javobni bilmasliklarini aytishdi va ikkinchi eng keng tarqalgan javob, 17% olgan holda shunday javob berdi: "salbiy oqibatlardan qo‘rqish tufayli".

Jahon banki tashkilotlarida o‘tkazilgan so‘rovda firmalarga oltita turli bitimlar, jumladan soliqlarni to‘lash, ruxsatnomalar yoki litsenziyalar olish va davlat xizmatlariga ulanish bo‘yicha pora berish taklif qilingan vaziyat baholandi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistondagi vaziyat dunyo va Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rtacha ko‘rsatkichlarga qaraganda qulayroq. Masalan, O‘zbekistonda so‘rovda qatnashgan barcha firmalarning atigi 6 foizi o‘z amaliyotida pora talab qilishi kerakligini ta’kidlagan,

⁷¹ Бахтишод Хамидов. Измерение коррупции // Экономическое обозрение №4 (244) 2020. <https://review.uz/ru/bjw>

dunyoda bu ko'rsatkich 17 foizni, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida esa 11 foizni tashkil etadi.

Jamoatchilik fikrini o'rganish natijalariga ko'ra, "Ijtimoi fikr" markazi ba'zi joylarda korrupsiya va poraxo'rlik darajasi yuqori darajada ekanligini aniqladi. Masalan, fuqarolar fikriga ko'ra, 2018 yilda sog'liqni saqlash va tibbiyot sohasi korrupsiya va poraxo'rlikka ko'proq moyil bo'lgan - buni respondentlarning 43,7 foizi qayd etgan. Keyingi yo'nalishlar ta'lim (39,4%) va soliq tizimi (12,2%).

Xuddi shu markaz tomonidan o'tkazilgan "Korrupsiyaga qarshi kurash" jamoatchilik fikrini o'rganish markazida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 2018 yilda sog'liqni saqlash tizimi, ishga qabul qilish jarayoni va oliy va xalq ta'limi tizimi O'zbekistondagi eng korrupsiyalashgan sohalar qatoriga kiritildi. Buning ortidan sudlar, prokuratura organlari, Ichki ishlar vazirligi, soliq organlari va sanitariya-epidemiologiya nazorati va nazorati organlari ish olib boradilar.

Aniqlangan korrupsion huquqbuzarliklar davlat korxonalarini va muassasalari, ichki ishlar organlari va banklar eng korrupsiyalashgan sohalar ekanligidan dalolat beradi. Ushbu joylarning aksariyati aholi tomonidan so'rov davomida aniqlangan joylarga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, mansabdor shaxslar tomonidan 2013 yildan 2017 yilgacha korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etish 43 foizga kamaydi, xususan, prokuratura organlari tomonidan 2015 yildan 2017 yilgacha turli korrupsion jinoyatlar uchun 14171 kishiga (2015 yil - 6853, 2016 yil - 4524, 2017 yil - 2794) qarshi 8572 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan (2015 yil - 3778, 2016 yil - 2860, 2017 - 1934).

5.4. Korrupsiyaning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri

Korrupsiya har qanday mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiyadan ko'riladigan iqtisodiy zarar, birinchi navbatda, davlatning makroiqtisodiy siyosatini amalga oshirishga to'siq bo'lishi bilan bog'liqdir.

Boshqaruv tizimining quyi va o'rta bo'g'inlaridagi korrupsiya natijasida markaziy hukumat mamlakat iqtisodiyotidagi real holat to'g'risida ishonchli axborot ola olmaydi va belgilangan maqsadlarga erishishni amalga oshira olmaydi.

Korrupsiya davlat qarorlari sabablarini buzib ko'rsatadi. Korrupsiyalashgan siyosatchi va amaldorlar davlat resurslarini nazorat kuchli bo'lmagan va pora undirish imkoniyati yuqori bo'lgan sohalarga yo'naltirishga harakat qiladilar. Ular maktab darsliklarini nashr etish va o'qituvchilarni maoshini oshirishni moliyalashtirishdan ko'ra ishlab chiqarishni, masalan harbiy samolyotlarni ishlab chiqarish va boshqa yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishga moyildirlar. Tadqiqotlar ko'rsatishicha korrupsiya davlat xarajatlari tarkibiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi: korrupsiyalashgan hukumat ta'lim va sog'liqni saqlashga korrupsiyalashmagan hukumatdan ko'ra kamroq mablag' ajratadi.

Korrupsiya iqtisodiy ta'sirining eng asosiy salbiy jihati tadbirkorlarning (ayniqsa, yulg'ichlar oldida himoyasiz bo'lgan kichik firmalarning) xarajatlari oshib ketishidir. Masalan, sobiq sotsialistik mamlakatlarda biznes rivojlanishidagi muammolar amaldorlar tadbirkorlarni pora berishga majburlashi bilan bog'liqdir, bu poralarga qo'shimcha soliqlar sifatida qaraladi (5.4.1-jadval). Tadbirkor halol bo'lib, pora bermasa ham korrupsiyadan zarar ko'radi, u injiq davlat amaldori bilan muloqotga ko'p vaqt sarflashga majburdir.

5.4.1-jadval **1990 yillar oxirida sobiq sotsialistik mamlakatlarda poralar** **berilishining qaytarilishi va hajmi**

Mamlakatlar	Tez-tez pora beradigan firmalar foizi	Firmalarning yillik daromadlariga nisbatan poralarning o'rtacha foizi
Ozarbayjon	59,3	6,6
Armaniston	40,3	6,8
Belarus	14,2	3,1
Bolgariya	23,9	3,5
Vengriya	31,3	3,5
Gruziya	36,8	8,1
Qozog'iston	23,7	4,7
Qirg'iziston	26,9	5,5
Litva	23,2	4,2

Moldova	33,3	6,1
Polsha	32,7	2,5
Rossiya	29,2	4,1
Ruminiya	50,9	4,0
Slovakiya	34,6	3,7
Sloveniya	7,7	3,4
Ukraina	35,3	6,5
Chexiya	26,3	4,5
Xorvatiya	17,7	2,1
Estoniya	12,9	2,8

Va, nihoyat, korrupsiya va ish hujjatlarini rasmiylashtirishdagi byurokratik sansalorlik investitsiyalarga (ayniqsa, xorijiy investiyalarga) to'siq bo'ladi, natijada iqtisodiy o'sish sekinlashadi. Masalan, 1990 yillarda amerikalik iqtisodchi Paolo Mauro tomonidan ishlab chiqilgan model hisoblanayotgan "byurokratiya samaradorligi indeksi"ning⁷² 2,4 ballga o'sishi mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlari taxminan 0,5 foizga pasayishiga olib keladi, degan xulosa qilish mumkin. Boshqa amerikalik iqtisodchi Shan-Chin Vayaning hisob-kitoblariga ko'ra korrupsiya indeksining 1 ballga (10 ballik shkala bo'yicha) o'sishi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 0,9 foizga pasayishiga olib keladi. Korrupsiya indeklari sharhida korrupsiya darajasi bilan iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtasida yaqqol salbiy korrelyatsiya (bog'liqlik) mavjud emasligi ko'rsatilgan, bu bog'liqlik umumiy qonuniyat sifatida seziladi xolos.

Korrupsiyaning ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan salbiy natijalari nohaqlik bilan bog'liqdir – firmalarning nohalol raqobati va fuqarolar daromadlarining asossiz qayta taqsimlanishi. Gap shundaki, katta porani samarali faoliyat yuritayotgan qonuniy firma bermaydi, balki jinoyatchilik bilan shug'ullanuvchilar beradi. Natijada pora beruvchilar va oluvchilarning daromadlari oshib boradi, qonunlarga rioya qiladigan fuqarolarning daromadlari pasayib boradi. Soliqlarni yig'ish tizimidagi korrupsiya juda xavflidir, boylarga soliq to'lashdan

⁷²Transparency International tomonidan hisoblanadigan korrupsiyani idrok etish indeksiga o'xshash indeks.

bo‘yin tovlashga imkon berib soliq yukini daromadi kamroq bo‘lgan fuqarolar bo‘yniga qo‘yish imkonini beradi (qarang: 5.4.2-jadval).

5.4.2-jadval.

Korrupsiyaning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri oqibatlari⁷³

Iqtisodiy oqibatlar	Ijtimoiy oqibatlar
davlatning makroiqtisodiy siyosatini amalga oshirishga to‘siq bo‘lishi ,iqtisodiy o‘shish sur‘atlari pasayadi.	korrupsiyalashgan hukumat ta’lim va sog‘liqni saqlashga kamroq mablag‘ ajratadi
iqtisodiyotdagi real holat to‘g‘risida ishonchli axborotni ola olmaslik	adolatsizlik, ya’ni noinsof raqobat kuchayadi
soliq tushumlarining kamayishi, soliq yig‘iluvchanlik darajasining pasayishi	qonunga bo‘ysunuvchi fuqarolarning daromadi va nafliligi kamayadi
Investitsiya kirib kelishi kamayadi	boylarning soliqdan bo‘yin tovlashi soliq yukini fuqarolar yelkasiga yuklaydi
davlat resurslarini pora undirish imkoniyati yuqori bo‘lgan sohalarga yo‘naltiriladi	davlatga ishonch susayadi
tadbirkorlar xarajatlarining oshib ketishi	

Korrupsiyalashgan tizimlar hech qachon fuqarolar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagan, shu sababdan ular siyosiy jihatdan beqarordirlar. Korrupsiya to‘g‘risida munozaralarda uning salbiy oqibatlari bilan birga ijobiy oqibatlari ham bor, degan fikrlar mavjud. Korrupsiyaning ijobiylik konsepsiyasi korrupsiyalashgan jamiyatda siyosatchilar va amaldor-byurokratlar nazoratsizlikni yuqori darajasiga erishishlarini hisobga olmayapti. Ular o‘z xohishlariga ko‘ra yo‘riqnomalar yaratishlari mumkin. Bunda korrupsiya samarali

⁷³ Mualliflar tomonidan tuzilgan.

faoliyatga rag‘bat qilmasdan juda ko‘p yo‘riqnomalar ishlab chiqishga rag‘bat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, pora oluvchilar ataylab yangidan-yangi to‘siqlarni yaratib, qo‘shimcha to‘lov evaziga ushbu to‘siqlarni yengib o‘tishga yordam beradilar.

Korrupsiyani ko‘r-ko‘rona madh etuvchilar poraxo‘rlik byurokratik hujjatlarni to‘plash va qayta ishlashga zarur bo‘lgan vaqtni qisqartirishini isbotlamoqchi bo‘ladilar. Lekin pora devonxona faoliyatini jadallashtirishi shart emas. Ma‘lumki, Hindistonda yuqori bo‘g‘in davlat xizmatchilari quyidagi shartlarda pora oladilar: ular pora beruvchiga hujjatlarini tez qayta ishlanishiga va‘da bermaydilar, lekin raqobatchi kompaniyalarning hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonini sekinlashtirib beradilar. Korrupsiya iqtisodiyot rivojlanishini rag‘batlantiradi, degan mulohaza qonunchilik buzilishiga olib kelishi bilan xavflidir.

O‘zbekistonda korrupsiya xavfi sohalari⁷⁴. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish. Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ham davlat har doim ham aholiga zaruriy xizmatlarni, shu jumladan tibbiy va ta‘lim xizmatlarini taqdim eta olmaydi. Shu munosabat bilan, shifoxonalarda, eng yaxshi maktablarda, institutlarda va hokazolarda cheklangan joylar uchun odamlar o‘rtasida raqobat mavjud bo‘lib, bu muassasalarda korrupsiya paydo bo‘ladi.

Tibbiy va ta‘lim xizmatlaridan tashqari, O‘zbekistonda davlat xizmatlarini taqdim etishning boshqa ko‘plab sohalarida ularning aholining mavjud ehtiyojlariga mos kelmasligi kuzatilmoqda. Xususan, bu suv, gaz, isitish, sug‘orish tizimlari, asfalt yo‘llar, ko‘priklar, parklar va o‘yin maydonchalari qurilishiga tegishli. Bu ushbu tuzilmalardagi korrupsiya darajasi boshqalarga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatishi mumkin, chunki davlat mablag‘lari boshqa maqsadlarda ishlatilishi mumkin yoki bunday xizmatlarning cheklanganligi sababli birinchi bo‘lib pora berganlar xizmat ko‘rsatishi mumkin.

Iqtisodiy faoliyatni tartibga solish. Xo‘jalik faoliyati mexanizmlarini litsenziyalash va tartibga solish korxonalariga

⁷⁴ Бахтишод Хамидов. Измерение коррупции // Экономическое обозрение №4 (244) 2020. <https://review.uz/ru/bjw>

mansabdor shaxslarning imtiyozli rejimidan foydalanish imkoniyatini beradi. Natijada, ijarani davlat amaldorlari bilan bo'lishishi mumkin, ular o'z navbatida ijarani tashkil etish uchun litsenziya berish yoki savdo-sotiqni himoya qilishda to'lovlarni oladilar. Bugungi kunda O'zbekistonda 355 turdagi faoliyat turlari mavjud bo'lib, ularni amalga oshirish uchun tegishli litsenziya talab etiladi. Bundan tashqari, faoliyatning 140 turi turli davlat organlari tomonidan taqdim etiladigan ruxsat beruvchi hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Shu bilan birga, Davlat xizmatlari markazida va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida murojaat etuvchilar atigi 23 ta litsenziya va ruxsatnoma olish uchun murojaat qilishlari mumkin. Qolgan 475 litsenziya va ruxsatnomalarni olish uchun ular tegishli davlat tashkilotlariga murojaat qilishlari kerak, bu qo'shimcha xarajatlar, mablag'lar va vaqtni talab qiladi. "Buyuk Kelajak" mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, so'rov o'tkazilgan tadbirkorlarning 30 foizi litsenziyalar va ruxsatnomalarni ro'yxatdan o'tkazish ular duch kelgan 10 ta asosiy muammolardan biri ekanligini ko'rsatdi.

Davlat sektorida resurslardan foydalanish ustidan nazoratning yo'qligi. Bugungi kunda davlat ulushi bo'lgan korxonalarining umumiy soni 2819 tani tashkil etadi, shundan 2000 tasida davlat 50% dan ortiq ulushga ega. Qoida tariqasida, davlat korxonalarida, xususiyy sektorda bo'lgani kabi, xodimlarning korxonalaridan foydalanishi ustidan qattiq nazorat mavjud emas, bu esa korrupsiya va o'g'rilik uchun asos yaratadi. Eng ko'p davlat korxonalari kommunal xizmat, qurilish va xizmat ko'rsatish, ijtimoiy sohalar, turizm, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida joylashgan bo'lib, bu sohalarda korrupsiya xavfi yuqori bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyotning ko'p tarmoqlari hukumatning alohida qarorlari bilan tartibga solinadi. Investitsiyalarning umumiy hajmida davlat investitsiyalarining yuqori ulushi saqlanib qolmoqda. Davlat 37 turdagi tovarlar va xizmatlar narxlarini tartibga soladi. Bugungi kunda xususiyy sektorda 4 ishchi davlat sektorida 1 ishchiga to'g'ri keladi. Binobarin, rivojlanayotgan davlatlar sharoitida davlatning nazorat funksiyalarining katta qismi saqlanib qolishi korrupsiyaning

kuchayishi bilan birga keladi. Korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun javobgar bo‘lgan mansabdor shaxslar sonining statistikasi shuni ko‘rsatadiki, davlat muassasalari va korxonalar xodimlariga qarshi barcha da’volarning 71 foizi qo‘zg‘atilgan.

5.5.Korrupsiyaga qarshi kurash yo‘llari

Barcha mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi u yoki bu darajada kurash olib boradi. Bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribasi katta ahamiyatga egadir. Masalan, Fransiyada korrupsiyaga qarshi kurash dasturini 500 nafar kishidan ortiq shtat birligi yoki muayyan mulk oborotiga ega har qanday korxonaga yoki tashkilot joriy etishga majbur. Bu dastur sakkiz muhim unsur asosida tuzilishi kerak. Bular:

1. Nafaqat korxonaga, balki uning tashqarisida ham xodimlarning man etilgan xulq-atvor ko‘rinishlarini namoyon etadigan, korrupsiya harakatlarining turli shakllari aniq belgilaydigan Xulq-atvor Kodeksi.

2. Xulq-atvor Kodeksi buzilgan hollarda tashkilot/korxonaga xodimlarini javobgarlikka tortish imkonini beruvchi xulq-atvor sanksiyalarining qat’iy tartibi.

3. Tashkilot yoki korxonaning xulq-atvor kodeksiga zid bo‘lgan xulq-atvor yoki vaziyat mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot yig‘ishga yordam beruvchi xabarchi-xodim himoyasini kafolatlaydigan xabar qilishning ichki anonim ya’ni yashirin tizimi.

4. Tashkilot yoki korxonaga faoliyati sohasiga bog‘liq holda, korrupsiya oid muhim xatarlarini aniqlab, tahlil qilib belgilaydigan muntazam yangilanib turadigan xatarlar kartografiyasi.

5. Mijoz va ta’minotchilar, shuningdek, vositachilarning ehtimoliy korrupsiya xavflarini baholash amaliyotlari.

6. Korrupsiya dalillarini yashirish uchun buxgalterlik kitobi, reyestr va hisob-kitob yozuvlaridan foydalanmaslik kafolatini ta’minlovchi ichki yoki tashqi buxgalterlik nazorati.

7. Korrupsiya xavfiga uchrash ehtimoli yuqori bo‘lgan hamda mavqeyidan foydalanish xavfidan xoli bo‘lmagan rahbar va xodimlarni muntazam ravishda majburiy o‘qitish uchun o‘quv rejasi.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturining yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlar bo‘yicha ijrosini ichki nazorat va baholash tizimi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda faqatgina jazo choralarini qo‘llash samara keltirmasligini e‘tiborga olish lozim. Fransiyada agar javobgar kompaniya yoki tashkilot Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi nazorati ostida belgilangan muddatda o‘z korrupsiyaga qarshi kurash dasturini ko‘rib chiqish va takomillashtirish majburiyatini olsa, jinoiy va ma‘muriy sanksiyalarni cheklash imkoniyati mavjud. Bu mexanizm AQShda Foreign Corrupt Practice Act ga muvofiq va Buyuk Britaniyada Anti Bribery Act ga muvofiq allaqachon qo‘llanilayotgan mexanizmga o‘xshash bo‘lib, amaliyotda kutilgan ijobiy natijalarni bermoqda.

Bank operatsiyalarida sarmoya yuvish ustidan nazorat mexanizmlari. Shunday qilib, Yevropada mijozning hisobiga yirik pul mablag‘lari ularning manbasini tasdiqlovchi hujjatsiz kelib tushganda, barcha bank va moliya muassasalari noqonuniy kapital yoki noqonuniy kapitalni yuvish bilan bog‘liq gumonlarini deklaratsiya qilishga majburdir. Albatta, qoidaga ko‘ra “puxta“ amaldorlar katta hajmda pora olayotganda uni soliq jannati deb ataladigan offshor hududidagi bank hisobiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tkazishni afzal ko‘radi. Bu borada noqonuniy kapitalni yashirishning bunday joylari, “panama qog‘ozlari“ bilan bog‘liq shov-shuvli voqea isbotlaganidek, noqonuniy kapitalni maxfiy ravishda saqlashning mutlaq kafolati hisoblanmaydi. Ushbu ishda maxfiy hujjatlar oshkor bo‘lishi oqibatida, hujjatlar tergovchi-jurnalistlarning Xalqaro konsorsiumiga topshirilgan hamda jurnalistik tergov natijasida 12 nafar davlat va hukumat rahbarlari hamda 128 nafar yuqori darajadagi amaldorlarning bankdagi offshor hisoblari aniqlangan.

Transparency International xalqaro tashkiloti tomonidan keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog‘iston, Gruziya, Ozarbayjon, Ukraina va Moldoviya davlatlarida korrupsiya darajasi yuqori ekanligi ko‘rsatiladi. Hozirgi paytda bu davlatlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qator chora-chora-tadbirlar ko‘rilmog‘da. Jumladan, bu davlatlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash, uni oldini olishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Misol uchun, Ukrainada «Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Qonun mavjud bo‘lib

davlat boshlig‘i mazkur qonun normalarini hayotga joriy etilishi uchun jiddiy ahamiyat beradi. Ukraina Prezidenti 1997 yil 10 apreldagi 319-sonli farmoni bilan Korrupsiyaga qarshi kurash milliy dasturi tasdiqlangan. Ukrainaning «Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Qonuni 9-moddasida mansabdor shaxslarning daromadlari, qimmatli qog‘ozlari, ko‘chmas mulk va boshqa qimmatbaho buyumlari, shuningdek bankdagi omonatlari to‘g‘risida rasmiy nashrlarda ma’lumotlar berib borilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasida ham korrupsiyaga qarshi kurash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida Iqtisodiy jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash boshqarmasi faoliyat yuritayapti. 2001 yilda Bosh prokuratura huzurida Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurash Departamenti tashkil etildi, 2002 yilda departament Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash Departamenti etib qayta tashkil etildi. 2017 yil 3 yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilangan.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tizimlilik;
- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- javobgarlikning muqarrarligi⁷⁵.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish;

⁷⁵ Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши кураш тўғрисида”ги қонуни. 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419-сон.4-модда.

– davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta‘minlash⁷⁶.

Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

– davlat organlari faoliyatining ochiqqligini va ularning hisobdorligini ta‘minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas‘uliyatini kuchaytirish;

– korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik;

– davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish;

– davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-ahloqining yagona prinsiplari va qoidalarini belgilovchi odob-ahloq qoidalarini samarali amalga oshirish;

– davlat organlari xodimlari manfaatlarining to‘qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o‘tkazilishini ta‘minlash;

– davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomini belgilash, xizmatni o‘tashning shaffof tartibini o‘rnatish, shaxsiy va kasbiy sifatlar, ochiqlik, beg‘arazlik, adolatlilik va xolislik prinsiplari asosida tanlov bo‘yicha saralash hamda xizmatda ko‘tarilish tizimini joriy etish;

⁷⁶ O‘sha yerda, 5-modda.

– davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘rilishi ustidan nazoratni ta‘minlash;

– davlat organlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ushbu organlar tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o‘tkazish;

– normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish;

– davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta‘minot olishini va rag‘batlantirilishini ta‘minlash.

Qonun hujjatlarida davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin. Davlat organlarining va o‘zga tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda boshqa xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg‘arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-ahloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o‘zini tiyishi shart⁷⁷.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

– ma‘muriy va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, ro‘yxatga olish, ruxsat etish va litsenziyaga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish;

– davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyatini tekshirish

⁷⁷ Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга карши кураш тўғрисида”ги қонуни. 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419-сон.19-модда.

tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo‘l qo‘ymaslik;

– davlat organlari va tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning masofaviy shakllarini keng joriy etish;

– tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun teng shart-sharoitlar yaratish va insofsiz raqobatga yo‘l qo‘ymaslik;

– davlat xaridlarining samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish, davlat xaridlarini joylashtirishda oshkoralik, shaffoflikni ta‘minlash hamda raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlash;

– ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta‘minot, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa sohalarida aholi uchun adolatli shart-sharoitlarni hamda teng imkoniyatlarni yaratish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik;

– nodavlat tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

O‘zbekistonlik olimlar va amaliyotchilarning tadqiqotlarida⁷⁸ ko‘rsatilishicha korrupsiyani yo‘q qilish uchun avvalambor davlatning iqtisodiyotga keraksiz aralashuvini kamaytirishga, davlat muassasalarida ishchilar sonini optimallashtirishga yo‘naltirilgan bosqichma-bosqich chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan strategiyani ishlab chiqish kerak, bu esa keyinchalik ushbu tashkilotlarda ish haqining oshishiga olib keladi. Kelgusida quyidagi yo‘nalishlarda Korrupsiyaga barham berishda kompleks yondashuv bo‘yicha samarali choralar ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

• **Malakali ishchilarni tanlash.** Bilim darajasi va korrupsiya o‘rtasida yaqin bog‘liqlik mavjud. Ko‘proq malakali ishchilar pora olish ehtimoli kamroq. Bunday sharoitda xodimlarni o‘z bilimlari asosida yollashga yondashuv korrupsiyaga qarshi kurashda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Shuning uchun davlat xizmatiga kirishga da‘vogarlariga nisbatan yagona talablarni ishlab chiqish va ochiq tanlov imtihonlari tizimini joriy etish zarur. Masalan, Janubiy Koreyada hukumat vaqti-vaqti bilan davlat xizmatchilarini tekshiradi.

⁷⁸ Бахтишод Хамидов. Измерение коррупции // Экономическое обозрение №4 (244) 2020. <https://review.uz/ru/bjw>

Davlat xizmatchisining 5-darajasiga imtihon uch bosqichdan iborat. Birinchi qadam nomzodlarning umumiy bilimlarini sinab ko‘rishdir. Imtihonning ushbu bosqichining predmetlari huquq, tarix, chet tili va boshqalar. Ikkinchi bosqich nomzodlarning kasbiy bilimlarini sinab ko‘rishdir. Har bir professional guruh turli mavzularni topshirishi talab qilinadi, ammo iqtisodiyot va huquq umumiy fanlardir. Uchinchi bosqichda nomzodning shaxsiy xususiyatlarini tekshirish uchun suhbat o‘tkaziladi.

- **Xodimlarning motivatsiyasi (ish haqi).** Nafaqat iqtisodiy nazariya, balki amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ish haqi darajasi korrupsiya sxemalarida ishtirok etishning afzalliklari bilan taqqoslanadigan, qo‘lga tushish xavfini hisobga olmaganda, korrupsiyaning oldini oluvchi asosiy omil hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, davlat xizmatchilariga xususiy sektor bilan raqobatdosh ish haqi taklif qilinishi kerak. Shuningdek, davlat xizmatchilarining ish faoliyatini baholash tizimi va yuqori lavozimdagi ishchilarga ularning faoliyati samaradorligiga qarab maosh to‘lash tizimini joriy etish zarur.

- **Jazo (obro‘si, jarimalar).** Korrupsiya sxemalarida ishtirok etish xarajatlarining kamligi sababli, korrupsiya faolligi o‘smoqda. Korrupsiya uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar korrupsiyani yengishda alohida rol o‘ynashi mumkin, chunki ko‘p hollarda xodim uchun korrupsiya xarajatlari foydadan oshadi.

- **Monitoring (audit va identifikatsiya).** Ko‘pgina davlatlar «pora berish» orqali korrupsiyaga qarshi kurashda audit rolini kuchaytirish zarurligini tan olishadi. Buxgalterlar va auditorlarning global korrupsiyaga qarshi strategiyaga qo‘shadigan hissasini muhokama qilish uchun Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi "Buxgalteriya ishi va korrupsiyaga qarshi kurashish" ma‘ruzasini e‘lon qildi. Yevropa Kengashining korrupsiyaga oid jinoyat huquqi to‘g‘risidagi konvensiyasi, davlatlarni har qanday hukumat amaldorlariga biron-bir shaxsga va’da berish, taklif qilish yoki biron-bir ortiqcha imtiyoz berish uchun jinoiy javobgarlikka olib keladigan milliy qonunlarni qabul qilishga chaqiradi. Bunday jinoyat, shuningdek, buxgalteriya hisobi va hisobot berish tartibini qo‘llagan

holda davlat xizmatchilarining poraxo‘rligi bilan bog‘liq xatti-harakatlar to‘g‘risida qasddan noto‘g‘ri taqdim etilganlik sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

• **Texnologiyalar (elektron hukumat, jamoat nazorati).** "Elektron hukumat" ning to‘laqonli ishlashi davlat xaridlarining aksariyat qismini va aholi, biznes va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning butun tizimini shaffof qilish imkonini beradi va bu tarmoqning hajmini sezilarli darajada kamaytiradi. Ikkinchisi biznesni rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, Singapurda ko‘plab zarur xizmatlarni, masalan, pasport va tug‘ilganlik haqidagi guvohnomani uyda zarur shakllarni to‘ldirib, tegishli organlarga elektron pochta orqali yuborish orqali olishingiz mumkin. Hukumat bunday xizmatlarni Internet orqali taqdim etishi odatiy hol sifatida qabul qilinadi. Shuni ta‘kidlash kerakki, agar siz ushbu xizmatlarni olish uchun muassasaga shaxsan tashrif buyurgan bo‘lsangiz, u holda ushbu shaxsga muassasaga alohida ehtiyojsiz kelganlik uchun jarima solinadi.

Qonun hujjatlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin⁷⁹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga 2020 yil 24 yanvarda qilgan murojaatnomasida **“To‘rtinchidan**, afsuski, jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi. Tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish, kadastr, qurilish, litsenziya, bojxona, bank, davlat xaridlari kabi sohalarda korrupsiyaga duch kelayotganini Prezident nomiga kelib tushayotgan ko‘plab murojaatlar ham, matbuot va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ham yaqqol ko‘rsatib turibdi. **Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a‘zolari, ta‘bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas**

⁷⁹ Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга карши кураш тўғрисида”ги қонуни. 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419-сон.20-модда.

ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlarini bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”,-deb ta’kidlagan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish endilikda quyidagilar belgilangan:
– boshqaruv tizimi sifatini oshirishda **“Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”** degan asosiy tamoyilni amalda to‘liq ta’minlash;

– raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, **“Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini** ishlab chiqish va uni amalga oshirish⁸⁰;

– aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish;
– davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– biznes muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlarning huquqlarini samarali himoya qilish mexanizmini rivojlantirish;

– parlament va Prezidentga hisob beradigan, korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul bo‘ladigan alohida organ tashkil etish va uning faoliyatini kuchaytirish;

– korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash.

Nazorat savollari

1. Korrupsiya nima va uning namoyon bo‘lish shakllari nimalardan iborat?

2. Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari nimalardan iborat?

3. Korrupsiya turlarini izohlab bering.

4. Korrupsiya qanday o‘lchanadi?

5. Nima uchun rivojlanayotgan, rivojlanishi orqada qolgan mam lakatlarda korrupsiya darajasi yuqori?

6. Korrupsiyaga qarshi kurashishning qanday usullarini bilasiz?

7. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi qanday choralar ko‘rilmogda?

⁸⁰ Nozim Muminov, Shoira Olimjanova, Akmal Salimov, & Tatyana Kim. (2020). DIGITALIZATION AS AN IMPORTANT FACTOR OF LEGALIZATION OF THE SHADOW ECONOMY. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(2), 16-19. Retrieved from <http://journals.researchparks.org/index.php/IJEFS/article/view/371>

8. Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlari nimalardan iborat?

9. Ijtimoiy-iqtisodiy va tadbirkorlik sohalarida korrupsiyaning oldini olish uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshiriladi?

10. O'zbekistonda istiqbolda korrupsiyaga qarshi qanday chora tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan?

VI BOB. SOLIQLARNI TO‘LASHDAN BO‘YIN TOVLASH

6.1. Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning mohiyati va sabablari

6.2. Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning asosiy turlari

6.3. Offshor zonalar va firmalar (kompaniyalar) - soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash vositasi

6.4. O‘zbekistonda soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashga qarshi chora-tadbirlar.

6.1. Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning mohiyati va sabablari

Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash ko‘pchilik xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni faoliyat yuritish normasiga aylandi. Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash qoidalar va qoidalarga rioya qilish bilan amalga oshiriladi, shu bilan birga soliq qonunchiligidagi har qanday bo‘shliqlarni topib, bunday kamchiliklardan foydalanadi. O‘zbekiston soliq qonunchiligida “**soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash** – soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki soliq solinadigan boshqa ob’ektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko‘rsatish, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan boshqa tarzda qasddan bo‘yin tovlash, shuningdek, daromadlar to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etmaslik yoki unga atayin noto‘g‘ri ma’lumotlarni kiritish” tushunchasidan foydalaniladi⁸¹.

Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash bilan samarali kurashish uchun, birinchi navbatda, nega ko‘pchilik soliq to‘lovchilar uni to‘lashdan bo‘yin tovlashni tanlashlari sababini aniqlab olish muhimdir. O‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra soliqlar har bir fuqaroga beriladigan ijtimoiy boyliklar evaziga ixtiyoriy to‘lovlardir. Ammo amaliyotda masalaning bunday hal etilishiga bir necha sabablar to‘sqinlik qiladi.

⁸¹ Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash va xufiyona iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish faktlarini aniqlashda yordam bergan shaxslarni moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida ID-6984 O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining qarori

Birinchidan, “biletsiz” muammosi yuzaga keladi. Ba’zi individlar soliqlarni to‘lashdan bosh tortish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar, bunga sabab ko‘pgina soliq to‘lovchilar fonida ularning bunday faoliyati sezilmaydi, va taqdim etiladigan ijtimoiy boyliklar hajmiga ham ta’sir ko‘rsatmaydi, degan hayol bo‘ladi.

Ikkinchidan, texnik sabablarga ko‘ra katta guruhlarda hamjihatlik bilan qaror qabul qilishning iloji yo‘qdir. Ko‘pchilikka bo‘ysunish qoidasi esa soliq diskriminatsiyasi uchun ob’ektiv shart-sharoit yaratadi va jabr ko‘rgan soliq to‘lovchilarni ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishda ishtirok etishda ijtimoiy adolat va iqtisodiy samara nuqtai nazaridan bo‘yin tovlashga undaydi.

O‘tish iqtisodiyotlarida ushbu holat demokratik institutlarni samarasizligi, mulk va shartnoma himoyasi bo‘shligi, korrupsiya, fiskal siyosatning tor guruhlar manfaatlaridan kelib chiqib olib borilishi, tadbirkorlik faoliyatini noadekvat, ya’ni nomuvofiq tartibga solish, biznes uchun qulay muhitning yetarli emasligi kabilar bilan chuqurlashadi. Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashga soliq qonunchiligining zaifligi, undagi kamchiliklar hamda nazoratning sustligi bilan ham izohlanadi. Mamlakatda tadbirkorlar uchun soliq yukining og‘irligi, soliqlar miqdorining haddan tashqari ko‘pligi, soliq stavkalarining yuqoriligi, uni hisoblash usullarining murakkabligi soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashga turtki beradigan sabablar hisoblanadi (6.1.1-rasm).

Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash asosan tadbirkor va biznes bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning ma’naviyati, insoniy xususiyatlariga bog‘liq. Tadbirkor yoki jismoniy shaxs noqonuniy yoki noxolis xatti-harakatlar bilan ham faqat boyluk to‘plashni, qo‘shimcha daromad olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa, u har qanday sharoitda ham qonunchilikdagi bo‘shliqlarni izlab topib, undan foydalangan holda soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning turli-tuman usullarini o‘ylab topib, ularni qo‘llashga intiladi.

Shu sababdan ushbu sharoitlarda soliq to‘lovchilar tabiiy munosabati opportunistik xususiyatga ega bo‘ladi, bunda ular soliqlarni jazo sifatida qabul qiladilar va ijtimoiy boyliklarni moliyalashtirishda qatnashishni minimallashtiradilar. Tadbirkorlar davlatning soliqlardan oladigan foydasi yoki uni to‘lanmasligidan

ko‘riladigan zarari to‘g‘risidagi mavhum taqqoslashlardan emas, balki risklar borasidagi muayyan masalalarga amal qiladilar: soliq summasi uni to‘lamaslik evaziga solinadigan sanksiyalardan qanchalik kattaligini taqqoslaydi. Agar to‘lamaslik uchun jazo og‘ir emas, buni aniqlash ehtimoli juda past bo‘lsa, ko‘pchilik tadbirkorlar soliq to‘lashdan qochish yoki soliq qonunchiligi va soliq undirish texnikasidagi kamchiliklardan foydalanib, soliqlarni minimallashtirishga harakat qiladilar.



6.1.1-rasm. Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning sabablari⁸²

⁸² Mualliflar tomonidan tuzilgan.

Shunday qilib, qonunchilikdagi kamchiliklar, uni buzish jazosiz qolishi va nazoratning sustligi soliq to'lashdan bo'yin tovlashga imkoniyat yaratadi. Yuqori soliq stavkalari to'g'risidagi keng tarqalgan bahonalar esa asossizdir. Ammo soliqqa tortishning yuqori chegarasi mavjud bo'lib, soliq stavkasi o'sha darajadan oshib ketsa, iqtisodiy faoliyat sustlashib boradi.


Soliq to'lashdan bo'yin tovdashning sabablarini tahlil etishda ikki xil yondashuvdan foydalanish zarur: soliqlarni "yangi boylar" tomonidan to'lanmasligi va soliqlarni sobiq ittifoq korxonalari direktorlari tomonidan to'lanmasligi. "Yangi boylar" islohotlardan dastlabki davrdagi yarim jinoiy kooperativ harakatda faoliyat yuritgan tadbirkorlar bo'lib, psixologik sabablarga ko'ra soliq to'lashni xohlamaydilar. Ular hech qachon davlatga hech narsa to'lamaganlar, bunga ularning jinoiy falsafasi va tadbirkorlik fe'l-atvori yo'l qo'ymaydi. Ular qonunchilikka rioya qiladigan fuqarolarga ongli ravishda aylanishlari uchun ma'lum bir davr kerak, hech bo'lmaganda davlatdan o'z mulki himoyalanihini talab qilish huquqiga ega bo'lish uchun. Davlat, soliq nazoratini ham hisobga olgan holda, qanchalik tez kuchaysa, ularning psixologik yetilishi shunchalik tez amalga oshadi.

Sobiq ittifoq korxonalari direktorlari va rahbarlari soliq to'lamaslik tajribasini tez o'zlashtirib oldilar. Lekin ularda soliq to'lamaslikka boshqa asoslar bor edi. Masalan, harbiy sanoat kompleksi korxonalari davlat buyurtmalari keskin pasayganligi sababli mablag'lar yetishmasligidan jabr ko'radilar, ko'pchilik hollarda esa ishlab chiqarishni raqobatbardosh, bozor va aholi uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tkazish qobiliyati yo'qligidan jabrlanadilar. Ko'pchilik boshqaruvchilar o'z korxonalarining aktivlarini talon taroj qilishadi. Shunday ekan ulardan ishlab chiqarish hajmini kengaytirishni va soliqqa tortish bazasini ko'paytirishni kutish noto'g'ri bo'ladi. Bu hol ularning o'zlari korxonaning egasiga aylanganlaridagina o'zgarishi mumkin.

Tabiiy monopoliyalar alohida xususiyatga egadirlar, ular davlatga kelishgan holda soliq to'laydilar yoki to'lamaydilar. Buni quyidagicha tushunish kerak – faqatgina ular davlatga to'lashlari kerak emas, balki davlat ham ularga to'lashi kerak (davlat

muassasalariga issiqlik va elektr energiyasini yetkazish, hukumat qarorlariga binoan ko'rsatilayotgan transport xizmatlari evaziga).

Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash natijasida soliqlarni yig'ish va natijada soliqlar tushumi kamayadi, davlat budjetiga mablag' kelib tushishi kamayishi hisobiga ijtimoiy soha yetarli darajada moliyalashtirilmaydi; halol raqobat qoidalari buziladi; soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarning daromadlari ko'payib boradi; korrupsiya o'sadi; soliq to'lashdan bo'yin tovlash evaziga to'plangan kapital shaxsiy maqsadlar, xufyonaviy faoliyatga yo'naltiriladi yoki xorijga olib chiqib ketiladi (qarang: 6.1.2-rasm).



6.1.2-rasm. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashning oqibatlari⁸³

⁸³ Mualliflar tomonidan tuzilgan.

Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash natijasida milliy iqtisodiyot rivojlanishi susayadi, ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlar uchun mablag‘lar ajratish kamayadi, aholi turmush darajasining o‘shishi sekinlashadi.

6.2.Soliqlar to‘lashdan bo‘yin tovlashning asosiy turlari

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash – yuridik yoki jismoniy shaxsning faol harakatlari evaziga o‘zini u yoki bu soliqni turini to‘lovchilari qatoridan chiqarib (ya’ni, shu soliqni to‘lamasdan) o‘z soliq majburiyatlarini minimallashtirish shaklidir. Soliqlardan bo‘yin tovlashga misollar sifatida soliq imtiyozlarini olish maqsadida sun’iy bitimlar tuzish, soliq stavkalarini pasaytirish uchun biznes tuzilmalari shakllarini o‘zgartirish, soliq imtiyozlarini taklif etadigan mamlakatlarga yoki offshor zonalarda korxonalar tashkil va boshqalarni ko‘rsatish mumkin (qarang:6.2.1-rasm).

Soliqlardan bo‘yin tovlashning asosiy shakllari

Soliq imtiyozlarini olish maqsadida sun’iy bitimlar tuzish

Soliq stavkalarini pasaytirish uchun biznes tuzilmalari shakllarini


Soliq stavkalarini pasaytirishni taklif qiladigan mamlakatlard

6.2.1-rasm. Soliqlardan bo‘yin tovlashning ko‘p tarqalgan shakllari⁸⁴.

Korxonalar va fuqarolarning faoliyatini qonuniyligidan kelib chiqib, soliqlarni aylanib o‘tish usullarini ikki guruhga ajratish

⁸⁴ Mualliflar tomonidan tuzilgan.

mumkin: qonuniy va noqonuniy. Qonuniy faoliyatga soliq to'lovlaridan rasmiy ozod bo'lish strategiyasi kiradi. Noqonuniy faoliyatga – noqonuniy faoliyat va qonuniy faoliyatni yashirish kiradi. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash turli sxemalarga ega spetsifik modellarni tuzishni taqazo etadi. Ular uchta asosiy strategiyaga tayanadi (6.2.2-rasm)⁸⁵.



6.2.2-rasm. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash strategiyalari

Ikkinchi strategiya – soliq to'lovlaridan ozod etish – uchta turli sxema bo'yicha oshiriladi. Soliq solishning imtiyozli tartiblaridan foydalanish yoki soliq to'lovlaridan ozod bo'lishni (offshor zonalarda ro'yxatdan o'tgan korxonalar), yoki rasmiy imtiyozlarni taqdim etilishini (masalan, nogironlar band bo'lgan korxonalar) nazarda tutadi.

⁸⁵Qarang: Радаев В. Деформализация правил и уход от налогов в российской хозяйственной деятельности // Вопросы экономики. 2001. № 6. С. 70-72.

Soliq imtiyozlaridan foydalanish soliqlar to‘lashdan bo‘yin tovlashning oddiy sxemalarini yaratish imkoniyatini beradi. Hukumat vakili bilan siyosiy bahslar orqali ham soliq majburiyatlarining bir qismi yoki barchasidan ozod bo‘lish mumkin. Bunda soliq imtiyozlari taqdim etilishini so‘rashda muhim argument bo‘lib korxonaning butun mamlakat yoki muayyan hudud uchun alohida ahamiyatga egaligi, ya’ni mahsulotning strategik ahamiyati, bandlikni ta’minlash, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish keltiriladi (qarang: 6.2.3-rasm).



6.2.3-rasm. Soliq to‘lovlaridan ozod etish strategiyasida foydalaniladigan sxemalar⁸⁶

Soliq to‘lovlaridan qutulish vositasi sifatida sun‘iy to‘lamasliklar yoki soliqlar to‘lovini to‘xtatib turishlarni keltirish mumkin. Ular quyidagi “ob’ektiv sharoitlarga” murojaat qiladilar – hamkorlar tomonidan majburiyatlarga rioya qilmaslik, hisob raqamida mablag‘lar bo‘lmasligi. Bu nuqtai nazardan tadbirkorlik strategiyasining muhim qismi pul mablag‘larini hisob raqamida to‘xtab qolmasdan, doimo harakatda bo‘lishida mujassamlashgandir. Aks holda, ushbu mablag‘lar soliqlar bo‘yicha qarzlarni qoplash uchun undiriladi.

Uchinchi strategiya eng keng tarqalganidir. U qonuniy faoliyat natijalarini yashirish sxemasiga asoslanadi.

⁸⁶ Mualliflar tomonidan tuzilgan

Korrupsion kelishuv – eng “oddiy” sxemalardan biri. U soliq xizmatchilari yoki fiskal organlarga ta’sir eta oladigan yuqori davlat hokimiyat organlari vakillarini to’g’ridan-to’g’ri pora berib sotib olishni nazarda tutadi.

Institutsional fiksiyalar (soxtaliklar) – bu usul soxta korxonalarni (“qog’ozdagi korxonalar” yoki uzog’i bilan uch oy faoliyat yuritadigan “bir kunlik korxonalar”) tashkil etishga asoslanadi. Ular orqali soliqlarni aylanib o’tib pul mablag’larini naqdlashtirish amalga oshiriladi. So’ngra ular soliq organlari tomonidan tekshiruvlar boshlanmasdan va buxgalterlik balansini topshirmasdan yopilib ketishadi.

Shu kabi yo’qolib ketadigan korxonalariga kreditlar ajratiladi, ularning hisob raqamlariga oldindan to’lov rasmiylashtiriladi. Deyarli o’z faoliyatini to’xtatgan, yopilish arafasidagi banklarga soliq to’lovlari o’tkaziladi. Bu holatlarning barchasida poralarsiz ham faoliyat yuritish mumkin, faqatgina soxta iqtisodiy institutlarni tashkil etish va qisqa muddatli faoliyat xarajatlarini qoplash kerak, xolos.

Almashtirish o’yinlari bir qism moliyaviy oqimlarni soya ostiga olib, qonuniy va noqonuniy faoliyatlar chegarasida ushlab turiladi. Shunday qilib, soxta operatsiyalar amalga oshirilganda moliyaviy hujjatlar mavjud bo’lmagan mahsulot va xizmatlarning korxonaga va vositachi yoki soxta firma o’rtasidagi harakatlarini aks ettiradi. Masalan, hech kim yetkazib berishni hayol ham qilmagan mahsulot uchun pul o’tkaziladi, soxta marketing xizmatlari uchun buyurtma beriladi, QQSni qaytarish imkonini beruvchi yolg’ondakam eksport amalga oshiriladi, “tumovdan” sug’urtalash shartnomalari bo’yicha mukofotlar to’lanadi.

Qonuniy va noqonuniy harakatlar chegarasida amalga oshirilayotgan soxta operatsiyalar bo’yicha soliqlar to’lashdan bosh tortishga quyidagi holat misol bo’la oladi: turistik kompaniya o’z asosiy faoliyatini amalga oshirish maqsadida bir necha avtobuslarni sotib oladi, lekin ularni firma ta’sischilarining qarindoshlari nomlariga shaxsiy mulk sifatida rasmiylashtiradi, qarindoshlar, o’z navbatida, yollangan haydovchilar nomiga avtobusni haydash bo’yicha ishonchnoma beradilar va turistik firma bilan ushbu


transport vositalarini ijaraga berish bo'yicha shartnoma tuzadilar. Natijada transport vositalari firma balansiga o'tmaydi va soliqlar to'lanmaydi.

Shuni qayd etish kerakki, eng ko'p qoidabuzarliklar optimallashtirish sxemalarini o'ziga emas (ko'pchilik hollarda ushbu sxemalar yuridik jihatdan puxta ishlangan bo'ladi), balki ushbu sxemalarning hamroh sharoitlariga to'g'ri keladi. Masalan, kichik korxonalariga taqdim etiladigan imtiyozlardan foydalanish ko'pincha tashkilot xodimlari sonini soxtalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Soxtalashtirishning mavjudligi ushbu sxemani avtomatik ravishda noqonuniy qiladi.

Undan tashqari, *noekivalent ayirboshlashdan* foydalaniladi. Bunda "tomonlar" uchun foyda keltirmaydigan shartnomalar tuziladi, kelishilgan holda va maqsadli ravishda qiymat proporsiyalari buzib ko'rsatiladi. Buning uchun mahsulot va xizmatlarni bozor qiymatidan yuqori yoki past narxlarda sotish va sotib olish imkonini beruvchi barter ayirboshlashlari va o'zaro hisob-kitoblar yordamida xarajatlarni qoplash tizimlaridan foydalaniladi: korxonalar o'rtasida mahsulotlar sotiladigan pasaytirilgan transfert narxlari tizimidan foydalaniladi; nominal va bozor qiymati o'rtasidagi farqda o'ynaydigan veksellar muomalaga chiqariladi; likvidlik darajasi turlicha bo'lgan aksiyalar ayirboshlanadi; oldindan ma'lum oshirilgan foizlar bo'yicha kreditlar beriladi.

Masalan, korxonalar qoshida firmalar tashkil etilib, ularga korxonaning mahsulotlari shunchalik pasaytirilgan narxlarda sotiladiki, foyda nol darajada bo'ladi. Soliq organlari foyda solig'i to'lanmayotganligi bo'yicha da'vo qila olmaydilar. Firmalar esa mahsulotni bozor narxida qayta sotadi va asosiy ishlab chiqaruvchi korxonalar egasi bilan olingan foydani bo'lishadi. Firmada bir necha kishi ishlayotganligi sababli kichik biznesga soliq imtiyozlaridan keng foydalanadi.

Nihoyat, ayirboshlov o'yinlarida *oldindan rejalashtirilgan sanksiyalardan* foydalaniladi – shartlarini bajarib bo'lmaydigan shartnomalar bo'yicha yirik jarima sanksiyalarini qo'llash; shartnoma shartlarini ataylab bajarmaganlik natijasida garovdagi mol-mulknini o'zlashtirish (qarang: 6.2.4-rasm).



6.2.4-rasm. Qonuniy faoliyat natijalarini yashirish sxemalaridan foydalanish strategiyasi⁸⁷

Qayd etilgan ko'pchilik sxemalar quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- “chetdagi” tuzilmalarni yaratish yordamida qo‘shilgan qiymat yaratuvchi korxonalarni ularni mahsulotini sotadigan korxonalardan ajratish;

⁸⁷ Mualliflar tomonidan tuzilgan.

• Korxonalarining aktivlarini vositachi tuzilmalarga va passivlarini davlatga va to‘lmaslik amaliyoti yordamida kreditorlar zimmasiga o‘tkazish orqali ishlab chiqaruvchi korxonalarining aktivlari va passivlarini ajratish;

• ishlab chiqaruvchi korxonalarda rasmiy buxgalteriyani qo‘llash va vositachi tuzilmalarda keyinchalik bir qism hujjatlarni yo‘q qilish bilan ikkiyoqlama buxgalteriyani qo‘llash.

Boshqaruv tuzilmalarining konturlari yopiq va ochiq ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin. Yopiq kontur doirasida pul oqimlari doira bo‘yicha aylanadi va qo‘shilgan qiymat ishlab chiqaruvchi boshlang‘ich korxonaga qaytib keladi. Bu holda soliqqa tortilishdan olib qochilgan mablag‘lar investitsiyalarga aylanadi.

Ochiq kontur doirasida mablag‘lar ishlab chiqaruvchi korxonaga qaytmaydi. Ular vositachi firmalarning hisob raqamlarida yashiriladi va xorijga olib chiqiladi, so‘ngra yo boshqa biznesga sarflanadi, yo mulk egasining shaxsiy boyishi uchun foydalaniladi.

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash jarayoni bir necha bosqichga ega. Ma‘lum bir ma‘noda soliq qonunbuzarligining “hayot sikli” tovarning “hayot sikli”ga mos keladi. Birinchi bosqichda soliq to‘lovchi soliqdan qochishni yangi sxemasini o‘ylab topadi. Ikkinchi bosqichda – ushbu sxema soliq to‘lovchilar o‘rtasida tarqaladi. Ushbu sxema soliq organlariga ma‘lum bo‘lganida uchinchi bosqich boshlanadi, bunda ushbu sxemaga qarshi kurashish yo‘li qidiriladi, soliq qonunbuzarliklarini samarali aniqlash va oldini olishning shakllari va usullari ishlab chiqiladi (qarang:6.2.1-jadval).

6.2.1-jadval.

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash jarayoni bosqichlari⁸⁸

Bosqichlar	Jarayon tavsifi
Birinchi bosqich	soliq to‘lovchi soliqdan bo‘yin tovlashning yangi sxemasini o‘ylab topadi
Ikkinchi bosqich	ushbu sxema soliq to‘lovchilar o‘rtasida tarqaladi
Uchinchi bosqich	soliq organlari soliq qonunbuzarliklarini samarali aniqlash, oldini olishning shakllari va usullarini

⁸⁸ Mualliflar tomonidan tuzilgan.

	ishlab chiqadi
To'rtinchi bosqich	qonunbuzarliklarga qarshi davlat organlarining faol va ommaviy qarshi kurash olib borishi jarayoni
Beshinchi bosqich	qonunbuzarlar va davlat organlari o'rtasidagi muvozanat minimal imkoniyat darajasida o'rnatiladi

To'rtinchi bosqich – qonunbuzarliklarning soni va ular keltirgan zararni kamaytirishga olib keladigan davlat organlarining faol va ommaviy qarshi kurashi amalga oshiriladi. Beshinchi bosqichda qonunbuzarlar va davlat organlari o'rtasidagi muvozanat minimal imkoniyat darajasida o'rnatiladi.

Ta'kidlash lozimki, soliq to'lashdan bo'yin tovlashning har qanday modelida moliyaviy oqimlarni nazorat qilishni murakkablashtiruvchi firmalarning uzun zanjiri yaratiladi. Bunda deyarli barcha operatsiyalar qonuniy hisoblanadi, lekin butun sxema noqonuniydir.

6.3. Offshor zonalar va firmalar (kompaniyalar) - soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash vositasi

Offshor bu qulay soliq sharoitiga ega davlatda xorijiy fuqaro tomonidan qayddan o'tgan, ushbu mamlakatda faol ish yuritmaydigan firmadir. Huquqiy nuqtai nazardan bu holatda qonunga qarshi hech narsa yo'q, shu tufayli dunyoda offshor zonalar keng yo'lga qo'yilgan, taxminiy hisoblarga ko'ra, yer yuzidagi barcha mablag'ning o'n foizga yaqini ofshorda jamlangan.

Yigirmanchi asrning o'rtalarida uddaburon firmalardan biri Amerika soliq inspeksiyasiga chap berib, solig'i kamroq boshqa mamlakatda qayddan o'tganida "offshor" so'zi birinchi bo'lib dunyo og'ziga tushdi. Biroq tarixni ko'zdan kechirsak, barcha yangilik unutilgan eskilik ekanini ko'ramiz. Pishiq-puxta yunonlar offshor nimaligini azaldan yaxshi bilishgan, soliqdan qochib qadimgi Afinani aylanib o'tishgan, tovarlarini uzoqroqdagi boj to'lanmaydigan ko'psonli orollarga olib borishgan. "Offshor"ning so'zma-so'z tarjimai "qirg'oq narisida" ma'nosini anglatib, faoliyatni mohiyatan

to'g'ri aks ettiradi: offshor mintaqalar, asosan, iqtisodiyotni rivojlantirish uchun tabiiy boyliklari yo'q, kichik, iliq mamlakatlarda joylashadi. Bunga Qibris, Kayman orollari, Bermud misol bo'ladi. Xorij kapitalini jalb etishning birdan-bir yo'li ular uchun offshor biznesidir. Ba'zi mamlakatlarda xorijliklar ta'sis etgan firmalar atayin soliqqa tutilmaydi. Bu esa mamlakatga pul oqib kelishi va mahalliy aholini ish bilan ta'minlash imkonini yaratadi. Biznes egalari firmalarini shunday mamlakatlarda qayddan o'tkazishadi va budjetga tushuvchi belgilangan kichik to'lovlarni to'lab turishadi. Asosiy faoliyatni o'zining mamlakatida yuritadi. Xalqaro huquqqa binoan kompaniya mustaqil sub'ekt hisoblanib, o'zi qayddan o'tgan davlatdagina soliqqa tutilishi mumkinligi uchun bu hol ro'y beradi.

Soliqlar yo'qligidan tashqari offshorning bir qator foydali taraflari ham mavjuddir: ko'plab mamlakatlarda buxgalterlik hisobi yuritish talabi kamaytirilgan yoki umuman yuritilmaydi. Qonunlarda maxfiylik ko'zda tutiladi: yollangan direktorlar va boshqaruvchilar ortida turgan asl sohib kimligini bilishning iloji yo'q. Offshor o'z sarvatini ko'z-ko'zlashni istamaganlar uchundir. Shunday qilib bu jarayon ishtirokchilarining barchasi mamnundir: biznes egasi soliqdan tejaydi, offshor zona yillik mukofot puli oladi. Ayrim mamlakatlarda bu to'lov budjetga yaxshigina kirim bo'lgani uchun u yerda pul evaziga xorijiy kompaniyalarni qayddan o'tkazish faqat ma'qullanadi: firma ochishingiz yoki xarid qilishingiz uchun infrastruktura va huquqshunoslarning barchasi xizmatigingizga tayyor. Shu boisdan ham boshqa ko'plab mamlakatlardan ko'ra offshor zonada tez va osongina firma ochish mumkin. Bundan tashqari offshorlar xalqaro sarmoya bozoriga chiqishni, kreditlar rasmiylashtirishni osonlashtiradi, xalqaro bitimlar tuzishni arzonlashtiradi.

Offshor kompaniyasi bu – korxonalarining alohida tashkiliy yuridik shaxs maqomini tavsiflovchi termindir. Bu maqom unga soliq to'lovlarni maksimal darajada tushurishni ta'minlaydi (ko'p hollarda nolgacha). Bunday maqom odatda biznes operatsiyalarini ushbu korxonaga rasmiy ro'yxatdan o'tgan yerdagi yurisdiksiyadan tashqarida o'tkazish talabi bilan bog'liqdir. Faqat shunday holda offshor kompaniyasi o'z yurisdiksiyasidagi soliqning barchasidan yoki

ko'p qismidan ozod bo'ladi. Qonunchilik offshor kompaniya boshkaruvi va amaldagi ofisni qayd etilgan hududdan tashqarida bo'lishini taqazo etadi. Boshqacha aytganda, offshor kompaniyasi ko'p hollarda o'z rasmiy yuridiksiyasi rezidenti bo'lishi mumkin emas.

“Offsher” termini birinchi bor Buyuk Britaniyada qo'llanilgan bo'lib, u “qirg'oq ortida” degan ma'noni bildiradi va bir vaqtning o'zida “chet elda” degan ma'noni ham anglatadi. Yuridik nuqtai nazaridan offshor kompaniyasi boshqa kompaniya va korxonalaridan farq qilmaydi. Ya'ni u xo'jalik huquqiy munosabatlarning teng huquqli sub'ekti hisoblanadi va boshqa yuridik shaxslar bilan teng hamkorlik qila oladi. Offshor kompaniyasining bosh afzalliklari uning rezident bo'lmagan maqomi bilan bog'liqdir. Bu degani offshor firmaning boshqaruv va nazorat markazi chet elda joylashgan bo'ladi. Offshor kompaniyasi faoliyat boshlashi uchun kompaniyaning formal atributlari yaxlitligi yetarlidir, ya'ni kompaniya egalari, direktorlar (odatda ular ikkitadan kam bo'lmasligi kerak), nizom, bankdagi hisob raqami va qayd etish hujjatlari komplekti mavjud bo'ladi. Offshor zona qonunchiligi odatda uning hududida kompaniyaning kayd etilgan ofisi va kotibi (yoki agenti) joylashgan bo'lishini taqazo etadi. Chunki bu hokimiyatning ushbu offshor kompaniyasi vakili (agenti) bilan bog'laydigan alohida manzili bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda u biznes boshqarish uchun ishlatilmaydi. Hatto offshor yurisdiksiyasi hududidagi shartnomalarni imzolash kabi fakt ham kompaniyani offshor maqomidan ayirishi mumkin. Offshor kompaniyasi xorijda o'zining rezident vakolatxonalarini va firmalariga ega bo'lishi mumkin. Kompaniyaning amaldagi ofisi ham chet elda bo'lishi mumkin. Biroq ko'p hollarda kompaniya bunday ofissiz ish faoliyatini olib boradi.

Offshor firmaga egalik qilish maxfiyligi nominal egalari va nominal direktorlar instituti tomonidan ta'minlanadi. Qayd etish hujjatlarida real bo'lmagan egalari nomlari emas, balki nominal shaxslar familiyalari ko'rsatiladi. Nominal egalari xizmatlari, offshor kompaniyalari qayd etilishi kabi kompleks xizmatlar bilan shug'ullanuvchi kotiblik kompaniyalari bilan ta'minlanadi. Ko'p hollarda offshor firma direktori uning egasi bo'ladi. Biroq tez-tez shunday hollar bo'ladi, offshor kompaniya direktori nominal shaxs

bo‘ladi. Bundan nominal direktor faqat rasman bu amalda faoliyat ko‘rsatishi kelib chiqadi. Anikroq aytganda, u o‘ziga shartnomada ko‘zda tutilmagan ishlarni olib bormaslik majburiyatini oladi. Bunday holda kompaniya boshqaruvini, kompaniya nomidan yuridik amallar yuritish huquqi hakida ishonchnoma olgan kompaniya egalari yoki vakili amalga oshiradi. Offshor kompaniyasi qayd etilishi, offshor firmalar maqomini aniqlovchi qonunchilik bazasiga ega bo‘lgan yurisdiksiyasida bo‘lishi mumkin. Qoida bo‘yicha bu kichik mamlakatlar, kollarial hududlar va boshqa huquqiy tuzilishi o‘zgacha, bo‘lgan davlatlar kiradi. Biroq offshor turiga kiruvchi firmalar qayd etilishi faqatgina Gibraltar va MEN oroli kabi odatiy kichik orollarda emas, balki obro‘liroq mamlakatlarda ham bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina Yevropa mamlakatlari qonunchiligi offshor turidagi biznes operatsiyalarini olib borishiga yul qo‘yuvchi normalardan iborat. Xatto ayrimlari “klassik” offshor prinsiplaridan cheklanishlarga yo‘l qo‘yadilar. Xususan ayrim yurisdiksiyalar qatorida soliqlardan ozod etilgan kompaniyalarga haqiqiy faoliyat olib boruvchi ofisga ega bo‘lishiga ruxsat etiladi. Masalan, obro‘li bo‘lgan Shveysariya kabi mamlakatda ham aniq bir firmalarga, ular bu yerda ofis va personalga ega bo‘lsalar ham, ayrim turdagi offshor operatsiyalari olib borish ruxsat etiladi (soliq yo‘kotishlari bunda to‘liq yo‘q qilinadi yoki ko‘p marotaba tushiriladi).

Offshor biznesi metodlari va texnologiyalari turli-tuman bo‘lib boryapti. Hozirgi paytda offshor tuzilmalarida faqatgina korporativ turdagi korxonalar emas, balki biznesning boshqa tashkiliy huquqiy ko‘rinishlari ham amaliyotda olib bormoqda. Shunday qilib offshor turiga kiruvchi firmalarga tadbirkorlik hamkorligi shakli moslashtirildi. Offshor biznesida ma’suliyati cheklangan kompaniyalar tez-tez uchrab turadi. Kafolati bo‘yicha cheklangan hamda ayrim kombinatsiyalashtirilgan shakllari cheklangan kompaniyalar shulardir. Ixtisoslashgan offshor teritoriyalari – “soliq gavanlari” offshor investorlariga yangi imkoniyatlar va imtiyozlar yaratib borishga intiladilar. Bu sohada kapitallarni jalb etishda yetarlicha o‘tkir raqobat seziladi.

Mamlakatlar qatorida “antioffshor” qonuniyati ham mavjuddir. Ammo ishonch bilan aytish mumkinki, hozirgi zamon xalqaro

biznesning murakkab tizimida offshor firmalari uchun yirik faoliyat maydoni qolyapti. Offshor biznesi to'lik dinamik holatda rivojlanayapti. Unda har doim yangi ish imkoniyatlari va kapitaldan foydalanish sohalari paydo bo'lmoqda.

Yevropa Ittifoqi davlatlari vazirlari «soliq gavanlari» ro'yxatiga 10 yurisdiksiyani qo'shdi, deyiladi Yevrokomissiya xabarida. Bugungi kunga qadar ofshorlar qora ro'yxatiga Amerika Samoasi, Guam, Samoa, Trinidad va Tobago, Amerika Virgin orollari kirardi. Endilikda bu ro'yxatga Aruba, Barbados, Beliz, Bermud orollari, Vanuatu, Dominikan Respublikasi, Marshall orollari, BAA, Ummon va Fiji ham kiritildi.

Yevrokomissiya 2018 yilda 92 davlatdagi soliq shaffofligini baholadi. Bu davlatlarning aksariyati qonunchilikka o'zgartirishlar kiritgan. Endilikda ularning soliq tizimlari xalqaro standartlarga javob beradi, deyiladi xabarda. Amerika Samoasi, Guam, Samoa, Trinidad va Tobago hamda Virgin orollari 2017 yilda ro'yxat tuzilganidan buyon soliq tizimiga hech qanday o'zgartirish kiritmagan. Ro'yxatga kiritilgan qolgan davlatlar esa soliq sohasida o'zgarishlar qilish majburiyatini olgan, ammo majburiyatlarini bajarishmagan. YeI qonunchiligi soliq to'lashdan qochish imkonini beradigan mamlakatlar va hududlarni ofshorlar ro'yxatiga kiritadi. Ofshor hududlar rezidentlari Yevropa regulyatorlari tomonidan kuchaytirilgan moliyaviy tekshiruvdan o'tadi⁸⁹.

Korrupsiya bilan kurashga yo'naltirilgan tergovlarga ixtisoslashgan Global Witness nodavlat tashkilotining xabar berishicha, rossiyalik tadbirkorlarning Britaniya ofshorlaridagi hisoblarida Buyuk Britaniyaning o'ziga qaraganda yetti barobar ko'p mablag'lar saqlanadi.

The Sunday Times'ning ta'kidlashicha, Britaniya tarkibiga kiruvchi hududlardagi hisoblarda rossiyalik tadbirkorlar 34 mlrd funt sterlingdan ortiq mablag'ni saqlaydi, ulardan 30 mlrd funtdan

⁸⁹ <https://kun.uz/news/2019/03/12/yei-ofshorlar-qora-royxatini-uch-martaga-kengaytirdi>

ko'prog'i Britaniya Virgin orollarida joylashtirilgan. Britaniya tarkibiga kiruvchi hududlar rossiyaliklar orasida mablag'larni saqlash ommaviyligi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Britaniya parlamenti Britaniya Virgin va Kayman orollaridagi ofshorlar benefitsiarlarini ochiqlashga qaratilgan qonun loyihasini ko'rib chiqishni rejalashtirmoqda⁹⁰.

O'zbekiston Respublikasida 2020 yil 23 mayda Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida "Ofshor yurisdiksiyalarning ro'yxatini tasdiqlash haqida"gi hujjat loyihasi e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 181-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va Markaziy banki boshqaruvi qarori bilan ofshor yurisdiksiyalarning ro'yxati tasdiqlandi. Bu ro'yxatga 68 ta offshor zonalar kiritilgan (1-ilova)⁹¹.

Soliqlardan qochish. Offshor zonada soliqlardan qochishning sxemalari oddiy, ammo ulardan foydalanish uchun yaxshi shart-sharoit yaratish kerak xolos. Masalan, offshor kompaniya xodimlari maoshidan daromad solig'i to'lamaslik uchun ularni katta mablag'ga sug'urtalanadi va ish haqi sug'urta holatlari yo'qligiga mukofot puli tariqasida to'lanadi. Bu ham mablag'ni iqtisod qilishning o'ziga xos yo'lidir. Eng yaxshisi offshor kompaniyalar zanjirini tizishdir, negaki, bittasi biznesning o'sayotgan talabiga bas kelolmaydi. Hozirgi paytda 70 foizdan ortiq korxonalar va mulkdorlar offshor biznesiga ega, ularning soni tobora o'smoqda.

Offshor sxemalar prinsiplari. Rossiyaning offshor xizmatlari spektrining kengayishi to'liq ravishda jahonning bu sektorini rivojlantirish tendensiyalariga mos keladi. Hozirgi paytda offshor biznesi faol ravishda investitsion va emission xarakterli operatsiyalarini o'zlashtirmoqda. Offshor moliyaviy markazlarida chiqarilgan aksiya va obligatsiyalar yanada kengroq ravishda

⁹⁰ <https://kun.uz/news/2018/04/30/rossialik-tadbirkorlar-britania-ofsollarida-kanca-mablag-saklasi-ajildi>

⁹¹ <https://kun.uz/news/2020/05/23/ozbekistonda-ofshor-yurisdiksiyalarning-royxati-tasdiqlanadi>

dunyoning turli moliyaviy bozorlariga kiritilyapti. Offshor zonalarida kapital bozori va moliya bozori sub'ektlarining barcha ko'rinishlari mavjuddir. Biroq avvalo ba'zi offshor firmalarning boshlang'ich imkoniyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Offshor operatsiyalarining oddiy sxemasi soliq qonunchiligining universal prinsiplariga asoslanadi. Bunda majburiy soliqlarga ushbu mamlakat hududida joylash daromad manbalari kiradi. Agar daromad manbasi chet elda bo'lsa yoki yetarlicha aniq lokallashtirilgan bo'lgan hollarda, u ushbu yurisdiksiyadagi soliq ma'suliyati muhitidan chiqarib tashlanishi mumkin. Masalan, bunday vaziyat dallollik (broker, makler, diller) xizmatlarida, tashqi savdo xizmatlarida, konsultatsiyalar biznesi va shu sektorning boshqa tarmoqlarida yuzaga keladi. Bunday yo'llar bilan olingan daromadlar offshor firmalar hisob raqamlariga kelib tushishi mumkin. Offshor biznesining ma'nosi shundaki, chet elda xo'jalik operatsiyalarining yangi "erkin" sub'ekti paydo bo'ladi va u to'liq offshor zona joylashgan mamlakat tadbirkorining nazorati ostida bo'ladi.

Offshor kompaniyasi tashqaridan qaraganda offshor zona joylashgan mamlakat firmasining mustakil xorijiy hamkori bo'lib ko'rinishi mumkin. Bunda offshor firmalar ishlatilishi bilan soliq rejalashtirishning keng tarqalgan usullarga asoslangan. O'zining oddiy to'yinishiga qaramay, bu kabi sxemalarning barcha detallari yaxshilab qayta ishlashni talab etadi. Chunki soliq va valyuta nazorati qonunlari doimo o'zgarib turadi. Offshor firmasi boshqaruvchisi nomidan shartnomalar tuzish, mulk va bankdagi hisobdan foydalanish, soliqlarni rejalashtirishning eguluvchan mexanizimini yaratadi va boshqa ishbilarmonlar maqsadlariga erishishi ta'minlanadi. Offshor firmasiga egalik qilish xalqaro huquq normalari va ushbu offshor firma qayd etilgan yurisdiksiya qonuniyati bilan kafolatlangan maxfiy xarakterga ega.

Offshor firmasini ishlatishning keng tarqalgan usuli bu – uning vakolatxonalarini hamda kichik kompaniyalarini offshor zona joylashgan mamlakatlarda yaratishdir. Oqibatda offshor zona joylashgan mamlakatda doimiy ofisga ega kompaniya boshqa chet el banklaridagi hisoblaridan foydalanish, turli xil xalqaro savdo operatsiyalarida qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda offshor

kompaniyaning biznesi uning vakolatxonasi orqali olib boriladi, hisob – kitoblar esa uning chet el banklardagi hisob raqamlari orqali olib boriladi. “DC Ekspres” kompaniyasi an’anaviy ravishda chet el kompaniyalari vakolatxonalarini yaratishga (faqat Rossiyada emas, balki boshqa davlatlarda ham) juda katta ahamiyat bermoqda. Ko‘p hollarda bu kabi yondashuv offshor firmaga taa’luqli sxemalar doirasida, rezident (ya’ni mamlakat “ichkarisida” olib boriladigan) operatsiyalar yuritishga yo‘l qo‘yadi. Natijada offshor loyihasining ishbilarmon imkoniyatlari sezilarli ravishda kengayadi. Offshor kompaniyasiga egalik qilish ko‘prok “lokal” hamda shunday zarur ustunliklarni ta’minlaydi. Turli xil ishbilarmon hamda hayotiy vaziyatlarda xorijdagi shaxsiy kompaniya nomidan imzo chekish huquqi va chet el bankidagi hisob raqamini operativ boshqarish imkoniyati zarurdir. Ko‘plab munosabatlarda offshor firmasi bu – “doimo siz bilan birga bo‘lgan kompaniyadir”. Bunda unga buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarga xarajat qilish kerak emas. Hattoki, offshor firmasidan operatsiyalar hajmi yetarlicha katta bo‘lsa ham, murakkab bo‘lmagan kompyuter dasturi bilan shuni hal qilsa bo‘ladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning turli tuman talablariga xizmat qiluvchi, offshor operatsiyalarining keng turi mavjud. Bular qatoriga offshor zona joylashgan mamlakat va xorijdagi hisob kitoblarda qo‘llaniladigan offshor kompaniya nomiga ochilgan korporativ debet va kredit kartochkalar kiradi.

Offshor firmalar orqali xorijiy banklarning kredit resurslariga, xalqaro depozitlar bozori hamda kapital va investitsiyalarni boshqaruvi xizmatlariga yo‘l ochiladi. Offshor firmasi egasida moliyaviy vositachilar (o‘rtakash, dallol) va ish faoliyati tuzilmasi hakida keng tanlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Offshor firmasi – bundan bir vaqtning o‘zida riskni boshqarish vositasidir. Offshor firma orqali mablag‘larni xorijdagi birinchi darajali banklarga joylashtiriladi. Bu firma o‘zini siyosiy va iqtisodiy silkinishlardan va boshqa risklardan ham xavfsizlantirishi mumkin. Moliyaviy servis, sarmoyalar, valyutali diling, xalqaro soliq kelishuvlari tarmog‘ining o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda daromadlarning qulay yo‘nalishini topish xorijiy mulkka egalik qilish va foydalanish, transfert operatsiyalari va aktivlarning firmaning ichki qayta

taqsimotini amalga oshirish, xolding turidagi tashkiliy huquqiy kompaniyani yaratish kabi ko'pgina operatsiyalar ro'yxati, offshor va boshqa "imtiyozli" xorijiy kompaniyalarni ishlatishni (foydalanish) talab qilmoqda.

Mahalliy biznesda offshor kompaniyalardan xalqaro sarmoyalar uchun foydalanishda ma'lum bir ijobiy tajribalar yig'iladi. O'zining mahalliy yirik moliyaviy sanoat guruhlari va korporatsiyalari tarkibida jahon darajasidagi firmalar va qizlik sho'ba korxonalar yaratiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kompaniyalarning offshor maqomi ularga o'z faoliyatlari davomida soliqlarni maksimal darajadan tushirishni, xatto yo'q qilish, ya'ni butunlay soliqlardan ozod bo'lishni ta'minlaydi. Faqatgina bu maqom talabi, biznes operatsiyalarini o'z qonunchiligidan tashqarida olib borishni talab qiladi. Ya'ni offshor kompaniyasi o'z qonunchiligini rezidenti bo'la olmaydi. Offshor kompaniya egalarining kim ekanligi esa sir saqlanadi. Hozirgi davrda murakkab tizimligiga qaramay offshor biznesi rivojlanib bormokda.

6.4. O'zbekistonda soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi chora-tadbirlar

O'zbekistonda soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashlari natijasida soliqlarning undiriluv (yig'iluv)chanlik darajasi yaxshi emas. U taraqqiy etgan mamlakatlardagi darajadan ancha past. Aslida, hisoblangan soliq summalari o'z vaqtida budjetga to'liq o'tkazilishi kerak. Ammo amaliyotda bu vazifani to'liq uddalashning iloji bo'lmayapti. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlariga nisbatan moliyaviy jazo qo'llaniladi. Moliyaviy jazo qo'llanilmasa, o'rnatilgan tartib-qoida buzilaveradi, unga qat'iy va to'liq rioya qilmaslik davom etaveradi, natijada majburiyat va soliq to'lash burchi bajarilavermaydi.

Soliqlarning undiriluv (yig'iluv)chanlik darajasi nisbatan past bo'lsa, moliyaviy jazoning darajasi, aksincha nisbatan yuqori bo'lishi kerak. Uning ana shunday darajasi soliqlarning undiriluv (yig'iluv)chanlik darajasining ko'zlangan darajasiga yetgunga qadar saqlanib turmog'i lozim. Unga erishilganidan keyin moliyaviy

jazoning darajasi, ma'lum bir muddatda saqlanib turilganidan so'ng, pasaytirilishi mumkin.

Davlat soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlarga nisbatan haddan tashqari qattiq moliyaviy jazolarni qo'llashdan manfaatdor emas. Davlat soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlarga nisbatan ta'sirchan moliyaviy jazolar tizimini qonuniy tarzda joriy etishi lozim bo'ladi. Ashaddiy bo'lmagan soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlarga nisbatan sharoitga va ularning moliyaviy holatlaridan kelib chiqib, moliyaviy jazo summalarining undirilish muddatlarini ta'sirchan tarzda ortga surish, moliyaviy ahvolini yaxshilab olishga imkon berish, bir-ikki marta "kechirish", shu bilan birga ashaddiy soliq to'lashdan bo'yin tovlashchini aniqlab, unga nisbatan qattiq moliyaviy jazo qo'llash orqali boshqalarga namuna qilib ko'rsatish choralari amalga oshiriladi. Ammo soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlar uchun juda ham kam miqdorda moliyaviy jazo qo'llanishi hech qanday samara bermaydi va uning samaradorligini va ta'sirchanligini yo'qqa chiqarishi mumkin⁹². Jahon tajribasi ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda soliqni o'z vaqtida to'lamaslik va ularni to'lashdan bo'yin tovlash holatlari uchun qattiq moliyaviy jazo, hatto jinoiy ishlar qo'zg'atiladi. Masalan, taniqli sport ustalari, san'atkorlarning soliqni o'z vaqtida to'lamaganliklari yoki undan bo'yin tovlaganliklari uchun butun dunyo ommaviy axborot vositalarida sharmanda qilinganliklari va jinoiy ishlar qo'zg'atilganligi to'g'risida bot-bot xabarlar tarqatiladi. Masalan, o'z vaqtida mashhur nemis tennischisi B.Bekker 1992-1996 yillar mobaynida olgan daromadlarining bir qismini soliq tashkilotlariga kamaytirgan holda ko'rsatganligi uchun sud unga nisbatan shartli ravishda 2 yil qamoq jazosi belgilangan. Italiyalik mashhur tenor L.Pavarotti soliq qonunchiligiga qisman rioya etmaganligi uchun soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlikda ayblanib, ommaviy axborot vositalari orqali butun dunyoga sharmandai sharmisor qilingan. Mashhur kinoaktrisa S. Lorenga nisbatan ham shunday munosabat bildirilgan edi⁹³. Yaqin yillar ichida mashhur futbolistlar Leonel Messi, Krishtian Ronaldular ham soliq to'lashdagi xatoliklari uchun jazoga tortilish xavfi ostida soliq va jarimalarni to'lab qutilib qolishgan edilar.

⁹² Маликов Т.С., Жалилов П.Т. Бюджет-солик сиёсати.-Т.:Akademnashr, 2011.-398-398-бетлар.

⁹³ O'sha yerda, 399-400-бетлар.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi soliq to‘lovchining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyatini soliq majburiyati, deb e‘tirof etib, uning tizimini belgilab beradi. Shunga mos ravishda soliq to‘lovchi tomonidan ushbu majburiyatlar tizimini buzish bilan bog‘liq huquqshunoslik sodir etilganda qo‘llaniladigan jazo tizimi umumiy shartlari ham Soliq kodeksida belgilangan. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik boshqa turdagi huquqshunosliklar uchun qo‘llaniladigan jazo bilan choralaridan farq qiladi. Ushbu toifaga kiruvchi huquqshunosliklar faqat ma‘muriy yoki jinoiy jazo bilan chegaralanmaydi. Soliqqa oid huquqshunoslik uchun qo‘shimcha ravishda moliyaviy jazo choralari qo‘llaniladi (6.4.1-jadval).

6.4.1-jadval.

Soliq va boshqa huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy va soliq qonunchiligida belgilangan eazo choralarining o‘ziga xos jihatlari⁹⁴

Huquqbuzarlikni belgilash mezonlari	Soliq qonunchiligiga muvofiq (16-18 boblar O‘zRSK)	Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha belgilangan ma‘muriy javobgarliklar (O‘zR. MJTK 13-bob)
Ob‘ekt	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va soliq qonunchiligida soliq hamda majburiy to‘lovlarni hisoblash, hisobga olish va to‘lashni majburiyligi bo‘yicha belgilangan munosabatlar tizimi	Soliq to‘lovchilarning soliq hamda majburiy to‘lovlarni hisoblash, hisobga olish, to‘lash, hisobotlar taqdim etish kabi soliq majburiyatlarini bajarmaslik bilan bog‘liq munosabatlar tizimi
Sub‘ekt	Soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar	Mansabdor shaxslar, jismoniy shaxslar

⁹⁴ Ибрагимов Б. Солиқ мажбуриятлари ижросини таъминлаш тартибга солишининг долзарб масалалари. 08.08.2019.// <http://biznes-daily.uz/uz/birjaexpert/67874-soliq-majburiyatlari-ijrosini-taminlashni-tartibga-solishning-dolzarb-masalalari>

Aybdorlik shakli	Qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan	Qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan
Jazo choralari	Soliq qonunchiligida belgilangan miqdorda, daromadga nisbatan foiz yoki eng kam ish haqi yoxud daromadning miqdoriga ko'ra qo'llaniladigan moliyaviy jarimalar	MJTKda belgilangan miqdordagi ma'muriy jarima

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq **soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi kurash oralari sifatida Xronometraj, pasportlashtirish, reydlar, offshor zonalar bilan tuzilgan bitimlarni monitoring qilish, soliqqa oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish uchun veb-portal va elektron tizimlardan foydalanishni yanada kuchaytirish belgilandi.**

1. Xronometrajning roli oshadi. Unda tushum yoki xodimlar soni kamaytirilganligi aniqlansa, oxirgi hisobot davri uchun soliqlarni qo'shimcha to'lashga to'g'ri keladi. Kamaytirib ko'rsatish takroran aniqlanganda soliq to'lashdan bo'yin tovlash deb malakalanadi. Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji – soliq nazorati shakli bo'lib, bunda davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari joyning o'zida soliq to'lovchiga kelib tushayotgan pul tushumini kuzatadilar va qayd etadilar (*Soliq kodeksining 71-moddasiga qarang*). Bunda soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 174-moddasi bo'yicha jazoga olib keladi (*jarima: fuqarolarga – 10 EKIHgacha, mansabdor shaxslarga – 15 EKIHgacha*).

2. Soliq to'lovchilarning pasportlashtirilishi joriy etilmoqda. Uning natijalari bo'yicha tuzilgan ko'zdan kechirish dalolatnomasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash uchun asos bo'ladi. Ilgari statistika organlari ishlab chiqarish korxonalarini va qurilish tashkilotlari uchun pasportlashtirishni joriy etganlar.

3. Manfaatdor davlat organlari bilan birgalikda quyidagilarni aniqlash yuzasidan qo'shma reydlar o'tkaziladi:

- soliq to'lashdan bo'yin tovlayotgan shaxslar;
- yashirilgan soliq solish ob'ektlari;
- noqonuniy olib kirilgan tovarlar yetkazilishi, saqlanishi va realizatsiya qilinishi;

- yashirin sexlar.

Reyd – soni cheklanmagan shaxslar (amalda «qo'lga tushganlar») yuzasidan o'tkaziladigan nazorat tadbiri (tekshiruv). Shu o'rinda hozir reydlar Soliq kodeksining 67-moddasida keltirilgan soliq nazoratining shakllari ro'yxatiga kiritilmaganligini qayd etib o'tamiz. Soliq tekshiruv shakllari va turlari ro'yxatida ham reydlar ko'rsatilmagan (*Soliq kodeksining 85, 86-moddalariga qarang*). Reydga eng o'xshash soliq tekshiruv turi – bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida bir martalik yig'im, ijara to'lovi to'liq kelib tushishi va topshirilishini hisobga olish, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari, plastik kartochkalar orqali to'lovlar qabul qilinadigan hisob-kitob terminallari qo'llanilishi, shuningdek savdo va xizmatlar ko'rsatish qoidalariga rioya etilishi qismida o'tkaziladigan qisqa muddatli tekshiruv. Bunday tekshiruvni o'tkazish to'g'risidagi buyruqda aniq soliq to'lovchi ko'rsatilmaydi, u nazorat xaridi o'tkazilishini ham o'z ichiga olishi mumkin. Bunday qisqa muddatli tekshiruvlar o'tkaziladigan holatlar ro'yxati kengaytirilib, boshqa sohalarni ham qamrab olinadigan ko'rinadi.

4. Offshor zonalarda ro'yxatdan o'tgan shaxslar bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan soliq to'lovchilarni monitoring qilish kuchaytiriladi.

5. Soliq sohasida fuqarolar tomonidan jamoatchilik nazorati amalga oshirilishi uchun, shu jumladan, ularga tadbirkorlik sub'ektlarining soliqqa oid huquqbuzarliklari to'g'risida xabar qilish imkonini beruvchi veb-portal ochiladi. Ayni paytda davlat soliq xizmati organlari ishonch telefonlaridan ushbu maqsadda foydalanadilar.

6. Quyidagilar joriy etiladi:

- **QQSni elektron boshqarish tizimi.** Uning yordamida soliqlar yig‘iluvchanligini oshirish va insofsiz soliq to‘lovchilarni aniqlash maqsadida barcha aylanmalar zanjiri tahlil va nazorat qilinadi;

- **onlayn Nazorat kassa mashinasi (NKM)ni avtomatlashtirilgan monitoring qilish tizimi**⁹⁵.

Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash va undan qochish holatlarini kamaytirish, soliqlarning undiriluv (yig‘iluv)chanligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri biznesga va tadbirkorlikka soliq yukini oqionalashtirish hisoblanadi. Ushbu maqsadda O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda soliq tizimini takomillashtirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasini 14 foizdan 12 foizgacha, tijorat banklari uchun 22 foizdan 20 foizgacha pasaytirish, shuningdek, mobil aloqa xizmati ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) uchun, rentabellik darajasidan kelib chiqib ular uchun qo‘shimcha foyda solig‘i hisoblash tartibini bekor qilgan holda 14 foizdan 20 foizgacha oshirish belgilangan:

T/r	To‘lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, foizda
1.	Yuridik shaxslar (2 va 3-bandlarda nazarda tutilganlari bundan mustasno)	12
2.	Tijorat banklari	20
3.	Yuridik shaxslar: sement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar; polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar;	20

⁹⁵ “Бўйин товловчиларга” қарши кураш қандай кучайтирилади. 2018 йил 28. 06
[//https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/buyin_tovlovchilarga_qarshi_kurash_qan day_kuchaytiriladi](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/buyin_tovlovchilarga_qarshi_kurash_qan_day_kuchaytiriladi)

asosiy faoliyat turi mobil aloqa xizmatlari ko'rsatishdan iborat bo'lganlar	
--	--

Dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha to'lov manbaidan ushlab qolinadigan foyda solig'i stavkasini 10 foizdan 5 foizgacha pasaytirish;

O'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik aylanmasi (yalpi tushumi) 1 milliard so'mdan oshgan yoki joriy yil davomida ushbu belgilangan chegaraviy miqdorga yetgan korxonalarni umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazish. Bunda yillik aylanmaning (yalpi tushumning) 1 milliard so'm etib belgilangan chegaraviy miqdori har 3 yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqiladi;

Barcha tadbirkorlik sub'ektlari, shu jumladan, aylanmasi (yalpi tushumi) 1 milliard so'mgacha bo'lgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etildi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'yicha soliq to'lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirishning salbiy ta'sirini kamaytirish choralari quyidagilar orqali amalga oshiriladigan bo'ldi:

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini, bino va inshootlardan, shu jumladan, ilgari xususiy lashtirilgan ob'ektlardan samarasiz foydalanayotgan yuridik shaxslar uchun yuqori stavkada soliq hisoblash tartibini saqlab qolgan holda 5 foizdan 2 foizga pasaytirish;

Yillik aylanmasi (yalpi tushumi) 1 milliard so'mgacha bo'lgan soliq to'lovchilar uchun aylanmadan (yalpi tushumdan) soliqni 4 foiz miqdordagi bazaviy stavkadan kelib chiqib hisoblash va to'lash tartibini hamda ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash imkoniyatini belgilash;

Yagona yer solig'i to'lovchilari uchun amaldagi soliq solish tartibini saqlab qolish belgilangan.

O'zbekiston Prezidentining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risidagi farmoniga muvofiq 2019 yil 1 yanvardan boshlab Barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yagona stavkasini 12 foiz miqdorida joriy etish,

shundan 0,1 foizini shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga yo'naltiriladigan bo'ldi. Bunda fuqarolarning ayrim toifalari uchun eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdoridagi daromadlarini soliq solishdan ozod qilishning amaldagi tartibi saqlab qolindi. Fuqarolarning mehnatga haq to'lash turidagi daromadlaridan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan sug'urta badallarini bekor qilindi. Budjet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav jamg'armasida davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to'lov miqdori 25 foiz etib, qolgan yuridik shaxslar uchun 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirilgan stavkada belgilanadigan bo'ldi.

Mamlakatimizda soliq siyosati doirasida amalga oshirilgan islohotlar natijasi haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga murojaatnomasida "Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o'tgan yili soliq to'lovchilar ixtiyorida 2 trillion so'm qoldi. Joriy yilda bu raqam 11 trillion so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag' qolishi, albatta, ularga o'z bizneslarini rivojlantirish uchun juda katta qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 93 mingta yoki 2018 yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko'p yangi tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etildi. Jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida 7 pog'ona ko'tarilib, biznesni ro'yxatga olish ko'rsatkichi bo'yicha dunyoning 190 ta davlati orasida 8-o'rinni egalladik va eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan joy oldik"⁹⁶, -deb ta'kidlagan.

Professor T.S. Malikovning fikricha, jahon ilg'or tajribasining ko'rsatishicha, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish, soliqlarning undiriluv (yig'iluv)chanligi oshirishning muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

⁹⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвнинг Олий Мажлисга murojaatnomasi. 2020 йил 24 январь // Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.

1. Tadbirkorlik sub'ektini (faoliyatini) ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish va oqilonalashtirish lozim bo'ladi. Ana shu jarayonning o'zida soliq to'lashdan bo'yin tovlamoqchi bo'lganlar uchun "teshikcha" mavjud. O'rnatilgan tartibga ko'ra, tadbirkorlik sub'ektini ro'yxatdan o'tkazish uning joylashgan joyiga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Shunga qaramay, ularni ro'yxatdan o'tkazish "huquqiy manzil" deb ataluvchi manzilda amalga oshirilishi mumkin. O'z navbatida, "huquqiy manzil" tovarga aylanib, ayrim tashkilotlar va tijoriy tuzilmalarga o'z manzilini taqdim etgan xususiy fuqarolar uchun daromadga ega bo'lish predmetiga aylanmoqda. Odatda, bunday tadbirkorlik sub'ektlari amalda ro'yxatdan o'tgan manzilida mavjud bo'lmasdan, bu narsa soliq idoralari tomonidan ular faoliyatini nazorat qilinishini murakkablashtiradi. Ba'zi bir tadbirkorlik sub'ektlari uy manzillari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan. Bu ham soliq to'lovchilarni nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, boshqa shaharlik va viloyatlik tadbirkorlik sub'ektlarining ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlovchi holatlar ko'plab uchrab turibdi. Juda ko'p korxonalarni hech qanday kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan shaxslar vujudga keltirib, davlat ro'yxatidan o'tkazishmoqda. Albatta, bunday holatlar bizning respublikamizda o'rnatilgan tartib-qoidalarga zid emas. Biroq, bunday holatlar soliqlarni to'lovchilarni nazorat qilishni murakkablashtiradi hamda soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining vujudga kelishiga sharoit yaratadi.

Ta'kidlash lozimki, bunday davlat tomonidan tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish tartibiga bozor iqtisodiyoti rivojlangan hech bir mamlakatda yo'l qo'yilmaydi. Shu boisdan rivojlangan mamlakatlarda o'rnatilgan tartibni bizning respublikamizda ham joriy etish bo'ladi⁹⁷.

2. Kredit muassasasida tadbirkorlik sub'ektlarining hisob-kitob schyotini ochish tartibi bilan bog'liq muammolarni yechish maqsadga muvofiqdir. Gap shundaki, ayrim tadbirkorlik sub'ektlari turli banklarda bir necha hisob varaqa (schyot) larini ochadilar. Bu hol soliqdan bo'yin tovllovchilar uchun imkoniyat ochadi. Shu boisdan, bu holatga cheklovlar o'rnatish lozim bo'ladi.

⁹⁷ Qarang: Маликов Т.С., Жалилов П.Т. Бюджет-солиқ сиёсати.- Т.:Академнашр, 2011. Б.248-250.

3.Soliqqa tortish faqat litsenzion yig'implarni olish yoki patent uchun to'lovlarni amalga oshirish orqali sodir etiladigan yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyat turlari ro'yxatini aniqlash soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirishga imkon beradi.

4.Foydalidan olinadigan soliq va boshqa soliqlarning stavkalarini tabaqalashtirish, to'g'ri (bilvosita) va egri (bilvosita) soliqlar o'rtasidagi nisbatni oqilonalashtirish soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish hamda ularning yig'iluvchanligini oshirishga xizmat qiladi⁹⁸.

Mamlakatimizda "yashirin" iqtisodiyotning vujudga kelish omillari tahlil etilib, unga qarshi kurashish dasturi ishlab chiqilmoqda. Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, bu borada qiymati 200 million dollar bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hisobidan onlayn kassa loyihasi ham amalga oshirilmoqda.

Aksariyat iste'molchi mahsulot sotib olgach, xarid chekini talab qilmaydi: yo unutadi, yoki uni shunchaki keraksiz deb hisoblaydi. Ayrim sotuvchilar ham chekni taqdim etish haqida o'ylamaydi⁹⁹.

Bir qarashda oddiy va arzimaday ko'ringan bu holat aslida bir qator muammolarga sabab bo'lishi hech gap emas. Xususan, xarid cheklarining talab qilinmasligi yoki taqdim etilmasligi nakd pullarning bankdan tashqari noqonuniy aylanishi - "yashirin iqtisodiyot"ga zamin yaratadi. Shunga qaramay, sotuvchi va xaridorni xarid cheki masalasida birday mas'uliyatli qilishga erishish oson emas. Bunday vaziyatda eng maqbul tanlov - inson omili ishtirokini minimal darajagacha kamaytirish imkonini beruvchi raqamli texnologiyalardir. Onlayn-nazorat kassa mashinasi yoki virtual kassa ana shunday muhim vositalardan biri sanaladi.

QR-kod mavjud bo'lmagan cheklar haqiqiy hisoblanmaydi. Amaldagi nazorat kassa mashinasi orqali taqsim qilingan ba'zi bir xarid cheklarida tovar yoki xizmatlarning nomi va mikdori aks ettirilmaydi. Qolaversa, chekning haqiqiylikini tekshirish imkoni ham

⁹⁸ Qarang: O'sha yerda. B. 252-256.

⁹⁹ Хаёт Насруллаев. "Яширин" иқтисодиётнинг яна бир кушандаси // Янги Ўзбекистон, № 23 (23), 2020 йил 26 февраль. Б.3.

yo‘q. Onlayn-nazorat kassa mashinasi yoki virtual kassa chop etuvchi fiskal chek esa bu masalada ham sotuvchi, ham xaridor uchun qulay. Ya‘ni, unda tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomi, miqdori, narxi aks etadi, Eng asosiysi, chekning haqiqiylikini tekshirish uchun QR-kod mavjud. Ushbu ma‘lumotlar aks ettirilmagan cheklar haqiqiy hisoblanmaydi.

Onlayn-nazorat kassa mashinasi yoki virtual kassa chekdagi ma‘lumotlarni real vaqt rejimida operatorga, ya‘ni Davlat soliq qo‘mitasi bazasiga borib tushishini ta‘minlaydi. Tadbirkorlik sub‘ektlari bunday qurilmalarni mustaqil sotib olishi mumkin. Biroq, onlayn-nazorat kassa mashinasi yoki virtual kassalarni xarid qilishdan avval ushbu qurilma yoki dasturiy mahsulotni Davlat reyestriga kiritilgan yoki kiritilmaganini tekshirish lozim, Tadbirkorlik sub‘ektlari ulardan foydalanish uchun Davlat reyestriga kiritilgan ixtiyoriy texnik xizmat ko‘rsatish markazidan ro‘yxatdan o‘tkazish zarur.

Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi “Yangi texnologiyalar” markazi arizachining murojaati asosida u bilan shartnoma imzolaydi, taqdim etilgan hujjatlar va shartnoma nusxasini maxsus axborot tizimi yordamida Davlat soliq xizmati organlariga yuboradi.

Tadbirkorlik sub‘ektlarining ushbu tizimga o‘tishi majburiy. Faqat bu bosqichma-bosqich amalga oshiriladi¹⁰⁰.

2019 yilning 1 martidan boshlab Toshkent shahrida onlayn-nazorat kassa mashina va virtual kassalarni keng qo‘llash bo‘yicha tajriba loyihasi o‘tkazildi. Natijada 385 mingdan ortiq xarid cheklarida jami 72 milliard so‘mdan ziyod tovar aylanmalari amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi axborotlar Davlat soliq qo‘mitasining ma‘lumotlar bazasida qayd etildi.

2020 yil 1 yanvardan onlayn-nazorat kassa mashinalari va virtual kassa tizimi respublikamizning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etila boshlandi. Xususan, 2020 yil yanvardan 20 909 ta alkogol, tamaki, dori vositalari va avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari;

¹⁰⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Савдо ва хизмат кўрсатиш соҳасидаги ҳисоб-китоблар тизимига замонавий ахборот технологияларини жорий қилиш ҳамда ушбу соҳада жамоатчилик назоратини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 6 сентябрь ПФ-5813-сон Фармони

2020 yil 1 avgustdan 1 200 ta o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik tushumi besh milliard so'mdan oshgan tadbirkorlik sub'ektlari;

2021 yil 1 yanvardan 21 600 ta o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik tushumi yuz million so'mdan oshgan yoki yil davomida ushbu chegaraviy miqdorga yetgan, jami 2020 yil yakuniga qadar 43 700 ta tadbirkorlik sub'ektlari onlayn-nazorat kassa mashinalari yoki virtual kassadan foydalanishga o'tkazilishi belgilangan.

Ushbu muddatlar tugagandan keyin onlayn-nazorat kassa mashinasi yoki virtual kassadan foydadanmasdan tovarlarni sotish va xizmatlar ko'rsatishda chek takdim etmaslik yoki fiskal belgiga ega bo'lmagan chekparni takdim qilish qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Ta'kidlash joiz, mazkur talablar olis hududlarda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga tatbiq etilmaydi. Ularning ro'yxati har yili O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda tasdiqlanadi.

Onlayn Nazorat kassa mashinasi (NKM) yoki virtual kassa tizimiga o'tish davlat uchun muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, bunday raqamli texnologiyalar orqali xufyona iqtisodiyot ulushi qisqaradi. Tadbirkorlik sub'ektlari va Davlat soliq xizmatlari organlari xodimlari bilan bevosita aloqalar kamayib korrupsiyaga yo'l qo'yilmaydi. Ma'lumotlar ishonchliligi kafolatlanadi. Soliq bazasi kengayadi.

Tadbirkorlik sub'ektlari uchun ham onlayn-nazorat kassa mashinasi yoki virtual kassa foydali. Ular amaldagi fiskal xotirali nazorat kassa mashinalarni ishlatish majburiyatidan xalos bo'lyapti. Kassir-operatsiyachi tomonidan nazorat kassa daftarini yuritish, uning kunlik hisobotini chiqarib olish majburiyati bekor qilinyapti. Tadbirkorlik sub'ektlari kunlik o'rtacha nakd pul tushumi miqdoridan qat'i nazar, naqd pullarni bank kassalariga inkassatsiya xizmati orqali o'zlari belgilagan davrlarda yoki mustaqil ravishda topshirish huquqiga ega bo'ladi. Eng muhimi, onlayn-nazorat kassa mashinasini sotib olish, joriy qilish xarajatlarini soliq hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari miqdorigacha kamaytirish imkoniyati

yaratildi. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan “Virtual kassa”ning bazaviy qismi bepul taqdim etilishi yo‘lga qo‘yilmoqda.

Onlayn-nazorat kassa mashinasi yoki virtual kassalardan foydalanish tizimining eng asosiy yutug‘i xalqimiz hayot tarzini yengillashishi, turmush sifati yuksalishi bilan bog‘liq. Zero, ushbu tizim mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Sohada jamoatchilik nazorati kuchayishiga zamin yaratadi. Xaridorlarning huquq va manfaatlari himoyasi yanada kafolatlanadi. Pirovardida “yashirin” iqtisodiyotning yana bir kushandasi bo‘lgan tizimga aylanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashga qarshi chora-tadbirlar quyidagilardan iborat deb xulosa qilishimiz mumkin:

– jismoniy va yuridik shaxslar uchun soliq yukini yanada kamaytirish;

– soliqlar sonini kamaytirish va oqilonlashtirish;

– soliq stavkalarini maqbul darajada pasaytirish;

– soliqqa tortish bazasini kengaytirish;

– soliq imtiyozlarini keskin kamaytirish va oqilonlashtirish orqali tadbirkorlar uchun teng raqobat sharoitini yaratish;

– biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlarni yaratish;

– soliq ma‘murchiligini takomillashtirish, “raqamli iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish;

– mamlakat taraqqiyotining tayanchi bo‘lgan insofli, halol soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirish;

– soliqdan qochish va bo‘yin tovlash holatlari uchun jinoiy va ma‘muriy javobgarlikni yanada kuchaytirish.

Nazorat savollari:

1. Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash deganda nimani tushunasiz?

2. Soliqlardan qochish deganda nimani tushunasiz?

3. Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning sabablarini izohlang.

4. Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini nimalardan iborat?

5. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashning qanday strategiyalaridan foydalaniladi?

6. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashda qanday usullardan foydalaniladi?

7. Offshor zona va offshor kompaniya deganda nimalarni tushunasiz?

8. Offshor kompaniyalar soliqlardan qochish uchun qanday usullardan foydalaniladi?

9. Amaliyotda soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashning qanday misollarini keltira olasiz?

10. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarga barham berish uchun Sizningcha qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?, deb o'ylaysiz

VII BOB. NORASMIY (“KULRANG”) XUFYONA IQTISODIYOT

7.1. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda «norasmiylik».

7.2. MDH mamlakatlarida norasmiy iqtisodiyot

7.3. “Norasmiylik”ni tahlil qilishga neoinstitutsional yondashuvlar.

7.4. Ernando de Sotoning “kul rang” xufyona iqtisodiyot konsepsiyasi

7.5. Norasmiy iqtisodiyotning rivojlanishining hozirgi zamon umumiy qonuniyatlari

7.1. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda «norasmiylik».

Kulrang xufyona iqtisodiyot - bu xufyona iqtisodiyotning eng keng sektori hisoblanadi. Shu bilan birga, uni o‘rganish qora yashirin iqtisodiyotni tahlil qilishdan ko‘ra murakkabroqdir: uyushgan jinoyatchilik iqtisodiyoti “normal”, rasmiy iqtisodiyotdan aniq ajralib tursa, norasmiy iqtisodiy faoliyat jamiyatning barcha jabhalariga o‘rnashib oladi, natijada norasmiy sektorni aniqlab olish juda murakkab jarayonga aylanadi.

Iqtisodchilar norasmiy iqtisodiyotni chorak asrdan beri o‘rganishmoqda, lekin ular ushbu fenomenning mohiyatini anglab olishdi deb aytib bo‘lmaydi. Uning kelib chiqish sabablari, jamiyatning iqtisodiy hayotidagi o‘rni, u borasidagi davlat siyosatining optimal yo‘nalishlarini ishlab chiqish to‘g‘risida fikr yuritishdan oldin, hatto, uning aniq ta‘rifi bo‘yicha bahslar davom etmoqda.

Norasmiy iqtisodiyotni tadqiq etish tarixini shartli ravishda ikki bosqichga ajratib o‘rganish mumkin:

I bosqich (1970-1980 y.): empirik tadqiqotlar, birlamchi axborotni to‘plash.

II bosqich (1980-1990 y.): chuqur iqtisodiy-nazariy tahlil, to‘plangan axborotni anglab yetish.

Xorijiy mamlakatlarda norasmiy iqtisodiyotni tadqiq etish qanday kechkanligini quyida ko‘rib chiqiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda «norasmiylik». Yangi ilmiy yo‘nalishning “otasi” deb ingliz sotsiologi Keyt Xart¹⁰¹ tan olingan. U 1960 yillar oxirida Afrikaning eng qoloq mamlakatlaridan biri Gana poytaxti Akkra shahri xarobalarida olib borgan tadqiqotlar natijasida norasmiy bandlikni mavjudligini kashf etdi. Keyt Xart “uchinchi dunyo” mamlakatlaridagi shaharliklar ko‘pchilik hollarda rasmiy iqtisodiy tizimga hech qanday aloqalari yo‘qdir. Qoloq mamlakatlarning shahar iqtisodiyoti hech qanday rasmiy ro‘yxatdan o‘tmasdan, hukumatning biznesga bo‘lgan soliq bo‘yicha va boshqa talablarini pisand qilmasdan shahar aholisini oddiy, kundalik tovarlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, transport xizmatlari va boshq.) bilan ta‘minlaydigan kichik va mayda ustaxonalar, do‘konchalar va boshqa “mikrofirmalar”ning bahaybat to‘dasi sifatida namoyon bo‘ldi.

Norasmiylikni tavsifini shakllantirayotib K.Xart “daromadning rasmiyligi va norasmiyligi o‘rtasidagi farq mehnat haqi uchun ishlash va o‘zini-o‘zi band qilish o‘rtasidagi farqqa asoslanadi”¹⁰²- deb qayd qilgan edi. Uning fikricha, asosiy mezon bo‘lib mehnatni ratsionalizatsiyasi darajasi, uning doimiyliigi va muntazamligi, belgilangan mukofotlashning mavjudligi yoki mavjud emasligi xizmat qiladi. Zamonaviy uskunalardan foydalanadigan va professional menejerlar tomonidan boshqariladigan byurokratlashtirilgan korxonalar shahari iqtisodiyotining “zamonaviy sektori”ni tashkil etadi. Shaharliklarning iqtisodiy faoliyatining boshqa turlari avvallari “pastunumdorli shahar sektori”, “qisman band va ishsizlarning rezerv armiyasi”, “shaharning an‘anaviy sektori” sifatida tasniflangan va deyarli tadqiqotchilarning e‘tiboridan chetda edi. K.Xart tashkillashmagan ishchilarga “oyoq kiyim tozalovchi va gugurt sotuvchi qisman band go‘daklar” sifatida yondashishga qat‘iy qarshi edi va ushbu ishchilarni shaharliklar uchun muhim bo‘lgan ko‘pchilik xizmatlarni ko‘rsatishini qayd

¹⁰¹ Qarang: *Hart K.* Informal Urban Income Opportunities and Urban Employment in Ghana // *Journal of Modern African Studies.* 1973. Vol. 11. No. 1. P. 61-90.

¹⁰² O‘sha yerda. P. 68.

etgan. U “o‘zini-o‘zi band qilgan” ishchilarni “norasmiy sektor” tushunchasi bilan qo‘shib yubordi.

Norasmiy sektorda “rasmiy - norasmiy” va “qonuniy - noqonuniy”ni qarama-qarshi qo‘yilishiga tayangan holda K.Xart shahar aholisi daromadlarini uch guruhga ajratdi:

a) rasmiy daromadlar – davlat va xususiy sektordagi ish haqi, transfert to‘lovlari (pensiylar, ishsizlik nafaqalari);

b) qonuniy norasmiy daromadlar – birlamchi (qishloq xo‘jaligi), ikkilamchi (shartnoma asosida yoki mustaqil faoliyat yurituvchi hunarmandlar, etikdo‘zlar, tikuvchilar, pivo ishlab chiqaruvchilar va hokazo) va uchchilamchi (qurilish, transport, yirik va mayda savdo) sektorlarida bandlikdan, xizmatlar ishlab chiqarishdan (musiqachilar, sartaroshlar mehnati; meditsina va marosim xizmatlari) va xususiy transfert to‘lovlaridan (sovg‘alar, zayomlar) olingan daromad;

v) noqonuniy norasmiy daromadlar – xizmatlardan (nolegal sudxo‘rlar, o‘g‘irlik mollarni sotib oluvchilar, narkotik sotuvchilar, fohishalar, dayuslar, kontrabandachilar, reketirlar va boshqalar mehnatidan) va transfertlardan (o‘g‘irlik, kamomad)¹⁰³(qarang:7.1.1-jadval).

7.1.1-jadval.

Shahar aholisi daromadlari turlari¹⁰⁴

Daromad turdari	Tarkibi va mazmuni
rasmiy daromadlar	davlat va xususiy sektordagi ish haqi, transfert to‘lovlari (pensiylar, ishsizlik nafaqalari)
qonuniy norasmiy daromadlar	birlamchi (qishloq xo‘jaligi),
	ikkilamchi (shartnoma asosida yoki mustaqil faoliyat yurituvchi hunarmandlar, etikdo‘zlar, tikuvchilar, pivo ishlab chiqaruvchilar va hokazo)
	uchchilamchi (qurilish, transport, yirik va mayda savdo) sektorlarida bandlikdan, xizmatlar ishlab chiqarishdan (musiqachilar, sartaroshlar mehnati; meditsina va marosim xizmatlari) va xususiy transfert to‘lovlaridan

¹⁰³ Qarang: Hart K. Op. cit. P. 69.

¹⁰⁴ Mualliflar tomonidan tuzilgan.

	(sovg'alar, zayomlar) olingan daromad
noqonuniy norasmiy daromadlar	xizmatlardan (nolegal sudxo'rlar, o'g'irlik mollarni sotib oluvchilar, narkotik sotuvchilar, fohishalar, dayuslar, kontrabandachilar, reketirlar va boshqalar mehnatidan) va transfertlardan (o'g'irlik, kamomad)

Norasmiy iqtisodiyotni o'rganish muhimligini asoslab turib K.Xart "ishlab chiqarish faoliyatini pisand qilmaydigan, uyushgan mehnat bozorida tashqarida joylashgan va shahardagi ish kuchini faqatgina yarmini qamrab oluvchi"¹⁰⁵ rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish yaxshi natija bermasligini ta'kidladi va norasmiy strukturalarni turli tipdagi shahar iqtisodiyotlarini tarixiy va madaniy jihatlarini keng miqyosda solishtirib tahlil etishga da'vat etdi.

K.Xart kashfiyotini birdaniga hamkasblari targ'ib qila boshlashdi. 1972 yilda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) Keniyada bandlik to'g'risida jamoa tadqiqotini chop etdi, unda norasmiy iqtisodiy faoliyat konsepsiyasi asosiy ilmiy paradigma¹⁰⁶ sifatida talqin qilingan edi. XMT tomonidan Keniya to'g'risida tayyorlangan hisobot norasmiy va rasmiy sektorlar o'rtasidagi farqni quyidagicha tushuntirgan edi:

"Norasmiy faoliyat quyidagi xususiyatlar xos:

- a) kirish (kirishib ketish) yengilligi (ishlab chiqarishga);
- b) shaxsiy resurslarga tayanish;
- v) faoliyatga oilaviy egalik qilish;
- g) faoliyat miqyosining kichikligi;
- d) mehnat intensiv va egiluvchan texnologiyalar;
- e) rasmiy maktab tizimidan tashqarida olingan ko'nikmalar;
- j) bozorlarning boshqarilmasligi va raqobatligi.

Norasmiy sektorning faoliyatiga ko'pincha hukumat tomonidan e'tibor berilmaydi, kamdan-kam hollarda qo'llab-quvvatlanadi, tez-tez tartibga solinib turiladi va ayrim hollarda faol bostiriladi.

¹⁰⁵ Hart K. Op. cit. P. 88.

¹⁰⁶ ILO. Employment, incomes and equality: a strategy for increasing productive employment in Kenya. Geneva, 1972.

Rasmiy sektordagi faoliyat xususiyatlari norasmiydagiga qarama-qarshidir:

- a) kirish murakkab;
- b) tashqi resurslarga muntazam ravishda muhtoj bo‘lish;
- v) korporativ egalik qilish;
- g) keng miqyosda faoliyat yuritish;
- d) kapital intensiv, ko‘pincha import texnologiyalar;
- e) rasmiy olingan ko‘nikmalar;
- j) bozorlar proteksionistik himoya ostida (tariflar, kvotalar, savdo litsenziyalari yordamida)¹⁰⁷(7.1.2-jadval).

7.1.2-jadval.

XMT tomonidan Keniya to‘g‘risida tayyorlangan hisobotda berilgan norasmiy va rasmiy iqtisodiyot sektorlari o‘rtasidagi farqlar¹⁰⁸

Norasmiy iqtisodiyot sektori	Rasmiy iqtisodiyot sektori
kirish (kirishib ketish) yengilligi (ishlab chiqarishga)	kirish murakkab;
shaxsiy resurslarga tayanish	tashqi resurslarga muntazam ravishda muhtoj bo‘lish
faoliyatga oilaviy egalik qilish	korporativ egalik qilish
faoliyat miqyosining kichikligi	keng miqyosda faoliyat yuritish
mehnatintensiv va egiluvchan texnologiyalar	kapital intensiv, ko‘pincha import texnologiyalar
rasmiy maktab tizimidan tashqarida olingan ko‘nikmalar	rasmiy olingan ko‘nikmalar
bozorlarning boshqarilmasligi va raqobatligi	bozorlar proteksionistik himoya ostida (tariflar, kvotalar, savdo litsenziyalari yordamida)

Solishtirish uchun 7.1.3-jadvalda norasmiy sektorga xos bo‘lgan asosiy belgilar qayd etib o‘tilgan. Bu belgilar Afrika mamlakatlarning birida norasmiy sektor bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlardan

¹⁰⁷ ILO. Employment, incomes and equality: a strategy for increasing productive employment in Kenya. P. 6.

¹⁰⁸ Mualliflar tomonidan tuzilgan.

olingan.¹⁰⁹ Ushbu belgilar XMTning 1972 yildagi hisobotidagi xususiyatlar bilan mos tushadi. Norasmiy iqtisodiyotni aniqlash bo'yicha 25 yil avval taqdim etilgan plyuralistik yondashuv hozirgi vaqtgacha ham o'zgartirilmagan (takomillashtirilmagan).¹¹⁰

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) dokladidan so'ng "norasmiy iqtisodiyot" (informal economy), "norasmiy sektor" (informal sector) terminlari qisqa muddat ichida ingliz tilidagi adabiyotlarda umumqabul qilingan terminlar qatoriga qo'shildi. Afrikashunos tadqiqotchilar qatoriga tez orada Lotin Amerikasi va Osiyo rivojlanayotgan mamlakatlari bo'yicha mutaxassislar ham qo'shildi.

7.1.3-Jadval.

Rasmiy va norasmiy sektor korxonalarining solishtirma xarakterli belgilari

Xarakterli belgilar	Rasmiy sektor	Norasmiy sektor
Tarmoqqa kirish bar'arlari	Yuqori	Past
Texnologiyalar	Kapital sig'imi yuqori	Mehnat intensiv
Boshqaruv	Byurokratik	Oilaviy
Kapital	Ortiqcha	Yetishmaydi
Ish vaqti	Muntazam	Muntazam emas
Mehnatga haq to'lash	Normal	Chegaralangan
Foydalanadigan moliyaviy xizmatlar	Bank xizmatlaridan foydalaniladi	Shaxsiy, norasmiy xizmatlardan foydalaniladi
Xaridorlar bilan munosabatlar	Shaxsga tegishli emas	Shaxsiy
Doimiy xarajatlar	Yirik	Katta emas
Reklamadan foydalanish	Majburiy	Kam yoki yo'q

¹⁰⁹ Qarang.: *Fidier P., Webster L.* The Informal Sectors of West Africa // The Informal Sector and Microfinance Institutions in West Africa / Ed. by *L. Webster, P. Filder.* Washington, 1996. P. 5-20.

¹¹⁰ Ushbu yondashuv XMTning hozirgi vaqtdagi dokladlarida ham mavjud. Qarang, masalan: Дилемма неформального сектора. Женева, 1991. С. 4.

Hukumat subsidiyalaridan foydalanish	Ko'pincha katta hajmda	Mavjud emas
Bozor yo'nalishi	Ko'pincha eksportga yo'naltirilgan	Kam hollarda eksportga yo'naltirilgan

“Uchinchi dunyo” muammolari bo'yicha ingliz mutaxassisi Rey Bromler Norasmiy sektor konsepsiyasini jadallik bilan keng tarqalishini tushuntirayotib K.Xart tomonidan taklif etilgan “terminologiya va u bilan bog'lik konsepsiya kerakli joyda va kerakli vaqtda paydo bo'lgan”¹¹¹ini qayd etgan edi. Uning fikricha, Norasmiy sektor konsepsiyasining qisqa muddatda xalqaro miqyosda tanilishiga sabab, u tomondan taqdim etilayotgan tavsiyalar 1970-yillarda xalqaro tashkilotlar va jadal islohotlar tarafdori bo'lmagan hukumatlar uchun juda qulay va mos edi.

Norasmiy sektorni qo'llab-quvvatlash “boylar uchun xavf tug'dirmay kambag'allarga yordam berish” imkonini beradi, ya'ni, bir tomondan, daromadlarni qayta taqsimlash talablari va boylik o'rtasida murosani topish, ikkinchi tomondan, elita (oqsuyaklar)ni barqarorlik muhitida yashash hoxishi. “XMT tomonidan norasmiy sektor konsepsiyasini shoshilinch qabul qilinishi, hamda (ushbu konsepsiya asosida) ko'pchilik xalqaro hisobotlarni tayyorlash tezligi ushbu konsepsiya nega avvaliga ko'pgina kelishmovchiliklar va anomaliyalarga ega bo'lganligini, shunday ekan, shahar norasmiy sektori to'g'risida turli-tuman va qarama-qarshi adabiyotlar paydo bo'lishini tushuntirishga yordam beradi”¹¹².

Undan tashqari kam rivojlanganlik iqtisodiy konsepsiyalarining umumiy evolyutsiyasi bilan bog'liq bo'lgan boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatgan. Norasmiy sektor to'g'risidagi munozara va bahslarni 1970-yillarda iqtisodchilar o'rtasida bo'lgan “uchinchi dunyo”ning boshqa muammolari (“o'sish uchun qayta taqsimlash”, “yangi xalqaro tartib” to'g'risida, “asosiy ehtiyojlarni qondirish” to'g'risida)

¹¹¹ Bromley R. The Urban Informal Sector: Why is it Worth Discussing? // World Development. 1978. Vol. 6. No. 9/10. P. 1035-1936.

¹¹² Bromley R. Op. cit. P. 1036-1037.

gi bahslar bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqish kerak. R.Bromleyning fikricha, bu bahslarning barchasi liberal, neoklassik yondashuv tarafdorlariga qulay kelib, ularning ta’kidlashlaricha islohotlar siyosati kambag‘allar uchun, hamda radikal, neomarksistik qarashlar namoyondalari uchun “rivojlanishdan manfaat” keltiradi. Norasmiy sektor borasidagi munozaralar “uchinchi dunyo”ni iqtisodiy taraqqiyotining dolzarb muammolarini ideologik stereotiplarga chalg‘imasdan hal etish imkonini berdi.

Tadqiqotchilar safini kengayishi tadqiqot ob’ektini tushunib yetishda bir qancha qiyinchiliklarni tug‘dirdi. Agar afrikashunslar norasmiy iqtisodiyotni ta’riflashda uning kichik miqyosdaligi va korxonalarni texnik jihozlanishini yetarli emasligi kabi jihatlaridan kelib chiqishsa, lotin amerika mamlakatlari bo‘yicha tadqiqotchilari uning nolegalligiga alohida e’tibor qaratganlar. Ushbu ikki yondashuv bir-biriga yaqin bo‘lib, norasmiy iqtisodiyotga umumlashgan ta’rifni shakllantirish imkonini beradi: norasmiy iqtisodiyot – bu asosan kichik va mayda tadbirkorlik birliklari tomonidan taqdim etiladigan oddiy tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilmaydigan iqtisodiy faoliyatdir. Shunday bo‘lsa ham, “norasmiylik”ning asosiy mezonlarini aniqlash bo‘yicha bahslar hanuzgacha davom etmoqda. Norasmiy sektorni muhim jihatlarini belgilashda paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarni amerika iqtisodchisi Donald Mid va fransuz iqtisodchisi Kristian Morrissonlarning¹¹³ 1990 yilda “uchinchi dunyo” mamlakatlarida kichik biznesni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlari (tadqiqot davomida yetti mamlakatdan 2200ta korxonalar o‘rganildi) to‘liqroq aks etadi. Ushbu olimlarning tadqiqotlarini ko‘rsatishicha “norasmiy sektor” tushunchasini aniqlashda uch mezondan kelib chiqiladi – qonuniylik (korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, soliqlarni to‘lash, mehnat qonunchiligiga rioya qilish va boshq.); korxonaning hajmi (ko‘pincha 5-10 kishi band bo‘lgan korxonalarni norasmiy sektorga taaluqli deb hisoblashadi) va ishlab chiqarishning kapital sig‘imkorligining darajasi. Ushbu xarakterli belgilar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir, shu sababdan ularning qaysi biri katta ahamiyatga egaligi muhim emasdir.

¹¹³ Qarang: *Mead D. C, Morrisson C. The Informal Sector Elephant // World Development. 1996. Vol. 24. No. 10. P. 1611-1619.*

Lotin Amerikasidagi ikki mamlakat (Ekvador, Yamayka), Afrikadagi to‘rt mamlakat (Jazoir, Tunis, Nigeriya, Svazilend) va Osiyodagi bir mamlakat (Tailand) lardagi tadqiqot natijalari bo‘yicha axbortlardan foydalanib D.Mid va K.Morrissonlar ushbu rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesning legalliligi (ro‘yxatdan o‘tkazish, soliqlarni to‘lash va mehnat qonunchiligiga rioya qilish) va kapital sig‘imkorligini solishtirishgan. Ushbu tadqiqotning natijalari juda qiziqarli.

Korxonalarda band bo‘lganlar soniga qarab guruhlashtirib tadqiqotlar olib borish shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilayotgan mamlakatlar o‘rtasida kichik korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish darajasi bo‘yicha keskin farqlar mavjud. Masalan, Jazoirda deyarli barcha mayda ishlab chiqaruvchilar va savdogarlar maxsus sertifikatlariga egalar; sertifikati yo‘qlarni qat’iy jazo kutadi. Ekvador va Nigeriyada 10 kishidan kam band bo‘lgan korxonalar eng ko‘p ro‘yxatdan o‘tgandir, 1 ta xodim ishlaydigan korxonalarining deyarli yarmi ro‘yxatdan o‘tkazilgandir. Boshqa mamlakatlarda kichik korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazilishi darajasi juda past bo‘lib 25%ga ham yetmaydi (Tunis bundan mustasno).

Shundan kelib chiqib, D.Mid va K.Morrissonlar quyidagi xulosaga keldilar: “korxonalar hajmidan korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish darajasi indikatorini sifatida foydalanish bitta xodimli korxonalar bilan chegaralanganda ba’zi mamlakatlarda qo‘l keladi”¹¹⁴. Bunday mayda korxonalar ro‘yxatdan o‘tishdan voz kechishmaydi. Bandlar soni oshgan sari ro‘yxatdan o‘tish darajasi oshib boradi (turli mamlakatlarda turlicha darajada).

Ba’zi hollarda ro‘yxatdan o‘tkazish bilan soliq to‘lanishi o‘rtasida to‘liq muvofiqlik namoyon bo‘ladi, chunki ro‘yxatdan o‘tkazish vaqtida registratsiya to‘lovi to‘lanadi. Ammo bu hol doimo va barcha soliq to‘lovlari bilan amalga oshmaydi. Masalan, Nigeriyada daromad va qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘laydigan korxonalar soni ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar sonidan ancha kamdir, Svazilend va Tailanda esa aksincha, soliq to‘lovchilarni soni ro‘yxatdan o‘tganlarning sonidan ko‘pdir. Bu hol quyidagini

¹¹⁴ Mead D. C, Morrison C. Op. cit. P. 1613.

isbotlaydi: “ro‘yxatdan o‘tkazish soliqlar to‘lanishining majburiy va yetarli sharti emas. Ro‘yxatdan o‘tkazish mezoniga asoslanadigan norasmiy sektorni ta‘rifi faqatgina korxonalar registratsiya to‘lovidan tashqari soliqlarni ham to‘lashini qayd etishi mumkin”¹¹⁵.

Mehnat qonunchiligiga rioya qilish mezonini bo‘yicha holat ham bir xillikdan ancha uzoqdir: ba‘zi mamlakatlarda (Jazoir, Nigeriya) ro‘yxatdan o‘tgan korxonalarining kamchiligi mehnat me‘yorlariga amal qiladi, boshqa mamlakatlarda (Tunis, Svazilend, Tailand) aksincha, norasmiy sektor korxonalarini ro‘yxatdan o‘tmagan bo‘lsalar ham mehnat kodeksiga amal qiladilar. Bu yana bir bor korxonalarini ro‘yxatdan o‘tkazish ularni tartibga solinuvchi tizimga kiritilishini anglatmaydi¹¹⁶. Shu sababdan rasmiy va norasmiy biznes o‘rtasida chegara o‘tkazish murakkabdir.

D.Mid va K.Morrissonlar mavjud ma‘lumotlar kichik biznesda jismoniy va “inson” kapitalining o‘rni to‘g‘risidagi mulohazalarni olib borish uchun yetarli emasligini ta‘kidlashadi. “Inson” kapitali haqida to‘xtalsa, Ekvador va Yamaykada tadbirkorlarning yarmidan oshig‘i o‘rta va oliy ma‘lumotga egalar, Tailandda bilimlilik darajasi ancha pastdir. Bu ma‘lumotlar norasmiy sektorda, asosan, ma‘lumotga ega emas odamlar ishlaydi degan tushunchani inkor etadi. Tailand va Tunisda ko‘pchilik (50-70%) kichik korxonalar jismoniy kapitalga investitsiyalarni amalga oshirsalar, Jazoirda esa kamchilik (15-30%) korxonalar bunday investitsiyalarni amalga oshiradilar, bu ushbu mamlakatda norasmiy sektor korxonalarida modernizatsiya jarayonlarini past darajada ekanligidan dalolatdir.

D.Mid va K.Morrissonlar xulosasiga ko‘ra “uchinchi dunyo” mamlakatlarining deyarli barchasida ko‘pchilik korxonalar quyidagi umumiy xususiyatlarga egadirlar: band bo‘lganlarni soni kam, soliq va boshqa qoidalarga rioya qilmaslik, past darajada kapital sig‘imkorligi. Ammo bu xususiyatlarning barchasi birdaniga uchramasligi mumkin, shu sabab norasmiy sektorning universal ta‘rifini ishlab chiqish murakkablashmoqda. “Norasmiylik”ni o‘ziga xos mozaikaga o‘xshatish mumkin, uning elementlari ichida qonuniy

¹¹⁵ Mead D. C, *Morrisson C.* Op. cit. P. 1613.

¹¹⁶ O‘sha yerda

va tasodifiylarini ajratib olish juda murakkabdir. Ushbu holatni e'tiborga olib, tadqiqotchilar tahlilchilarni turli mamlakatlarning ma'lumotlarini tanqidiy baholashlari va har bir holatda norasmiy sektor tushunchasiga qanday mazmun berilayotganing aniq ko'rsatishlarini so'rashmoqda. Chunki har bir mamlakatda norasmiy sektorga turli holatda turli mazmun berilmoqda.

Har qanday holatda "uchinchi dunyo" tadqiqotchilari norasmiy sektor rivojlanayotgan mamlakatlarda katta ahamiyatga egaligini yakdillik bilan tan olishmoqda. Ba'zi mamlakatlarda u hatto rasmiy iqtisodiyotdan ham oshib ketgan (7.1.4- va 7.1.5-jadvallar).

7.1.4-jadval

Rivojlanayotgan mamlakatlarda shaharlarda band bo'lganlarda norasmiy iqtisodiyotning ulushini baholash, 1970-1980-yillar, %da¹¹⁷

Afrika mamlakatlari	Norasmiy iqtisodiyot	Osiyo mamlakatlari	Norasmiy iqtisodiyot	Lotin Amerikasi mamlakatlari	Norasmiy iqtisodiyot
Benin	95	Filippinlar	73	Meksika	40 dan ortiq
Marokko	75	Pokiston	69	Salvador	19
Niger	65	Tailand	50	Gvatemala	18
Senegal	50	Hindiston	40-54	Kosta-Rika	12

¹¹⁷ Quyidagilar asosida tuzilgan: Кузнецова С. И. Неформальный сектор в афроазиатском городе // Авторитаризм и модернизация в странах Азии и Африки. М., 1994. С. 73-74; Неформальный сектор в странах Латинской Америки. Масштабы и структура, тенденции и факторы развития, роль в национальной экономике. М., 1992. С. 96, 123.; Латов Ю.В., Ковалев С.Н. Теневая экономика: Учебное пособие для вузов / под.ред. д.п.н., д.ю.н., проф. В.Я. Кикотя; д.э.н., проф. Г.М. Казиахмедова. – М.: Норма, 2006.- 336 с.; Наумов Ю.Г., Латов Ю.В. Экономическая безопасность и теневая экономика. Учебник. М.: Академия управления МВД России, 2016. – С.162.

7.1.5-jadval

Lotin Amerikasi mamlakatlari YaIMda xufyona iqtisodiyotning ulushini baholash, 1980-yillarning ikkinchi yarmi, %da¹¹⁸

Lotin Amerikasi mamlakatlari	xufyona iqtisodiyot
Boliviya	50ga yaqin
Peru	39
Meksika	25-35
Kolumbiya	15-25
Argentina	12

Alohida hududlarning rivojlanish darajasi bilan norasmiy sektorning miqyoslari o'rtasida aniq teskari proporsional bog'liqlik mavjud: norasmiy sektor Afrikaning kam taraqqiy etgan mamlakatlarida ulkan, Osiyoda katta va Lotin Amerikasida nisbatan kam tarqalgan. Turli davrlar uchun norasmiy sektor miqyoslarini baholanishini solishtirish iqtisodiyotning bu sektorini "ishib ketish" tendensiyasiga egaligini ko'rsatmoqda (masalan, qarang Lotin Amerikasi bo'yicha ma'lumotlar – 7.1.6-jadval).

7.1.6-jadval

Lotin Amerikasi mamlakatlarida iqtisodiy faol aholi (IFA) tarkibida norasmiy ish bilan bandlarning ulushi, %da¹¹⁹

Mamlakatlar	Shahar IFA dagi ulushi		Umumiy IFAdagi ulushi	
	1950 y.	1980 y.	1950 y.	1980 y.
Argentina	21,1	23,0	22,8	25,7

¹¹⁸ Quyidagilar asosida tuzilgan: Неформальный сектор в странах Латинской Америки. Масштабы и структура, тенденции и факторы развития, роль в национальной экономике. М., 1992. С. 21, 98, 66, 50; *Como Э. де.* Иной путь. Невидимая революция в третьем мире. М., 1995. С. 49. ; Латов Ю.В., Ковалев С.Н. Теневая экономика: Учебное пособие для вузов / под.ред. д.п.н., д.ю.н., проф. В.Я. Кикотя; д.э.н., проф. Г.М. Казиахмедова. – М.: Норма, 2006.- 336 с.; Наумов Ю.Г., Латов Ю.В. Экономическая безопасность и теневая экономика. Учебник. М.: Академия управления МВД России, 2016. – С.163.

¹¹⁹ Quyidagilar asosida tuzilgan: *Portes A., Sassen-Koob S.* Making It Underground: Comparative Material on the Informal Sector in Western Market Economies // *American Journal of Sociology.* 1987. Vol. 38. No. 1. P. 34.; Наумов Ю.Г., Латов Ю.В. Экономическая безопасность и теневая экономика. Учебник. М.: Академия управления МВД России, 2016. – С.163.

Braziliya	27,3	27,2	48,3	44,5
Chili	35,1	27,1	31,0	28,9
Meksika	37,4	35,8	56,9	40,4
Peru	46,9	40,5	56,3	55,8
Venesuela	32,1	20,8	38,9	31,5
Jami Lotin Amerikasi	30,8	30,3	46,5	42,2

Rivojlangan mamlakatlarda «norasmiylik». K.Xartning kashfiyotlaridan so‘ng norasmiy iqtisodiy faoliyat faqatgina kamtarraqiy etgan mamlakatlarda mavjud emasligi aniqlandi. 1970-yillarda norasmiy iqtisodiy faoliyat g‘arbning rivojlangan mamlakatlarida ham aniqlandi.¹²⁰

Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda “xufyona iqtisodiyot” mavjudligini amerikalik iqtisodchi P.Gutmann kashf etgan. 1977 yilda u maqola chop etib, unda bu hisobga olinmaydigan faoliyat keng tarqalib ketib, uni endi e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmasligini ta’kidlagan edi¹²¹. 1979 yilda amerikalik iqtisodchi Edgar Fayg tomonidan e‘lon qilgan maqola mojarolarni keltirib chiqardi: professor AQShda “boshqarilmaydigan iqtisodiyot” (irregular economy) rasmiy YaMMning uchdan birini qamrab olganligini hisoblab chiqdi, bu ko‘rsatkich “uchinchi dunyo” mamlakatlari norasmiy sektorining hajmi bilan deyarli tengdir¹²². E.Faygning hamkasabalari bir ovozdan uni ko‘rsatkichlarni bir necha baravar ko‘tarib yuborganlikda ayblashdi (balkim, muallif ataylab maqolani ko‘pirtirib yozgandir).

¹²⁰ Ta’kidlash kerakki, g‘arbda yashirin bozorni (black market) 1940-1950 yillardan boshlab o‘rganilgan, bunda ikkinchi jahon urushi davrida asosiy iste‘mol tovarlariga bo‘lgan narxlarni tartibga solish tajribasi oqibatlaridan foydalanilgan. Aynan o‘sha davrda yashirin bozorning chetga og‘uvchi talab va taklif egri chiziqlariga ega klassik modeli (Bouldyng modeli) ishlab chiqilgan edi. Ammo bu tadqiqotlar “aql o‘yini” akademik xarakteriga ega bo‘lib, katta e‘tiborni jalb etmas edi, chunki harbiy tartibni yo‘q bo‘lishi bilan ushbu tadqiqot ob‘ekti yo‘q bo‘lib ketadi deb hisoblanar edi. Qarang: *Butterworth J. The Theory of Price Control and Black Market. Aldershot etc., Avebury, 1994. P. 26-35.*

¹²¹ Qarang: *Gutmann P. The Subterranean Economy // Financial Analysis Journal. 1977. Vol. 33.*

¹²² Qarang: *Feige E. L., Feige E. How big is the irregular economy? // Challenge. 1979. Vol. 6. No. 22. P. 5-13.*

Masalan, P.Gutmann 1978 yilda AQSh norasmiy iqtisodiyoti hajmini rasmiy YaMMGa nisbatan taxminan 10% deb baholagan edi¹²³, V.Tanzi esa bu ko'rsatkichni 4,4% deb qayd qilgan edi¹²⁴. Mutaxassislar ushbu hodisani miqyosi haqida munozaralarni davom ettirishi bilan rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning ushbu sektoriga muntazam ravishda e'tibor qaratila boshlandi. Keyinchalik norasmiy iqtisodiy faoliyatning maxsus tadqiqotlari faqatgina AQShda emas, balki boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham olib borilish boshlandi.

7.1.7jadval

Ba'zi rivojlangan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotni baholovchi ko'rsatkichlari dinamikasi, 1960-1980 yillar, YaIMga nisbatan % da¹²⁵

Rivojlangan davlatlar.	1960 y	1970 y	1980 y
Daniya (F.Shnayder bo'yicha.)	3.8 - 4.8	5.3 -7.4	6.9 -10.2
Norvegiya (I.Lundager va F.Shnayder bo'yicha)	1.3 -1.7	6.2 -6.9	10.2 – 10.9
Shvetsiya (I.Lundager va F.Shnayder bo'yicha)	1.5 -1.8	6.8 -7.8	11.9 – 12.4
GFR (K.Kirxgassner bo'yicha)	2.0 – 2.1	2.7 -3.0	10.3 – 11.2
AQSh (V.Tanzi bo'yicha).	2.6 - 4.1	2.6 -4.6	3.9 -6.1

Bu tadqiqotlar Rossiya olimlari tomonidan 1980 yillardayoq o'rganilgan va mazkur hodisalarni "kapitalizm umumiy inqirozi" ning namoyon bo'lish shakllaridan biri sifatida talqin qilishga moyil bo'lgan sovet jamiyatshunosligida ma'lum darajada yoritilgan¹²⁶.

¹²³ Qarang: *Gutmann P. M. Statistical Illusions, Mistaken Policies // Challenge. 1979. Vol. 6. No. 22. P. 14-17.*

¹²⁴ Qarang: *Tanzi V. The Underground Economy in the United States and Abroad. Lexington, Mass., 1982.*

¹²⁵ Quyidagilar asosida tuzilgan: *Lacko M. Rejtett gazdasag nemzetkozi osszehasonlitasban // Kozgazda-sagi Szemle. 1995. S. ;* Наумов Ю.Г., Латов Ю.В. Экономическая безопасность и теневая экономика. Учебник. М.: Академия управления МВД России, 2016. – С.165.

¹²⁶ Qarang, «Американская модель: с будущим в конфликте»: Скрытая сила подпольной экономики // «Американская модель»: с будущим в конфликте. М.,

Rossiya adabiyotlarida mazkur muammolar bo'yicha Germaniyadagi xorijiy tadqiqotlar yoritilgan¹²⁷. 1987 yilda chop etilgan M.I.Nikolayev va A.Yu.Shevyakovlarning monografiyasi rivojlangan G'arb mamlakatlaridagi xufyona iqtisodiyotning eng yaxshi umumlashtiruvchi sharhi bo'lib qolmoqda¹²⁸.

Rivojlangan mamlakatlardagi norasmiy iqtisodiyot baholash ko'rsatkichlari dinamikasini kuzatadigan bo'lsak (7.1.5, 7.1.6-jadvallar), oxirgi o'n yilliklarda nafaqat rivojlanayotgan, balki yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar xo'jaligida ham yashirin iqtisodiy faoliyat ko'lamlarining mutloq va nisbiy o'sishi barqaror tendensiyasi kuzatilmoqda.

Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda norasmiy iqtisodiyot "ochilishi" bilan deyarli bir vaqtda 1970 yillarning oxirida sotsialistik lager mamlakatlarida ham "norasmiylik" ning keng tarqalishi yuz berdi. 1977 yilda amalda bir vaqtda AQSh da sovet iqtisodiyotidagi yashirin iqtisodiy faoliyat ko'lamlari va shakllari to'g'risidagi ikki konseptual maqolalari chop etildi: Amerika sovetologi Gregori Grossmanning "SSSR da ikkinchi iqtisodiyot" va Amerikaga ketgan sobiq sovet iqtisodchisi Aron Katsenelinboygenning «Sovet Ittifoqida rangli bozorlar»¹²⁹. Ular mahalliy hisobga olish va nazorat qilishni markazlashgan rejalashtirishga noroziliklar bildirilgan, ammo bartaraf qilinmagan SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi mustaqil xo'jalik faoliyati to'g'risidagi sovetologik tadqiqotlar keng oqimini boshlab berishdi. 1980-yy. da sovetologlar umumiy rejaliilik va tartibga solinuvchanlik ostida haqiqatda norasmiy, nazorat qilinmaydigan ishlab chiqarish rasmiy ishlab chiqarishga nisbatan

1984. С. 70-75.

¹²⁷ Qarang: Неформальная экономика и гибкий рынок труда: теория и практика в ФРГ. (Научно-аналитический обзор.) М., 1987; Экономика в подполье. М., 1984.

¹²⁸ Qarang: Николаева М. И., Шевяков А. Ю. Указ. соч. См. также: Любимова В. О некоторых формах занятости рабочей силы в капиталистических странах // Мировая экономика и международные отношения. 1984. № 3. С. 75-79; Она же. Формальная и неформальная экономика - единое целое? (Рец. на: La Flexibilite en Italic P., 1989) // Мировая экономика и международные отношения. 1991. №9. С. 155-157; Райг И. Х. Нелегальная экономическая деятельность // Постигание: Социология. Социальная политика. Экономическая реформа. М., 1989. С. 203-216.

¹²⁹ Qarang: Kalsenelinboigen A. Op. cit. P. 62-85.

ko'p jihatdan kam rol o'ynamaydigan aralash turdagi iqtisodiy tizim yashirinadi, degan fikrga kela boshladilar¹³⁰.

7.1.8-jadval

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida xufyona iqtisodiyot ko'lamlari, 1994 y., YaIM ga nisbatan % hisobida¹³¹

G'arbiy Yevropa mamlakatlari	Xufyona (maxfiy) iqtisodiyot	G'arbiy Yevropa mamlakatlari	Xufyona (maxfiy) iqtisodiyot
Italiya	25,8	Irlandiya	15,5
Ispaniya	22,5	Fransiya	14,5
Belgiya	21,4	Niderlandiya	13,6
Shvetsiya	18,5	Germaniya	13,1
Norvegiya	17,9	Buyuk Britaniya	12,4
Daniya	17,6	Shveysariya	6,6

Shunday qilib, 1980-yy. ga kelib, iqtisodchilar norasmiy iqtisodiy faoliyat (garchi har xil shakl va ko'lamlarda bo'lsada) hamma joyda – Janubda va Shimolda, G'arbda va Sharqda mavjud ekanligiga ishonch hosil qildilar. Bu dunyoning istalgan mamlakatida norasmiy iqtisodiyot uchun umumiy va u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar uchun maxsus hisoblangan tahlillarga bag'ishlangan maxsus iqtisodiy-komparativ tadqiqotlar uchun sharoit yaratdi.

7.2. MDH mamlakatlarida norasmiy iqtisodiyot

Norasmiy iqtisodiyot miqyosi bozor iqtisodiyotiga o'tishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirayotgan sobiq sotsialistik lager

¹³⁰ Sovet "ikkinchi iqtisodiyoti" sovetologik konsepsiyasining birinchi va hozircha yagona sharhi S. Xavina va L. Superfinlarning maqolalari bo'lib qolmoqda, bu yerda o'sha davr uchun muqarrar g'oyaviy ritorika bilan ushbu muammoga asosiy yondoshuvlar yaxshi aks ettirilgan. Qarang: *Xavina S, Superfin L. Буржуазная теория «второй экономики» // Вопросы экономики. 1986. № 11. С. 104-112.*

¹³¹ *Schneider F. Comment // Economic Policy. 1998. April.; Наумов Ю.Г., Латов Ю.В. Экономическая безопасность и теневая экономика. Учебник. М.: Академия управления МВД России, 2016. – С.166.*

mamlakatlarida ham katta hisoblanadi. Bu yerda shuni aytish lozimki, MDH mamlakatlari, shu jumladan, Rossiya Federatsiyasi statistika organlari ma'lumotlari Xalqaro tashkilot ma'lumotlaridan farq qilib, ularga nisbatan birmuncha past ko'rsatkichlarni tashkil etadi. Masalan, MDH statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilda norasmiy, ya'ni kuzatilmagan iqtisodiyot YaIMga nisbatan Ozarbayjonda 9,5%ni, shu jumladan, yashirin iqtisodiyot darajasi 2,5%ni, Armanistonda shunga mos ravishda 23,6 va 10,9%ni, Qozog'istonda 27,3 va 6,0%ni, Qirg'izistonda 23,2 va 7,4%ni, Rossiyada 14,4 va 4,7%ni tashkil etgan(qarang: 7.2.1-jadval).

7.2.1-jadval

Sobiq SSSR o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida kuzatilmagan va yashirin iqtisodiyot miqyosi (2016yil, YaIM ga nisbatan %da)¹³²

Mamlakatlar	Kuzatilmagan iqtisodiyot miqyosi	Shu jumladan, yashirin iqtisodiyot miqyosi
Ozarbayjon	9,5	2,5
Armaniston	23,6	10,9
Belarussiya	11,1	2,3
Qozog'iston	27,3	11,0
Qirg'iziston	23,2	6,0
Moldaviya	23,2	7,4
Rossiya	14,4	4,7
Tojikiston	16,3	M.y.

Norasmiy iqtisodiyot miqyosini norasmiy ish bilan bandlik va ish haqi ko'rsatkichlari ham ifodalaydi. Rossiya Federatsiyada milliy statistika organlarining ma'lumotiga ko'ra norasmiy ish bilan bandlar soni 2011 yildagi 12,9 mln (umumiy ish bilan bandlarga nisbatan 18,2%) kishidan 2016 yilda 15,4 mln kishiga (15,4%) o'sgan (qarang: 7.2.10-jadval).

¹³² Статистический бюллетень “Статистика СНГ” asosida tuzilgan.

7.1.2-jadval

Rossiyada norasmiy ish bilan bandlik va ish haqi ko'rsatkichlari¹³³

Ko'rsatkichlar	2011y	2012y	2013y	2014y	2015y	2016y	2017y*.
Norasmiy ish bilan bandlar, mln kishi	12,9	13,6	14,1	14,4	14,8	15,4	13,4
Umumiy ish bilan bandlarga nisbatan %da	18,2	19	19,7	20,1	20,5	21,2	18,4
Norasmiy ish haqi, umumiy ish haqiga nisbatan %da	24,5	25,6	26,2	28,2	25,4	25,3	
YaIMga nisbatan %da	10,7	11,3	12,1	13,3	11,6	12,0	

*2017 yil 1-kvartal

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, norasmiy ish haqining umumiy ish haqi hajmi va YaIMdagi ulushi 2011 yildagi mos ravishda 24,5 va 10,7 foizdan 2014 yilda mos ravishda 28,2 va 13,3 foizga o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, keyingi yillarda birmuncha pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan.

O'zbekistonda norasmiy iqtisodiyot ko'lami mazkur sektorda ish bilan band aholi soni ifodalaydi. O'zbekistonda 2019 yilda mehnat resurslari soni 19 007,8 ming kishiga yetdi, bu 2018 yilga nisbatan 100,9 foizni tashkil etadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar soni 13 541,1 ming kishini tashkil qildi (o'tgan yilga nisbatan 102 foiz). 2019 yilda ilk bor rasmiy sektorda band aholi soni 2018 yilga nisbatan 3,7 foizga ko'payib, 5 712,1 ming kishini tashkil qildi. Norasmiy sektorda band bo'lganlar soni (mehnat migrantlarini hisobga olmaganda) 5 368,3 ming kishini tashkil etdi. Ish o'rinlarini legallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida norasmiy vaqtinchalik va mavsumiy ishlarni

¹³³ Rosstat ma'lumotlariga asosida tuzilgan.

bajaruvchilar **19,6 mingga**, ro'yxatdan o'tmasdan va tegishli ruxsatnomasiz faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar **42,8 mingga** kamaygan¹³⁴.

O'zbekistonda norasmiy iqtisodiy sektor ko'lami qishloq xo'jaligida ancha keng ko'lamga ega bo'lib, bu sektorni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmida dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar ulushi 2000 yildagi 66,7%dan 2017 yilda 63,6%ga kamaydi, ammo bu ko'rsatkich 2018yilda o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 70%ni tashkil etdi (qarang: 7.2.3-jadval).

7.2.3-jadval.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xo'jalik kategoriyalari bo'yicha ishlab chiqarish (jamiga nisbatan%da)¹³⁵

Xo'jalik toifalari	2000y	2016y	2016y	2017y	2018y
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaligi	66,7	63,7	65,1	63,6	70,0
Fermer xo'jaliklari	5,5	34,1	32,9	34,7	27,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	27,8	2,1	2,0	1,7	2,7

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga kartoshka, sabzavotlar, poliz, meva va uzum ekin maydonlarining katta qismi to'g'ri keladi. Shu boisdan uning ulushi don ekinlari ishlab chiqarishda 2000 yildagi 18,6%dan 2018 yilda 19,1%ga, kartoshka shunga mos ravishda 80,1%dan 88,4%ga, meva va rezavorlar 58,9%dan 62,6%ga, uzum 33%dan 55%ga o'sdi (qarang: 7.2.4-jadval).

¹³⁴ 2019 йилда Ўзбекистонда ишсизлик даражаси қанча?. 2020 йил 04.02.// <https://mehnat.uz/uz/news/2019-yilda-uzbekistonning-ishsizlik-darazhasi-qancha>

¹³⁵ Ўзбекистон кишлок хўжалиги/Сельское хозяйства Узбекистана.2011-2014йй.-Т., 2015.-20-бет; Ўзбекистон кишлок хўжалиги/Сельское хозяйства Узбекистана.2014-2017йй.-Т., 2018.-21-бет; Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2018 йил январь-декабрь.-Т., 2019.-84-бет ма'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

7.2.4 -jadval

2000-2018 yillarda asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi ¹³⁶

(barcha toifadagi xo'jaliklarga nisbatan ulushi, foizda)

	Fermer xo'jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	2000 y.	2018y.	2000y.	2018y.	2000y.	2018y.
Don ekinlari	14,4	78,7	18,6	19,1	67,0	2,2
paxta	18,3	99,5	–	–	81,7	0,5
kartoshka	4,2	10,9	80,1	88,4	15,7	0,7
sabzavotlar	4,9	24,2	75,0	74,3	20,1	1,5
poliz	11,2	38,3	63,5	60,8	25,3	0,9
Meva va rezavorlar	4,3	35,2	58,9	62,6	36,8	2,2
Uzum	4,7	43,3	33,0	55,0	62,3	1,7

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda fermer xo'jaliklari ulushining o'sib borishiga qaramasdan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining ulushi hamon kattaligicha qolmoqda. Uy xo'jaliklarida, ya'ni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarid uy chorva mollarining eng katta qismi to'plangan. Ular qaromog'ida 2018 yilda yirik shoxli qoramollarning 93,6%, shu jumladan, sigirlarning 94,5%, qo'y va echkilarning 84,1%, parrandalarning 58% jamlangan (qarang: 7.2.5-jadval).

¹³⁶ Ўзбекистон Республикасида қишлоқ хўжалиги кўрсаткичлари.//http: stat.uz; Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2018йил январь-декабрь. Статистик тўплам.-Т.,ДСК, 2019.-87-бет ма'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

7.2.5-jadval.

2000-2018 yillarda asosiy turdagi chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jaliklar toifalari bo'yicha o'zgarishi¹³⁷
(barcha toifadagi xo'jaliklarga nisbatan ulushi, foizda)

	Fermer xo'jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	2000 y.	2018 y.	2000 y.	2018 y.	2000 y.	2018 y.
Yirik shohli qoramollar	3,7	5,0	86,2	93,6	10,1	1,4
shu jumladan sigirlar	2,4	4,6	89,9	94,5	7,7	0,9
Qo'y va echkilar	2,2	10,9	67,4	84,1	30,4	5,0
Parrandalar	2,9	14,1	62,0	58,0	35,1	27,9

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari go'sht (tirik vaznda)ning 92,6%ni, sutning 95,6%ni, tuxumning 58,4%ni ishlab chiqarmoqda (qarang:7.2.6-jadval).

¹³⁷ O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari/ nashr etilgan: 17/07/2017//[http: stat.uz](http://stat.uz); Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2018 йил январь-декабрь.-Т., 2019.-94-бет ма'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

7.2.6-jadval

2000-2018 yillarda asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi¹³⁸

(barcha toifadagi xo'jaliklarga nisbatan ulushi, foizda)

	Fermer xo'jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	2000 y.	2018 y.	2000 y.	2018 y.	2000 y.	2018 y.
Go'sht, tirik vaznda	1,3	4,1	91,1	92,6	7,6	3,3
Sut	1,5	3,6	93,6	95,6	4,9	0,8
Tuxum	1,0	14,4	59,9	58,4	39,1	27,2
Jun	1,1	7,9	74,3	87,5	24,6	4,6
Qorako'l teri	1,1	7,3	32,1	83,2	66,8	9,5

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining oziq-ovqat qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi katta imkoniyatlarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq norasmiy sektor, shu jumladan, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari amalga oshirildi. Ularni rasmiy sektorga o'tkazish chora-tadbirlarini amalga oshirish davom ettiriladi.

O'zbekistonda mehnat bozorida norasmiylikni aniqlash xususiyatlari. Norasmiy sektor iqtisodiyotning soliq solinmaydigan qismi bo'lib, hukumat tomonidan nazorat qilinmaydi va shuning uchun mamlakatning yalpi ichki mahsulotini hisoblashda hisobga olinmaydi.

¹³⁸ O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari/ nashr etilgan: 17/07/2017//http: stat.uz; Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2018 йил январь-декабрь.-Т., 2019.-93-бет ма'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 dekabrda 1011-sonli qarorida¹³⁹ norasmiy sektorda ishlaydiganlar soliq idoralarida ro'yxatdan o'tmagan xodimlar sifatida belgilanadi. Norasmiy sektor turli shakllarga ega bo'lishi mumkinligi sababli, uni o'lchash uchun ko'plab vositalar mavjud.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) tomonidan o'tkazilgan hisob-kitoblarga ko'ra¹⁴⁰, norasmiy sektorda ishlaydiganlar ulushi mamlakatning iqtisodiy faol aholisining taxminan 45 foizini tashkil etadi. Bu holda, norasmiy sektorning ko'rsatkichi sifatida, ish bilan ta'minlangan aholining daromad solig'i to'lamagan qismi sifatida, hech qanday yozma shartnomasiz ishlayotganlarning ulushi hisobga olindi.

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yil 1 yanvar holatiga iqtisodiyotda band bo'lganlar soni 13,5 million kishini tashkil etdi. Shu bilan birga, Soliq qo'mitasining hisobotlariga ko'ra, jismoniy shaxslar soliq to'lovchilarining umumiy soni 2020 yil boshiga kelib 4,9 million kishini tashkil etgan, shu tariqa budjetga o'rtacha o'rtacha 16 foiz soliq tushumini ta'minlaydigan shaxsiy daromad solig'i xodimlarning atigi 36 foizida olinadi. 13,5 million bandlardan chet elda ishlaydigan 2,5 millionga yaqinini hisobdan chiqarib tashlansa, iqtisodiyotda band bo'lganlarning atigi 55 foizi rasmiy ravishda ishlaydi.

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda norasmiy sektorning taxminiy hajmi har xil tadqiqotlar natijasida turlicha berilgan bo'lib, ular YaIMning 27-52% ni tashkil etadi.

ITIM tomonidan respublikaning mintaqalarida sektorning norasmiy bahosi ham o'tkazildi.


Shunday qilib, norasmiy sektor darajasi past bo'lgan hududlar qatoriga Toshkent, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent va

¹³⁹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 22.12.2017 й. 1011-сон "Ишга жойлаштиришга муҳтож аҳоли сонини аниқлаш, шу жумладан, уй хўжаликларини меҳнат билан бандлик масалалари бўйича ўрганишлар ўтказиш, шунингдек, меҳнат ресурслари, бандлик ва аҳолини ишга жойлаштириш балансини шакллантириш методикасини такомиллаштириш тўғрисида"ги Қарори

¹⁴⁰ Хасан Маджидов, Бахтишод Хамидов. Разглядеть невидимку: неформальный сектор в Узбекистане. <https://review.uz/ru/yubu>

Navoiy viloyatlari kiradi. Norasmiy sektor darajasi yuqori boʻlgan hududlar qatoriga Fargʻona, Andijon, Namangan va Samarqand viloyatlari kiradi.

Shu bilan birga, norasmiy yollashning asosiy qismi xususiy kompaniyalar tomonidan amalga oshirilishini taʼkidlash lozim (65%). Bundan tashqari, norasmiy yollash / ishga jalb qilishning uchdan bir qismi oʻzini oʻzi ish bilan band boʻlganlar (tikuvchilar, duradgorlar, haydovchilar va boshqalar)ga toʻgʻri keladi. Davlat ulushi mavjud korxonalarining norasmiy ishga yollashdagi ulushi 2% ni tashkil qiladi.




Manba: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotlari

7.2.1-rasm. Ish beruvchilarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha norasmiy sektorni tasniflanishi

Nazariya va xorijiy amaliyot shuni tasdiqlamoqdaki, norasmiy sektorda oʻrtacha ish haqi rasmiy sektorga nisbatan ancha past boʻlishi kerak, chunki norasmiy sektorda boshqa omillar qatorida ishchilar odatda "muzokara kuchi" va "huquqiy himoyaga" ega emaslar. Shunday qilib, ish beruvchi xodimlar oldida hech qanday majburiyatlarga ega emas va ishchilarning huquqlari odatda himoyalalanmaydi.

Ushbu gipoteza O‘zbekistonda ham tasdiqlangan. Iqtisodiyotning norasmiy sektorida o‘rtacha ish haqi rasmiy sektorga nisbatan taxminan 15% past ekanligi aniqlandi. Xususan, ish haqi miqdorida jiddiy farq Jizzax, Namangan, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuzatilmoqda.

Tahlil davomida bandlik darajasi va korxonalar hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Ma‘lum bo‘lishicha, kompaniya qanchalik katta bo‘lsa, ular norasmiy ravishda kamroq yollashadi. Norasmiy yollash asosan yangi firmalar yoki qisqa muddatli faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan firmalarga xos ekanligi ma‘lum bo‘ldi.



Manba: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma‘lumotlari
7.2.2-rasm. Korxonalar hajmi va norasmiy bandlik o‘rtasidagi bog‘liqlik

Shu bilan birga, norasmiy sektorning mavjudligi, umuman olganda, sog‘lom raqobat uchun zararli ekanligini ta‘kidlash kerak, chunki ishchilarni norasmiy yollash soliq yukini kamaytiradi va mahsulot tannarxini kamaytiradi, bu esa soliq to‘laydigan tadbirkorlarga nisbatan adolatsizdir. Bu hol 2019 yilda Jahon banki

tomonidan O‘zbekistondagi kichik, o‘rta va yirik biznes korxonalari top-menejerlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovda ishtirok etgan 1239 ta respondentlar tomonidan ham qayd etilgan. Xususan, respondentlar norasmiy sektor mavjudligini o‘z biznesining rivojlanishidagi eng muhim to‘siq deb atashdi. Bundan tashqari, ushbu muammo yirik va kichik korxonalar uchun katta korxonalarga qaraganda ancha dolzarbdir.

Shu nuqtai nazardan, norasmiy sektor ulushini qisqartirish va bozorning barcha ishtirokchilari uchun bir xil sharoitlarni yaratish mamlakat hukumatining asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi kerak. Biroq, bunday siyosat uchun vositalarni ishlab chiqish qo‘shimcha chuqur tadqiqotlarni talab qiladi.

7.3. “Norasmiylik”ni tahlil qilishga neoinstitutsional yondashuvlar.

Neoinstitutsional nazariya asosiy e‘tiborini insonning xo‘jalik faoliyatini belgilovchi va cheklovchi “o‘yin qoidalari” va umuman, iqtisodiy rivojlanish jarayoni o‘rtasidagi aloqadorlikka qaratadi. Tadbirkorlik iqtisodiyot rasmiy sektori unsurlari hisoblanib, bunda “o‘yin qoidalari” o‘rnatilgan va ular bilan himoya qilingan amal qilishiga mos keladi. Va aksincha, tadbirkorlar bu qoidaga rioya qilmaganlarida, ular iqtisodiyot norasmiy” sohasi unsurlari sifatida qaraladi. Boshqacha aytganda, belgilangan mezonlarga amal qilish “qonuniy” iqtisodiyotda ishtirok etishning birinchi darajali mezoni hisoblanadi, ayni vaqtda belgilangan qoidalarga rioya qilmaslik yoki kuzatish norasmiy xufiyona iqtisodiyotda qatnashish mezoni bo‘lib xizmat qiladi. E.Fayg tomonidan berilgan ta’rifni keltirish mumkin: «Norasmiy iqtisodiyot xarajatlar (xususiy) qiladigan va mulkchilik munosabatlarini tartibga soladigan qonunlar va ma’muriy qoidalar yozilgan huquqlarni, tijoriy litsenziyalash, mehnat shartnomalari, moliyaviy kreditlash va ijtimoiy sug‘urta munosabatlarini va foydalarni (ijtimoiy) istisno etadigan iqtisodiy faoliyatni o‘z ichiga oladi»¹⁴¹.

¹⁴¹ *Feige E. L.* Defining and Estimating Underground and Informal Economies: The New Institutional Economics Approach // *World Development*. 1990. Vol. 18. No. 7. P. 992.

1980-yy.dayoq dalillar to‘plash va empirik kuzatishlardan norasmiy iqtisodiyot bo‘yicha mutaxassislar umumlashtiruvchi modellar tuzishga o‘tadilar. Iqtisodiy – matematik modellashtirishga e‘tibor qarata boshlagan norasmiy iqtisodiy faoliyatga 1988 y. noyabrida bo‘lib o‘tgan “Rivojlanayotgan mamlakatlarda mutanosib bozorlar” xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari yorqin misol bo‘la oladi»¹⁴².

1. Sotuvchilar xulq-atvorining tahlili: risklar va xarajatlar.

Ushbu konferensiyada qator chiqishlar narxlar ustidan davlat nazorati sharoitida norasmiy yo‘llar bilan tovarlar sotish va ularning bozor bitimlariga ta’sirida ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar qiladigan xarajatlar tabiatini tahlil qilishga bag‘ishlandi. Xususan, S. Devareydjen, K. Djons va M. Romerlar noqonuniy bozorlarda o‘z tovarlarini sotish orqali narxli tartibga soladigan va uning nolegal savdolar ko‘lamiga ta’sirini hisobga oladigan sotuvchilarda vujudga keladigan risklarning sabablari muammosiga to‘xtalib o‘tadilar¹⁴³. Adabiyotlarda riskning miqdori, ya’ni topilish va jazolanish ehtimoli faqat mutanosib bozorda sotilgan tovarlar miqdoriga bog‘liq bo‘ladi, degan fikr bildiriladi. S. Devareydjen, K. Djons va M. Romerlar yo (1) taklif qilingan tovar umumiy miqdori narxli nazoratning intensivligi bilan belgilanib, unga bog‘liq ravishda tovarning katta yoki kichik qismi legal bozordan nolegal bozorga o‘tishini; yoki (2) narxlar ustidan nazorat o‘rnatishda butun savdo to‘lig‘icha mutanosib bozorga o‘tishini aniqladilar. Umuman, nolegal va legal sotuvlarni hisobga olib, bozorda tovarlar taklifining muvozanatli hajmi quyidagicha shakllanadi. Dastlab “ishlab chiqaruvchilar cheklangan xarajatlari mutanosib va rasmiy narxlar o‘rtasidagi tafovut bilan taqqoslanmas ekan, o‘zlarining mutanosib bozordagi harakatlari orqali (o‘z tovarini) mutanosib bozorda sotadilar”¹⁴⁴. Mutanosib bozordagi sotuvlarda ustuvorlik yo‘qolganda, mahsulotning cheklangan xarajatlarini (riskni istisno etadigan) rasmiy narxlar bilan

¹⁴² “mutanosib bozorlar” tushunchasi - “norasmiy iqtisodiyot” tushunchasining sinonimlaridan biridir.

¹⁴³ *Devarajan S., Jones C, Roemer M.* Markets under Price Controls in Partial and General Equilibrium // World Development. 1989. Vol. 17. No. 12. P. 1881-1894.

¹⁴⁴ O‘sha yerda. P. 1864.

taqqoslab bo'lmaz ekan, ishlab chiqaruvchilar rasmiy bozorda o'z tovarlarini sotishda davom etadilar.

Nolegal bozorda riskning roli to'g'risidagi masala kontrabanda iqtisodiy tahlili bilan bog'liq ravishda birinchi marta adabiyotlarda ko'tarib chiqildi. M. Pitt 1980-yillarning boshlaridayoq kotrabandachilar tomonidan aralash strategiya – legal va nolegal savdoni qo'shishni qo'llash imkoniyatini ko'rib chiqdi¹⁴⁵. U kontrabandachini ushlab turish riski faqat kontrabanda orqali keltirilgan tovarlarning ko'payishi tomonigagina emas, balki qonuniy savdo o'sganda, kamayishi tomoniga ham o'zgarishi mumkin, deb ko'rsatdi. Rasmiy yo'llar bo'yicha tovarlar bir qismini sotish biznesmenga legal maqomini ta'minlaydi va mutanosib bozorda boshqa qismini sotish to'g'risidagi hukumatning gumonini ifodalashi mumkin. S. Devareydjen, K. Djons va M. Romer mutanosib bozorning amal qilishi umumiy modelini qurishi va kontrabandistlarning umumiy "mahsulot chiqarish" riskining oddiy modelida bo'lishi zarur bo'lgan miqdordan oshib ketishini ko'rsatishi uchun riskning mazkur xususiyatidan foydalanadilar. Qonuniy savdo jarima jazolariga tortilish riskini kamaytirgan va ishlab chiqaruvchiga mahsulotning cheklangan xarajatlarini rasmiy narxlarga teng bo'ladigan nuqtadan yuqori ko'tarish imkonini bergan holda tushumlarni ko'paytiradi.

«Agar sotuvchilarning xarajatlari (shu jumladan, risklar, jarimalar va poralar) davlat tomonidan tartibga solinadigan bozor xarajatlariga nisbatan kam bo'lsa, - deb ta'kidlaydi K. Djons va M. Romer, - sotilayotgan (tovar) lar umumiy soni oshib borar ekan, ular tovarni fermerlardan yuqori narxlarda sotib olish va uni iste'molchilarga belgilanganidan past narxlarda sotish orqali bozorda belgilangan "soliq" larni qoplashlari mumkin. Sotilganlar (tovar) umumiy soni mutanosib (bozor) yo'l mavjud bo'lmaganda, bozor mexanizmi orqali sotilgan miqdordan oshib ketgan (bunda) bo'lar edi»¹⁴⁶.

¹⁴⁵ Qarang: *Pitt M. Smuggling and Price Disparity // Journal of International Economics. 1981. Vol. 11. P. 447-458.*

¹⁴⁶ *Jones C, Roemer M. Modeling and Measuring Parallel Markets in Developing Countries // World Development. 1989 Vol. 17. No. 12. P. 1865.*

Mutanosib bozorlar bo'yicha konferensiyaning boshqa ishtirokchilari mutanosib bozordagi risklar yoki operatsiyalarning boshqa xarajatlari o'zaro aloqadorligi hamda ko'lamdan tejamkorlik muammosiga e'tibor qaratdi. Kontrabanda yoki noqonuniy savdo cheklangan xarajatlari sotuvlar hajmi bilan oshib borayotganligi ko'rsatildi, ya'ni faoliyat ko'lamidan salbiy tejamkorlik mavjud, biroq pora berishda yoki nolegal iqtisodiyotda ko'lamdan tejamkorlik amal qilishi mumkin. Xarajatlar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin: sotuvchilar nazoratni qanday amalga oshirishni yaxshi biladilar, mutanosib bozor muassasalari xarajatlarni salbiy tejashga moslashadilar.

J.P. Azam va T. Beslilar o'z asarlarini nolegal savdodagi ko'lamdan tejamkorlik samarasi empirik tadqiqotiga bag'ishlab, ular yashirin bozor modelini Gana iqtisodiyoti to'g'risidagi ma'lumotlar bo'yicha qurdilar¹⁴⁷. Ganada kakao rasmiy narxi jahon narxlaridan past. Fermerlar o'z hosilining bir qismini Togo yoki Fil suyagi qirg'og'i qo'shni davlatlaridagi kontrabanda orqali tovar keltirayotgan norasmiy savdogarlarga sotadilar. Transport vositalarini tanlagan va zaruriy porani to'lagan holda sotuvchilar faqat taqchil iste'mol tovarlarini kontrabanda orqali tashishda foydalaniladigan yuk mashinalaridan kakaoni kontrabanda orqali olib kelish uchun foydalanganlarida pastroq xarajatlar qiladilar.

2. Xaridorlar xatti – harakatlari tahlili: rentalizlovchilik va axborotlar izlash. R. Dekon va Dj. Sanstelilar ko'rsatishicha, taqchil tovar izlayotgan iste'molchilar ularni izlashga vaqt yo'qotish zaruriyatiga va navbatda turib qolish xarajatlariga duch kelishlari mumkin bo'lib, bu ularning xaridlardan yutug'ini kamaytiradi¹⁴⁸. Mutanosib bozorlar mavjud bo'lmaganda iste'molchilar qo'shimcha xarajatlar qilgan bo'lardilar (masalan, vaqt yo'qotishlari yoki pora sarflari). Mutanosib bozorda iste'molchilar ratsionlashtirilgan tovarlar uchun raqobatlashishlarini ko'rsatgan T. Nguyen va Dj. Xoli

¹⁴⁷ Qarang: *Azam J.-P., Besley T.* General Equilibrium with Parallel Markets for Goods and Foreign Exchange: Theory and Application in Ghana // World Development. 1989. Vol. 17. No. 12. P. 1921 – 1930.

¹⁴⁸ Qarang: *Deacon R. T., Sonstelie J.* Price Controls and Rent-Seeking Behavior in Developing Countries // World Development. 1989. Vol. 17. No. 12. P. 1945-1954.

tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, bitim xarajatlari (taqchillikni izlash, navbat kutish va pora berish) mutanosib va rasmiy bozorlardagi narxlar o‘rtasidagi tafovutni qoplamaydi¹⁴⁹, R. Dekona va Dj. Sansteli modelini unga mutanosib bozorni kiritgan holda oson kengaytirish mumkin.

S. Devareydjen, K. Djons va M. Romerlar boshqa vaziyatni o‘rganadilar: hukumat maxsus do‘konlar orqali kuponlar yoki ma‘lum belgilariga ko‘ra (masalan, ijtimoiy ahvoli yoki bandligiga mos ravishda), ratsionlashtiriladigan tovarlarga bepul kirish imkoniyatini taqdim qiladi. Ular buni “xarajatlardan holi ratsionlashtirish” (costless rationing)¹⁵⁰, deb nomlaydilar. Biroq bunday bepul ta‘minotning qo‘llanishi xaridorlar o‘zlarining mutanosib bozorda bepul olingan tovarlarini qayta sotganlaridagi vaziyat imkoniyatlarini istisno etmaydi., ularga ratsionlashtirilgan taqsimotda yuzaga kelgan rentani to‘liq zabt etish imkonini beradi. Bu esa nazorat ostida turgan tovarlarni bunday nazorat mavjud bo‘lmaganiga qaraganda, iste‘molchilarga ko‘proq talab qilish, sotuvchilarga esa ko‘proq yetkazib berish imkoniyatini yaratadi. Sababi shundaki, iste‘molchilarning daromadlari ko‘p miqdorda tovarlarga talab yaratadigan renta hisobiga oshdi.

D. Bevan, P. Koller va Dj. Ganning Tanzaniya qishloq joylarida ko‘pchilik iste‘molchilar faol amal qiladigan mutanosib bozorlarning mavjudligiga qaramasdan, tovarlarni qo‘lga kiritish holatida bo‘lmasliklari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga tayanib, buning sababi axborot olish yuqori xarajatlari bo‘lishi mumkin, degan taxmini bildiradilar¹⁵¹. Agar narxli yoki boshqa ma‘muriy cheklovlar mutanosib bozor sotuvchilariga qarshi repressiyadan (qamoq va jarimalar) foydalanib, kuch ishlatish yo‘li bilan hal qilinsa, bu sotuvchilar nafaqat o‘z mahsulotini reklama qilishda, balki potensial xaridorlar bilan bitim tuzishga urinishlarda ham riskka duch keladilar. Chunki har qanday xaridor ayniqsa, sotuvchi xaridorga narxlarni

¹⁴⁹ Qarang: *Nguyen T. T., Whalley J.* Equilibrium under price controls with endogenous transactions costs // *Journal of Economic Theory.* 1986. Vol. 39. P. 290-300.

¹⁵⁰ Qarang: *Devarajan S., Jones C, Roemer M.* Op. cit. P. 1881 - 1894.

¹⁵¹ Qarang: *Bevan D., Collier P., Gunning J. W.* Black Markets: Illegality, Information and Rents // *World Development.* 1989. Vol. 17. No. 12. P. 1955-1964.

xaridor avval hisoblaganiga qaraganda, ancha yuqori belgilashga uringanda, xabar beruvchi bo'lishi mumkin. Mazkur vaziyatlarda sotuvchilar qamoqqa olinish ehtimolini kamaytirishga va tovarlarni mutanosib bozorlarda belgilanganidan sezilarli ravishda past narxlarda taklif qilgan holda o'z foydasini ko'paytirishga majbur bo'ladilar. D. Bevan, P. Koller va Dj. Ganning tadqiqotlari shu tariqa, mutanosib bozorlar tadqiqotining yangi jihatini – ularning “jozibadorligi” ni, potensial xaridorlar tomonidan nolegal sotuvchilarni izlash qiyinchiliklarini tahlil qilishni ochadi. Albatta, mutanosib bozorlarni o'rganish jiddiy cheklanishlarga ega. Noqonuniy faoliyat to'g'risidagi har qanday masala intervyuyer uchun ma'lum risk bilan bog'liq. Ko'pgina vaziyatlarda so'ralayotganlar, masalan, ular mutanosib bozorlarda sotgan yoki sotib olgan tovarlar miqdori, ular olgan yoki to'lagan pullar summasi, poralar, aniqlangan riskni kamaytirish usullari to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash mumkin bo'lmasligi uchun qarshilik ko'rsatadilar. Bundan tashqari, agar respondentlar tadqiqotchiga ishonchli axborotni xabar qilishni xohlasalar, mutanosib bozorlar tabiatining o'zi uni umumlashtirishni qiyinlashtiradi: sotilgan tovar umumiy miqdorini baholash qiyin, chunki sotuvga juda ko'plab mayda sotuvchilar jalb qilingan. Bu sabablar tufayli iqtisodiy-matematik modellashtirish sabablari norasmiy iqtisodiyot nazariyasida boshqa iqtisodiy-huquqiy nazariyalar, masalan, jinoyatlar va jazolar iqtisodiyot nazariyasi (economics of crime and punishment) yoki mulkchilik huquqi iqtisodiyot nazariyasidagiga (economics of property right) qaraganda, hali kuchsiz rivojlangan. Neoinstitutsional yondoshuvlar norasmiy iqtisodiyotning yangi bir butun paradigmasi shakllanishiga olib kelmadi. Zamonaviy g'arb adabiyotlarining tahlili ko'rsatishicha, an'anaviy institutsionalizm ko'rinishidagi yondoshuvlar ayrim neoinstitutsional g'oyalar bilan yangilangan bo'lsada, ustuvor tendensiya bo'lib qolmoqda. Perulik iqtisodchi Ernando de Sotoning konsepsiyasi “eski” va “yangi” institutsionalizmning bunday sinteziga xarakterli misol bo'lib, u norasmiy iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi tasavvurlarda tubdan inqilob yasadi.

7.4. Ernando de Sotoning “kul rang” xufyona iqtisodiyot konsepsiyasi

1989 yilda E.de Sotoning “Boshqa yo‘l” mavzusidagi monografiyasining nashr etilishi xufyona iqtisodiyotning zamonaviy bozor xo‘jaligidagi roli va ahamiyati to‘g‘risidagi tasavvurlarni tubdan o‘zgartirib yubordi¹⁵². “Boshqa yo‘l” konsepsiyasi ilmiy adabiyotlardagi norasmiy iqtisodiyot sektori to‘g‘risidagi nazariyasining yangi va ustuvor paradigmi hisoblanadi.

1970-1980 yillarda amalda bo‘lgan “uchinchi dunyo” mamlakatlarida xufyona iqtisodiyot muammolarga ilmiy yondashuvlarda norasmiy ish bilan bandlik kambag‘allik, qoloqlik va qashshoqlik sabablik vujudga keladi deb izohlanar edi. Ilgarigi ilmiy qarashlarda iqtisodiy xufyonalik marginal qatlam sifatida tasvirlangan, ya‘ni sobiq dehqonlar shaharlarda yuqori ish haqi izlab ketib qoladilar. Ammo past darajadagi malakaga ega bo‘lganliklari tufayli zamonaviy sanoat korxonalarida ishga joylasha olmaydilar. Shuning uchun xufyona faoliyat ko‘rsatib o‘zlarining yashash minimumini qiyinchilik bilan ta‘minlaganlar. Ularning izohlashlariga ko‘ra yashirin iqtisodiy faoliyat yurituvchilar shahar hayotiga moslashib borganlari sari zamonaviy rasmiy iqtisodiyotga o‘ta boshlaydilar. Ilgarigi ilmiy qarashlar vakillarining fikricha norasmiy iqtisodiyot sektori-ijobiy istiqbolga ega bo‘lmagan iqtisodiy getto hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi shahar iqtisodiyotidagi noformal sektorning jadal rivojlanishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni jahon xo‘jaligi periferiyalarining degradatsiyaga uchrashi ko‘rsatkichi deb izohlaydilar. Shahar marginallarining og‘ir qisimatini yengillashtirish uchun “so‘llar” milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan nazorat qilishni kuchaytirishni taklif etadilar. Liberallar esa norasmiy sektorni modernizatsiyalashning salbiy oqibati deb qaraladi.

E.de Sotoning bosh ilmiy yangiligi - xufyona iqtisodiyot genezisini tushuntirishga mutlaqo yangi yondashuvni ishlab chiqqanligi hisoblanadi. Uning fikricha, shahar norasmiy sektorining

¹⁵² Qarang: *Como Э. де.* Иной путь. Невидимая революция в третьем мире. М., 1995.

kengayishining sababi qishloq migrantlarining qoloqligi tufayli rasmiy sektorda ish topa olmasligi emas, balki raqobat munosabatlarining erkin rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi byurokratik (ma'muriy) tashkilotchilikdir.

Boshqacha aytganda, E. de Soto "uchinchi dunyoda" xufyona va legal biznesni sifat jihatdan baholashni boshdan oyoq o'zgartirdi. Uning fikricha, rivojlanayotgan mamlakatlarda legal iqtisodiyot merkantilistik aloqalar bilan tushovlangan, xufyonachilar esa o'zlarining xususiy xo'jaliklarini erkin raqobat tamoyillari asosida tashkil etib, haqiqiy demokratik iqtisodiy tartib o'rnatadilar.

Bu yerda eslatib o'tish lozimki, merkantilizm Yevropada iqtisodiyot siyosat turi sifatida XVI - XVIII asrlarda hukmronlik qilgan bo'lib, siyosiyashtirilgan xo'jalik tizimi bo'lib, unda tadbirkorlik faoliyatini qat'iy reglamentatsiya qilingan. Davlat iste'molchilarga nima ishlab chiqarishni tanlashga imkon bermagan, qanday iqtisodiy faoliyat turini belgilash va rivojlantirish yoki kerak bo'lmagan faoliyat sifatida man qilish huquqini o'zida qoldirgan». Davlat amaldorlarining bu "oliy darajadagi donoligiga" rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy liberalizm to'liq g'alaba qozongan XIX asrdayoq barham berilgan. Ammo hozirgi zamon bozor xo'jaligining periferiyalarida merkanistik siyosat amal qilmoqda. Bu siyosat "so'llar" va liberallar tomonidan qo'lab-quvvatlanmoqda.

E. de Soto rahbarlik qilgan Erkinlik va demokratiya instituti Peruda odatdagi legal biznes bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan shaxslarning to'lashga majbur bo'lgan xarajatlarini "qonuniylik bahosini" aniqlash uchun bir qancha iqtisodiy eksperimentlar o'tkazishgan¹⁵³. Aniqlanishicha, kiyim -kechak tikish bo'yicha fabrikani ro'yxatdan o'tkazish uchun 289 kun va 32 eng kam oylik ish haqi miqdorida mablag' (pora, bojlar, yo'qotilgan daromad) sarflangan. Hatto ko'cha kioskasida savdo qilish uchun litsenziya olish uchun byurokratik labirintlar bo'ylab yurish bo'yicha 43 kun va 15 eng kam ish haqi miqdorida pul mablag'lari sarflangan (qarang:7.4.1-jadval).

¹⁵³ Como Э. де. Иной путь. Невидимая революция в третьем мире. С. 49.

**Erkinlik va demokratiya institutining Limada dastlabki
legalizatsiya xarajatlarini o'lash uchun o'tkazgan
eksperimentlari¹⁵⁴**

Legalizatsiya ob'ektlari	Dastlabki legalizatsiya xarajatlari	
	Vaqt sarflari	Pul sarflari
Tikuv ustaxonasi	289 kun	32 eng kam oylik ish xaqi
Savdo kioskasi	43 kun	15 eng kam oylik ish xaqi
Uy-joy qurish uchun yer uchastkasi	7 yilga yaqin	56 eng kam oylik ish xaqi

Uy-joy qurish uchun yer uchastkasini rasmiylashtirishga 7 yilga yaqin vaqt va 56 eng kam oylik ish xaqi miqdorida pul mablag'lari sarflangan. "Bizning tadqiqotlarimiz, -degan edi E.de Soto-peruliklarning qonundan tashqari faoliyat yuritishga tayyorligi qonunga bo'ysunish bahosini ratsional baholashlari natijasi ekanligi ko'rsatdi"¹⁵⁵. Demak, xufyona iqtisodiy faoliyat faolligining asosiy sababi huquqiy rejimning noratsionalligi bo'lib, bu holda kompaniyalarning taraqqiy etishi uning yaxshi ishlashiga kamroq bog'liq bo'lib, ko'p hollarda qonun tomonidan yuklanadigan xarajatlarga bog'liqdir. Tadbirkor ushbu xarajatlar bilan manipulyatsiya qilgan yoki amaldorlar bilan aloqalarni yaxshi yo'lga qo'ygan taqdirdagina faqat ishlab chiqarishni yaxshi yo'lga qo'ygan tadbirkorga nisbatan muvaffaqiyatli faoliyat yuritadi. Yomon qonunlar natijasida Peruda norasmiy faoliyat bilan iqtisodiy faol aholining 48% mashg'ul bo'lib, uning hissasiga 61,2% ish vaqti va YaIMning 38,9% to'g'ri kelgan¹⁵⁶.

E.de Sotoning yana bir nazariy yangiligi – ichki iqtisodiy "yashirin" mexanizm, uning o'zini o'zi tashkillashtirishni tadqiq etishdir. Ilgari xufyonachilar faoliyati to'g'risida ularning hayotida yashash uchun kurashning kuchlilar qonuni hukm suradi, degan

¹⁵⁴ Qarang: **Наумов Ю.Г., Латов Ю.В.** Экономическая безопасность и теневая экономика. Учебник. М.: Академия управления МВД России, 2016. –С.171.

¹⁵⁵ O'sha yerda, 178-bet.

¹⁵⁶ O'sha yerda, 49-bet.

tasavvur hukmron edi. E.de Soto esa yashirin biznesda xuddi rasmiy iqtisodiyotda bo‘lgani kabi “qonun kuchi” mavjudligini ko‘rsatib berdi. Uning tadqiqotlari norasmiy faoliyatning barcha sohalarida (uy-joy qurilishi, savdo, transport) barqaror tashkilotlar mavjud bo‘lib, ular yashirin faoliyat ishtirokchilarini bir-birlari bilan va davlat institutlari bilan aloqalarini muvofiqlashtiradilar. “Soya”da ham o‘zining kasaba ittifoqlari, sudlari, huquqiy normalari bilan parallel dunyoda yashaydiki, u ko‘p hollarda rasmiy dunyodagiga qaraganda samarali hisoblanadi.

Biznesning yuqori transaksiya xarajatlari individual faoliyatni samarasiz qilib qo‘yadi, natijada yashirin faoliyat ishtirokchilarini nolegal tashkilotlarga birlashishga majbur qiladi. E.de Soto transaksiya xarajatlarining “rasmiylik-norasmiylik” me‘yorlari asosida quyidagi yangi klassifikatsiyasini ishlab chiqdi:

Birinchi guruh - “qonunga bo‘ysunish bahosi” bo‘lib, qonunga bo‘ysunuvchi xatti-harakatining xarajatlaridir. Bunda tadbirkor rasmiy biznesda iqtisodiy faoliyatning biron bir turi bilan shug‘ullanish huquqini olish uchun bir martalik “erishish xarajatlari”ni qilishi kerak:

– ruxsatnoma olganidan keyin “qonun doirasida faoliyatini davom ettirish xarajatlarini qilishi;

– soliq va ijtimoiy to‘lovlarni to‘lashi kerak;

– ishlab chiqarish standartlarining byurokratik reglamentatsiyalarga bo‘ysunish xarajatlari;

– nizolarni hal qilishda yoki qarzlarni undirishda samarasiz sud faoliyati natijasida yo‘qotishlarga uchrashi, zarar ko‘rishi xarajatlari.

Peruda o‘tkazilgan tadqiqotlar kichik biznes sub‘ektlari (kichik sanoat firmalari) qonunga bo‘ysunmagan taqdirda qonundoirasida faoliyat yuritayotganlarga nisbatan 4,5 barobar ko‘p miqdorda foyda olishlarini ko‘rsatdi. Bunda soliqlar qonunga bo‘ysunish xarajatlarining atiga 21,7% qoplar ekan. Biznesga bosim soliqlar emas, balki byurokratik protseduralar ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Ularga boshqarish xodimlarining 40% ish vaqti sarflanar ekan¹⁵⁷.

Ikkinchi guruh transaksiya xarajatlari “xufiyonalik bahosi”ni ifodalaydigan quyidagi xarajatlar kiradi:

¹⁵⁷ Сото Э. де. С. 187 – 188.

- “jazodan qutilib qolish” xarajatlari (sug‘urtaning alohida shakli sifatidagi poralar);
- xufyona iqtisodiyotdagi kapitalga yuqori stavkalar;
- texnika hajmkorligi (kapital hajmkorligi) yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish sohalarida ishtirok eta olmaslik;
- mulk huquqining nisbatan kuchsiz himoyalanganligi;
- “shartnoma tizimidan foydalana olmaslik bahosi” (ishbilarmonlik majburiyatlarini buzishning xavfliligi) (qarang:7.4.2-jadval).


7.4.2-jadval.

Ernando de Sotoning transaksiya xarajatlarining “Qonunga bo‘ysunish bahosi” va “xufyonalik bahosi” turlari klassifikatsiyasi

“qonunga bo‘ysunish bahosi” xarajatlari	“xufyonalik bahosi” xarajatlari
Ruxsatnoma olish uchun bir martalik “erishish xarajatlari”	“jazodan qutilib qolish” xarajatlari (sug‘urtaning alohida shakli sifatidagi poralar)
ruxsatnoma olganidan keyin “qonun doirasida faoliyatini davom ettirish xarajatlarini qilishi	xufyona iqtisodiyotdagi kapitalga yuqori stavkalar
soliq va ijtimoiy to‘lovlarni to‘lashi	texnika hajmkorligi (kapitalhajmkorligi) yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish sohalarida ishtirok eta olmaslik
ishlab chiqarish standartlarining byurokratik reglamentatsiyalarga bo‘ysunish xarajatlari	mulk huquqining nisbatan kuchsiz himoyalanganligi
nizolarni hal qilishda yoki qarzlarni undirishda samarasiz sud faoliyati natijasida yo‘qotishlarga uchrashi, zarar ko‘rishi xarajatlari	“shartnoma tizimidan foydalana olmaslik bahosi” (ishbilarmonlik majburiyatlarini buzishning xavfliligi)


Umuman iqtisodiyotning legal va nolegal sektorlarga bo‘linishi quyidagi negativ (salbiy) oqibatlariga olib keladi:

- mehnat unumdorligi pasayadi;
- investitsiyalar qisqaradi;
- soliq tizimining samarasizligi;
- kommunal xizmatlarning qimmatlashishi;
- texnik taraqqiyotning sekinlashishi;
- makroiqtisodiy siyosatni shakllantirishdagi ko'pgina qiyinchiliklarning vujudga kelishi. (qarang: 7.4.1 va 7.4.2-rasmlar).



7.3.1-rasm. Nolegallikning salbiy doiraviy ta'siri¹⁵⁸

¹⁵⁸ Qarang: Наумов Ю.Г., Латов Ю.В. Экономическая безопасность и теневая экономика. Учебник. М.: Академия управления МВД России, 2016. –С.175.



7.3.2-rasm. Nolegallikning salbiy doiraviy ta'sirining oqibatlari¹⁵⁹

E.de Sotoning novatorlik g'oyalaridan yana biri G'arbiy Yevropadagi burjua revolyutsiyalarining kapitalist-nolegallarning merkantilistik-kapitalistlarning ustidan qozonilgan g'alabasi deb interpretatsiya qilishidir. Uning fikricha "uchinchi dunyo" XVI-XVIII asrlarda yuz bergan dramalarni hozir o'z boshidan kechirmoqda. Monopolist "renta izlovchilar" manfaatlarini himoya qiluvchi G'arbiy Yevropa davlatlari ishlab chiqarish standartlarini kiritdilar, lekin nolegal raqobatli ishlab chiqarish uzluksiz ravishda o'sib bordi. Oxir-oqibat tinch (Angliyada bo'lgani kabi) yoki zo'rlik yo'li bilan (Fransiyadagidek) merkantilistik tizim sindirildi, monopoliyalar huquqiy himoyadan mahrum bo'ldilar va amalda barcha tadbirkorlikka erkin erishish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Kishilarning qo'llari bo'shatildi va ularning energiyalari davlatga qarshi emas, balki ishlab chiqarishga yo'naltirildi¹⁶⁰. Shunday qilib, E.de Sotoning mazkur kitobida norasmiy iqtisodiy sektorning

¹⁵⁹ Qarang: Наумов Ю.Г., Латов Ю.В. Экономическая безопасность и теневая экономика. Учебник. М.: Академия управления МВД России, 2016. –С.175.

¹⁶⁰ Э.де Сото, С.277.

majudligi va rivojlanishi sabablari qoloqlik va kambag'allik, qashshoqlik emas, balki byurokratik tashkillashtirish, byurokratik burjua manfaatlaridan kelib chiqib, iqtisodiyotni byurokratlashtirish oqibati ekanligini ko'rsatib berdi.

7.5. Norasmiy iqtisodiyotning rivojlanishining hozirgi zamon umumiy qonuniyatlari

Xorijiy tadqiqotchilarning **norasmiy iqtisodiyot** to'g'risidagi zamonaviy ilmiy tasavvurlarini umumlashtirib, quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin.

Norasmiy iqtisodiyot (umuman, yashirin iqtisodiyot kabi) u yoki bu darajada ijtimoiy tizimlarga xos global-tarixiy hodisa hisoblanadi. U "birinchi dunyo" da ham (rivojlangan "kapitalistik" mamlakatlarda), "ikkinchi dunyo" da ("kommunistik" mamlakatlarda) ham, "uchinchi dunyo" da (rivojlanayotgan mamlakatlarda) ham o'z o'rnini topdi va topadi. Bundan tashqari, **norasmiy iqtisodiyot** tarixi zamonaviy davr bilan cheklanmaydi: norasmiy iqtisodiy tuzilmalar to'industrial jamiyatlarida (hech bo'lmaganda G'arbiy Yevropa o'rta asrlari sexdan tashqari hunarmandchiligi to'g'risida eslaymiz) va postindustrial jamiyatda ular amal qilishi mumkin.

Norasmiy iqtisodiyot ko'p funksionaldir. Bir tomondan, u ishlab chiqarish munosabatlari rudimentar shakllarini (masalan, oilaviy norasmiy "mikrofirmalar" ko'p jihatdan shaxsiy bog'liqlik arxaik munosabatlariga asoslangan) muzlatib qo'ygan, shahar va qishloq chegaralarining omon qolishini ta'minlagan holda yashovchi muassasalarning o'ziga xos "payvandlashuvi" rolini o'ynaydi. Boshqa tomondan, *norasmiy iqtisodiyotni* mazkur davrda hukmron institutlar "dublikati" sifatida ham o'rganish mumkin: norasmiylar rasmiy iqtisodiyot sub'ektlari tomonidan iste'mol qilinadigan oddiy tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaradilar, **norasmiy iqtisodiyot** uchun buyurtmalar ko'pincha "rasmiy" biznesdan kelib chiqadi. Va nihoyat, **norasmiy iqtisodiyot** yangi muassasalar "poligon"idir. Kichik va mayda tadbirkorlik birliklarining majmui, osonlik bilan o'zgarib borayotgan assortiment, texnologiya, tashqi va ichki xo'jalik aloqalari hisoblangan **norasmiy iqtisodiyot** yuqori egiluvchanlik va

yashovchanlikni namoyon etadi. E. de Soto konsepsiyasiga muvofiq, XVIII asrdagi zamonaviy kapitalistik sanoatga tamal toshi qo‘ygan sanoat inqilobining o‘zini sex tizimini mahkam muzlatish hamda savdo va boshqa monopoliyalarni mutloq ustun qo‘yishga uringan “norasmiy” kapitalistlarning merkantilistik davlat tartibga solishi bilan kurash natijasi sifatida o‘rganish mumkin. Aynan norasmiy ishlab chiqaruvchilarning “tinch inqilobi” zamonaviy “uchinchi dunyo” mamlakatlarida raqobatli bozor muhitini yaratadi. Va nihoyat, Rossiya va sobiq “sotsialistik lagerning” boshqa mamlakatlaridagi tadbirkorlik aynan ilgari taqiqlangan yashirin biznes an‘analari negizida rivojlanmoqda.

Norasmiy iqtisodiyot o‘z tabiatiga ko‘ra, bozor va raqobatli tavsifga ega. Nazorat qiluvchi tashkilotlar kuzatuvidan yashirinayotgan mayda ishlab chiqaruvchilar faqat bir-biridan alohidalashgan xaridorlarning to‘lovga qobil talabigagina yo‘naltirilishlari mumkin. Norasmiy ishlab chiqarish asosan, kapitaldan emas, balki mehnat resurslaridan foydalanadilar (boshqacha aytganda, **norasmiy iqtisodiyot** inson kapitali jismoniy kapitalga qaraganda muhimroq). Norasmiylar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot legal tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar kabi taxminan bir xil sifat darajasiga (yoki bir muncha pastroq) ega, ammo pastroq xarajatlar bilan ishlab chiqariladi (norasmiy biznesmenlar soliqlar va ijtimoiy to‘lovlarni to‘lamaslik qonuniga bo‘ysunish xarajatlarini tejaydilar, ish haqini qonunan belgilangan minimumdan past darajada to‘lashlari mumkin va h.k.) Umuman, norasmiy sohadagi daromadlar darajasi rasmiy sohadagiga nisbatan bir muncha past yoki unga taxminan teng, biroq daromadlarning tabaqalashuvi juda yuqori.

Norasmiy iqtisodiyot yashirin iqtisodiyot sohasi hisoblanib, u yanada unumli va jamiyat uchun foydalidir. Ma‘muriy iqtisodiyot sharoitida norasmiy ishlab chiqaruvchilarning ijtimoiy roli ikki tomonlamadir. Rossiyadagi fuqarolar urushi voqealari ko‘rsatishicha, “qopchilar” shaharni non bilan ta‘minlabgina qolmay, balki mamlakatni tartibsizliklarga tortgan “yashillar” harakatiga ham asos soldilar. Sovet davrida “sexchilar” ham, bir tomondan, taqchil sanoat tovarlariga iste‘molchilik ochligini qondirdilar, boshqa tomondan esa o‘zlarining

korrupsiyaviy faoliyatlarini milliy partiyaviy – davlat apparati qoldiqlaridan uzdilar. Bozor xo‘jaligida oddiy iste‘molchilar va hatto legal firmalar arzon tovarlar va xizmatlarni ularning ishlab chiqaruvchilari va sotuvchilarining huquqiy maqomiga e‘tibor bermagan holda qoniqish bilan oladilar; bu iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirsa, hukumat bunda o‘z potensial daromadlarining bir qismini yo‘qotishga ko‘nikishga moyil bo‘ladi. Mos ravishda, agar markazlashgan boshqaruv tizimlarida hukumat “norasmiylar”ni sinf sifatida tugatishga urinib, **norasmiy iqtisodiyot**ga nisbatan hal qiluvchi bosimni ushlab turgan bo‘lsa, nomarkazlashgan tizimlarda u de-fakto jim turib norasmiylarni yo‘qqa chiqaradi yoki ularni legal biznes tizimiga kiritishga, “rasmiylashtirish”ga, ammo tugatmaslikka intiladi. Norasmiy iqtisodiyot jamiyat uchun kamroq xavfli va shuning uchun ham u legal iqtisodiyotning qanchalik dushmani sifatida o‘rganilsa, shunchalik potensial yordamchisi sifatida ham qaralishi kerak.

Nazorat savollari

1. Rasmiy va norasmiy iqtisodiyot tushunchalarining mazmuni va farqi nimalardan iborat?
2. “Kulrang” norasmiy iqtisodiyotning namoyon bo‘lish shakllari nimalardan iborat?
3. Rivojlangan mamlakatlarda norasmiy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda «norasmiylik»ning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. “Norasmiylik”ni tahlil qilishga qanday neoinstitutsional yondashuvlar mavjud?
6. Sotuvchilar xulq-atvorining tahlili qanday amalga oshiriladi?
7. Xaridorlar xatti – harakatlari tahlili: rentalizlovchilik va axborotlar izlash deganda nimani tushunasiz?
8. Ernando de Sotoning “kul rang” xufyona iqtisodiyot konsepsiyasining mazmuni va ahamiyatini tushuntirib bering.
9. Nolegallikning salbiy doiraviy ta’sirining oqibatlari nimalardan iborat?
10. Norasmiy iqtisodiyotning rivojlanishining hozirgi zamon umumiy qonuniyatlari nimalardan iborat?

VIII BOB. INDIVIDUAL JINOYATCHILIK XATTI-HARAKATLARINING IQTISODIY TAHLILI.

8.1. Jinoyatchilik individual ratsional tanlov sifatida.

8.2. Ratsional jinoiy xatti – harakat modelining cheklanganligi.

8.3. Jinoyatlarga qarshi kurashning optimal xarajatlari.

G. Bakkerning jinoyat va jazo iqtisodiyot nazariyasi.

8.4. Erlix modelining asosiy mazmuni

8.5. Iqtisodiyotning kriminallasishiga qarshi kurash yo‘llari.

8.1. Jinoyatchilik individual ratsional tanlov sifatida.

Neoinstitutsionalistlarning ta’kidlashlaricha, jinoyatchi o‘zini mohiyatan qonunga me’yorida rioya qiladigan fuqaro sifatida tutadi - o‘zining ixtiyoridagi mavjud inson va jismoniy kapitalidan samaraliroq foydalanishga urinadi. «Shu tariqa, jinoyatchi bo‘lishga qaror qilish tosh teruvchi yoki duradgor bo‘lishga, yoki iqtisodchi bo‘lishga qaror qilishdan farq qilmasligini hisobga olish mumkin, - deb yoziladi sharhlovchi maqolalardan birida. Individ har bir muqobillarning sof xarajatlari va foydalarini ko‘rib chiqadi va shu asosda o‘z qarorini qabul qiladi»¹⁶¹. Biroq duradgorlik va jinoyatchilik “kasbi” o‘rtasida bor-yo‘g‘i bitta tafovut mavjud bo‘lib, uni iqtisodchilar ancha ilgari sezganlar. Uni yaxshi anglash uchun birgina, xususiyy va empirik iqtisodiy-kriminologik tadqiqotga murojaat qilish o‘rinli.

1972 yilda amerikalik iqtisodchi Maykl Sesnovitsning “Tajovuzkorona o‘g‘irlikdan olingan daromad” nomli kichik maqolasi chop etilgan¹⁶². Uning muallifi Pensilvaniya shtatining 1967 yil davomidagi kriminologik statistikasi aniq ma’lumotlari asosida buzib o‘g‘rilik qiluvchining “kasbi” (buzib o‘g‘rilik qilish, burglary –

¹⁶¹ Rubin P. H. The Economics of Crime // The Economics of Crime. Cambridge (Mass.), 1980. P. 13.

¹⁶² Sesnowitz M. Returns to Burglary // The Economics of Crime. Cambridge (Mass.), 1980. C. 181 - 186. (Mazkur maqola birinchi marta quyidagi nashrdagi chop etilgan: Western Economic Journal. 1972. Vol. 10. No. 4. P. 477-481.)

AQSh da eng keng tarqalgan jinoyat turi) qanchalik foydali ekanligini aniq baholashga va shu orqali jinoyatchilik faoliyatidan daromadlilik hisobining umumnazariy modelidan foydalanishga aniq misol keltirishga urindi.

Buzib o'g'rilik qilish boshqa turdagi jinoyatchilik faoliyatlari kabitir – bu, deb ta'kidlaydi muallif, yuqori riskli faoliyatdir, shu sababli o'g'ri qo'lga tushish va sudlanish bilan tavakkal qiladi. Agar jinoyatchining sof daromadi turli omillarga bog'liqligini formula ko'rinishida ifodalashga harakat qilinadigan bo'lsa, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\mathbf{R} = (\mathbf{1-p})\mathbf{xS} + \mathbf{p} \times (\mathbf{S-D}) = \mathbf{S-pxD},$$

Bu yerda **R** – buzib o'g'rilik qiluvchining daromadi (return);

r - o'g'ri ushlanishi va jazolanishi mumkinligi ehtimoli (probability);

S - o'g'irlangan narsalar hajmi (stolen);

D - buzib o'g'rilik qiluvchining jazolanishi natijasida ko'riladigan yo'qotishlarning puldagi (dollar) miqdori.

Bu formula universal ahamiyatga ega va shaxsiy manfaatga qaratilgan jinoyiy faoliyatning istalgan turlaridan – soliqlardan bo'yin tovlash, banklarni o'marish, kidneping, narkosavdo va h.k. lardan daromadlilikni hisoblash uchun foydalanilishi mumkin ekanligini qayd etamiz.

O'zgaruvchilarni aniq hisoblashda jazolanish (**D**) natijasidagi yo'qotishlarni to'g'ri hisoblash asosiysi hisoblanadi. Agar jarimaga hukm qilinsa, u holda huquqbuzarning yo'qotishlarini baholash juda yengil kechadi. Qamoqxona jazosiga hukm qilingan jinoyatchi yo'qotishlarini to'g'ri hisoblash qiyin. Bunday vaziyatda baholash muqobil xarajatlar usuli bo'yicha amalga oshirilishi kerak: potensial mumkin bo'lgan legal ish haqlarining o'rtacha darajasi olinib (uni jinoyatchi hukm qilinish o'rtacha muddatlari davomida olishi mumkin), u ozodlikda bo'lgandagi miqdordan hukm qilingandagi o'rtacha daromad miqdori (ya'ni bir hukm qilinganga qamoqxona ma'muriyati o'rtacha xarajatlari) chegirib tashlanadi.

M.Sesnovitsning hisob-kitoblari quyidagi natijani berdi: jinoyatchilikdan sof qaytim o'rtacha miqdori taxminan 120 dollarni

tashkil etadi: tajovuzkorona o'g'irlik uchun jazolanish ehtimoli – taxminan 6%; o'rtacha 40 oylik qamoqxona hukmidan kutilayotgan yo'qotishlar - taxminan 5300 dollar; demak, buzib o'g'irlik qiluvchining kutilayotgan daromadi taxminan 200 dollarni tashkil etadi. Boshqacha aytganda, jinoyatchining o'rtacha kutilayotgan sof daromadi manfiy miqdor bo'lib chiqadi. Bu qonuniyat amalda barcha turdagi huquqbuzarliklarda namoyon bo'ladi. Biletsiz yurishni yoqtiradigan har bir kishi kontrolyorni uchratish ehtimoliga va jarima miqdori muntazam biletsiz yurish zararli bo'ladigan miqdorda bo'lishi ehtimoliga ertami-kechmi ishonch hosil qiladi¹⁶³

Agar jinoyatchining o'rtacha kutilayotgan daromadi noldan kichik bo'lsa, jinoyatchi ratsionalligini tasdiqlash mumkin bo'ladimi? Mumkin! Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasida risk iqtisodiyoti maxsus bo'limi mavjud. Iqtisodchilar ratsional xo'jalik xatti-harakatlarining uchta har xil turlarini ajratadilar: riskka moyillik, riskka betaraf munosabat va riskdan qochish. Jinoyatchilarning fe'l-atvori - bu riskka moyillar fe'l-atvoridir, demak, jinoyatchilikka riskli biznes turi sifatida qarash mumkin. Legal iqtisodiyotda birjadagi ko'plab o'yinchilar, ko'ngilochar (azart) o'yinlar ishqibozlari, ayrim tadbirkor-novatorlar o'zini shu tariqa tutadilar. Qandaydir faoliyat turi (shu jumladan, jinoiy) qanchalik riskli hisoblansa, risk ishqibozlari o'rtacha real daromadlari shunchalik past bo'ladi. Shu sababli jinoyatchilar daromadlari ular legal iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanib, olishlari mumkin bo'lgan ish haqidan odatda past bo'ladi.

Agar M.Sesnovits tomonidan namoyish etilgan yondoshuvni umumiyroq ko'rinishda tasavvur qilsak, u holda jinoyatchilarning fe'l-atvori kutilayotgan foydalilikni maksimallashtirish sifatida namoyon bo'ladi. G. Bekker huquqbuzarliklarni amalga oshirishdan kutilayotgan foydalilikni quyidagi formula orqali ifodalagan:

¹⁶³ Kutilayotgan daromadni hisoblash formulasidan foydalanib, kontrolyor qanchalik tezlikda biletlarni tekshirib qolishi mumkinligini hisoblash oson, "quyon" bo'lib yo'lda yurish foydasiz: agar masalan, avtobusdagi bilet 5 rubl, biletsiz yurish jarimasi – 100 rub. bo'lsa, u holda jarimaga tortilish ehtimoli 5% ga oshishi zarur, ya'ni kontrolyor kamida har bir 20 – avtobusni tekshirishi zarur.

$$EU = (1 - r) \times i(Y) + r \times i(Y - f) = U(Y - r \times f),$$

Bu yerda **EU** - jinoyatchilikdan kutilayotgan foydalilik (expected utility);

r - huquqbuzarni jazolash ehtimoli;

Y - jinoyatdan olinadigan daromad;

U - jinoyatchining foydalilik funksiyasi (utility);

f - jinoyat uchun jazolash¹⁶⁴.

Jinoyatchi uzoq vaqtli yuqoriga ko'tarilishni ko'zlayotgan ekan, u holda jinoyiy faoliyatdan olinadigan daromadni baholashda u muqobil xarajatlarni – legal biznesdan olinadigan daromadni, ya'ni agar u "egri yo'l"dan ketmay, olishi mumkin bo'lgan daromadni hisobga olishi kerak. G.Bekker modelida shu tariqa potensial jinoyatchi faqat ikkita muqobilga: yo u jinoyiy ko'tarilishni (**EU > 0** bo'lganda) tanlaydi, yoki qonunga rioya qiluvchi fuqaroga (agar **EU < 0**) aylanadi.

G.Bekkerning izdoshlari tomonidan jinoyiy faoliyatning boshqa murakkabroq modellari ham taklif etildi. Xususan, portfelli tanlov modeli keng tarqalgan: potensial jinoyatchi o'z daromadini o'z vaqtida (ya'ni o'z pul yoki inson kapitalini) legal va nolegal faoliyatlar o'rtasida turli nisbatlarda taqsimlashi mumkin¹⁶⁵.

8.2.Ratsional jinoyiy xatti – harakat modelining cheklanganligi.


Jinoyatlar va jazolashlar iqtisodiy nazariyasi chorak asrdan buyon rivojlanib bormoqda. Yangi nazariyada moda yangilik bo'lishini to'xtatdi, unda o'zning yetakchi mutaxassisleri va boy an'analari mavjud.

Biroq agar adabiyotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, ushbu mavzu bo'yicha mashhur ishlarning asosiy massasi 1970 yillardayoq chop etilgan. Bir tomondan, yangi mavzu ochilgandan so'ng

¹⁶⁴ Becker G. S. Crime and Punishment: An Economic Approach // Essays in the Economics of Crime and Punishment / Ed. by G. S. Becker, W. L. Landes. N. Y., 1974. P. 10.

¹⁶⁵ Jinoyatchi xulq-atvori iqtisodiy modellarning sharhi: Eide E. Economics of Crime. Deterrence and the Rational Offender. North Holland, Amsterdam etc., 1994. P. 47–71.

kashfiyotlar seriyasi darhol zarur bo‘lishi, so‘ngra esa iqtisodchilar yanada “chuqurroq kovlay” boshlashlari to‘la tabiiydir. Boshqa tomondan, adabiyotlar bilan tanishishda dastlabki tadqiqotchilik uzilishlari tugallandi, “ikkinchi nafasni rostdash” esa hali kelmadi.



8.2.1-rasm. Jinoyatchilik iqtisodiyoti asosiy omillarining o‘zaro ta’siri

Iqtisodchi-kriminologlar ikkita turlicha to‘siqlarga – miqdor va sifat to‘siqlariga duch kelishadi, deb tasavvur qilinadi. Bir tomondan, jinoyatlar va jazolashlar iqtisodiy nazariyasida qabul qilingan jinoyatchilik va unga ta’sir qiluvchi turli omillar o‘zaro aloqadorligi juda soddalashtirilgandek tuyula boshlaydi. Boshqa tomondan, jinoyatchilik – bu ijtimoiy hayotning shunday sohasidirki, bu yerda madaniylashgan omillar katta ahamiyat kasb etib, zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi ularni modellashtira olmaydi.

1. Jinoyatchilik va miqdoriy korrelyatsiyalar.

Jinoyatchilik iqtisodiyot nazariyasida qabul qilingan asosiy omillarni 8.2.1-rasmda ko‘rsatilganidek, tasvirlash mumkin. Bu modelda ko‘plab muhim omillar yo‘qqa chiqariladi, belgilangan ko‘rsatkichlarning ta’siri esa bir tomonlama emas, balki ikkitomonlama bo‘lishi mumkin. Jinoyatchilik iqtisodiyoti uchun asosiy hisoblangan jazolash jinoyatchilikni mujassamlashtirishi qoidasini ko‘rib chiqamiz. Agar o‘ylab ko‘rilsa, jinoyatlar fosh qilinuvchanligi va jazolash og‘irligining o‘sishi bevosita jinoyatchilikning kamayishiga olib kelmasligi mumkinligi ham aniq

bo'ladi¹⁶⁶.

Birinchiidan, davlat huquqni muhofazalash agentliklari faoliyatining kuchayishi oddiy fuqarolarning o'z-o'zini muhofazalash bo'yicha faoliyatini qisqartirishi kerak. Natijada resurslarning xususiydan davlat huquqni muhofaza qilish faoliyatiga qayta taqsimlanishi yuz beradi, fuqarolar uchun odatdagi xavfsizlik darajasi esa o'zgarmaydi.

Ikkinchiidan, bog'lanish samarasi mavjud bo'ladi: to'xtatib turuvchi tadbirlarning vaqtinchalik yoki mahalliy kuchayishi jinoyi faoliyatning boshqa davrlarga yoki boshqa mintaqalarga qo'chib o'tishiga olib keladi. Shuningdek, masalan, rivojlangan mamlakatlarda bank faoliyati ustidan nazoratning kuchayishi "uchinchi dunyo" da (masalan, Karib dengizi orollarida) offshor zonalarning shakllanishiga olib keldi, bu yerda bank qo'yilmalarining harakati ustidan nazorat amalda mavjud emas, bu esa "iflos pullar"ni to'siqlarsiz yuvish imkonini beradi.

Uchinchiidan, ko'plab jinoyatchilar (eng avvalo, narkomanlar) har qanday narxdan ma'lum daromad olishni ko'zlaydilar. Agar ko'rilgan xavfsizlik qo'shimcha choralari natijasida jinoyat bir turidan ularning o'rtacha daromadi (masalan, kishilar naqd pullarni kredit kartochkalari bilan almashtirgan holda ularni o'zi bilan olib yurishni to'xtatsalar) kamaysa, u holda boshqa jinoyatlarni ko'proq sodir etadilar (masalan, ko'pincha mayda do'konlarni o'maradilar yoki kvartiralarni buzadilar).

To'rtinchidan, ratsional jinoyatchi fosh qilinish to'g'risidagi real ma'lumotlarni emas, balki unga qulay bo'lgan axborotlarnigina hisobga oladi. Agar fosh qilinuvchanlikning oshishi qoidabuzarlar tomonidan sezilmay qolsa, u holda mazkur to'xtatib turish samarasi nolga teng bo'ladi. Bunday vaziyatda ommaviy axborot vositalarining ishi politsiya faoliyatining haqiqiy muvaffaqiyatlariga qaramasdan, o'z holicha jinoyatchilikni kamaytirishi (agar jinoyatchilik bilan kurashdagi muvaffaqiyatlar to'g'risidagi axborotlar tarqatilsa) yoki aksincha, uni oshirishi mumkin.

¹⁶⁶ Cameron S. The Economics of Crime Deterrence: A Survey of Theory and Evidence // KYKLOS. 1988. Vol. 41. Fasc. 2. P. 301-323.

Beshinchidan, kishilarda qimmatli me'yor va qoidalar yoshlik chog'larida shakllanishini, keyinchalik esa odatda o'zgarmasligini hisobga olish zarur. Agar qonunlarga rioya qilinadigan muhitda tarbiyalangan oddiy fuqaro jinoyat sodir etish imkoniyatiga ega bo'lsa ham, hattoki, uni ushlab olmasliklariga to'liq ishonsada, bunday qilmaydi: ruhiy xarajatlar uni huquqbuzarlik foydasini past baholashga majbur qiladi. Bunda mazkur vaqtda sodir etilgan aniq jinoyat uchun jazolash ehtimoli potensial jinoyatchi xatti – harakatlariga ta'sir etuvchi omillar qatoridan umuman, istisno qilinishi mumkin.

Kriminologik omillar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqliklar shunga olib keladiki, jinoyatchilik va jazolar iqtisodiyot nazariyasi tavsiyalaridan katta ehtiyotkorlik bilan foydalanishga to'g'ri keladi.

2. Jinoyatchilik va madaniyat.

Ilgari ta'kidlanganidek, jinoyatlar va jazolar iqtisodiyot nazariyasi neoinstitutsional nazariya bo'lib, ma'naviy-etik baholashlar va g'oyaviy og'ishlardan tubdan voz kechishga tayanadi (umuman, neoklassiklar kabi) Neoinstitutsionalistlar uning kuchi mana shunda, deb hisoblaydilar. Ammo uning o'zligi ham mana shunda bo'lishi mumkinmi?

Amerika madaniyati uchun hayotning barcha tomonlarini bunday mahalliy monetarizatsiyalash to'la tabiiy va umumqabul qilinganligi bilan kelishish mumkin. Ammo shu singari yondoshuvlar boshqa madaniy an'analarning vakillari tomonidan o'zlashtirilishi mumkinmi? Agar yo'q bo'lsa, u holda yangi iqtisodiyot nazariyasi "intelektuallar uchun o'ziga xos o'yin"ni yuzaga keltirib, riskka boradi yoki yaxshi vaziyatda faqat Amerika madaniyati uchun shunday immanent hodisa bo'lib qolishi mumkin, aytaylik, beysbol yoki "siyosiy korrektorlik".

Agar jinoyatlar va jazolar iqtisodiyot nazariyasini madaniylashgan hodisa sifatida o'rganadigan bo'lsak, bu yangi nazariyani nafaqat ommaviy, balki hatto ilmiy tafakkurga ham moslashtirish qiyinchiliklaridan dalolat beradigan ko'pgina holatlar sezilarli bo'lib qoladi. Xususan, huquqni muhofaza qilish faoliyatiga maqbullashtirish tamoyili qo'llanishining o'zi ham ahloqiy noroziliklarni keltirib chiqaradi. "Majburlashsiz maqbullashtirish

amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar barcha shakllarining samaradorligini o'ldirish uchun asos bo'la olmaydi, - mashhur fransuz iqtisodchi-kriminologi Per Kopp shu nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlaydi. - Masalan, natija ko'pincha binar oppozitsiya – mag'lubiyat (halokat) yoki g'alaba (muvaffaqiyat) da ifodalanadigan harbiy sohada aniqlanadigan foydaga nisbatan xarajatlarni tejash mantiqning asosiy tavsifi hisoblanmaydi»¹⁶⁷.

Hatto Amerika iqtisodchilari orasida ham ratsionalizm yangi iqtisodiy nazariyasi har doim ham anglab yetilavermaydi. Yetakchi Amerika neoinstitutsionalisti Gordon Tallok yo'llarda mashinalar harakatining xavfsizligi ustidan nazoratni tashkil qilishni takomillashtirish tadbirlarini muhokama qilish paytida yuzaga kelgan o'ziga xos vaziyat to'g'risida o'z maqolalaridan birida hikoya qiladi. Yo'l komissiyasi ishida qatnashuvchi nazariyachi – iqtisodchi fatal avtohalokatlar narxlarini aniqlash va uni harakatlanish tezligi cheklanishlaridan avtomobilchilarning yo'qotishlari bilan taqqoslash tamal toshi bo'lishi kerakligini tez anglab yetdi (Mazkur masalalarning keyingi yechimi Fillips-Voti-Eskridjning modelidan kelib chiqadi). Biroq shu kabi masala muhokamaga qo'yilmadi ham, shu sababli iqtisodchi masalaning bunday qo'yilishi injenerlarda (ayniqsa, havaskorlik bilan) tushunishni keltirib chiqarmadi va mohir iqtisodchi bu irratsional javobni ma'qulladi. «U o'limlar soni va o'z sharoiti o'rtasidagi nisbatni aniqlashni, ularni yo'llarni modernizatsiyalash bilan shug'ullanadigan kishilarga to'g'ri tushuntirishni xohlamadi, shu bilan bir qatorda, buni men bilan muhokama qilishni ham xohlamadi», - G.Tallok shunday ajablanish hissi bilan o'z hamkasblarining javobini yetkazadi¹⁶⁸.

Biroq agar o'ylab ko'rilsa, bu yerda hech qanday hayron qoladigan narsa yo'q. Jinoyatlar va jazolar iqtisodiy nazariyasi oxir-oqibat “butun dunyoda, shu jumladan, inson hayotida ham narxlar mavjudligini” aniq e'tirof etishga majbur qiladi. Shunday pul ultraratsionalizmi amalda barcha madaniy an'analarda, diniy va

¹⁶⁷ Kopp P. Les analyses formelles des marches de la drogue // Revue tiers-monde. 1992. T. XXXIII. No. 131. P. 576.

¹⁶⁸ Qarang: Tallock G. An Economic Approach to Crime // The Economics of Crime. Cambridge (Mass.), 1980. P. 75.

dunyoviy marosimlarda qo'llaniladi. Shu sababli bunday fikr-mulohazalardan madaniylashgan falajni nafaqat mutaxassis bo'lmaganlar, balki intellektual oziqlangan iqtisodchilar ham boshdan kechirmoqdalar.

Va nihoyat, Amerika iqtisodchilari nazariy tavsiyalari va Amerika ma'muriyatining amaliy xatti-harakatlari o'rtasida sezilarli tafovut ko'zga tashlanadi. Iqtisodchilar 1960 yillardan boshlab uyushgan jinoyatchilik va narkotiklarni qisman legallashtirishning samaradorligi to'g'risida ishonch bilan ta'kidlamoqdalar. Haqiqatan ham, 1980-1990 yillarda FBR "Koza Nostra"ga bosim jiddiy kuchaydi (Jon Gottining ishini eslash yetarli¹⁶⁹), Lotin Amerikasi narkokartellari bilan "urush" esa AQSh hukumati siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanmaydi¹⁷⁰. Bu nima, yetarli malakali bo'lmagan ma'muriyatning ommaviy o'z-o'ziga ishonishimi? Yoki hatto Amerikada ham fuqarolar huquqiy siyosatning ko'p darajada iqtisodiyotdan tashqari mezonlar bo'yicha muvaffaqiyatlari va halokatlari to'g'risida fikrlashga moyilmi?

Qo'yilgan savollarga bir xil javob berish hali mumkin emas. Jinoyatlar va jazolar iqtisodiyoti g'oyalari rivojlanishining o'ttiz yili – jamiyatga yangi ilmiy oqim munosabatining aniqlanishi uchun yetarli, jamiyatning bu oqimga munosabati aniqlanishi uchun esa yetarli bo'lmagan muddatdir. Quyidagini ta'kidlash mumkin: jinoyatlar va jazolar iqtisodiyoti konsepsiyalari "pul" ratsionalligi neoklassik Ekonomiksi uchun an'anaviy doirada uzviy bo'lib, bu o'z

¹⁶⁹ 1992 yilda FBR ishlovchilari 7 yillik kuzatuvlardan keyin sud hukmiga ko'ra, "Koza Nostra" yirik "oila"laridan biri ("kapo") ning rahbari Jon Gottining bir umrlik qamoq jazosiga erishishi uddasidan chiqdilar. Amerika tartibot himoyachilarining Italiya-Amerika mafiyasiga qarshi kurashda muvaffaqiyatlarining shu singari natijasi AQSh da oxirgi o'n yilliklarda boshqa mafiya tashkilotlari, eng avvalo, Lotin Amerikasi mafiya tashkilotlarining sezilarli kuchayishi bo'ldi.

¹⁷⁰ 1980-yy. ning oxirida huquqni muhofaza qilish organlari va kokain ishlab chiqarishi va savdosini monopollashtirgan Kolumbiya Medelin karteli o'rtasida haqiqiy urush boshlanib, bu urush davomida narkobaronlar hatto Kolumbiya prezidentligiga nomzodlarni o'ldirishni ham tashkil qilindi. Hukumat esa kokain plantatsiyalarini o'qqa tutish uchun samolyotlar eskadriyasini jo'natdi. 1990-yy.ning boshlarida Medelinsk narkokartelining barcha rahbarlari yo o'ldirildi, yoki qamoqqa olindi; biroq kokain biznesidagi yetakchilik boshqa Kolumbiya narkokarteli – Kali karteli qo'lga o'tdi, narkotiklar eksporti esa qisqarganiga qaraganda tezroq o'sdi.

navbatida, protestantlik ahloqi Islohoti davrida vujudga kelgan aks sadolardan biridir. Bugungi kunda uning XXI asrning boshlarida mazkur ratsionallikning yagona bo'lmagan turi ekanligi ma'lum bo'ldi. Jinoyatlar va jazolar iqtisodiyoti g'oyalari boshqa madaniyatlarga qay darajada moslashgan bo'lishi mumkinligini keyingi tadqiqotlar ko'rsatadi.

8.3. Jinoyatlarga qarshi kurashning optimal xarajatlari.

G.Bakkerning jinoyat va jazo iqtisodiyot nazariyasi.


Inter-American development bank tadqiqotchisi Laura Jautmanning fikriga ko'ra jinoyatga xarajatlar quyidagi uch tasnifga ega:

1. Jinoyatlarga ijtimoiy xarajatlar (sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan jinoyatchidan jabrlanuvchiga undiriladigan yoki davlat tomonidan qoplab beriladigan harajatlar)


2. Xususiy sektor xarajatlari (jinoyatlarga qarshi kurashish, xususan, xavfsizlik xizmatiga yo'naltiriladigan xususiy sektor qatnashchilarining mablag'lari)

3. Hukumat xarajatlari (Davlat organlari, xususan, militsiya, sud-huquq tizimi va qamoqxonalalar uchun sarflar)

Jinoyatlarga qarshi kurashish hamma davlatda har xil yondashuvlarga asoslanadi. 2014-2017-yillar davomida tadqiqotchilar Karib dengizida va Janubiy Amerikada joylashgan 17 ta mamlakatda tadqiqotlar olib bordi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ushbu mamlakatlar jinoyatlarga qarshi kurashish uchun YaIM ning o'rtacha 3 % iga teng mablag'ni sarf etar ekan. Bu ko'rsatkich eng yuqori 3.57 % ni va eng past 2.41 % ni tashkil etgan. Bir yil mobaydida esa ushbu 17 ta davlatda jinoyatchilikka qarshi kurash uchun 174 milliard AQSh dollari miqdorida mablag'lar sarf etilgan.



8.3.1-rasm. Jinoyatlarga xarajatlarning YaIMga nisbati (YaIMga nisbatan %da)



8.3.2-rasm. Jinoyatlarga eng ko'p xarajatlar qiladigan Lotin Amerikasi va Karib dengizi mamlakatlari (YaIMga nisbatan %da)

8.3.3-jadval

Qotillik jinoyatlari uchun davlat budjetidan xarajatlar YaIMga nisbatan, mln.AQSh dollarida

	2010	2011	2012	2013	2014	O'rtacha
Argentina	0,05	0,05	0,06	0,06	0,07	0,06
Bagam orollari	0,47	0,64	0,52	0,48		0,53
Barbados	0,13	0,11	0,09	0,09	0,06	0,1
Braziliya	0,22	0,18	0,25	0,24	0,24	0,23
Chili	0,04	0,05	0,04	0,04	0,05	0,04
Kolumbiya	0,44	0,39	0,36	0,33	0,28	0,36
Kosta Rika	0,21	0,2	0,36	0,17	0,36	0,18
Ekvador	0,23	0,2	0,36	0,15	0,1	0,17
El Salvador	0,8	0,82	0,48	0,61	0,94	0,73
Gvatemala	0,39	0,38	0,35	0,34	0,36	0,36
Gonduras	2,24	2,63	2,31	1,89	1,62	2,14
Yamayka	0,61	0,42	0,38	0,45	0,36	0,44
Meksika	0,2	0,19	0,17	0,36	0,13	0,17
Paragvay	0,25	0,25	0,22	0,21	0,21	0,23
Peru	0,06	0,06	0,07	0,08	0,06	0,07
Trinidad va Tobago	0,31	0,22	0,21	0,24		0,24
Urugvay	0,07	0,07	0,09	0,09	0,09	0,08
Lotin Amerikasi va Karib basseyni bo'yicha o'rtacha	0,4	0,4	0,35	0,33	0,32	0,36
Jami (mln.AQSh dollarida)	9,776.3	10,026.6	11,433	11,012.1	10,480.9	10,545.8

Garri Stanley Bakker 1930-yil, 2-dekabrda AQSh da tug'ilgan. Chikago iqtisodiyot universiteti sotsiologiya va iqtisodiyot professori, Chikago iqtisodiyot universitetining uchinchi avlodi yetakchisi. Faoliyati va o'limidan keyin 6 ta AQSh va xalqaro darajadagi mukofotlar bilan taqdirlangan. Shulardan eng nufuzlisi 1992-yil iqtisodiyot sohasida Nobel mukofotidir. Iqtisodchi Milton Fridmen uni XX asrning ikkinchi yarmida yaxshagan eng yaxshi ijtimoiy sohadagi olim deb atagan bo'lsa, Justin Volfers uni oxirgi 50 yildagi

eng yaxshi sotsiolog deb atagan. U o'zining asarlarida sotsiologiya va iqtisodiyotni, xususan, diskriminatsiya, oila tuzilmasi va jinoyat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tadqiq etgan. Masalan, jinoyat sodir etishda insonning ijtimoiy onggi eng birinchi o'ringa qo'ygan.

Bakkerning Jinoyat va jazo iqtisodiy nazariyasida keltirilishicha "insonlar jinoyatlarni sodir etish jarayonida har doim kuchli ruhiy va ahloqiy bosim ostida bo'ladi. Ba'zilar jinoyatni ruhiy bosim ostida sodir etsa, boshqalar uni ongli ravishda jinoyat qilgandan keyingi va jinoyat qilmagandagi naflilikni solishtirib ko'rish orqali amalga oshiradi. Ya'ni jinoyatdan keladigan foyda, shu jinoyatni sodir etmaslikdan keladigan nafdan ustun bo'lsa, bu jinoyatchiga o'ziga xos rag'bat bo'ladi. Uning etirof etishicha, bazi jamiyatlarda jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun va uni oldini olish uchun katta mablag' sarf etilsa ham, jinoyatchilarga aynan belgilangan jazoning ahamiyati juda past. U shunday jamiyatlarda jinoyatlar uchun jazoni keskin oshirishni taklif qiladi. Ya'ni jinoyatchi ratsional qaror qabul qilayotganda jinoyatsizlik holati uning uchun foydali ekanligini bilishi kerak"

Bakker o'zining "A treatise on the family" (Oilada bir asar) kitobida jamiyatda jinoyatchilar guruhining shakllanishida oilaning ahamiyati juda yuqoriligini alohida muammo sifatida e'tirof etgan. Uning fikriga ko'ra bolaning o'zining qiziqishlari orqali sodir etadigan harakatlariga qaraganda, oilasida unga bo'lgan e'tibor va uni qaysidir harakatga yo'naltirish katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Oilada ota-ona oilasining yaxshi hayot kechirishi uchun ko'proq daromad topishni birinchi o'ringa chiqaradi, natijada oiladagi bolalarga etibor pasayadi. Bu etiborsizlik esa bolada o'siga nisbatan xudbinlikni kuchaytiradi va uni qalbida bolaligidayoq jamiyatga nisbatan nomuvofiq g'oyalar shakllanishni boshlaydi. Shuning uchun, Bakker bu nazariyani buzilgan bola yoki yomon ahloqli bola nazariyasi deb nomlaydi.

Bakker g'arbda birinchilardan bo'lib, oilani iqtisodiyotga tasir etuvchi katta kuch sifatida tadqiq etgan iqtisodchi-sotsiologlardan hisoblanadi. U hatto oila ham o'zining iqtisodiyotini rejalashtirish kerakligini ta'kidlaydi. U jamiyatda oilalarning ajrashuvi, ikki insonning oila qurishi, oila azolari orasidagi bir-biriga bo'lgan o'zaro hurmat va g'amxo'rlik uzoq muddatli iqtisodiyotda mamlakat

iqtisodiyotiga funksional ta'sir etishini ta'kidlagan. U o'zining 70-yillarda Chikago universitetida oila mavzusida olib borgan ko'p yillik izlanishlari natijasida jamiyatning umumiy taraqqiyotida oila iqtisodiyoti, xususan, turmush qurish, ajrashish, oila hajmini rejalashtirish, daromadlar darajasining mutanosibliigi hamda oilada bolalar tarbiyasiga sarflanadigan vaqt kabi tushunchalarni va ular orasidagi korrelyatsiyani chuqur tadqiq etgan.

8.4. Erlix modelining asosiy mazmuni.

Isaak Erlix – amerikalik mashhur iqtisodchilardan biri, 1938-yilda tug'ilgan. 2000-yilgacha Buffalodagi Nyu-York davlat universiteti Iqtisodiyot departamentiga rahbarlik qilgan. Uning asosiy faoliyat yo'nalishlari xufyona iqtisodiyot, uning kelib chiqish sabablari, jamiyatda avj olish, jinoyat va jazo o'rtasidagi korrelyatsiya, jamiyatda yuzaga chiqadigan korrupsiya va qonunlar o'rtasidagi bog'liqlik va shu kabi sohalar bo'lgan. U shuningdek, inson kapitalini jiddiy tadqiq etgan, Chikago universiteti tomonidan nashr etiladigan Inson Kapitali jurnalining asoschilaridan va asosiy moliyalashtiruvchilaridan biri hisoblanadi. Uning eng muhim asarlaridan biri "Crime, the punishment and the market for offences" ya'ni "Jinoyat, jazo va jinoyatchilik bozori" deb nomlangan bo'lib, bu asarda u shu sohaga doir "Erlix modeli" deb nom olgan nazariyani chuqur tadqiq etgan.

Erlix jinoyatchilik bozorida asosan quyidagi 5 ta faktorni alohida ajratib ko'rsatadi:

- a) 4 toifadagi ishtirokchilar
 - Tartibbuzar va jinoyatchilar
 - Jabrlanuvchi va qurbonlar
 - Noqonuniy tovarlar va xizmatlarning istemolchilar
 - Qonun ustuvorligini taminlovchilar
- b) Har bir toifa vakillarining jinoyat sodir etishdan oldingi va keyingi prognozlar (tahlillari)
- c) Aholining jinoyatchilikdan himoyalaniishi
- d) Jinoyatchilikni oldini olish uchun ijtimoiy himoya choralari
- e) Yuqoridagi faktorlarning o'zaro muvozanatga erishish uchun bir-biri tomon harakati (talab va taklif asosida)



8.4.1-rasm. Erlixning tadqiqot ob'ektlari

Erlix jamiyatda noqonuniy faoliyatlarni kelib chiqishida quyidagi ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqlikni tadqiq etgan:

1. Jinoyat qilishga shaylangan shaxsning shu faoliyatdan ko'zlagan daromadi;
2. Jazodan qochish va noqonuniy faoliyat jarayonida o'zini-o'zi himoya qilish xarajatlari;
3. Alternativ tarzda qonuniy faoliyat orqali shu sohadan olishi mumkin bo'lgan daromad;
4. Noqonuniy faoliyat davrida qo'lga tushish ehtimolligi;
5. Noqonuniy faoliyat olib bormoqchi bo'lgan shaxsning faoliyat nuqtai nazaridan bilimi va ko'nikmasi.

8.5. Iqtisodiyotning kriminallashtirishiga qarshi kurash yo'llari.

Iqtisodiy jinoyatlar - milliy iqtisodiyotga, uning tarmoqlari yoki sohalariga ziyon yetkazadigan yoki ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan va jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik). Bunday jinoyatlarning sodir etilishi natijasida

jamiyat, jamoat birlashmalari yoki ayrim fuqarolarga moddiy ziyon yetkaziladi, jamiyatning iqtisodiy negizlariga tajovuz qilinadi. Iqtisodiy jinoyatga:

- 1) o'zgaralar mulkini talon-taroj qilish;
- 2) o'zgaralar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar;
- 3) iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar;
- 4) xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash departamentiga aylantirildi. Bu O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 23-may kuni imzolangan farmonida ko'zda tutilgan. Hujjatda departament vazifalari va vakolatlarini qayta ko'rib chiqish zaruriyati budjet mablag'larini talon-taroj qilish va ulardan maqsadsiz foydalanish holatlari davom etayotgani bilan izohlanadi.

Departament Bosh prokuratura huzuridagi mustaqil ixtisoslashgan huquqni muhofaza qilish organi hisoblanadi. U iqtisodiy va korrupsion jinoyatlar, jinoiy daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish holatlari bo'yicha tezkor qidiruv faoliyatini olib borish, tergov oldi tekshiruvini o'tkazish, shuningdek ko'rsatib o'tilgan jinoyatlar natijasida yetkazilgan zararlar o'rni qoplash kabilarni amalga oshiradi.

Departament tuzilmasida Iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurash boshqarmasi, Axborot-tahlil bo'limi va Tashkiliy-nazorat bo'limi tashkil etildi. 2018 yil 1-iyuldan prezident huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Loyihalar va import shartnomalari kompleks ekspertiza markazi departamentga shubhali operatsiyalar to'g'risidagi zarur axborotlarni taqdim etishni boshlaydi. Departamentga Markaziy bank va Moliya vazirligidan bank hisoblari va yagona g'aznachilik hisobi bo'yicha davlat pul mablag'lari harakati bilan bog'liq ma'lumotlarni so'rash va olish huquqi berildi.

Quyidagilar Departamentning asosiy vazifalari etib belgilandi:

Birinchidan, iqtisodiy jinoyatlarga va korrupsiyaga, jinoiy

faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni kompleks tahlil qilish hamda qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Ikkinchidan, insofli tadbirkorlar, chet el investorlarini ular faoliyatiga davlat organlari va tashkilotlarining noqonuniy aralashuvidan himoya qilish, biznesni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi sun'iy byurokratik to'siq va g'ovlarga chek qo'yish, importni optimallashtirishga va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga ko'maklashish;

Uchinchidan, budget tizimi budgetlari mablag'larini talon-toraj qilish va ulardan maqsadsiz foydalanish, davlat xaridlarida narxlarni oshirib yuborish, davlat organlari va tashkilotlarida debitor hamda kreditor qarzdorlikning asossiz ortishi holatlarini aniqlash, yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha choralar ko'rish;

To'rtinchidan, yoqilg'i-energetika kompleksida, bank-moliya, soliq, transport, qurilish va ijtimoiy sohalarda iqtisodiy jinoyatlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

Beshinchidan, davlat manfaatlariga zid ravishda bitimlar tuzish holatlariga qarshi kurashish, chet el valyuta mablag'lari noqonuniy ravishda chiqib ketishi, olib kirilishi va olib chiqilishi, ularning noqonuniy muomalasi, "xufyona iqtisodiyot"ni shakllantirishning turli sxemalari va kanallarini aniqlash;

Oltinchidan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar narxlarini manipulyatsiya qilish, ularga bo'lgan sun'iy tanqislik va ajiotaj talabni vujudga keltirish, shuningdek, sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari va tibbiyot buyumlari aylanmasi bilan bog'liq noqonuniy harakatlarga qarshi kurashish;

Yettinchidan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining samarali ijro etilishini ta'minlash;

Sakkizinchidan, iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni

moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha chet davlatlarning vakolatli organlari, xalqaro ixtisoslashgan va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va axborot almashish;

To'qqizinchidan, iqtisodiy va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni, terrorizmni moliyalashtirishni va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishning oldini olish bo'yicha keng tushuntirish va profilaktika ishlarini amalga oshirish.

Bosh prokuratura huzuridagi Departament tomonidan 2019 yilda iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiya bo'yicha 2114 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi. Bosh prokuratura huzuridagi Departament tomonidan poraxo'rlikka qarshi kurashish borasida 445 ta jinoyat aniqlandi.

Iqtisodiy jinoyatlar, xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida: – 4019 ta huquqbuzarlik aniqlanib, 1886 ta ma'muriy va 2114 ta jinoyat ishlari qo'zg'atildi.

O'tkazilgan tadbirlar natijasida:

– 557 ta yashirin sex yuritish bilan bog'liq jinoyat ishlari qo'zg'atilib, 4,9 mlrd. so'mlik noqonuniy ishlab chiqarilgan mahsulot (xom ashyo) olib qo'yildi;

– 1884 ta sub'ektning faoliyatiga qonuniy tus berilib, 2001 ta yangi ish o'rini yaratildi;

– poraxo'rlikka qarshi kurashish borasida 445 ta jinoyatlar aniqlandi;

– 401 mlrd. so'mlik soliq va to'lovlar qo'shimcha hisoblanib, 146 mlrd. so'mi undirildi;

– valyuta sohasida 1.395 ta huquqbuzarlik aniqlandi;

– 1,8 mln. dollar miqdorida naqd chet el valyutasi va 4,1 mlrd. so'm milliy valyuta olib qo'yildi;

Tibbiyot buyumlari va dori-darmon bilan savdo qilish qoidalari hamda narxlarni belgilash tartibi buzilishini oldini olish maqsadida:

– savdo qoidalari va narxlarni belgilash bilan bog'liq 82 ta holat aniqlandi;

- 775 mln. soʻmlik tovarlar olib qoʻyildi;
- 30 ta jinoyat ishi qoʻzgʻatildi¹⁷¹.

Nazorat savollari

1. Jinoyatchilik individual ratsional tanlov sifatida.
 2. Ratsional jinoiy xatti – harakat modelining cheklanganligi.
 3. Jinoyatlarga qarshi kurashning optimal xarajatlari.
- G. Bakkerning jinoyat va jazo iqtisodiyot nazariyasi.
4. Erlix modelining asosiy mazmuni
 5. Iqtisodiyotning kriminallasishiga qarshi kurash yoʻllari.

¹⁷¹ Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari.

IX BOB. UYUSHGAN JINOYATCHILIK IQTISODIYOTI: TASHKILOT IQTISODIYOT NAZARIYASI YONDOSHUVI

9.1. Uyushgan jinoyatchilikning umumiy iqtisodiy nazariyasi

9.2.Mafiya firma sifatida

9.3.Mafiya xufyona hukumat sifatida

9.4. Mafiya jamoa sifatida

9.1. Uyushgan jinoyatchilikning umumiy iqtisodiy nazariyasi

Uyushgan jinoyatchilik - bu jinoyatchilar tomonidan noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanadigan, asosan, foyda olish maqsadida boshqariladigan yuqori darajada markazlashtirilgan korxonalarining transmilliy, milliy yoki mahalliy guruhlari toifasidir.

Jinoiy tashkilot yoki jinoiy to'dani jinoyatchilarning hamjamiyati deb atash mumkin. Yevropalik sotsiologlar mafiyani ekstra-huquqiy himoya va kvazada huquqni himoya qilishni ta'minlashga ixtisoslashgan uyushgan jinoyatchilik guruhining bir turi sifatida aniqlaydilar. Ma'lum bir tashkilotlar, shu jumladan davlat xizmatchilari, politsiya kuchlari va korporatsiyalar, o'z faoliyatini olib borish uchun ba'zan uyushgan jinoyatchilik usullaridan foydalanishlari mumkin, ammo ularning vakolatlari rasmiy ijtimoiy institutlar maqomidan kelib chiqadi.

Uyushgan jinoyatchilikni boshqa turdagi jinoyatlardan ajratish tendensiyasi mavjud. Ular:

- oq jinoyat;
- moliyaviy jinoyatlar;
- siyosiy jinoyatlar;
- harbiy jinoyatlar;
- davlat jinoyatlari;
- xiyonat.

Qonuniy biznesga yoki davlatga kirib borish noqonuniy tovarlar va xizmatlarni taqdim etishdan ko'ra ko'proq xavflidir. Tashkilotlar va hukumatlarga kirib borgan holda, uyushgan jinoiy guruhlar noqonuniy tovarlar va xizmatlarni taqdim etishda mavjud bozorni ekspluatatsiya qilish o'rniga, o'z xizmatlariga talabni yaratishga harakat qilishadi. Masalan, uyushgan jinoiy guruhlar o'z xodimlariga

va mijozlariga zarar etkazish, shikastlanishdan yoki zararlanishdan himoya qilish evaziga odamlar yoki biznesga noqonuniy "soliq solish" tizimlarini, ya'ni himoya raketalarini ishlatishi mumkin. Shu tarzda, ular monopolistik boshqaruvning biron bir shaklini olish uchun zo'raonlik va tahdidlardan foydalanadilar.

Huquqiy jihatdan uyushgan jinoyiy guruhlar jinoyiy maqsadga erishish uchun qasddan yoki oshkora tahdidlarni o'z ichiga olgan qonuniy biznes va hukumatlarga kirib borishda majburlash yoki tovlamachilikdan foydalanadilar.

O'rganishlar davomida uyushgan jinoyatchilikning beshta usullari tahlil qilingan:

- ❖ moliyaviy xizmatlar;
- ❖ Texnologiya;
- ❖ iste'mol tovarlari va chakana savdo;
- ❖ qurilish va ko'chmas mulk;
- ❖ transport va logistika

Olimlarning tahlili natijalari bo'yicha beshta asosiy natijalar qayd etildi:

- Xususiy sektorning tarmoqlari uyushgan jinoyatchilikka yordamchi yoki uyushgan jinoyatchilarning nishoniga aylanadilar.
- Qurilish va tabiiy zaxiralarda ish olib boradigan, orasida jinoyatchilikni avj olganligi aniqlangan.
- Transmilliy uyushgan jinoyatchilikning ta'siriga qarshi kurashish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlik zarur.

2006 yilda tashkil etilgan Uyushgan jinoyatchilik va korrupsiya to'g'risida xabar berish loyihasi (**Organized Crime and Corruption Reporting Project (OCCRP)**) Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Markaziy Osiyo va Markaziy Amerikada faoliyat yurituvchi tergov markazlari, ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning konsorsiumidir. **OCCRP** - uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga ixtisoslashgan yagona tergov hisobotini beradigan tashkilot hisoblanadi.

Uyushgan jinoyatchilik va korrupsiya to'g'risida xabar berish loyihasi **OCCRP** - butun dunyo bo'ylab uyushgan jinoyatchilik va korrupsiya to'g'risida xabar berishga bag'ishlangan notijorat tashkilot. U **OCCRP** tarmog'i uchun tergov hisobotlari platformasini

taqdim etadi: 30 dan ortiq mamlakatlarda joylashgan notijorat tergov markazlari, ko‘plab jurnalistlar va Yevropa, Afrika, Osiyo, Yaqin Sharq va Lotin Amerikasidagi ko‘plab yirik mintaqaviy yangiliklar tashkilotlari. **OCCRP** korrupsiyaga oid jadvallarni ochish va hokimiyatdan suiste‘mol qilinishini fosh etish orqali ko‘proq javobgarlikni oshirish uchun ishlaydi.

Agar neoinstitutsionalistlar kriminal faoliyatni bozorga joriy etsalar, bu bozorda turli darajada markazlashgan tovar ishlab chiqaruvchilar amal qilishi zarur bo‘ladi. Legal biznesda qaysidir tarmoq ishlab chiqarishini tashkil qilishning barcha mumkin bo‘lgan turlari doirasi sof raqobat (ko‘plab mayda firmalar) dan sof monopoliyaga qadar (bitta yagona yirik firma) amal qiladi. Jinoyatchilik biznesi qanday tashkil qilingan? Uyushgan jinoyatchilik iqtisodiyoti bo‘yicha mutaxassislar ushbu muammo bilan shug‘ullanadilarmi? (economics of organized crime)¹⁷².

Agar uyushgan jinoyatchilikni tashkilot iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan o‘rganilsa, uni firma bilan ham, davlat bilan ham, jamoa bilan yaqinlashtiradigan umumiy belgilarni qayd etish mumkin.

9.2. Mafiya firma sifatida

Uyushgan jinoyatchilik sivilizatsiya kabi eskidir: qaroqchilar floti va to‘dalari tarixning eng birinchi sahifalaridayoq uchraydi. Biroq taxminan bir asr avval vujudga kelgan zamonaviy uyushgan jinoyatchilik industrial davrgacha bo‘lgan jamiyatlar jinoiy tashkilotlaridan tubdan farq qiladi. Zamonaviy turdagi uyushgan jinoyatchilikning vujudga kelishi – bu jinoyatchilik olami rivojlanishining sifat jihatdan yangi bosqichidir. Zamonaviy turdagi uyushgan jinoyatchilikning vujudga kelishi – bu jinoyatchilik olami

¹⁷² Kriminologlar “uyushgan jinoyatchilik” to‘g‘risida sof jinoiy hamda xo‘jalik jinoiy guruhlariga tatbiqan gapirmoqdalar. Xorijiy kriminologiyada bu ikki hodisalar adolatli ravishda ajratiladi: jinoiy – gangster birlashmalarini (“Koza Nostra” xilidagi) “uyushgan jinoyatchilik”, xo‘jalik jinoyachilarini (“Lokxid” firmasi ishida qatnashuvchilar xilidagi) “oq yoqalilar jinoyatchiligi” (white-collar crime), deb ataladi. Uyushgan jinoyatchilikning iqtisodiy tahlili bo‘yicha yanada kompleks ma‘lumotlarni quyidagi nashrdan topish mumkin: Economics of Organized Crime. Cambridge Univ. Press, 1995.

rivojlanishining sifat jihatdan yangi bosqichidir. Agar “arxaik” to‘dalar marginallar, jamiyat autsayderlari hisoblansalar, u holda zamonaviy mafiyachilarning faoliyati asosan, qonuniy biznes asosiga quriladi, shuning uchun ham mafiya bozor xo‘jaligining uzviy muassasasi bo‘lib qoldi.

Shu bilan bog‘liq ravishda M.Veber tomonidan yaratilgan bir-biridan tubdan farq qiladigan “yashash istagi”¹⁷³ ikki konsepsiyasini eslash maqsadga muvofiq. Ilgari yaratilgan ne‘matlarni qayta taqsimlash yo‘li bilan boyish avanturistik xohishi (shu jumladan, o‘g‘irlik va talonchilik yo‘li bilan) qadimgi zamonlardan buyon turli jamiyatlarda kuzatiladi. Ammo faqat kapitalistik tuzum sharoitidagina boylikka iste‘mol ne‘matlarini ishlab chiqarish ratsional faoliyatining qonuniy natijasi sifatidagi munosabat shakllanadi. “Boylik orttirishga tashnalik” ikki turi mavjud ekan, uyushgan jinoyatchilikning ham ikki turi – an’anaviy va zamonaviy turlari amal qiladi.

An’anaviy uyushgan jinoyatchilik (misol sifatida masalan, XVII asrdagi Karib dengizi qaroqchilarini yoki XVIII asr boshlaridagi Parij o‘g‘rilarining “qirol” - mashhur Kartush to‘dasini eslash kifoya) butunlay zo‘ravonlikka asoslangan. **Zamonaviy uyushgan jinoyatchilik** asosan, “yo‘qotishlarsiz jinoyat” tarzida sodir etiladi – bu nafaqat jinoyatchilar, balki ularning xizmatidan foydalanuvchilar yutadigan faoliyatdir.

Kriminologlar uyushgan jinoyatchilikning quyidagi asosiy tavsiflarini yakdillik bilan qayd etadilar:

- a) barqarorlik va uzoq muddatlilik;
- b) foydani maksimallashtirishga intilish;
- v) o‘z faoliyatini puxta rejalashtirish;
- g) mehnat taqsimoti, turli darajadagi rahbarlar va turli kasbdagi ijrochi – mutaxassislarga tabaqalashuv;
- d) pullik sug‘urta zahiralari (“umumiy jamg‘arma”)ni yaratish bo‘lib, ulardan jinoiy tashkilot ehtiyojlari uchun foydalaniladi.

Bu barcha belgilar legal kapitalistik tadbirkorlikning o‘ziga xos

¹⁷³ Qarang: Вебер М. Развитие капиталистического мировоззрения // Вопросы экономики. 1993. № 8. С. 153, 158.

xususiyatlarini to'liq aks ettiradi¹⁷⁴. O'zining tashkiliy tarkibiga ko'ra, zamonaviy mafiya¹⁷⁵ ham asosan, oddiy firmaga (yoki moliya-sanoat guruhiga) o'xshashdir. Shunday qilib, ***zamonaviy uyushgan jinoyatchilik mohiyatan alohida biznes tarmog'i – oddiy fuqarolarning jamiyatga qarshi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mohir jinoyatchilarning iqtisodiy faoliyati*** hisoblanadi.

«Mafiya» atamasi odatda turli ma'nolarda va turli xildagi hodisalarni yoritish uchun qo'llaniladi. Iqtisodiy tahlilda ushbu atamadan asosan bitimlarni tuzishda amalga oshiriladigan xatti-harakatning alohida me'yorlari va namunalarini belgilash uchun foydalaniladi. Ya'ni, mafiya rasmiy tashkilot bo'lmasada, xatti-harakat va hukmdorlik munosabatlarining alohida xili hisoblanadi. Boshqacha aytganda, mafiya institut sifatida shaxslarga o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalardagi faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi o'yin qoidalarining yig'indisidir¹⁷⁶.

Zamonaviy uyushgan jinoyatchilikni ko'proq iqtisodiy hodisa sifatida talqin qilish hatto uyushgan jinoyatchilikning rasmiy ta'riflarida ham o'z aksini topgan. Masalan, AQSh da 1968 yildagi Jinoyatchilik ustidan nazorat to'g'risidagi qonun uyushgan jinoyatchilikni qonun tomonidan taqiqlangan tovarlarni yetkazib berish va qonun taqiqlagan xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadigan “yuqori uyushgan va intizomli uyushma a'zolarining qonunga qarshi faoliyati” sifatida tavsiflaydi¹⁷⁷. 1993 yilda esa BMT Bosh kotibi “Uyushgan jinoiy faoliyatning jamiyatga ta'siri” ma'ruzasida uyushgan jinoyatchilikni noqonuniy tovarlar va xizmatlar yetkazib berish yoki qonuniy tovar va xizmatlarni noqonuniy

¹⁷⁴ Legal va nolegal iqtisodiy tashkilotlar belgilarning o'xshashligi to'g'risida: Айдинян Р., Гишинский Я. Функциональная теория организации и организованная преступность. С. 63. См. также: Дадалко В. А., Румянцева Е. Е., Пешко Д. А. Теневая экономика и кризис власти: проблемы и пути решения. Минск, 2000. Гл. 2.

¹⁷⁵ «Mafiya» - bu ifoda Sitsiliyada tarixan vujudga kelgan va uzoq vaqt faqat Sitsiliya va Italiya-Amerika gangsterizmini belgilash uchun foydalanilgan bo'lsada, ko'pincha uyushgan jinoiy hamkorliklarni belgilash uchun umumiy tushuncha sifatida qo'llaniladi.

¹⁷⁶ Qarang: Беркинов Б.Б. Институционал иктисодиёт: ўқув қўлланма / Б.Б. Беркинов; ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тош. Давлат иктисодиёт ун-ти, Институционал ва иктисодий таджикотлар маркази. – Т.: Yangi nashr, 2011. – 70-бет.

¹⁷⁷ Никифоров А. С. Гангстеризм в США: сущность и эволюция. М., 1991. С. 127.

shaklda taqdim qilish uchun jinoyatchilarning iqtisodiy asosda birlashgan faoliyati sifatida ta'rifladi¹⁷⁸.

Nima uchun taqiqlangan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan mohir jinoyatchilar mustaqil yolg'izlarning tinch hayotiga olib bormay, balki uyushgan hamkorlikni yaratadilar?

Eng avvalo, uyushganlik jinoyatchilarga zarur bo'ladi, bunda ularning faoliyati mehnat taqsimotini talab qiladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan jinoiy faoliyat ikki tarkibiy qismdan shakllanadi:

1) *«qayta taqsimlash jinoyatchiligi» - qandaydir ishlab chiqarish (o'g'rilik, talonchilik va h.k.) bilan aloqada bo'lmagan daromadlarni qayta taqsimlashga olib boradigan jinoiy faoliyatlardir;*

2) *«unumdor jinoyatchilik» - qonun tomonidan taqiqlangan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va sotishdan daromad keltiradigan jinoiy biznesdir.*

Birinchi vaziyatda jinoiy faoliyat odatda mehnat taqsimotini (yoki u minimal bo'lsada) talab qilmaydi. Bunda ko'lam samarasi salbiy: jinoiy guruh sonining ko'payishi jinoiy xatti –harakatlar (har bir ishtirokchiga to'g'ri keladigan qazib olish miqdori) “samaradorligi”ni unchalik oshirmaydi, balki qonun himoyachilarining qo'liga tushib qolish ehtimolini kuchli oshiradi. Shu sababli bunday turdagi jinoyatchilik yo yolg'iz-jinoyatchilar tomonidan, yoki nisbatan ko'p sonli guruhlar tomonidan sodir etilib, ularning amal qilish muddati unchalik uzoq emas (ko'pincha ular boshidanoq “o'ljani yulish va qochib qolish” uchun tashkil qilinadi)¹⁷⁹.

Ikkinchi vaziyatda aksincha, jinoiy faoliyat jamoaviylikka “mahkum qilingan”: jinoiy ishlab chiqarish legal ishlab chiqarish

¹⁷⁸ Qarang: Основы борьбы с организованной преступностью / Под ред. В. С. Овчинского, В. Е. Эминова, Н. П. Яблокова. М., 1996. С. 10.

¹⁷⁹ Qaroqchilik yagona istisno hisoblanadi, kemani boshqarish va dengiz jangida yurish faqat komanda bilan, ko'p sonli komanda bilangina mumkin bo'ladi. Biroq jinoiy sohaning mazkur turida ham uyushganlik darajasi odatda, alohida komanda doirasidan tashqari chiqmadi: qaroqchilik tarixida qaroqchilar komandasi birgalikda harakat qilish uchun birlashganliklari vaziyati juda kam ma'lum.

qonuniyatlariga bo'ysunadi, ya'ni mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvini taqozo etadi. Bunda transaksion xarajatlar – jinoiy biznes ko'p sonli qatnashchilari o'rtasida barqaror munosabatlarni saqlash va ushlab turish xarajatlari muammosi vujudga keladi. «Tashkilotni shakllantirgan va qandaydir shaxsga (“tadbirkorga”) resurslarni to'g'ri yo'naltirish huquqini bergan holda ayrim bozor xarajatlarini qisqartirish mumkin bo'ladi”, deb yozadi R. Kouz¹⁸⁰. Aynan shu sababli ham jinoyatchilarni yangi, unumli jinoiy sohalarga o'tkazishda kriminal obro'ga ega bo'lgan jinoiy guruhlar boshchilari – mafiyachi firmalar shakllanib, ularning har biri turli “mutaxassislik”dagi jinoyatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish xarajatlarini kamaytiradi. Iqtisodiy faoliyat bilan band jinoyatchilar bundan tashqari, atrof ijtimoiy muhit bilan ham munosabatlarni yo'lga qo'yishlari zarur. Jinoiy faoliyat qamrovi qanchalik keng bo'lsa, raqobatlashuvchi jinoyatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari qarshi ta'sirlarini yengish shunchalik qimmatga tushadi. Shu sababli keng ko'lamli statsionar jinoiy faoliyat, bir tomondan, jinoiy to'dalar o'rtasida va boshqa tomondan, to'dalarning huquq -tartibot idoralari o'rtasida o'zaro foydali yashirin bitimlar tuzishlarini taqozo etadi.

Jinoiy tashkilotlar hamkorlik va raqobat qoidalari to'g'risida kelishgan holda ta'sir sohalarini (hududlar, faoliyat turlari) bo'lishib oladilar. Tartibot vakillari mafiyadan muntazam ravishda pul mablag'lari olib turadilar (yoki boshqa foydali xizmatlar, masalan, tashkil qilinmagan jinoyatchilikni to'xtatib turishda yordam ko'rsatish), buning evaziga esa “haddan tashqari” xizmat vazifasini namoyish etmaslik majburiyatini oladilar. Jinoiy tashkilot tuzish bir gangsterga to'g'ri keladigan kelishuv va poraga xarajatlarni kamaytiradi, shu sababli bitim ishtirokchilari soni kamayadi (to'da boshchilari uning barcha a'zolari nomidan harakat qiladilar).

Oddiy fuqarolar mafiyaning huquq - tartibot idoralari bilan yashirin bitimi to'g'risida korrupsiyani tugatishni talab qilgan holda juda hal qiluvchi muhokama qilsalarda, bunday bitim tuzish mumkin emas. Jamoatchilar noroziligini bartaraf qilish uchun uyushgan jinoiy


¹⁸⁰ Qarang: Коуз Р. Фирма, рынок и право. М, 1993. С. 39.

guruh jamiyat bilan ham, tashkil qilinmagan jinoyatchilik bilan ham yashirin bitimlar tuzishi zarur.

Odatda mafiyaning o'zi kriminal harakatlarni (qotillik, talonchilik) keltirib chiqaruvchilarni kamaytiradi¹⁸¹ va ularning tashkil qilinmagan jinoyatchilar tomonidan namoyon qilinishini to'xtatib turadi. Oddiy fuqarolar taqiqlangan va taqchil tovarlar va xizmatlarni xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning ko'plari mafiyachilar korxonalaridan ish topadilar. Tashkil qilinmagan jinoyatchilar ham jinoiy tashkilotlarning o'ziga xos "subpudratchilari" sifatida yashirin bitimlar tizimiga qo'shiladilar. Jinoiy tashkilot tomonidan nazorat qilinadigan hududda amal qilish huquqiga ega bo'lgan holda tashkil qilinmagan jinoyatchilar buning uchun "soliq" to'laydilar. "Litsenziyasiz ishlash" juda xavfli – o'z mulkchilik huquqlarini buzuvchilarni mafiya byurokratik to'siqlarsiz va me'yoridan ortiq insonparvarliksiz muhokama qiladi. Tashkil qilinmagan jinoyatchilar jinoyat xarajatlarini kamaytirish imkonini beradigan uyushgan gangsterlar "maslahatlari" dan foydalanishlari mumkin.

Mafiya tomonidan yashirin tashqi aloqalarning yo'lga qo'yilishi natijasida o'ziga xos "ijtimoiy kelishuv" muhiti yaratiladi. Yashirin bitimlar mazkur tizimining barcha ishtirokchilari qandaydir foyda (hech bo'lmasa tasavvurda) ko'radilar. "O'yin qoidasi" ga rioya qilinar ekan, uyushgan jinoyatchilik kam seziladi va ijtimoiy muammo sifatida qabul qilinmaydi.

¹⁸¹ «O'q otish va qotillik – biznes qilishning natijasiz vositasi, – shu nuqtai nazardan bayon qildi Amerika mafiyasi bossi Meyer Lanski. – Ford sotuvchilari sotuvchilardagi Shevrolni otmaydilar. Ular bir-birlariga narxlarni bo'lishga urinadilar. Biz ancha ilgari bu tamoyilni kuzatishga qaror qildik. O't ochish qurolidan va zo'rvonlikdan foydalanish kamdan-kam bo'lishi, yaxshisi esa foydalanmaslik mumkin» (Иванов Р. Ф. Мафия в США. М., 1996. С. 339). Albatta, gunohsiz gangster balandparvozliligiga tuzatishlar kiritish zarur. Biroq zo'rvonlikni qo'llash xavfi gangsterlik zo'rvonligining o'zini qo'llashni ortiqcha qilib qo'yishi shubhasiz.



9.2.1-rasm. Jinoiy tashkilot bitimlari tizimi

Shunday qilib, uyushgan jinoiy guruh jinoiy faoliyat transaksion xarajatlarini kamaytiradigan yashirin munosabatli bitimlar tizimini o'zida mujassamlashtiradi (9.2.1-rasm).

Jinoiy tashkilotning yashirin bitimlar tizimi sifatidagi modeli tabiiyki, umumlashgan abstrakt tavsif kasb etadi. Real uyushgan jinoyatchilik ushbu idealga intiladi, ammo har doim ham unga erishavermaydi. Yaponiyaning uyushgan jinoyatchiligi unga ko'proq muvofiq kelib, politsiya bilan uzviy aloqalarni ushlab turgan holda to'la oshkora harakat qiladi¹⁸².

¹⁸² «Aynan mamlakatlar ittifoqida politsiyalar va mafiyalar mazkur mamlakatdagi

9.3. Mafiya xufyona hukumat sifatida

Uyushgan jinoyatchilik uchun xos bo'lgan (Italiya mafiya "oilalari", Yaponiyada yakudza, Xitoy triadalari va b.) jinoyi tashkilotlarning faoliyati nolegal tadbirkorlikka olib kelmaydi. Ushbu barcha mafiya tashkilotlari hozirgi nolegal bozorlar (narkotiklar, "jonli tovar", qurol-yarog'lar, antikvarlar, o'g'irlangan avtomashinalar va h.k.) shakllangunga qadar ham mavjud bo'lgan: nolegal tovarlar bozorlari faqat Ikkinchi jahon urushidan keyin vujudga kelgan bo'lsa, deyarli barcha mashhur mafiya uyushmalari (Amerika "Koza Nostra" bundan mustasno) XIX asrning o'rtalaridan boshlab faol harakat qilganlar.

Jinoyi hamkorliklarning legal firmalarga aylanishi ularning yuqori darajada rivojlanishiga to'g'ri keladi. Ilgarigi bosqichlarda mafiya tashkilotlari ko'proq o'ziga xos yashirin hukumatlar sifatida rol o'ynagan. Oqibatda bu o'xshashlik belgilari sezilarli ravishda susaydi, ammo to'liq yo'qolib ketmadi. Buni isbotlash uchun reket-biznesni ko'rib chiqamiz, har qanday mafiya tashkilotining tarixi odatda undan boshlanadi.

Reket - bu jinoyi va mulkiy ziyon yetkazish xavfi bilan gangster "soliqlari"ning to'planishidir. Soliqlarni yig'gan holda jinoyi tashkilot odatda "soliq" solingan tadbirkorlarga boshqa jinoyi guruhlarning yoki individual jinoyatchilarning tajovuzlaridan himoyalashni kafolatlaydi. Barqaror to'lovlarni kafolatlash uchun reketlar o'z mijozlari o'rtasidagi mulkiy nizolar (qarz majburiyatlari, shartnomaviy kelishuvlarning ijrosi) bilan bog'liq nizoli vaziyatlarda oliy arbitr rolini o'z zimmasiga olishga intiladi.

Reketlik bilan shug'ullangan holda jinoyi tashkilot mulkchilik huquqini himoyalash – barcha kriminal unsurlardan, shu jumladan, mazkur tashkilot a'zolaridan ham himoyalash xizmatlarini sotadi.

past jinoyatchilik darajasiga nisbatan sababga tayanadi. Politsiyaning barcha kuchlari faqat mafiya bilan emas, balki tashkil qilinmagan jinoyatchilik bilan kurashga qaratilgan va mafiyaning o'zi unga mazkur kurashda yordam beradi. Mafiya "oila" lari tashkil qilinmagan jinoyatchilarga tartibsizliklar keltirib chiqarish imkonini bermaydi». (Преображенский К. Пасынки самураев // Вокруг света. 1989. № 2. С. 10, 12). Binobarin, 1990-yy. da politsiya va yakudzaning bunday "iddillistik" amal qilishi buzila boshladi.

Huquqni muhofaza qilish xizmatlari doimo ijtimoiy ne'matlar (public goods) qatoriga kirib, ularni ishlab chiqarish davlat monopoliyasida hisoblanadi. Shu sababli reket-biznesning rivojlanishini kriminal politogenez, rasmiy hukumat bilan raqobatlashuvchi yashirin erzats – hukumatlarni yaratish shakli sifatida o'rganish zarur. «...Mafiya, - deb yozadi shu masala bo'yicha mashhur Amerika iqtisodchi-kriminologi E.Enderson, - qonuniy sud tizimi o'z vakolatlarini bajarishda fiaskoga toqat qilayotgan sohalarida hukumat (qonunlarni ijro etuvchi va kriminal sud ijrochiligi) vazifasini bajaradi»¹⁸³.

“Yashirin” odil sudni tashkil qilishni o'z zimmasiga olayotgan kriminal hukumat vazifasini individual jinoyatchilar va mayda raqobatlashuvchi to'dalar kuchi bilan emas, balki faqat uzoq yillardan buyon amal qilib kelayotgan yirik tashkilotlar orqali bajariladi. Bundan tashqari, nizoli hududlar tufayli o'zaro to'qnashishlarni bartaraf qilish maqsadida turli jinoiy tashkilotlar faoliyatini muntazam muvofiqlashtirib turish zaruriyati vujudga keladi. Buning uchun yirik jinoiy “oilalar” rahbarlaridan iborat ixtisoslashgan “direktorlar kengashlari” tuzilib, ularning muntazam yig'ilishlarida kriminal faoliyatni strategik rejalashtirish va nizolarni tartibga solish amalga oshiriladi.

Ommaviy-huquqiy vazifalarni monopollashtirishdan boshlab, yirik jinoiy tashkilotlar kriminal ishlab chiqarish alohida turlarini monopollashtirishga tez o'tib ketadilar – o'ziga xos “milliylashtirish”ni amalga oshiradilar. Mohiyatan har bir jinoiy tashkilot raqobatni markazlashgan taqsimotga to'liq almashtirgan holda gangster bozor xo'jaligi o'rniga gangster buyruqbozlik iqtisodiyotini tuzishga harakat qiladilar. Ammo bu mutlaqo amalda bajarilmaydi.

Jinoiy biznesning bir tashkilot tomonidan to'liq monopollashtirilishiga, eng avvalo, kriminal ishlab chiqarish texnologiyasining o'zi to'sqinlik qiladi. Jinoiy makonlarda, legal makonlardagi singari ob'ektiv ravishda monopol to'siqlar: ko'lam samarasi, taqchil xom ashyo resurslarini egallab olish imkoniyati kabi

¹⁸³ Эндерсон Э. Организованная преступность, мафия и правительство // Экономика и организация промышленного производства. 1994. № 3. С. 161.

to'siqlar vujudga keladigan sohalargina monopollashadi. Kriminal biznesning ko'pgina sohalarida bunday to'siqlar yo'q ekan, uni qanchadir to'liq monopollashtirish mumkin emas.

Bundan tashqari, jinoiy tashkilot qanchalik yirik va kuchli bo'lsa, muqobil hokimiyat markazi (masalan, Medelinsk narkokarteli bilan aynan shunday bo'lgan) paydo bo'lishidan bezovta bo'layotgan huquq - tartibot kuchlarining kuzatish ob'ekti bo'lib qolishi ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Mazkur ob'ektiv holatlar tufayli qandaydir kriminal sohalarni "yashirin hukumat" tomonidan to'liq "milliylashtirish" amalga oshirilmaydigan ishdur¹⁸⁴. Rivojlangan uyushgan jinoyatchilik tadqiqotchilar oldida mustaqil knyazliklarga o'xshash mahalliy monopol firmalar tarmog'i sifatida turib, ular o'rtasida eskilari doirasidan tashqarida va yangi bozorlarni o'zlashtirish uchun raqobat to'xtamaydi.

9.4. Mafiya jamoa sifatida

Mafiya ichki tashkiloti yuqorida ta'kidlanganidek, oddiy firma bilan sezilarli belgilarga (mehnat taqsimoti, iyerarxiylik) ega. Legal firma bozor munosabatlarining ishtirokchisi bo'lib, o'z ichki tarkibi bo'yicha miniatyurali buyruqbozlik iqtisodiyoti hisoblanadi; shu singari jinoiy tashkilot ham boshqa tashkilotlar bilan raqobatlashadi, biroq uning ichkarisida raqobat unsurlari ongli ravishda to'ldiriladi. Ammo mafiya oilalarida oddiy firmalarda bo'lishi mumkin bo'lmagan belgilar ham mavjud: mafiyaning doiraviy qo'li xizmat ko'rsatadigan korporatsiyalar oddiy loyalligidan ancha ustun bo'ladi. Masalan, "jamiyat" uchun voz kechishga tayyorlik (masalan, hatto og'ir jazolanish xavf solib turgan vaziyatda ham politsiya bilan hamkorlikni rad qilish) jinoiy hamkorliklar a'zolari xulq-atvorining me'yori hisoblanadi, buni legal firma xodimidan kutish qiyin bo'lar edi.

¹⁸⁴ Eng yuqori monopollashgan kriminal soha kokain biznesi hisoblandi. Chunki koka barglari faqat "And uchburchagi" da o'sadi (Peru, Boliviya, Kolumbiya). Biroq bu yerda ham mutloq monopoliya emas, balki qat'iy oligopoliya kuzatiladi: 1980-yy.da Medelinsk narkokarteli kokain eksportining taxminan 80% ini, Kali narkokarteli 20% ini ta'minladi; 1990 yy. da esa aksincha, Kali – 80%, Medelinsk karteli qoldiqlari - 10-20%.

Birinchi me'yor «o'yin konstitutsiyasi» o'zaro hamkorlik maqsadlarini aniqlashga taalluqli, uni sha'n me'yori sifatida ifodalash mumkin. Mafiyaning avjiga chiqqan klassik davri (1890-1970 yillar)da Italiya janubi aholisining asosiy maqsadi o'zining foydaliligini oshirishdan emas, balki o'z sha'nini va o'z oilasining sha'nini saqlab qolishdan iborat bo'lgan. Hatto o'zini mafiya deb hisoblagan insonning o'zini nomlashi – «sha'n odami» - uning faoliyati maqsadining an'anaviy xususiyatini tasdiqlagan. Kelishuvlar nazariyasi atamasidan foydalangan holda, sha'n me'yorini an'anaviy kelishuv jumlasiga kiritish mumkin, chunki gap oilaning sha'ni va obro'si haqida, birinchi galda, er-xotinning sha'ni haqida ketayapti. Haqiqiy mafioz uchun hatto tijorat sohasidagi muvaffaqiyat ham mustaqil qadr-qimmat emas, balki sha'n belgisi sifatida ko'rib chiqiladi.

Sha'nni himoya qilish va tasdiqlashning asosiy vositasi – «hasad raqobatchiligi», erkaklar ega bo'lgan zulm o'tkazish salohiyatini doimiy ravishda taqqoslash (ta'kidlash lozimki, mafiyaning madaniy sohasi – «machizm», ya'ni erkakka sig'inish)dir. Xufyona tadbirkor zarur hollarda zulm qo'llanilishi bilan to'xtab qolmaydi, oshkora tadbirkor esa zulm o'tkazish uchun davlat monopoliyasi oqibatida erkinlikning ushbu darajasidan mahrum etilgan. Shuning uchun mafiya bilan bog'liq korxonalarining raqobat jihatdan ustunliklari raqobat natijasida emas, balki yakka (alohida) monopoliyani hosil qilish va raqobatni cheklash natijasida yuzaga keladi¹⁸⁵.

Navbatdagi me'yor – ishonch – an'anaviy xususiyatga ega, chunki u oila doirasida lokalizatsiyalashgan. Oila ichida ishonch bo'lmasa, uning boshlig'ining sha'ni tushunchasi o'z kuchini yo'qotadi. Shu nuqtai nazardan ishonch an'anaviy tarzda oila turmushining bazaviy tamoyillaridan birini aks ettiradi va uning tashqarisiga amal qilmaydi, demak, u bozor konstitutsiyasida ko'zda tutilganidek, oqilona harakatning sharti bo'lishi mumkin emas. Mafiyaning bazaviy tashkiliy birligi – sossa – 15-20 (ko'pi bilan 70-

¹⁸⁵ Qarang: Беркинов Б.Б. Институционал иқтисодиёт: ўқув қўлланма / Б.Б. Беркинов; ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тош. Давлат иқтисодиёт ун-ти, Институционал ва иқтисодий тадқиқотлар маркази. – Т.: Yangi nashr, 2011. – 71-бет.

80, kamida 7) kishidan iborat va oila-qarindoshchilik aloqalari asosida shakllanadigan guruhni o'zida namoyon etadi. Sossa faoliyati doirasiga tushgan barcha shaxslar uning a'zolari bilan do'stona munosabatlar orqali bir-biriga bog'liq.

Mafiya bilan bog'liq tadbirkorlarning raqobat jihatdan yana bir ustunligi bo'lib ishonch asosida shartnoma munosabatlarini qurish hisoblanadi – mafiya shartnoma majburiyatlari bajarilishining eng yaxshi kafolati hisoblanadi. Shuningdek, ishonch yuqori bo'lmagan sharoitda amalga oshiriladigan oshkora tovarlar bilan istalgan xufyona bitimlarga va taqiqlangan tovarlar (qurol, giyohvandlik moddalari) bilan istalgan bitimlarga ham e'tibor qaratiladi. Tovar sifatida ishonchning o'ziga xos jihatini hisobga olgan holda, mafiya uni sotishni g'ayrioddiy usul bilan – oila-qarindoshchilik, do'stona yoki mijozlik aloqalari sohasiga manfaatdor tadbirkorni aralashtirish orqali amalga oshiradi.

Bitimlar bo'yicha hamkorlarni «o'ziniki» va «begona» toifasiga bo'lish prinsipial jihatdan muhim, bu yerda gap ikkita standart, ikki xil xatti-harakat haqida boradi. «O'ziniki» doirasida sha'n va obro'ga birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali erishiladi va himoya qilinadi, munosabatlar ishonch asosida quriladi. «O'ziniki» va «begona» o'rtasida «hasadguylik raqobatchiligi» bo'lishi muqarrar, ishonch esa dushmanlik va zulmga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Xatti-harakatning ikki yoqlama standarti mantig'iga yana bir muhim me'yor – maxfiylik kiritiladi. Ushbu me'yor tashqi olam bilan, ayniqsa, davlat vakillari bilan munosabatlarda to'liq yopiqlikni belgilab beradi, uning teskari tomoni sifatida to'liq ochiqlik va oila a'zolaridan faqat haqiqatni gapirishni talab qilish ishtirok etadi¹⁸⁶.

Jinoiy tashkilot monolitligini izohlashda odatda “omert” (jim turish qonuni) ning buzilishi o'lim bilan (ko'pincha nafaqat qonunbuzarning o'zi, balki uning oila a'zolarining) jazolanishi to'g'risida gapiriladi. Biroq shafqatsiz jazolanishdan qo'rqish – nafaqat yagona, balki gangsterlarni tekislashning asosiy sharti

¹⁸⁶ Qarang: Беркинов Б.Б. Институционал иқтисодиёт: ўқув қўлланма / Б.Б. Беркинов; ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тош. Давлат иқтисодиёт ун-ти, Институционал ва иқтисодий тадқиқотлар маркази. – Т.: Yangi nashr, 2011. – 72-бет.

bo‘lishi ham mumkin. Nemis sotsiologi L.Paolining ta’kidlashicha, eng avvalo, “og‘achilik” bitimidan kelib chiqadigan “ritual tug‘ilish” munosabatlari mafiya birlashmalarining asosi sifatida chiqib, uni aloqalarni hozirdan uzibgina qolmay, balki jinoiy guruh manfaatlari uchun zaruriyat tug‘ilganda, hatto o‘z jonidan kechishga ham majbur bo‘lishini anglatadi. Bu guruh ichida mukofotlar kutmagan holda arxaik jamoalardagi munosabatlar turiga ko‘ra, alturistik o‘zaro munosabatlar hukmronligini ko‘zda tutadi. Hatto firmaga yollashni emas, balki yangi a‘zolarini qabul qilish dalolatnomasining o‘zi ko‘pincha ibtidoiy jamoalarda initsiatsion an‘analarni eslatuvchi ritual bo‘lib qoladi¹⁸⁷. Mafiyaning kichik a‘zolari kattalarning farmoyishlarini bajarishdan voz kechish huquqiga ega emas. Fiktiv tug‘ilish munosabatlari kriminal tashkilotlarga ekstraordinar mustahkamlik berib, uni tadbirkorlik firmalaridan topish mumkin emas.

Albatta, “mafiya birodarligi”, eng avvalo, to va ilk industrial jamiyatlardayoq vujudga kelgan “eski” jinoiy tashkilotlar (triadalar, yakudza, Sitsiliya mafiyasi) uchun xosdir. Jamoaviy kollektivizm ruhi oqibatida shaxsiy foydaga odatdagi intilish bilan almashtirgan holda ham ketma-ket ucha boshladi. Biroq “mafiya birodarligi” jinoiy tashkilotlarni yo‘q qilish tartibi qo‘rquvi kuchlariga samarali qarshilik ko‘rsatish bo‘lib xizmat qilar ekan, jamoaviy mentallik qonunlarga rioya qiluvchi fuqarolar oddiy olamiga qaraganda, ularda yanada mustahkamroq saqlanib qoladi.

Shunday qilib, jinoiy tashkilotlarni nafaqat kriminal firmalar, yashirin hukumat deb, balki jamoaviy turdagi jinoiy og‘aynichilik, deb ham hisoblash lozim. Hozirgi zamon dunyosida mafiya tashkilotlarining asosiy “shaxsi” firma “shaxsi” bo‘lib, yashirin hukumatlar vazifalari esa jinoiy hamdir (og‘aynichilik keyingi o‘ringa o‘tadi, ammo yo‘qolib ketmaydi).

¹⁸⁷ Masalan, Sitsiliya mafiyasiga “yangi olingan” kishi tajribali “kishi sha’ni” salomlashish so‘zidan keyin budga o‘z qonini surtadi va “Agar men qasamimni buzsam, bu muqaddas timsol kuyganidek, mening avlodim ham kuyib ketsin” degan ritual qasamni takrorlagan holda qo‘ldan-qo‘lga o‘tkazgan holda uni yoqadi. (Кальви Ф. Повседневная жизнь итальянской мафии. М., 2000. С. 44-45).

Nazorat savollari

1. Uyushgan jinoyatchilik deganda nimani tushunasiz?
2. Uyushgan jinoyatchilikning umumiy iqtisodiy nazariyasining mazmunini tushuntirib bering.
3. Uyushgan jinoyatchilikning an'anaviy shaklining qanday xususiyatlarga ega?
4. Zamonaviy uyushgan jinoyatchilikning xususiyatlari qanday?
5. Mafiya deganda nimani tushunasiz?
6. Mafiya firma sifatida qanday mazmun va xususiyatlarga ega?
7. Mafiya xufyona hukumat sifatida qanday vazifalarni bajaradi?
8. Mafiya jamoa sifatida qanday mazmunga ega?
9. Mafiya faoliyatining asosiy me'yorlarini izohlab bering.
10. Mafiya bozor munosabatlarining ishtirokchisi sifatida qanday rol o'ynaydi?

X BOB. JAHON JINOIY XO‘JALIGI

10.1. Jahon xo‘jaligining jinoiy “egizagi”

10.2. Shimol va Janubning o‘zaro munosabatlaridagi jinoiy global muammolar

10.3. Narkobiznes iqtisodiyoti va uning xususiyati

10.4. Terrorizm iqtisodiy nazariyasi

10.5. Jahon mamlakatlari rivojlanishining jinoiy global muammolari

10.1. Jahon xo‘jaligining jinoiy “egizagi”

Zamonaviy jahon xo‘jaligida deyarli hech bir mamlakat boshqa mamlakatlardan alohida rivojlana olmaydi. Har bir mamlakatning iqtisodiyoti jahon xo‘jaligining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Jahon xo‘jaligi, keng ma’noda, dunyodagi barcha milliy iqtisodiyotlarning murakkab jamlanmasi hisoblanib, unda murakkab sinergetik samaralar yuzaga keladi. Global iqtisodiy munosabatlarning ishtirokchilari bo‘lib faqatgina alohida fuqarolar, firmalar va hukumatlar emas, balki mamlakatlar ittifoqi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ham namoyon bo‘lishmoqda.

Milliy iqtisodiyotlarning jahon xo‘jaligida sekin-asta integratsiyalashuvi har bir mamlakat faravonligi nafaqat o‘z fuqarolarining iqtisodiy faoliyatidan, balki dunyoning boshqa chekkasidagi hodisalarga bog‘liqligiga olib keladi.

Iqtisodiy globallashuv u yoki bu darajada barcha mamlakatlar va xalqlarga tegishli bo‘ladigan, hamda jahon hamjamiyatining birgalikdagi harakatlari bilan hal etiladigan global muammolarni yuzaga keltiradi. Undan tashqari dunyo sivilizatsiyasining mavjudligi va uning rivoji ushbu muammolarni yechish bilan bog‘liqdir. 1970-yillarda global muammolarni o‘rganish endi boshlangan davrda eng muhim muammolar sifatida ekologik xususiyatga ega muammolar hisoblanar edi. Hozirgi kunda bu muammolar qatoriga ijtimoiy xususiyatga ega muammolar qo‘shilmoqda – quolsizlanish uchun kurash, “boy Shimol” va “kambag‘al Janub” o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, yangi axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish va boshqalar.

Ijtimoiy global muammolar orasida jinoy globalashuv¹⁸⁸ muammosi katta mojaroga sabab bo‘lmoqda. Gap shundaki, jahon xo‘jaligi rivojiga sivilizatsiyalashgan jamiyatda qabul qilingan “o‘yin qoidalari”ga rioya qilmaydigan destruktiv kuchlarning ta‘siri kuchayib bormoqda. Jinoy globalashuv muammosi faqatgina transmilliy uyushgan jinoyatchilik va xalqaro terroristik tashkilotlarga tegishli emas. U yana jinoyatchilar uslubidan foydalanib, global miqyosda noqonuniy xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi qonuniy firmalar va qonuniy hukumatlar faoliyatlarini bilan bog‘liqdir.

Jinoy globalashuv jahon xo‘jaligini ikkiga ajralishiga olib kelmoqda: bir tomoni – qonuniy, “oshkor” jarayonlar; ikkinchi tomoni – noqonuniy, yashirin jarayonlar. Qonuniy jahon xo‘jaligining deyarli barcha tarkibiy qismlari noqonuniy “egizak”ka ega bo‘lmoqda (10.1.1-jadval).

10.1.1-jadval

Zamonaviy jahon xo‘jaligining ikki yoqlama tuzilmasi

Qonuniy jahon xo‘jaligining asosiy tarkibiy qismlari	Noqonuniy jahon xo‘jaligining asosiy tarkibiy qismlari
Yakuniy iste‘mol tovarlarining xalqaro harakati	
Qonuniy tovarlarning qonuniy savdosi	Kontrabanda – noqonuniy (narkotik moddalar, qurol-yarog‘) va qonuniy (sigaret, avtomobil) tovarlar bilan noqonuniy savdo
Ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati	
Ish kuchining qonuniy migratsiyasi	Noqonuniy migratsiya, odam savdosi
Xom ashyo resurslarining qonuniy harakati (foydali qazilmalar va boshq.)	Xom ashyo resurslari kontrabandasi (neft, olmos, noyob hayvonlarning tana qismlari)
Kapitalning qonuniy harakati	Pulni xalqaro poklab olish
Axborot resurslarining qonuniy harakati (nou-xau, patentlar)	Iqtisodiy shpionaj, savdo «qaroqchiligi»

¹⁸⁸ “Jinoy globalashuv” tushunchasi yaqin vaqtlardan boshlab ishlatila boshlandi. Qarang: *Жилин Ю.* Глобализация в контексте развития современной цивилизации // Свободная мысль - XXI. 2002. № 4. С. 33.

Turli transmilliy jinoiy faoliyatlarning bir-birlari bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta’kidlash kerak. Masalan, kolumbiyalik narkokartellar faqatgina kokain¹⁸⁹ va heroin¹⁹⁰ sotuvchilari sifatida emas, balki noqonuniy qurol sotib oluvchilar va pullarni yirik “poklab oluvchilar” hisoblanishadi. Xulosa qilish mumkinki, jinoiy globallashuv jarayonida qudratli jahon jinoiy xo‘jaligi – o‘zaro bog‘liq transmilliy jinoiy faoliyat turlari tizimi vujudga keladi.

Jahon xo‘jaligining deyarli barcha institutlari yashirin xo‘jalik “egizaklar”iga ega. Masalan, agar qonuniy jahon xo‘jaligining asosiy sub’ekti bo‘lib transmilliy korporatsiyalar va mamlakat hukumatlari hisoblansa, ularning noqonuniy biznes dunyosidagi analogi bo‘lib, kelib chiqishi milliy, lekin faoliyat miqyosi bo‘yicha transmilliy xalqaro jinoiy guruhlar (italiya mafiyasi, kolumbiya narkokartellari, xitoy triadalar va boshq.) hisoblanadi. Agar qonuniy iqtisodiyotda internatsiyalashuv hududiy bloklarni (G‘arbiy Yevropada YeI, Shimoliy Amerikada NAFTA) shakllanishiga olib kelsa, noqonuniy iqtisodiyotda esa milliy jinoiy guruhlarini kooperatsiyasi natijasi Janubi-Sharqiy Osiyodagi “Oltin uchburchak” yoki Lotin Amerikasidagi “And uchburchagi” kabi uyushmalar vujudga keladi(qarang: 10.1.2-jadval).

10.1.2-jadval.

Jahon xo‘jaligi institutlarining “egizaklari”¹⁹¹

Qonuniy jahon xo‘jaligi institutlari	Jinoiy jahon xo‘jaligi institutlari
jahon xo‘jaligining asosiy sub’ekti bo‘lib transmilliy korporatsiyalar va mamlakat hukumatlari hisoblanadi	asosiy sub’ekt kelib chiqishi milliy, lekin faoliyat miqyosi bo‘yicha transmilliy xalqaro jinoiy guruhlar (italiya mafiyasi, kolumbiya narkokartellari, xitoy triadalar va boshq.) hisoblanadi
internatsiyalashuv hududiy bloklarni (G‘arbiy Yevropada YeI, Shimoliy Amerikada	milliy jinoiy guruhlarini kooperatsiyasi natijasi Janubi-Sharqiy Osiyodagi “Oltin

¹⁸⁹ kokain - koka bargidan olinadigan, og‘riqni qoldiradigan modda, alkaloid

¹⁹⁰ heroin - kuchli narkotik modda, dori

¹⁹¹ Mualliflar tomonidan tuzilgan.

NAFTA) shakllanishiga olib keldi	uchburchak” yoki Lotin Amerikasidagi “And uchburchagi” kabi uyushmalar vujudga keladi
----------------------------------	---

Transmilliy jinoiy faoliyatni ikki blokka ajratish mumkin. “Boy Shimol” (rivojlangan mamlakatlar) va “kambag‘al Janub” (rivojlanayotgan mamlakatlar) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar katta ahamiyatga egadir. Ammo shunday transmilliy jinoiy faoliyatlar mavjudki, ular asosan faqatgina rivojlangan mamlakatlar bilan bog‘liqdir.


10.2. Shimol va Janubning o‘zaro munosabatlaridagi jinoiy global muammolar

Xalqaro jinoiy faoliyatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi dunyoni “boy Shimol” va “kambag‘al Janub”ga bo‘linishining qo‘shimcha oqibatidir. Bir tomondan G‘arbning rivojlangan mamlakatlari (Shimoliy Amerika, G‘arbiy Yevropa, Yaponiya)ning yetarli darajada boy aholisi “to‘qlikka – sho‘xlik” qilib, odob-ahloqqa to‘g‘ri kelmasa ham, eng nozik iste‘mol ehtiyojlarini qondirishadi. Xippi va san‘at ahli uchun narkotiklarga, burjua oliftalari uchun san‘at buyumlariga, farzandsiz oilalar uchun yosh bolalarga talab shu mamlakatlardan chetdagi kapitalizmning jinoiy guruhlari tomonidan qondirilib kelinmoqda. Ikkinchi tomondan, chet (pereferiya)dagi kapitalizm mamlakatlari g‘arb sivilizatsiyasining ko‘pgina mahsulotlariga (nufuzli iste‘mol tovarlari, zamonaviy qurollar) ehtiyoj sezadilar, lekin ularni qonuniy bozorlarda sotib olish uchun yetarli mablag‘ga ega emaslar. Ushbu tovarlarni endi rivojlangan mamlakatlardagi jinoiy tashkilotlar taklif etadilar.

Natijada rasmiy jahon bozoriga parallel ravishda, asosan chet (pereferiya)dagi kapitalizm mamlakatlari tomonidan nazorat qilinadigan, noqonuniy jahon bozori shakllanib boradi. Noqonuniy jahon bozoriga taqiqlangan tovarlar (narkotiklar, qurol-yarog‘) kontrabandasi, va umuman qonuniy (olmos, sigareta, avtomobil), hamda qalbaki tovarlarning qonuniy savdosi va noqonuniy migratsiya kiradi.

Qurol-yarog‘ni noqonuniy sotish. 1990-yillarda yashirin qurol-yarog‘ bozorining o‘rtacha yillik aylanmasi “noqulay” (tinchlik) yillari 1-2 mlrd.AQSh dollari miqdorida, yuqori o‘sish cho‘qqisi (masalan sobiq Yugoslaviyadagi urush davrida) vaqtida 5-10 mlrd.AQSh dollari miqdorida bo‘lgan. Taqqoslash uchun aytilish lozimki, AQShdan (jahon qurol-yarog‘ bozorining yetakchisi) oddiy qurol-yarog‘ni turlarining rasmiy eksporti taxminan 10 mlrd.AQSh dollarini tashkil etadi.

Noqonuniy qurol-yarog‘ bozori ikki turga bo‘linadi: jinoiy, mafiyali (“qora”), va kvazi-jinoiy (“kul rang”). Birinchi bozorda asosan yengil qurol-yarog‘ bilan va kichik partiyalarda savdo qilinadi; katta va kuchli qurollarni (raketalar, zambaraklar va ularning o‘qlari, vertolyotlar) ulgurji savdosida asosan hukumatlarning maxsus xizmatlari yoki yirik qonuniy biznes ishtirok etadi (qarang:10.2.1-rasm).



10.2.1-rasm. Noqonuniy qurol savdosi turlari¹⁹²

Bu hol, “qora” bozorni “kul rang” bozordan xavfsizroq degan fikrga olib kelmasligi kerak, masalan, yadro materiallari kontrabandasi nihoyatda xavfli hisoblanadi.

¹⁹² Mualliflar tomonidan tuzilgan.

Noqonuniy qurol-yarog‘ning sotib oluvchisi sifatida ko‘pincha “uchinchi dunyo” davlatlari va tashkilotlari namoyon bo‘ladi, sotuvchilar esa rivojlangan mamlakatlar vakillari hisoblanadi.

Qonuniy xom ashyo resurslari kontrabandasi. Shimol va Janub o‘rtasida kontrabanda ob‘ekti bo‘lib narkotik va qurol-yarog‘dan tashqari yana “uchinchi dunyo” mamlakatlarining qimmatli tabiiy resurslari – birinchi navbatda, qazilma boyliklari (olmos, oltin, neft) namoyon bo‘ladi. Masalan, 1990-yillar oxirlarida olmos kontrabandasi jahon olmos bozorining 20 foizini tashkil etar edi (ularning taxminan 10 foizi - “qonli olmoslar” – Afrika mamlakatlaridagi urushlarda tortib olingan olmoslardir). Nomineral tabiiy resurslar bilan noqonuniy savdoga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu kontrabandaning umumiy miqyosi (qimmatli yog‘och va baliq mahsulotlari) yiliga 5-8 mlrd.AQSh dollarini tashkil etardi, yana 6-10 mlrd.AQSh dollari hajmda noyob hayvonlardan olingan xom ashyolar (fil suyagi, karkidonning burun shoxi, oq quyruq shoxlari va boshq.) tashkil etardi.

Tovar markalarini qalbakilashtirish. Hisob-kitoblar bo‘yicha mashhur, katta talabga ega tovar markalarini qalbakilashtirish jahon savdosining 8 foizini tashkil etadi – bu taxminan har yili 200 mlrd.AQSh dollarini tashkil etadi. Arzon qalbaki mahsulotlarning asosiy qismi “uchinchi dunyo” mamlakatlariga (Xitoy va boshqa Sharq mamlakatlari) to‘g‘ri kelib, ular shu faoliyat orqali jahon bozoriga chiqishning qo‘shimcha imkoniyati sifatida foydalanishadi.

Noqonuniy migratsiya. 1990-yillarda BMT tomonidan tadqiqotlar bo‘yicha noqonuniy migratsiyaning jahon tizimi orqali har yili taxminan 4 mln.kishi o‘tgan, va ushbu jinoiy biznes tashkilotchilariga 7 mlrd.dollar hajmda daromad keltirgan. “Uchinchi dunyo” mamlakatlaridan kelgan noqonuniy migrantlar rivojlangan mamlakatlarda to‘planib, juda kuchli “maxfiy birlashma”ni tashkil etadilar, va ushbu birlashmalar qonuniy xo‘jalik tizimiga juda past sur‘atlarda integratsiyalashib borishadi. AQShning migratsiya va boshqa fuqarolikka o‘tkazish xizmatining ma‘lumotlariga ko‘ra 1996 yilda ushbu mamlakatda hujjati yo‘q bo‘lgan chet el fuqarolari taxminan 5 mln.kishini tashkil etib, bu ko‘rsatkich mamlakat aholisining taxminan 2 foizni tashkil etadi. Noqonuniy


migratsiyaning alohida turi sifatida xalqaro ayollar savdosi hisoblanadi (1990-yillar oxirida ushbu savdoning hajmi yiliga 700-800 ming kishini tashkil etgan).

Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamentining ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilda jahonda xalqaro migrantlar soni 272 million kishiga yetdi. Bu esa 2010 yilga nisbatan 51 million kishiga ko'pdir. Xalqaro migrantlar butun dunyo aholisining 3,5%ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2000 yilda 2,8%ni tashkil etgan¹⁹³. Xalqaro migrantlar sonining o'sib borishiga sabab, bir tomondan rivojlanayotgan (Janub) mamlakatlaridagi ishsizlik darajasining yuqoriligi bo'lsa, ikkinchi tomondan rivojlangan (Shimol) mamlakatlarida ish kuchining yetishmasligi va malakasiz hamda kam malakali ishchi kuchlariga talabning ortib borayotganligidir. Xalqaro migrantlarning katta qismi norasmiy, noqonuniy migrantlar tashkil etadi. Buning natijasida odam savdosi ham kuchayib bormoqda.

Bu muammo O'zbekistonga ham tegishli bo'lib, migrantlar soni yildan –yilga ko'payib bormoqda. 2020 yil boshida O'zbekistonda mehnat bozorida 13,6 million kishi ish bilan band bo'lib, ulardan 5,6 million nafari rasmiy va 7,9 million nafari norasmiy sektorda, shu jumladan, 2,6 million kishi mehnat migranti sifatida faoliyat yuritmoqda. Migratsiya koeffitsiyenti taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, 7%ni tashkil qiladi. Migratsiya koeffitsiyenti O'zbekistonda jahondagi o'rtacha ko'rsatkichlardan (3,2%) va aholi jon boshiga o'rtacha darajadagi daromad to'g'ri keladigan boshqa mamlakatlardagi ko'rsatkichlardan (2,7%) ikki barobar yuqori. Vizasiz tartib, tarixiy o'zaro aloqa va rus tilini bilishi tufayli o'zbek migrantlarining katta qismi Rossiyaga to'g'ri kelmoqda¹⁹⁴ (qarang: 10.2.2-rasm).

¹⁹³ Qarang: International Organization for Migration (IOM), The UN Migration Agency. World migration report 2019. International Organization for Migration. 17 route des Morillons. P.O. Box 17.1211 Geneva 19

¹⁹⁴ Qarang: Мухитдинов Э.М. Аҳолини иш билан бандлигини таъминлашда меҳнат миграциясининг роли. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.-Т., 2019.-17-бет.



10.2.2-rasm. O‘zbekistondan “ish” safari maqsadi bilan chiqib ketgan fuqarolar soni¹⁹⁵.

¹⁹⁵ Мехнат мигрантлари ва тенденциялар //https:// uzanalytics.com iqtisodi%D0%B5t/ graphics /4423/

Ish topish maqsadidagi migratsiya geografiyasi so‘nggi 5 yilda o‘zgarib boshladi hamda AQSh, Turkiya, Isroil, Janubiy Koreya, BAA va Qozog‘istonga ishchilar oqimi tobora o‘shib borayotgani kuzatilmoqda. Qariyb 95 foiz pul o‘tkazmalari mehnat migratsiyasining “ajoyib yettilik”ka kiruvchi mamlakatlardan jo‘natilgan (qarang: 10.2.1-jadval). Ish topish maqsadida Rossiyaga ketayotgan o‘zbekistonliklar soni yiliga 850 ming – 1 million kishi bo‘lib turgan paytda boshqa mamlakatlarga ketayotgan mehnat migrantlari oqimi tobora oshib bormoqda. 2018 yilda Rossiyadan yuborilgan pul 2 foiz kamaygan bo‘lsa, qolgan mamlakatlardan jo‘natilgan o‘tkazmalar ulushi ortdi.

10.2.1-jadval
O‘zbekistonga jismoniy shaxslarning trans chegaraviy pul
o‘tkazmalari (2016-2018 y.), mln.AQSh dollari¹⁹⁶

JAMI	2016		2017		2018	
	3780,7	100%	4896,6	100%	5114,1	100%
Rossiya	2998	79.3%	3907,3	79,8%	3963,1	77,5%
Qozog‘iston	248,9	6.6%	317,9	6,5%	320	6,3%
AQSh	150	4.0%	162,5	3,3%	203,8	4,0%
Turkiya	98,4	2.6%	150,1	3,1%	188,4	3,7%
Koreya Respublikasi	49,9	1.3%	64,4	1,3%	108,3	2,1%
BAA	34,1	0.9%	353	0,7%	54,5	1,1%
Isroil	20,7	0.5%	2,4	0,7%	34,2	0,7%
Boshqa mamlakatlar	180,7	4.8%	227	4,6%	241,8	4,6%

Rossiyadan O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari dinamikasi alohida e‘tiborga loyiq. Ushbu o‘tkazmalarining umumiy miqdori Rossiya fuqarolari va norezidentlar – O‘zbekiston fuqarolari jo‘natgan mablag‘lardan iborat. Pulning aksariyat qismini O‘zbekiston fuqarolari (norezidentlar) jo‘natgani yuqoridagi grafikdan ham ko‘rinib turibdi. O‘tgan 10 yillik dinamikaning ko‘rsatishicha, 2009 yildan 2013 yilgacha pul o‘tkazmalari miqdori barqaror o‘shib, yiliga

¹⁹⁶ O‘sha yerda

6,69 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Lekin undan keyingi 3 yil ichida bu ko'rsatkich 2,74 milliard dollargacha kamaydi. Bunga Rossiyada yuz bergan iqtisodiy inqiroz va 2014 yilda rublning keskin qadrsizlanishi sabab bo'ldi. 2016 yildan boshlab 2018 yil oxirigacha Rossiyadan O'zbekistonga yuborilgan pul o'tkazmalari miqdori atigi 4 milliard dollarga yetdi¹⁹⁷.

Endilikda, xalqaro migrantlarning huquqlarini himoya qilish va migratsion jarayonlarni samarali, oqilona va barqaror boshqarish vositalarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Narkobiznes. Taqiqlangan narkotik moddalar jahon bozori sayyoramizdagi eng katta bozorga aylanib, jahon neft bozori bilan tenglashish darajasigacha bordi. Ekspertlarning baholashlari ko'ra narkotik moddalari aylanmasi jahon savdo aylanmasining 8 foizini tashkil etadi. Xalqaro narkobiznesning ishtirokchilari bo'lib transmilliy mafiya uyushmalari namoyon bo'ladi: Kolumbiya va Meksika narkokartellari "And uchburchagi"dan Shimoliy Amerikaga kokain va heroin eksportini nazorat qilishadi, Xitoy triadalarini "Oltin uchburchakdan" heroin eksportini tashkillashtiradi, turk, italyan va alban mafiyalari "Oltin yarimoy"dan heroin eksportini amalga oshiradilar.

10.3. Narkobiznes iqtisodiyoti va uning xususiyati

Narkobiznes-(inglizcha)-giyohvandlik biznesi jinoiy biznesning eng xavfli turlaridan biri bo'lib, milliy va xalqaro huquq normalarida taqiqlangan harakatlar majmui: giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoki sotish.


Narkotik moddalarning noqonuniy savdosi – bu giyohvand moddalarni taqiqlash qonunlariga muvofiq dorilarni yetishtirish, ishlab chiqarish, tarqatish va sotishga bag'ishlangan global qora bozor.

Heroin tobora ko'proq Afg'onistondan sharqiy va janubiy Afrika mamlakatlari orqali Yevropa va Amerikaga olib o'tilmoqda. Ushbu yo'l "janubiy yo'nalish" yoki "smek trek" deb nomlanadi. Ushbu

¹⁹⁷ Мехнат мигрантлари ва тенденциялар //https://uzanalytics.com iqtisodi%D0%B5t/graphics/4423/

savdoga qarshi vositalar geroindan foydalanishning kuchayishi va Afrika vositachilari o'rtasida siyosiy korrupsiyani o'z ichiga oladi. Afg'oniston dunyoda giyohvand moddalarni ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi yetakchi mamlakatdir. U global afyun ishlab chiqarishining 90% dan ortig'ini tashkil qiladi. (Afyun 50 mamlakatda noqonuniy ishlab chiqariladi.) Afg'oniston geroini Yevropa, Rossiya, O'rta Osiyo, Eron va Pokistonni narkotik bozoriga kirib keldi. U Xitoy va Hindistonga kelishni boshladi, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari, AQSh, Kanada va Yaponiyada tez sur'atlar bilan bozorni egallamoqda.

Xavfsizlikka ko'maklashish xalqaro kuchlari (ISAF) faoliyat ko'rsatgan davrda (ISAF lar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining 2001 yil 20 dekabrda 1386-sonli rezolyutsiyasiga muvofiq tuzilgan. Ularning faoliyati 2014 yil 14 dekabrda to'xtatilgan) Afg'onistonda giyohvand moddalar ishlab chiqarish 40 barobardan ko'proq oshdi. Prekursorlarning sanoat zaxiralari (sirka anhidrid) (2008 yilga qadar prekursorlar Afg'onistonga deyarli to'sinlik qilmagan). Mamlakatda opiydan geroin ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan kimyoviy moddalar yo'lga qo'yilgan. G'arb manbalariga ko'ra, Afg'oniston hududida 500 ga yaqin dori laboratoriyalari ishlaydi.



10.3.1-rasm. Narkotrafik asosiy yo'nalishlari¹⁹⁸.

¹⁹⁸ metakvalon – xinazolinonlar sinfiga mansub uyqu keltiradigan dori. Ba'zi mamlakatlarda foydalanish ta'qiqlangan

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda afyun ko'knori Afg'onistonda 183 ming gektar maydonda, 2016 yilda - 201 ming ga, 2017 yilda -328 ming gektar maydonda etishtirilgan. Umuman olganda, dunyoda etishtirilayotgan afyunning uchdan ikki qismi Afg'oniston hissasiga to'g'ri keladi. 2015 yilda afyun ishlab chiqarish 3300 tonnani, 2016 yilda 4800 tonnani, 2017 yilda UNODCning Afg'onistondagi giyohvandlik holati monitoringi boshlanganidan beri (1994 yildan beri) eng yuqori rekord 9 ming tonnadan ortiq afyun ishlab chiqarildi. Taqqoslash uchun, AQSh armiyasi 2001 yil oktyabr oyida Afg'onistonda operatsiyalarni boshlagan paytda, afyun ishlab chiqarish 180 tonnadan oshmagan.

2017 yilda afyun ko'knori yetishtirishning ko'payishi deyarli barcha viloyatlarda kuzatildi. Afyun ko'knori yetishtirishning asosiy yo'nalishlari Xelmond (ushbu viloyatdagi barcha haydaladigan yerlarning uchdan bir qismi), Qandahor, Badgis, Faryab, Uruzgan, Nan-Garhar, Farah, Balx, Nimroz, Badaxshon. Umuman olganda, o'tgan yillar bilan taqqoslaganda, afyun ko'knori yetishtiriladigan viloyatlar soni 24 taga etdi. UNODC ma'lumotlariga ko'ra, afyun ko'knori yetishtiriladigan maydonlarning 85 foizigacha toliblarga qarashli hududlardir.

Pestitsidlar va quyosh panellaridan keng foydalanish ko'knor yetishtirishni arzonlashtirdi. Ilgari, dehqonlar chuqur quduqlardan suvni tortib olish uchun generatorlardan foydalanish uchun dizel yoki benzin olishga pullari bo'lmaganida, o'simliklar faqat daryolardan sug'orish imkoniyati bo'lgan joylarda o'stirilar edi. Endi arzon quyosh energiyasi bu muammoni hal qilishga yordam beradi, bu sizga deyarli hamma joyda hashhas (gashish) yetishtirishga imkon beradi. Quyosh batareyalari katta hajmdagi avtoulavlarni talab qiladi, ammo generatorlar bilan solishtirganda kamroq xarajatlarga ega. Natijada, so'nggi yillarda, har gektar afyun gashishning o'rtacha hosildorligi oshmoqda. Shunday qilib, 2017 yilda u 27,3 kg ni tashkil etdi. Taqqoslash uchun: 2016 yilda - har gektariga 23,8 kg, 2015 yilda - har gektariga 18,3 kg. Hosildorlikning eng katta o'sishi Janubiy mintaqada - 2016 yildagi 22 kg dan 26,2 kg gacha - 2017 yilda (19% ga), shimoli-sharqiy mintaqada mos ravishda 31,2 dan 35,6 kg gacha

(14% ga) o'sdi, Sharqda - har gektarga 32,4 dan 34,9 kg gacha (8%). An'anaviy ravishda afyun yetishtirishda (57%) janubiy mintaqa yetakchi o'rinni egallaydi.

Osiyoda giyohvand moddalar an'anaviy ravishda Janubi-Sharqiy Osiyo va Janubiy Xitoyning asosiy karvon yo'llari - Tailand, Eron va Pokistonning afyun ishlab chiqaruvchi sobiq mamlakatlarini o'z ichiga olgan. Ushbu dorilarning asosiy manbalari Afg'oniston va "Oltin yarim oy" ni tashkil qilgan davlatlardir. Ushbu ishlab chiqaruvchilardan giyohvand moddalar G'arbiy va O'rta Osiyoga Yevropa va Qo'shma Shtatlardagi manzillariga kontrabanda qilinadi.

Bolqon va shimoliy yo'nalishlar Afg'onistonni Rossiya Federatsiyasi va G'arbiy Yevropaning ulkan bozorlari bilan bog'laydigan heroin kontrabandasining asosiy yo'laklari hisoblanadi. Balkan yo'li Eron Islom Respublikasi (ko'pincha Pokiston orqali), Turkiya, Gretsiya va Bolgariyadan janubi-sharqiy Yevropa orqali G'arbiy Yevropa bozoriga o'tadi, yillik bozor qiymati 20 milliard dollarni tashkil etadi. Shimoliy yo'nalish asosan Tojikiston va Qirg'iziston (yoki O'zbekiston yoki Turkmaniston) orqali Qozog'iston va Rossiya Federatsiyasiga o'tadi. Ushbu bozorning hajmi yiliga jami 13 milliard dollarga baholanmoqda.

Kokain marshrutining asoschisi - Medellin Kartel rahbari Pablo Eskobar. U 1993 yilda o'ldirilgan, ammo hozirgi kunga qadar Kolumbiya dunyodagi eng katta kokain ishlab chiqaruvchisi bo'lib qolmoqda, ikkinchi va uchinchi o'rinlarda Peru va Boliviya. Taqqoslash uchun, 2008 yilda Kolumbiya 430 tonna kokain ishlab chiqargan, Peru 302 tonna va Boliviya 113 tonna. Kolumbiyada mahalliy FARC marksistik qo'zg'olonchilari kokain ishlab chiqarish va eksport qilishda ayblandilar. Ko'pincha kokain AQShga ketadi, ammo uning katta qismi (taxminan 40%) Yevropaga ketadi. Dastlab, kokain Yevropaga Karib dengizi orqali Ispaniya portlariga kirib bordi, ammo Yevropaga integratsiyalashuv natijasida giyohvand moddalar savdosi G'arbiy Afrikadan (Gambiya, Liberiya, Gvineya-Bisau) o'tib keta boshladi. Yiliga 50 tonna bo'lgan Yevropaga eksport qilinadigan kokainning to'rt dan bir qismi Afrika orqali o'tadi.

Shimoliy Amerika bozori uchun kokain odatda Kolumbiyadan Meksika yoki Markaziy Amerikaga dengiz orqali, so'ngra quruqlik orqali

AQSh va Kanadaga yetkazib beriladi. Meksikadagi giyohvand moddalar savdosi har yili 40 milliard dollar budjetga ega. Meksikalik dorilarning quyidagi kartellari ma'lum: Sinaloa karteli (ispancha Sinaloa), Tijuana karteli (ispancha Cártel de Tijuana), Los Setas (Los Zetas), Golfo karteli (Cártel del Golfo), Juarez Kartel kartasi, Templar karteli va boshqalar. Kokain tranzitining yana bir muhim bo'g'ini Venesuela bo'lib, u yerdan narkotiklar AQShga ham, Yevropaga ham kiradi.

Kokain Yevropaga asosan dengiz orqali, ko'pincha konteyner orqali yuboriladi. Kolumbiya Yevropada topilgan kokainning asosiy manbai bo'lib qolmoqda, ammo Peru va Boliviyaning Plurinatsion Shtatidan to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish Amerika Qo'shma Shtatlari bozoriga qaraganda ancha keng tarqalgan.

Giyohvand moddalarni noqonuniy iste'mol qilish Amerika jamiyatiga sog'liqni saqlash, ish joyining unumdorligi, huquqni muhofaza qilish va sud xarajatlari uchun yiliga 181 milliard dollarga tushadi. Qamoqxonalarda giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatchilar bilan to'lib toshgan, chunki 2012 yilda 330 ming mahbus giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatlar uchun qamalgan. 2013 yildagi barcha jinoyatlarning 30 foizdan ortig'i giyohvand moddalar savdosi bilan bog'liq bo'lgan va 2013 moliya yilida Amerika Qo'shma Shtatlarining Jazoni ijro etish komissiyasiga 22 225 ta holat qayd etilgan.

AQShda eng ko'p sotiladigan oltita asosiy dori mavjud. 2013 yilda giyohvand moddalarni noqonuniy aylanishiga oid har bir narkotikka nisbatan jinoyatlar darajasi quyidagicha bo'lgan:

- Metamfetamin: 24 foiz
- Tozalangan kokain: 24,1 foiz
- Marixuana: 21,5 foiz
- Kokainni maydalash: 13,1 foiz
- Geroin: 9,8 foiz
- Oksikodon: 4,6 foiz
- Boshqa dorilar: 3 foiz

2017 yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida opioidning haddan tashqari dozasidan 47000 dan ortiq o'lim qayd etildi, bu o'tgan yilga nisbatan 13% ga ko'paygan, shuningdek Kanadadagi opioidlardan 4000 ta o'lim. bu 2016 yildan beri 33 foizga o'sishni anglatadi.

Fentanil va uning analoglari Shimoliy Amerikadagi sintetik opioid inqirozida hal qiluvchi muammo bo'lib qolmoqda, G'arbiy, Markaziy va Shimoliy Afrikada yana bir sintetik opioid tramadol uchun inqiroz mavjud. Tramadolning global tutilishi 2010 yildagi 10 kg dan 2013 yilda 9 tonnagacha ko'tarilib, 2017 yilda rekord darajadagi 125 tonnaga etdi. Nasha dunyoda eng ko'p ishlatiladigan dori bo'lib qolmoqda - 2017 yilda uni 188 millionga yaqin odam ishlatgan.

Dunyo bo'yicha noqonuniy kokain ishlab chiqarish 2017 yilda rekord darajadagi 1,976 tonnani tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 25 foizga ko'pdir. Shu bilan birga, 2017 yilda musodara qilingan global kokain miqdori 13 foizga oshib, 1,275 tonnani tashkil etdi, bu eng yuqori qayd etilgan ko'rsatkich. Taxminan 271 million kishi, ya'ni 15-64 yoshdagi dunyo aholisining 5,5 foizi 2017 yilda giyohvand moddalarni iste'mol qilishgan. Garchi bu raqamlar 2016 yilgi taxminlarga yaqin bo'lsa-da, uzoq muddatli tahlil shuni ko'rsatadiki, giyohvand moddalarni iste'mol qiladigan odamlar soni 2009 yildagiga qaraganda 30 foizga ko'pdir. Ushbu o'sish qisman 15-64 yoshdagi aholining 10 foizga ko'payishi bilan bog'liq bo'lsa-da, hozirgi ma'lumot Afrika, Osiyo, Yevropa va Shimoliy Amerikada opioidning, shuningdek, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika va Osiyoda nasha iste'mol qilishning yuqori darajada tarqalishini ko'rsatmoqda.

2013 yilda giyohvand moddalar savdosi bilan shug'ullanuvchilar asosan erkaklar edi, ularning o'rtacha yoshi 35 yoshni tashkil etgan 85,8 foiz; 73,7 foizi AQSh fuqarolari bo'lib, deyarli yarmi (49,5 foiz) avvalgi jinoiy tarixga ega emaslar. 2013 yilda hibsga olingan giyohvand moddalar savdosi bilan bog'liq jinoyatchilarning aksariyati ispanlar bo'lib, 47,9 foizni tashkil qilgan, 26,7 foizi qora, 22,3 foizi oq va 3,1 foizi boshqa irqlardir. 2013 yilda giyohvand moddalar savdosi bilan shug'ullangan jinoyatchilarning deyarli barchasi 96,3 foiz qamoqqa tashlangan, o'rtacha jazo muddati 72 oy. Giyohvand moddalar kontrabandasi turiga qarab hukmlar turlicha bo'lib, kokain va metaning yorilishi uchun eng katta jazo va mariyuana bilan bog'liq jinoyatlar uchun eng engil jazolar belgilangan.

2018 yil noqonuniy giyohvand moddalarni sarflash: "Hisob-

kitoblarga ko'ra, geroin uchun 100 milliarddan 110 milliard dollarga, kokain uchun 110 milliarddan 130 milliard dollarga, ko'knori uchun 75 milliard dollarga va sintetik dorilar uchun 60 milliard dollarga baholansa, giyohvand moddalar sanoatining umumiy noqonuniy ishlab chiqarish hajmi taxminan 360 milliard dollarni tashkil qiladi.

Geroinning narxi pasayishda davom etmoqda. Geroinning "baggie" (yoki bitta ishlatiladigan dozasi) odatda 5 dan 20 dollargacha turadi. 2016 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) AQShda geroinning o'rtacha narxi 1 gramm uchun 152 dollarni tashkil etganini bildirgan. Dunyo bo'yicha giyohvand moddalar to'g'risidagi hisobotga ko'ra, AQShda kokainning narxi bir gramm uchun 25 dan 200 dollargacha turadi, odatdagi narxlar esa bir gramm uchun 112 dollarni tashkil etadi. 2016 yilda o'rtacha narx taxminan 93 dollarni tashkil etgan.

Giyohvand moddalarga moyil bo'lgan odamlar kuniga 10-15 paket sotib olishni bildirgan. Ushbu foydalanish modeliga amal qilgan holda, kishi ko'cha narxiga qarab haftasiga \$ 438 dan \$ 1750 gacha va geroin uchun \$ 22,810 - \$ 91,250 orasida sarflaydi.

2019 yilgi Jahon giyohvandliklari to'g'risidagi hisobot: Dunyo bo'ylab 35 million kishi giyohvand moddalar bilan bog'liq kasalliklardan aziyat chekmoqda, ammo 7 kishidan faqat bittasi davolanadi. Hisobotga ko'ra, opioid iste'molchilari soni 53 millionga baholanmoqda - bu oldingi taxminlarga qaraganda 56 foizga ko'p. Giyohvand moddalarni iste'mol qilgan 585 ming odamning uchdan ikki qismi 2017 yilda giyohvand moddalarni iste'mol qilish natijasida vafot etdi. Shuningdek, 2017 yilda dunyo bo'ylab 11 million kishi giyohvand moddalarni in'eksiyalashgan, ulardan 1,4 million kishi OIV bilan kasallangan va 5,6 million kishi gepatit C bilan yashagan (qarang: 10.3.1-jadval).

10.3.1-jadval

Narkotik moddalar noqonuniy savdosining asosiy ko'rsatkichlari¹⁹⁹

Noqonuniy giyohvand moddalar ishlab chiqarish hajmlari	35 mln. kishi giyohvandlik kasalliklaridan aziyat chekadi
Heroin - 100 -110 mlrd. dollar	7 kishidan faqat bittasi davolanadi
Kokain - 110-130 mlrd. dollar	Opium iste'molchilari soni 53 mlnga baholanmoqda-bu oldingi taxminlarga qaraganda 56%ga ko'p
Ko'knori - 75 mlrd. dollar	Giyohvand 585 ming kishining uchdan ikki qismi 2017 yilda vafot etdi
Sintetik dorilar 60 mlrd. dollarga baholangan	
Giyohvand moddalar sanoatining umumiy noqonuniy ishlab chiqarish hajmi taxminan 360 mlrd. dollarni tashkil etadi	11 mln. giyohvandlardan 1,4 mln. nafari OIV bilan 5,6 mln nafari gepatit S bilan kasallangan

10.4. Terrorizm iqtisodiy nazariyasi va uning oqibatlari

Terrorizm (lot. terror - qo'rqinch, dahshat) - siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo'qotish yoki qo'rqitish, aholi o'rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadidagi zo'rvonlik harakatlari (ta'qib qilish, buzish, garovga olish, qotillik, portlatish va boshqalar). Terrorizm yakka tartibdagi va guruhli terrorizm (mas., ekstremistik siyosiy to'dalarning harakatlari kabi) toifalarga bo'linadi. Siyosatshunoslikda davlat terrorizmi tushunchasi ham qo'llanadi (diktatorlik va totalitar rejimlarning repressiyalari). Terrorizm o'rta asrlardan boshlab barcha mintaqa va mamlakatlarda uchrab turgan.

¹⁹⁹ Mualliflar tomonidan tuzilgan

Lekin o'tgan asrning oxirlaridan uning yangi ko'rinishlari vujudga keldi (chet el davlatlari va hukumatlari rahbarlarini, ularning diplomatik vakillarini o'ldirish yoki o'g'irlash, elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlarning binolarini portlatish, aeroportlar va vokzallarda portlashlar sodir etish, havo kemalarini olib qochish, odamlarni garovga olish va h.k.). Xalqaro terrorizm keng tarqalib, terrorizm oshkora siyosiy tus ola boshladi. Terrorchilar ayrim mamlakatlar hukumati va unga yaqin tuzilmalardan madad oladigan hollar yuzaga keldi. Ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi ortdi. Terrorchilar qo'lga yadroviy, kimyoviy, biologik qurol tushib qolishi xavfi kuchaydi, elektron terrorchilik paydo bo'ldi. Ko'p hollarda terrorizm diniy ekstremizm, narkobiznes, separatizm bilan bog'likligi, chatishib ketishi kuzatila boshlandi.

Xalqaro terrorizm - bir davlat hududi doirasidan tashqariga chiqadigan terrorizm; odamlarning behuda halok bo'lishiga olib keluvchi, davlatlar va ular rasmiy vakillarining normal diplomatik faoliyatini buzuvchi, hamda xalqaro aloqalar va uchrashuvlarni, shuningdek, davlatlar o'rtasida transport va boshqa aloqalarni amalga oshirishni qiyinlashtiruvchi xalqaro miqyosdagi ijtimoiy xavfli harakat va qilmishlar yig'indisi. Xalqaro terrorizm XX-asrning 60-70-yillariga kelib o'zini yaqqol namoyon qildi: dastlab turli davlatlardagi jinoyatchilar, o'z davlatiga nisbatan ekstremistik ruhdagi guruhlar birlashib, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan orqada qolayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarda harakat ko'rsata boshladi.

Xalqaro terrorchilar ayrim davlatlarning rahbarlariga, xalqaro miqyosda obro'ga ega bo'lgan siyosatchilarga chetdan turib suiqasd uyushtirish, davlat, transport, aloqa va milliy xavfsizlik tizimini ishdan chiqaruvchi portlashlar va harakatlar sodir etish, transport vositalari, jumladan, samolyotlarni olib qochish bilan shug'ullana boshladilar. 80-yillarga kelib Xalqaro terrorizm yanada jiddiy tus oldi. Begunoh, tinch aholi o'rtasida ko'pdan-ko'p qurbonlar bo'lishi, xalqaro terrorchilarning boshqa yovuzliklari jahon jamoatchiligini qatgiq tashvishlantirib qo'ydi. 1978 y. kuchli "ettilik" davlatlari rahbarlarining Bonn (GFR) shahridagi uchrashuvida Xalqaro

terrorizmga qarshi kurash to'g'risida bayonot qabul qilindi. Xalqaro terrorizmning oshib borayotgan xavfi va unga qarshi kurash masalalari oliy darajadagi keyingi barcha uchrashuvlarning asosiy mavzui bo'lib qoldi. Chunki xalqaro terrorchilar bir tizimga birlashib, baynalmilallashdi. Ular safida turli davlat, millat vakillari, diniy ekstremistik ruhsagi shaxslar, narkobiznes va qurol-yarog' savdosidan foyda ko'ruvchi jinoiy to'dalar, yollanib xizmat qiluvchilar paydo bo'ldi. Xalqaro terrorchilik va ekstremizm markazlarida razil jinoyatchilarni tayyorlaydigan maxsus lagerlar ochildi. Xalqaro terrorchilar aholini, xususan, dindorlar va yoshlarni davlatga, davlat tashkilotlariga qarshi qo'yishga hamda hokimiyatga qarshi muholifatni shakllantirishga harakat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab terrorizm va ekstremizmning har kandy ko'rinishiga qarshi qat'iyat bilan kurashib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi ko'plab xalqaro bitimlarning, chunonchi, Xalqaro terrorizm ko'rinishlariga qarshi kurashga qaratilgan bitimlarning, jumladan, havo kemalarini qonunga xilof ravishda egallab olishga qarshi kurash to'g'risidagi 1970 y.gi Gaaga konvensiyasining, Fuqaro aviatsiyasining xavfsizligiga qarshi qaratilgan qonunga xilof harakatlarga qarshi kurash to'g'risidagi 1971 y.gi Monreal konvensiyasining, Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, jumladan, diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlarning oldini olish va jazolash to'g'risidagi 1973 y.gi konvensiyaning, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi va boshqa konvensiyalarning ishtirokchisi. 2004 y. 1 yanvardan Toshkentda Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasi faoliyat ko'rsata boshladi.

O'zbekiston Respublikasida "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" maxsus qonun qabul qilindi (2000 y. 15 dek.). Ushbu qonunda terrorizm - siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa ob'ektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni bironbir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro

munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining JKda javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar deb ta'riflanadi. Qonunda davlat organlarining Terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari, terrorchilikka qarshi operatsiyaning o'tkazilishi, terrorchilik harakati oqibatida yetkazilgan zararni qoplash va jabrlangan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiyasi kabi masalalar huquqiy asoslab berilgan. O'zbekiston Respublikasining JKga ko'ra, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etish, bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalar va resurslar berish yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan harakat 8 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Terrorchilik harakati odam o'lishiga, boshqa og'ir oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lsa, 15 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki mamlakatdan chiqarib yuborish jazosi belgilanadi.

G'arb madaniyatidagi «irhob-terrorizm» tushunchasining ma'nosi haqida Qohira Dorulfununi o'qituvchisi doktor Yahyo Abdulmubdiy shunday deydi: «Irhob» so'zi ingliz tilida «terror» so'ziga «ism» qo'shimchasini qo'shish bilan (terrorism) «qo'rquv», «dahshat» ma'nolarini ifodalaydi. Agar «terrorize» fe'li shaklida iste'mol qilinsa «qo'rqitdi», «dahshatga soldi» ma'nolarini bildiradi

«Terrorism» istilohi ilk bor G'arb madaniyatida jumhuriyatchi Yakobinchilar davrida, tarixiy Fransiya burjua inqilobi ushbu inqilobga qarshilik ko'rsatgan burjua tarafdorlari bilan qirol tarafdorlari o'rtasidagi ittifoqqa qarshi qo'llagan kuch ishlatish siyosati uchun iste'mol qilingan. «Reign of Terror» deb nomlangan bu terrorchilik oqibatida 300 000 (uch yuz ming)dan ortiq shubhali odam qamaldi, 17 000 (o'n yetti ming) kishi qatl etildi va minglab begunoh kishilar qamoqxonalarda tergovsiz, mahkamasiz o'lib ketdi.

Ba'zilar «terrorchilik» istilohi tarixning bundan-da qadimroq davrlarida ham iste'mol qilinganini taxmin qilishadi. Ularning fikricha, terrorchilik bashariyat tarixining har bir davrida jahonning barcha

davlatlarida bo'lgan va bo'lib kelmoqda. Yunonlik tarixchi Ksenofon (Xenophon – meloddan avval (m.a.) 430-349 yy.) G'arb madaniyati haqida so'z yuritarkan, ruhiy ta'sirlarning urushga, terrorchilikning esa xalqlarga o'tkazadigan ta'siri haqida to'xtalib o'tadi.

Tiberius (Tiberius – 14-37 yy.) va Kaligula (Caligula – 37-41 yy.) singari ba'zi Rim hukmdorlari o'z saltanatlariga qarshi bo'lganlarni bo'ysundirish uchun zo'ravonlik, mol-mulklarni musodara qilish va o'lim jazosini qo'llar edilar. Germaniyada Adolf Gitler tuzgan fashistlar hukumati, Sovet Ittifoqida Iosif Stalin boshliq kommunistlar hukumati kabi ba'zi hukumatlar terrorchilikni o'z siyosiy rejalarining ajralmas bir bo'lagi deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham, iqtisodiy, siyosiy va madaniy manfaatlarni ro'yobga chiqarish uchun g'oyaviy-ideologik pardalar ortida davlat terrorchiligini amalga oshirganlar.

Jahonda yuzlab terrorchilik uyushmalari mavjud. Ular ichida eng ko'zga ko'ringanlari: Germaniyadagi «Bader maynxuf», Italiyadagi «Qizil gvardiya», Yaponiyadagi «Qizil Armiya», Irlandiyadagi «Respublikachilar Armiyasi», Perudagi «Nurli tuproq» va Bask orolidagi «ETA» uyushmasi. «ETA» – g'arbliklarning aytishicha, yigirmanchi asr tarixidagi eng mashhur terrorchilik uyushmasi hisoblanadi. Amerika Qo'shma Shtatlari ham qora tanlilarni va o'zgacha fikrlovchilarni yo'q qilish bilan dong taratgan «Kukluksklan» tashkiloti kabi jahondagi yuzlab terrorchilik uyushmalariga in bo'lib kelgan.

Yahudiylar ham tarixdagi ilk terrorchilik uyushmalarining o'chog'i bo'lib, jahondagi eng mashhur «Hagana», «Argun» va «Shtern» nomli terrorchilik tashkilotlarini tuzgan xalqdir. Hatto Isroil davlatining o'zi – bashariyat uchun benazir terrorchilik timsoliga aylanib qoldi. Bu haqiqatni ochiq idrok etish uchun Isroil davlati tashkil topganidan beri qo'l urgan og'ir jinoyatlarga bir nazar tashlash kifoya.

Sotsiolog Aleks Shmidtning terrorchilik tushunchasiga oydinlik kiritish uchun yuzta mutaxassis va olimga bergan savollariga olgan javoblar, uning siyosiy terrorchilik haqida yozgan kitobida (1983 yil) mavjud. Uning so'rovlariga mazkur mutaxassislar bergan javoblarning mushtarak xulosasi quyidagicha:

– terrorchilik – aniq cheklangan mohiyatga ega bo‘lmagan tushunchadir;

– bir ta’rifning o‘zi bu istilohning barcha ma’nolarini qamray olmaydi;

– turli ta’riflar terrorchilikning turli qismlariga mushtarak bo‘lib, u kimga qaratilgan ekaniga va qurbonlariga qarab belgilanadi.

«Robitatul Olamil Islamiyya» (Islom Olami Ligasi) qoshidagi Islomiy Fiqh Uyushmasi «terrorchilik»ni: «Terrorchilik – shaxslar yoki jamoatlar yoxud davlatlar tarafidan insonning dini, qoni, aqli, moli va nomusiga qarshi ishlatiluvchi zo‘ravonlikdir. Terrorchilik – qo‘rqitish, ozorlash, tahdid solish, nohaq o‘ldirish va Yer yuzida buzg‘unchilik yoyishning barcha turlarini o‘z ichiga oladi»- deb ta’rifladi. Bundan tashqari, g‘arblik mutafakkir olimlar va tashkilotlar «terrorchilik» haqida o‘nlab ta’riflar aytgan bo‘lib, ularning barchasi «Siyosiy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish yo‘lida qonuniy bo‘lmagan kuch va tahdidni ishga solish» ta’rifida mushtarakdir. Shunday olimlardan biri Jonatan Uayt, terrorchilikka oid mavzuga kirishishidan avval (1991 yil) uni siyosiy yo‘nalishlar tarafidan tushunish bilan kifoyalanmasligimiz zarurligini uqtiradi. Chunki sotsiologiya fani bu mavzuga katta e’tibor bermoqda va terrorchilik tushunchasining yagona ta’rifi yo‘q ekanini ta’kidlamogda. Shuning uchun ham Jonatan Uayt terrorchilikni turli ta’riflarni o‘z ichiga olgan o‘lchovlar bilan ta’riflash kerak, deb taklif qiladi:

– terrorchilikning oddiy va sodda ta’rifi. Ya’ni, «xavf tug‘dirish va yo‘nalishni o‘zgartirish maqsadidagi zo‘ravonlik va tahdid»;

– terrorchilik ta’rifi uchun qonuniy qolip-o‘lchov. Ya’ni, «terrorchilik – qonunni poymol qiladigan va davlat tarafidan jazolashni taqozo etadigan jinoiy zo‘ravonlik»;

– terrorchilikning tahliliy ta’rifi. Ya’ni, har bir terrorchilik ortida turgan muayyan ijtimoiy va siyosiy omillar;


– davlatning terrorchilikni himoya qilishi ta’rifi. Ya’ni, ayrim guruhlarining ayrim davlatlar panohida boshqa davlatlarga hujum qilish uchun terrorchilik qilishlari;

– davlat terrorchiligi uslubi. Ya’ni, davlat hukumatining o‘z fuqarolariga nisbatan terrorchilik foliyatida bo‘lishi. (Isroil bunga yaqqol misol bo‘la oladi).

Xalqaro terrorchilikning yoyilishiga yordamchi bo'lgan bu omillardan tashqari, hozirda yangi omillar ham paydo bo'lganki, ular terrorchilikning xalqaro xatarlarini yanada oshiradi. Masalan: ko'plab davlat va hukumatlarning xalqaro terrorchilik uyushmalari bilan hamkorlik qilishi, xalqaro terrorchilik uyalari va tizimining saraton kasalligidek yopirilishi, bu uyushmalarning yangi va rivojlangan telekommunikatsiya tizimidan ma'lumotlar to'plash uchun ustalik bilan foydalanishi hamda taraqqiy topgan ilmiy jihozlar bilan ta'minlanishi kabi. Bu uyushmalarning barchasi g'arb terrorchilik uyushmalari bo'lib, ularning a'zolari Islom diniga mansub emasdir.

Hozirgi vaqtda terror faqat hokimiyatga taalluqli emas. Bu tinch aholi orasida, kuch va aholining kayfiyatining nisbiy uyg'unligi sharoitida, geosiyosatda keng tarqalgan. Agar XX asr boshlarida. Terrorizm hukumat va xalq o'rtasidagi munosabatlar sohasiga tegishli bo'lganligi sababli, asrning oxiriga kelib, terrorizm geosiyosat va jamiyatning turli qatlamlarining normal o'zaro ta'siriga qarshi kurash sohasi hisoblanadi.

Terrorizmga iqtisodiy yondoshishning vakili G. Bekker. U jinoyatchilar psixopatologik tiplar emas va ijtimoiy zulmning "qurbonlari" emas, balki imkoniyatlar va cheklolarga oldindan aytib beriladigan ta'sirchan agentlar degan taxmindan kelib chiqadi. Jinoy kasbni tanlash xavf va noaniqlik sharoitida oddiy investitsiya qarori sifatida tushunilishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, jinoyatchilik darajasi u bilan bog'liq bo'lgan foyda va xarajatlarning (pul va pul bo'lmagan) nisbati bilan bog'liq bo'lishi kerak, bu qonuniy va noqonuniy faoliyatdan olinadigan daromadlar farqi, qo'lga olinishi va sudlanganlik ehtimoli, jazoning og'irligi va boshqalar bilan belgilanadi. shuning uchun, masalan, retsidivizmning yuqori foizi ajablanarli bo'lmasligi kerak, chunki kutilgan "vaqt" davomiyligi jinoyatchilar tomonidan oldindan kasb tanlashda hisobga olinadi.



10.4.1-rasm. Dunyoda terroristik aktlardan halok bo'lganlar soni²⁰⁰ (2006-2018 yy.)

Yu.V. Latov terrorchi mansabining matematik modelini taklif qildi. U quyidagi shaklga ega:

$$S = Villeg - Vleg < pD,$$

bu yerda **S** - terrorchining sof foydasi; **Villeg** - terrorchining noqonuniy faoliyatdan olgan daromadlari; **Vleg** - terrorchining qonuniy faoliyatdan yo'qotgan foydasi; **p** - ehtimollik; **D** - jazoni baholash.

E. Chernixning so'zlariga ko'ra, terrorizm urushida boylar katta rol o'ynaydi. Kambag'allar - boylarning uydirmasi, ularning ziddiyatlari uchun ommaviy axborot vositasi. Jamiyatning o'rta va boy qatlamlarining mulkiy taqdiri o'zining ekstremal ko'rinishlarida terrorizm urushidan ijtimoiy tuzilmada ma'lum bir o'rinni egallash uchun foydalanishga olib keladi. Bu yerda hatto o'lim ham o'z joniga qasd qilgan kishining ijtimoiy maqomining tasdiqlanishidir.

²⁰⁰ <https://www.statista.com/statistics/202871/number-of-fatalities-by-terrorist-attacks-worldwide/>

BMT Bosh assambleyasi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global terrorizmga qarshi strategiyasini qayta ko'rib chiqish" rezolyutsiyasini qabul qildi, bu uning global aksiterror strategiyasining to'rt tarkibiy qismiga sodiqligini tasdiqlaydi:

1) terrorizmning tarqalishiga olib keladigan shart-sharoitlarga barham berish;

2) terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish;


3) terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish uchun davlatlarning imkoniyatlarini kuchaytirish va bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimining rolini kuchaytirish.

4) terrorizmga qarshi kurashning asosi sifatida inson huquqlari va qonun ustuvorligini hurmat qilish hisoblanadi.

Terrorizm natijasida har yili ko'plab odamlar halok bo'ladilar. Iqtisodiyot va tinchlik institutining Global terrorchilik indeksiga ko'ra, global terrorchilik 2018 yilda kamroq odamning hayotiga nuqta qo'ydi, biroq uning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri keng qamrovli bo'ldi. Terrorizm qurbonlarining umumiy soni ketma-ket to'rt yil davomida 15.2 %dan kamayib 2018 yilda 15 912 kishini tashkil etdi - bu o'tgan yillar ichidagi eng yuqori ko'rsatgich bo'lgan 2014 yildan 53% ga kamroq degani.

Raqamlarning kamayishida Yaqin Sharqdagi urushlarda qozonilgan g'alaba hamda mintaqadagi harbiy harakatlarning imkon qadar kamaytirilishi muhim rol o'ynadi. Shunga qaramay, hisobotda aytilishicha, dunyo bo'ylab terrorizm xavfi oldi olinishi va unga qarshi kurash uchun sarflanayotgan pul miqdori ortib borgan: hisob-kitoblar 2018 yilda terrorchilik jahon iqtisodiyotiga \$34 mlrdga "tushganini" ko'rsatmoqda.

So'nggi 20 yil ichida, shubhasiz, G'arb tashqi siyosati va G'arbnig aralashuvi dunyoning turli mintaqalarida terrorizm darajasiga ta'sir ko'rsatdi"-, deydi Iqtisodiyot va tinchlik institutining Yaqin Sharq va Yevropa bo'yicha direktori Serj Strubens.



10.4.2-rasm. Dunyoda terrorizm bo‘yicha bolalar o‘g‘irlanishi hajmi (2007-2018 yy.)

Afg‘onistonda ketma-ket ikki yil davomida terrorizm bilan bog‘liq eng ko‘p o‘lim va voqealarni qayd etildi, 2018 yilning o‘zida 7000 dan ortiq o‘lim va 1400 ta terror xodisalari hisobga olindi. Iroqda vafot etganlar soni 2017 yildagi 4,271 dan 2018 yilda 1054 taga kamaydi va bu 75% pasayishni anglatadi. Shunga qaramay, 2001 yildan beri Iroqda terrorizm bilan bog‘liq voqealarda 66000 dan oshiq odamlar hayotdan ko‘z yumdi.

Terrorizmning iqtisodiy ta’siri turli istiqbollarni hisoblab chiqish mumkin. Mulkning bevosita xarajatlari va hosildorlikka bevosita ta’sir etishi, shuningdek, terrorizmga qarshi kurashishning uzoq muddatli bilvosita xarajatlari mavjud. Ushbu xarajatlar juda kam miqdorda hisoblanishi mumkin; Misol uchun, har safar aeroportda qo‘shimcha vaqt uchun uchib ketishimiz kerak bo‘lsa, unumdorlikda qancha pul yo‘qolishi haqida hisob-kitoblar qilingan.

Iqtisodchilar va boshqalar Ispaniyaning Bask hududi va Isroil kabi hujumlarda ko‘p yillar davomida terrorizmning iqtisodiy ta’sirini hisoblashga harakat qildilar. So‘nggi bir necha yil mobaynida terrorizmning iqtisodiy xarajatlarining aksariyati tahlillari 2001 yil 11 sentyabrdagi zararlar talqini bilan boshlanadi. Tekshirgan tadqiqotlar,

hujumning to'g'ridan-to'g'ri sarf-xarajatlari qo'rqqanidan kamroq degan xulosaga keldi. AQSh iqtisodining hajmi, Federal zahiradagi ichki va global bozor ehtiyojlariga tezkorlik bilan javob berish va Kongressning xususiy sektorga ajratishlari zarba berishga yordam berdi. Biroq hujumlarga javob, aslida qimmatga tushdi. Mudofaa va mudofaa xarajatlari eng katta xarajatdir. Biroq iqtisodchi Pol Krugman so'raganidek, Iroq urushi kabi tashabbuslarga sarflanadigan xarajatlardan, aslida, terrorizmga qarshi javob yoki "terrorizm tomonidan ta'minlangan siyosiy dastur" deb hisoblanishi kerak.

Terrorchilik hujumining bevosita iqtisodiy ta'siri 11 sentabr hujumining to'g'ridan-to'g'ri qiymati taxminan 20 milliard dollardan oshdi. Pol Krugman, Nyu-York shtatining nazoratchi tomonidan 21,8 milliard dollarlik mol-mulkni yo'qotish bahosini keltirib chiqardi. Uning aytishicha, bu yilgi yalpi ichki mahsulotning taxminan 0,2% ni tashkil etadi ("Terrorizmning narxi: biz nimani bilamiz?", Princeton 2004 yil dekabr oyida universitet). Shuningdek, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) hisob-kitoblariga ko'ra, ushbu hujum xususiy sektorga 14 milliard dollar, federal hukumat esa 0,7 milliard dollar, tozalash esa 11 milliard dollarga baholanmoqda. R. Barri Jonson va Oana M. Nedelskiga ko'ra, "Terrorizmning moliyaviy bozorlarga ta'siri", bu raqamlar AQSh yillik Yalpi ichki mahsulotining 1 foizidan 1/4 qismiga to'g'ri keladi - taxminan bir xil natijani Krugman tomonidan kelgan. Shunday qilib, ularning soni o'zlari uchun muhim bo'lsa-da, eng kam gapirish uchun ular butun Amerika iqtisodiyoti tomonidan so'rilishi mumkin edi.

Nyu-Yorkdagi moliyaviy bozorlar 11 sentyabrda hech qachon ochilmadi va 17 sentyabr kuni birinchi marotaba bir hafta o'tib qayta ochildi. Bozorga bevosita xarajatlardan Jahon Savdo Markazida joylashgan aloqa va boshqa operatsiyalarni qayta ishlash tizimlariga zarar keltirdi. Jahon bozorlarida zudlik bilan amalga oshirilgan hujumlarga qaramasdan, hujumlardan kelib chiqadigan noaniqlikka asoslanib, shifo nisbatan tezroq bo'ldi.

11 sentabr hujumlaridan keyin mudofaa va xavfsizlik xurujlari katta miqdorda oshdi. EDC (Export Development Canada) bosh iqtisodchisi o'rinbosari Glenn Hodgson 2004 yilda xarajatlarni tushuntirib berdi:

AQSh hozirda har yili 500 milliard dollar sarflaydi - AQSh federal budjetining 20 foizini terrorizmga qarshi kurashish yoki uni oldini olish bilan shug'ullanadigan idoralar, xususan, Mudofaa va Homeland Security. Mudofaa budjeti 2001 yildan 2003 yilgacha bo'lgan davrda qariyb uch barobar yoki 100 milliard dollardan oshib ketdi. Bu AQShning yalpi ichki mahsuloti 0,7 foiziga tengdir. Har qanday millat uchun mudofaa va xavfsizlikka sarf qilinadigan xarajatlar juda muhimdir, lekin ular, shuningdek, imkoniyat xarajatlari ham ega; ushbu resurslar boshqa maqsadlar uchun, sog'liqni saqlash va ta'lim xarajatlaridan soliqlarga pasaytirishgacha mavjud emas. Terrorizmning yuqori xavfi va uni bartaraf etish zarurati, bu imkoniyat xarajatlarini oshiradi.

Iqtisodchilar shuningdek terrorizmning global ta'minot zanjirlariga ta'sirini baholaydilar. (Ta'minot zanjiri mahsulotlarni yetkazib beruvchilarni bir joydan ikkinchisiga sotib olish uchun olib boradigan qadamlar ketma-ketligini anglatadi). Ushbu qadamlar port va quruqlik chegaralarida xavfsizlikning qo'shimcha qatlamlari qo'shilgan vaqt va pul uchun juda qimmatga tushishi mumkin bo'lgan jarayon. OECD ma'lumotlariga ko'ra, yuqori transport xarajatlari rivojlanayotgan davlatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ular oxirgi o'n yil ichida xarajatlarni pasayishi va shuning uchun mamlakatlar qashshoqlikka qarshi kurashish qobiliyatiga ega.

O'zbekistonda ekstremizm va terrorizm tahdidlariga qarshi kurashish bo'yicha "o'zbek modeli" sharofati bilan mamlakatimizda terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar soni o'tayotgan yilda 1,7 barobar kamaygan. 2018 yilning dastlabki olti oyida O'zbekistonda 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar o'rtasida terrorizm yo'nalishida qayd etilgan jinoyatlar soni 2017 yilning shu davriga nisbatan 65,7 foizdan ziyod pasaygan. Bu haqida poytaxtimizda Shanxay hamkorlik tashkiloti Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Ijroiya qo'mitasi tomonidan "Terrorizmga qarshi kurash – chegara bilmas hamkorlik" mavzusida tashkil etilgan oltinchi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya chog'ida O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqot instituti direktori Vladimir Norov to'xtalib o'tdi. Uning aytishicha, bugungi kunda yoshlarning radikallashuvi eng xavfli va o'tkir muammolardan biri hisoblanadi hamda mazkur

holat dunyoning ko‘plab davlatlarida ijtimoiy, madaniy va ahloqiy masalalar kompleksi o‘z yechimini kutayotgan bir sharoitda yuzaga kelayotir.

Vladimir Norovning fikricha, yoshlar o‘rtasida radikal kayfiyatdagi shaxslar kuchayishining asosiy sababi jamiyatda shaxs maqomi va talabchanlik hissining yetishmovchiligi yoki umuman yo‘qligi bilan bog‘liq. Binobarin, buzg‘unchi guruhlar “yo‘qotilgan” yosh avlod uchun o‘zgarishlar “agentlari”, “istiqbolli” imkoniyatlar hamda aniq bir maqsadga erishish usuliga aylanishga urinmoqda. Bu yo‘lda diniy, mafkuraviy va milliy vositalardan foydalanyapti.

Xalqaro ekspertlarning qayd etishicha, 300 mingga yaqin 18 yoshga yetmagan yosh avlod vakillari dunyodagi qator diniy-ekstremistik guruhlar tarkibidan joy olgan. Jumladan, Bruklin instituti ma’lumotlariga ko‘ra, Twitter tarmog‘ida “Islom davlati” terrorchilik guruhi bilan u yoki bu darajada bog‘langan akkauntlar soni 90 mingtaga yetadi va har birida 1000dan ortiq o‘quvchisi bor. Ularga tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi o‘smirlar va qizlardir. 2016-2017 yillarda axborot xavfsizligi liniyasi bo‘yicha olib borilgan ishlar natijasida terrorchilik va ekstremistik xarakterdagi 4 milliondan ziyod axborot materiallaridan tashkil topgan 100 mingta internet-resurs tarmoqdan o‘chirib tashlandi yoki faoliyatiga to‘siq qo‘yildi²⁰¹.

O‘zbekiston ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga global xavfsizlikni ta’minlashning muhim omili sifatida qarab, mazkur jarayonning doimiy ishtirokchisi va tashabbuskori bo‘lib kelmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirib kelinayotgan O‘zbekiston Respublikasini 2017–2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, terrorizm, ekstremizm va axborot tahdidlariga qarshi kurashish muhim vazifalar sifatida belgilib qo‘yilgan. Qolaversa, yurtboshimiz 2017 yil sentabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh

²⁰¹ Экстремизм ва терроризм таҳдидларига қарши курашиш бўйича “ўзбек модели” қандай самара берапти? 15:35 01 Ноябрь 2018 Жамият/<http://xs.uz/uzkr/post/ekstremizm-va-terrorizm-tahdidlariga-qarshi-kurashish-bojicha-ozbek-modeli-qandaj-samara-beryapti>

Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida “Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi“ tarqalishining oldini olishdir”, - deya ta’kidlab o‘tgandi. Shu ma’noda davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatlarga BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish taklif etildi hamda BMT Bosh Assambleyasining “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq terrorizmga qarshi kurashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- shaxs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- terrorizmning oldini olish choralari ustuvorligi;
- jazoning muqarrarligi;
- terrorizmga qarshi kurash oshkora va nooshkora usullarining uyg‘unligi;
- jalb etiladigan kuchlar vavositalar tomonidan terrorchilikka qarshi o‘tkaziladigan operatsiyaga rahbarlik qilishda yakkaboshchilik.

Terrorizmga qarshi kurashning muhim yo‘nalishlaridan biri jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish hisoblanadi. Shu boisdan 2004 yil 26 avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan va unga so‘ngi marta 2019 yil 15 yanvarda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar – jinoyat sodir etish natijasida olingan pul mablag‘lari va boshqa mol-mulk, shuningdek bunday mol-mulkdan foydalanish orqali olingan har qanday foyda yoki naf, xuddi shuningdek to‘liq yoki qisman boshqa mol-mulikka aylantirilgan yoxud o‘zgartirilgan yoki qonuniy manbalar hisobidan olingan mol-mulikka qo‘shilgan pul mablag‘lari va boshqa mol-mulk;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish – pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo‘lsa, ularni o‘tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo‘li bilan ularning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, xuddi shuningdek bunday pul mablag‘larining yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko‘chirish usulini, pul mablag‘lariga yoki boshqa mol-mulkka bo‘lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashliligini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo‘lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish;

pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay to‘xtatib qo‘yish – pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkni o‘tkazishni, konversiyalashni, tasarruf etishni yoxud ko‘chirishni taqiqlash;

operatsiyalarni to‘xtatib turish – mijozning pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkni ko‘chirish, konversiyalash, o‘zga shaxslarga egalik qilish va foydalanish uchun berish, shuningdek yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi topshiriqnomalari ijrosini to‘xtatib turish;

terrorizmni moliyalashtirish – terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, faoliyat ko‘rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta‘minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalarni, resurslarni berishga yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish.

ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish – yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdagi ommaviy qirg‘in qurolini, bunday qurolni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo‘lgan materiallarni hamda uskunalarni yaratish, ishlab chiqarish, olish, to‘plash, saqlash, o‘tkazish, foydalanish maqsadida har qanday mablag‘-vositalarni, resurslarni berish yoki yig‘ish, boshqa xizmatlar ko‘rsatish.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;
- ichki nazorat;
- mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar;
- tavakkalchiliklarni aniqlashga, baholashga va kamaytirishga doir choralar.

Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat – pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar taqdim etadigan axborotni tekshirish va ushbu Qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar majmui.

Ichki nazorat pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo'lgan operatsiyalarni aniqlashga doir faoliyatidir. Ichki nazorat amalga oshirilayotganda zarur axborotni rasmiylashtirish, uning maxfiylikini ta'minlash tartibi, kadrlarni tayyorlash va o'qitishga doir malaka talablari, shuningdek maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo'lgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni aniqlash mezonlari va ularning alomatlari belgilanadi.

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar:

ichki nazorat qoidalarida belgilangan hollarda xo'jalik, fuqaroviy huquqiy munosabatlar aniqlanganda;

ichki nazorat qoidalarida belgilangan hollarda pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq bir martalik operatsiyalar amalga oshirilganda;


shubhali operatsiyalar amalga oshirilganda;

mijozning shaxsi to'g'risida avval olingan ma'lumotlarning to'g'riligiga nisbatan shubhalar mavjud bo'lganda, mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha mustaqil chora-tadbirlar ko'rishlari shart.

Pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk bilan bogʻliq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning, shuningdek ichki nazorat qoidalariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshiruvchi organlar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirish yuzasidan ehtimol tutilgan tavakkalchiliklarni oʻrganishni, tahlil qilishni va aniqlashni oʻz faoliyatida tizimli ravishda, yiliga kamida bir marta amalga oshirishi, oʻrganish natijalarini hujjatlar bilan qayd etishi hamda aniqlangan tavakkalchiliklarni kamaytirishga doir tegishli choralar koʻrishi shart.

10.5. Jahon mamlakatlari rivojlanishining jinoiy global muammolari

Boy shimol mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyoti oʻziga xos jinoiy globallashtirishni jonlantiradi. Rivojlangan mamlakatlarning oʻzaro munosabatlarida vujudga keladigan global jinoiy muammolar – bular qonuniy isteʼmol tovarlari kontrabandasi, pullarni poklab olish (yuvish), daromadlarni yashirish, kompyuter jinoyati va iqtisodiy josuslikdir (qarang 10.5.1-rasm).



10.5.1-rasm. Rivojlangan mamlakatlar rivojlanishining asosiy global jinoiy muammolari

Qonuniy iste'mol tovarlari kontrabandasi. Tamaki, alkogol ichimliklari va dabdabali buyumlar (masalan, qimmatbaho avtomobillar) kabi qonuniy kontrabanda tovarlariga talab yuqori import uchun boj to'lovlari va aksizlarga ega bo'lgan mamlakatlarda juda yuqoridir. Chunki ushbu mamlakatlarda qonuniy tovarlar qimmatlashib ketadi. Shu sababdan, jahon xo'jaligida faqatgina taqiqlangan tovarlar emas, balki oddiy tovarlar kontrabandasi ham daromad keltiradi. Bunga iste'molchilarni qimmat tovarlarni bojxona yig'implari to'lamasdan arzon narxlarda sotilishi mumkinligi sababchi bo'lmoqda. Qonuniy tovarlar kontrabandasini tashkilotchilari sifatida faqatgina mafiyaga tegishli firmalar emas, balki rivojlangan mamlakatlarning oddiy qonuniy firmalari ham namoyon bo'ladilar, ularning asosiy maqsadi bojxona bojlarini aylanib o'tish hamda ko'proq bozorlarni egallashdir. Masalan, jahon sigaret bozori eksportining 1/3 qismi kontrabandaga to'g'ri keladi.

Pullarni poklab olish (yuvish) va daromadlarni yashirish. Ba'zi tadqiqotchilarning hisob-kitoblari bo'yicha har yili taxminan 500-1000 mlrd.AQSh dollari miqdoridagi mablag' poklab olinadi (yuviladi), bu xalqaro savdo umumiy hajmining 10 foizga tengdir. Xorijiy kompaniyalar va banklarni ro'yxatdan o'tkazish va faoliyat yuritishning qulay shart-sharoitlari, bank sirlarini saqlash kafolatlari va siyosiy barqarorligi bilan o'ziga jalb etuvchi "solliq bandargohlari" faqatgina rivojlanayotgan mamlakatlarda emas (Kayman va Bermud orollari kabi), balki rivojlangan mamlakatlarda ham mavjud – masalan, Shveysariya yoki Lyuksemburg. Bunday bank markazlarining mijozlari bo'lib sof mafiya tashkilotlari (birinchi navbatda narkobiznes bilan bog'liq), hamda o'z daromadlarini solliqdan yashiruvchi qonuniy transmilliy korporatsiyalar hisoblanishadi.

Kompyuter jinoyati. Rivojlangan mamlakatlarda yuqori texnologiyali tovarlar bozorida qaroqchilik darajasi juda yuqoridir. Masalan, Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida o'g'irlangan kompyuter dasturlari ulushi 25-35 foizni tashkil etadi. "Uchinchi dunyo" mamlakatlarida o'g'irlangan kompyuter dasturlari qisqarib borayotgan bo'lsa, rivojlangan mamlakatlarda esa bir tekis rivojlanib bormoqda.

Iqtisodiy josuslik. Raqobat bozor xo‘jaligining tamal toshi hisoblanadi, va bozorni egallash bo‘yicha kurashda transmilliy biznes o‘z raqobatchilaridan texnologiyalar va boshqa tijorat axborotini o‘g‘irlash usullaridan foydalanadilar. Iqtisodiy josuslik bilan, asosan, rivojlangan va yangi industrial mamlakatlar shug‘ullanadilar. Uning tashkilotchilari sifatida nafaqat tijorat firmalari, balki o‘z mamlakatining tadbirkorlariga ko‘mak berish maqsadida davlat xavfsizlik xizmatlari ham namoyon bo‘lishadi. Ushbu usullardan foydalanish natijasida raqobat o‘zining bozorga xos xususiyatlarini yo‘qotadi, uning iqtisodiy xususiyati zo‘ravonlik tusini ola boshlaydi.

Global miqyosda noqonuniy iqtisodiyotning muammolarini keng taraqqiy etishi parodaksal natijaga olib keladi. Milliy xo‘jaliklarni yagona global tarmoqqa integratsiyalashuvi iqtisodiyot ustidan nazorat kuchayishiga olib kelishi kerak edi. Bunday tendensiya mavjud, lekin u bilan birga diametral qarama-qarshi tendensiya mavjud: ko‘pgina geografik hududlar va iqtisodiyot sektorlari davlat va jamoat tashkilotlari nazoratidan chetda qolishadi. Lekin, shu bilan birga, ular jahon xo‘jaligiga integrallashgan bo‘lib qolaveradi, va aynan shu integratsiyalashuv ularning turli jinoiy faoliyatlarga ixtisoslashuvini rag‘batlantiradi.

1980-yillarda narkobiznes “imperiya”lari (birinchi navbatda, Lotin Amerikasi) tadqiqotchilari tomonidan “kul rang hududlar” termini qo‘llana boshlandi. Uchuvchilarning norasmiy lug‘atida radar yordamida ko‘rish imkoni bo‘lmagan hududlar shunday nomlanadi. Hozirgi vaqtda “kul rang hududlar” tushunchasi faqatgina geografik emas balki tarkibiy-iqtisodiy ma‘noni kasb etmoqda.

Geografik “kul rang hududlar”. Bularga qonuniy hukumat tomonidan nazorat qilinmaydigan, “uchinchi dunyo” mamlakatlari xaritalarida oson topiladigan hududlar kiradi. Lotin Amerikasida bu Peru, Boliviya va, ayniqsa, Kolumbiyaning bir qator hududlari bo‘lib, u yerda hukumat narkopartizanlar (masalan, Kolumbiyaning inqilobiy qurolli kuchlari) va oddiy narkobanditlar qo‘lidadir. Osiyoda “kul rang hududlar” sifatida Afg‘oniston va Myanmaning ba’zi yerlari namoyon bo‘ladi. Afrikada “kul rang hududlar” vaqti-vaqti bilan fuqarolik urushlari bo‘lib turayotgan mamlakatlarda – Angola, Serra-Leone, Liberiyalarda joylashgan.

Yarim asr oldin bunday hududlarning barqaror mavjudligini tasavvur ham qilib bo'lmay edi. Hozir esa, kontrabanda biznesini keng taraqqiy etishi, rasmiy hukumatni tan olmaydigan oppozitsion guruhlar barqaror moliyaviy bazalarga egalar: Lotin Amerikasi "kul rang hududlari" kokain narkotrafigiga tayanadilar, Osiyo "kul rang hududlari" – heroin narkotrafigiga, G'arbiy Afrika "kul rang hududlari" – olmos kontrabandasiga tayanadilar.

Tarkibiy-iqtisodiy "kul rang hududlar". Xalqaro moliya biznesi butun dunyoda sekin-asta kul rang tus olmoqda. Harom pullarni yuvish va daromadlarni yashirish bilan bog'liq mojarolarda faqatgina Kayman orollarining banklari emas, balki Shveysariya, AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlarning e'tiborli moliyaviy tuzilmalari ham aralashib qolishmoqda. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadal o'sib boruvchi natijasi hisoblanmish xalqaro Internet-iqtisodiyot ham borgan sari kul rang tus olmoqda.

Globalashuv jarayonining raqiblari birinchi navbatda, ularning fikri bo'yicha, global totalitarizm xavfini olib keluvchi "yangi xalqaro tartib"dan tashvishlanishadi. Umuman olganda, globalashuv jarayoni "xalqaro tartib"dan tashqari jinoiy globalashuv ko'rinishidagi "xalqaro tartibsizlik"ga ham olib kelishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Jahon xo'jaligining jinoiy "egizagi" deganda ni mani tushunasiz?
2. Shimol va Janubning o'zaro munosabatlaridagi jinoiy global muammolar nimalardan iborat?
3. Noqonuniy migratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari nimalardan iborat?
4. O'zbekistonda norasmiy migratsiyani rasmiyga aylantirish uchun nima qilish kerak?
5. Narkobiznesning mohiyati va iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari nimalardan iborat?
6. Terrorizmning iqtisodiy asoslari va oqibatlarini tushuntirib bering.
7. Narkomaniya va terrorizm iqtisodiy nazariyalapirini izohlang.

8. Shimol mamlakatlari rivojlanishining jinoiy global muammolarini izohlab bering.

9. Nima uchun xalqaro Internet-iqtisodiyot ham borgan sari kul rang tus olmoqda?

10. Jahon xo'jaligining "kul rang hududlari" deganda nimalarni tushunasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Qonunlar va boshqa huquqiy, siyosiy, rasmiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T., O‘zbekiston, 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni. 2000 yil 15 dekabr //http://parliament.gov.uz/uz/laws/adopted/97/3498/

3. O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun. 2004 yil 26 avgust (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 43-son, 451-modda; 2007 y., 17-18-son, 172-modda; 2009 y., 17-son, 210-modda; 2013 y., 1-son, 1-modda; 2016 y., 17-son, 173-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son)// <https://lex.uz/docs/283717>

4. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni. 2017 yil 3 yanvar, O‘RQ-419-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbiarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-4848-sonli Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. 2017 yil 8 sentyabrdagi PF-5185-son

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob‘ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 17.01.2017 y. PF-4933

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 6 sentabr PF-5813-son Farmoni

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Qarori. 18.04.2017 y. PQ-2895.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining” Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning eksport qilinishi va raqobatdoshligini ta‘minlashni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Farmoni. 25.05.2017 y. PF-5057

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida“ gi Qarori. 04.09.2017 y.PQ-3254

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni. 02.03.2020 y. PF-5953

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni. 19.03.2020 y. PF-5969

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 26.03.2020 y. N PF-5975

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub‘ektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 03.04.2020 y. № PF-5978

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni. 27.04.2020y. PF-5986

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2017 y. 1011-son "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va axolini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori

19. Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash va xufiyona iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish faktlarini aniqlashda yordam bergan shaxslarni moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida ID-6984 O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining qarori

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asar va ma‘ruzalari

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак: Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамуз: Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи.//Халқ сўзи, 2016 йил 15 декабрь.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2017 йил 22 декабр.//Халқ сўзи, 2017йил 23декабр.

4. Мирзиёев Ш.М. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг

мустаҳкам пойдеворидир // Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси// Халқ сўзи, 2018 йил 8 декабрь

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. //Xalq so‘zi, 2018yil 29dekabr.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. //Xalq so‘zi, 2020yil 25 yanvar.

III. Kitob va risolalar

1. Абулқосимов Ҳ.П. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўқув қўлланма.- Т.: Akademiya, 2012.- 320б.

2. Абулқосимов Ҳ.П. Ўзбекистонда ишбилармонлик муҳитини яхшилаш ва кичик тадбиркорлик фаолияти иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш йўналишлари. Монография.- Т.: Ipmiy-Texnika Axboroti-Press, 2017. – 208 б.

3. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодий таъминот атоми ва тушунчаларнинг изоҳли луғати.- Т.: “ABU MATBUOT-KONSALT”,2017.- 628б.

4. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.- Т.:Ноширлик ёғдуси, 2019.-620бет.

5. Айдинян Р., Гишинский Я. Функциональная теория организации и организованная преступность. С. 63.

6. Артхашастра, или Наука политики / Перевод с санскрита С.Ф.Ольденбурга, Ф.И.Щербатского, Е.Е.Обермиллера, А.И.Вострикова, Б.В.Семичова. Издание подготовил В.И.Кальянов. Примечания В.И.Кальянова. Указатели В.Г.Эрмана. Редакционная комиссия издания: В.В.Струве (ответственный редактор), Б.А.Ларин, В.И.Кальянов, И.П.Байков. М.-Л.: Издательство Академии наук СССР, 1959. 796 с.

7. Беркинов Б.Б. Институционал иқтисодиёт: ўқув қўлланма / Б.Б. Беркинов; ЎЗР олий ва ўрта махсус таълим

вазирлиги, Тош. Давлат иктисодиёт ун-ти, Институционал ва иктисодий тадқиқотлар маркази. – Т.: Yangi nashr, 2011. – 70-бет.

8. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. - СПб.: Питер 2007. Глава 12; Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в система рыночного хозяйства: Учебник. –М.: Дело, 2005. –С 11-43.

9. Волков В. Силовое предпринимательство. СПб.; М.: Европейский университет в Санкт-Петербурге - Летний сад, 2002.

10. Голованов Е.Б. Теневая экономика. Конспект лекций.-Челябинск, 2015.-62с.

11. Дадалко В. А., Румянцева Е. Е., Пешко Д. А.Теневая экономика и кризис власти: проблемы и пути решения. Минск, 2000. Гл. 2.

12. Де Сото Э. Иной путь. Невидимая революция в третьем мире. М.: Catallaху, 1995.

13. Иванов Р. Ф. Мафия в США. М., 1996. С. 339

14. Ijtimoiy siyosat.Oquv qollanma. A.V. Vaxabovning taxriri ostida.-Toshkent Mumtos soz, 2019.-312b.

15. Кальви Ф. Повседневная жизнь итальянской мафии. М., 2000. С. 44-45

16. Каценелинбойген А. Цветные рынки и советская экономика / Советская экономика и политика. Книга третья. Boston, 1988.

17. Кордонский С. Рынки власти. Административные рынки СССР и России. М., 2000. С. 106.

18. Кормишкина Л. А. Теневая экономика: учеб. пособие для вузов / Л. А. Кормишкина, О. М. Лизина. – Саранск : Изд-во Мордов. ун-та, 2009. – 136 с.

19. Клямкин И., Тимофеев Л. Теневая Россия. Экономико-социологическое исследование. М.: РГГУ, 2000.

20. Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность: Ростов Н/Дону: Феникс, 2007. С164-165.

21. Коуз Р. Фирма, рынок и право. М, 1993. С. 39.

22. Кузнецова С. И. Неформальный сектор в афро-

азиатском городе // Авторитаризм и модернизация в странах Азии и Африки. М., 1994. С. 73–74;

23. Кузнецова Т.Е., Хавина С.А. Неформальный сектор экономики: структура, масштабы, противоречивость функций и результатов / РАН. Ин-т экономики. Центр полит.-экон. исслед. - М., 2000. - 111 с.: схем.

24. Латов Ю.В., Ковалев С.Н. Теневая экономика: Учебное пособие для вузов / под ред. д.п.н., д.ю.н., проф. В.Я. Кикотя; д.э.н., проф. Г.М. Казиахмедова. – М.: Норма, 2006.- 336 с.

25. Левин М., Цирик М. Коррупция как объект математического моделирования // ЭиММ. 1998. № 3. С. 40 - 58;

26. Литвиненко А.Н., Ковалева К.Н. Легализация (отмывание) доходов, полученных преступным путем: Учебное пособие в схемах. - СПб.: Знание, ИВЭСЭП, 2004. - 62 с.

27. Маликов Т.С., Жалилов П.Т. Бюджет-солиқ сиёсати.- Т.:Akademnashr, 2011.-398-398-бетлар.

28. Маънавият: изохли луғат. –Т.: Фафур Ғулом НМИУ, 2009. 476-477-бет.

29. Наумов Ю.Г., Латов Ю.В. Экономическая безопасность и теневая экономика. Учебник. М.: Академия управления МВД России, 2016. – 246 с.

30. Ненаблюдаемая экономика: попытка количественных измерений / А. Е. Суринов, А. Е. Косарев; под ред. А. Е. Суринова – М. : Финстатин- форм, 2003. – 250 с.

31. Маликов Т.С., Жалилов П.Т. Бюджет-солиқ сиёсати. /Т.С.Маликов, П.Т.Жалилов; Т.С.Маликовнинг умумий тахрири остида; ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент молия ин-ти.-Т.,Akademnashr, 2011.-472 б.

32. Неформальная экономика и гибкий рынок труда: теория и практика в ФРГ. (Научно-аналитический обзор.) М., 1987; Экономика в подполье. М., 1984.

33. Неформальный сектор в странах Латинской Америки. Масштабы и структура, тенденции и факторы развития, роль в национальной экономике. М., 1992. С. 96, 123.;

34. Никифоров А. С. Гангстеризм в США: сущность и эволюция. М., 1991. С. 127.

35. Николаева М.И., Шевякова А.Ю. Теневая экономика: методы анализа и оценки. М., 1987;

36. Овсянникова И.П. Теневая экономика: учеб. пособие / И.П. Овсянникова; ФГБОУ ВО РГУПС. – Ростов н/Д, 2015. – С.21.

37. Основы борьбы с организованной преступностью / Под ред. В. С. Овчинского, В. Е. Эминова, Н. П. Яблокова. М., 1996. С. 10.

38. Ортиков А.А., Исаходжаев А.Т., Шестаков А.В. Хуфёна иктисодиёт: Ўқув қўлланма.-Т.: ЎзР ИИБ Академияси, 2002.-175б.

39. Попов В. В. Методы измерения теневой экономики и их использование в постсоветской России // Экономическая теория преступлений и наказаний. Теневая экономика в советском и постсоветском обществах / Под ред. Л.М. Тимофеева и Ю.В. Латова. М., 2002. Вып. 4/2.;

40. Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства: Учебник. - М: Дело, 2005. - 240 с.

41. Теневая экономика: учеб. пособие / И.П. Овсянникова; ФГБОУ ВО РГУПС. – Ростов н/Д, 2015. – 160 с.: ил. – Библиогр.: с. 159.

42. Теневая экономика региона: диагностика и меры нейтрализации / Рос. акад. наук. Институт экономики; под ред. А. И. Татаркина, В. Ф. Яковлева. – М. : Экономика, 2004. – 280 с.

43. Тимофеев Л. М. Институциональная коррупция. Очерки теории. М.: РГГУ, 2000.

44. Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: нео-институциональный подход. –М.: РГГУ, 2000. -147 с.

45. Фесина Е. Л. Ненаблюдаемая экономика: проблемы изучения / Е. Л. Фесина. – Казань : Казан. гос. ун-т им. В. И. Ульянова-Ленина, 2005. – 251 с.

46. Шестаков А.В. Теневая экономика: Учебное пособие.- М.: Издательский Дом «Дашков и К°», 2000. – 152 с.

47. Қобилов Ш.Р. Глобаллашув ва хавфсизлик. –Т.: ЎЗР ИИВ Академияси, 2006.

IV. Jurnal va gazetalar, ilmiy to‘plamlardagi maqolalar va tezislar.

1. Абулқосимов Ҳ.П. Тадбиркорлик фаолияти иктисодий хавфсизлигига таҳдид ва уни бартараф этиш йўллари.// Ж. “Молия”, 2016 йил. 4-сон.137-142-бетлар.

2. Абулқосимов Ҳ.П. Фирибгарлик-тадбиркорлик иктисодий хавфсизлигига таҳдид.// Ж.Иктисод ва молия//Экономика и финансы, 2017 йил, 3-сон, 33-37-бетлар.

3. Абулқосимов Ҳ.П. Тадбиркорлик фаолияти хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари//Ж.Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар: Илмий-методологик ва илмий-услубий журнал. 2018йил.№2 январь-июнь.-25-32-бетлар.

4. Альпидовская М.Л. Экономические основы теневой экономики и коррупции бюрократического аппарата // Менеджмент в России и за рубежом. 2008, № 1 . С. 136–140.

5. Ахмедов А.Ш.Теневая экономика: за и против прогресса.// <https://cyberleninka.ru/article/n/tenevaya-ekonomika-za-i-protiv-progressa/viewer>

6. Бахтишод Хамидов. Измерение коррупции // Экономическое обозрение №4 (244) 2020. <https://review.uz/ru/bjw>

7. Бойков Э. «Серая» экономика: масштабы развития и влияние на массовое сознание // Социологические исследования. 2001. № 11. С. 29 – 35.

8. Бокун Н., Кулибаба И. Проблемы статистической оценки теневой экономики // Вопросы статистики. 1997. № 7;

9. “Бўйин товловчиларга” қарши кураш қандай кучайтирилади. 2018 йил 28. 06 // https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi_buyin_tovlovchilarga_qarshi_kurash_qanday_kuchaytiriladi

10. В каких странах Центральной Азии наиболее высокий уровень коррупции?// [https:// kun.uz/ru/news/2019/04/08/mvf-strany-s-vysokim-urovнем-korrupsiisobirayut-menshe-nalogov](https://kun.uz/ru/news/2019/04/08/mvf-strany-s-vysokim-urovнем-korrupsiisobirayut-menshe-nalogov)

11. В ОЭСР отметили улучшение ситуации с борьбой с коррупцией в Узбекистане // <https://kun.uz/ru/news/2019/03/29/v-oesr-otmetili-uluchsheniye-situatsii-s-borboy-s-korrupsiyey-v-uzbekistane>

12. Вазир ўринбосари: «Ўзбекистонда 8 миллионга яқин киши бир тийин ҳам солиқ тўламайди» // <https://kun.uz/news/2020/02/18/vazir-orinbosari-ozbekistonda-8-millionga-yaqin-kishi-bir-tiyin-ham-soliq-tolamaydi>

13. Вебер М. Развитие капиталистического мировоззрения // Вопросы экономики. 1993. № 8. С. 153, 158.

14. Вишневский В., Веткин А. Уклонение от уплаты налогов и рациональный выбор налогоплательщика // Вопросы экономии. 2004. № 2. С. 96 – 108.

15. В каких странах Центральной Азии наиболее высокий уровень коррупции?// [https:// kun.uz/ru/news/2019/04/08/mvf-strany-s-vysokim-urovнем-korrupsiisobirayut-menshe-nalogov](https://kun.uz/ru/news/2019/04/08/mvf-strany-s-vysokim-urovнем-korrupsiisobirayut-menshe-nalogov)

16. В ОЭСР отметили улучшение ситуации с борьбой с коррупцией в Узбекистане // <https://kun.uz/ru/news/2019/03/29/v-oesr-otmetili-uluchsheniye-situatsii-s-borboy-s-korrupsiyey-v-uzbekistane>

17. *Жилина И. Ю., Иванова Н. Н.* Экономика коррупции // Социально-экономические аспекты коррупции. М., 1998. С. 30-62.

18. *Жилин Ю.* Глобализация в контексте развития современной цивилизации // Свободная мысль - XXI. 2002. № 4. С. 33.

19. Ибрагимов Б. Солиқ мажбуриятлари ижросини таъминлаш тартибга солишнинг долзарб масалалари. 08.08.2019.// <http://biznes-daily.uz/uz/birjaexpert/67874-soliq-majburiyatleri-ijrosini-taminlashni-tartibga-solishning-dolzarb-masalalari>

20. Каценелинбойген А. Цветные рынки и советская экономика / Советская экономика и политика. Книга третья. Boston, 1988.

21. Любимова В. О некоторых формах занятости рабочей силы в капиталистических странах // Мировая экономика и международные отношения. 1984. № 3. С. 75-79;

22. Любимова В. Формальная и неформальная экономика - единое целое? (Рец. на: La Flexibilit  en Italic P., 1989) // Мировая экономика и международные отношения. 1991. №9. С. 155-157;

23. Максуд Курбонбоев. Депутат фикри: Яширин иқтисодиётнинг келиб чиқиш сабаблари, жамиятга таъсири ва бартараф этиш йўллари. // <https://kun.uz/news/2019/05/04/deputat-fikri-yashirin-iqtisodiyotning-kelib-chiqish-sabablari-jamiyatga-tasiri-va-bartaraf-etish-yollari>

24. Мехнат мигрантлари ва тенденциялар // <https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/graphics/4423/>

25. Муминов Н.Г. Яширин иқтисодиётнинг моҳияти, сабаблари ва оқибатлари: назарий ёндашув // Иқтисод ва молия, №8, 2016. 2-8 бет.

26. Муминов Н.Г., Жўрабоев И.Б. Яширин иқтисодиётни ўлчаш усуллари // Иқтисод ва молия, №12, 2016. 2-8 бет.

27. Муминов Н.Г. Иқтисодий тизимлар тараққиётида яширин иқтисодиётнинг ўрни // Иқтисод ва молия, №2, 2018. 9-13 бет.

28. Муҳитдинов Э.М. Аҳолини иш билан бандлигини таъминлашда меҳнат миграциясининг роли. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.-Т., 2019.-47бет.

29. Найденов А.С., Кривенко И.А. Теневая экономика в условиях экономического кризиса: диагностика состояния и прогнозирование последствий. Экономика региона. № 1/2013. С. 47.

30. Одилжон Иминов. “Яширин иқтисодиёт”нинг яширинмаган сирлари // <http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/67316-yashirin-iqtisodiyotning-yashirinmagan-sirlari>

31. Полтерович В. Факторы коррупции // ЭИММ. 1998. № 3. С. 30-39;

32. Папова В. Об институциональном анализе теневой экономики и особенностях ее проявления // Общество и экономика. № 6. С. 213 – 230.

33. Преображенский К. Пасынки самураев // Вокруг света. 1989. № 2. С. 10, 12

34. Радаев В. Деформализация правил и уход от налогов в российской хозяйственной деятельности // Вопросы экономики. 2001. № 6. С. 70-72.

35. Райг И. Х. Нелегальная экономическая деятельность // Постигание: Социология. Социальная политика. Экономическая реформа. М., 1989. С. 203-216.

36. Синютин М. В. Институт мафии – частная собственность на применение насилия // Журнал социологии и социальной антропологии. 2001. № 1. С. 125 – 150.

37. Специалисты выявили основные причины существования теневой экономики Узбекистана // <https://www.spot.uz/ru/2019/09/18/shadow/>

38. Transparency: в Узбекистане ситуация с коррупцией ухудшается из года в год // <https://kun.uz/ru/news/2019/01/29/transparency-v-uzbekistane-situatsiya-s-korrupsiyey-uxudshayetsya-iz-goda-v-god>

39. Хавина С, Суперфин Л. Буржуазная теория «второй экономики» // Вопросы экономики. 1986. № 11. С. 104-112.

40. Хайек Ф. фон. Конкуренция как процедура открытия // Мировая экономика и международные отношения. 1989. № 12. С. 13.

41. Халқаро дипломли ва сертификатли бухгалтерлар ассоциацияси (АССА) томонидан тузилган.// АССА маълумотлари (РБК 2017)

42. Хасан Маджидов, Бахтишод Хамидов. Разглядеть невидимку: неформальный сектор в Узбекистане. <https://review.uz/ru/убу>

43. Ҳаёт Насруллаев. “Яширин” иктисодиётнинг яна бир кушандаси // Янги Ўзбекистон, № 23 (23), 2020 йил 26 февраль. Б.3.

44. Харт К. Неформальные доходы и городская занятость в Гане // Неформальная экономика: Россия и мир / К. Харт; под. ред. Т. Шанина. - М.: Логос, 1999.

45. Хорос В. «Крона», «корни» и «климат» терроризма // Мировая экономика и международные отношения. 2002. № 3.

46. Ўзбекистон мева-сабзавот маҳсулотлари яширин бозорининг ҳажми маълум қилинди // <https://kun.uz/news/2019/08/13/ozbekiston-meva-sabzavot-mahsulotlari-yashirin-bozorining-hajmi-malum-qilindi>.

47. Шнайдер Ф. Черная дыра // Эксперт. 2000. № 12.

48. Шнайдер Ф., Энсте Д. Рост теневой экономики во всем мире // Экономическая теория преступлений и наказаний. Неформальный сектор экономики за рубежом / Под ред. Л. М. Тимофеева и Ю. В. Латова. М., 2000. Вып. 2.

49. Экстремизм ва терроризм таҳдидларига қарши курашиш бўйича “ўзбек модели” қандай самара бeryпти? 15:35 01 Ноябрь 2018 Жамият // <http://xs.uz/uzkr/post/ekstremizm-va-terrorizm-tahdidlariga-qarshi-kurashish-bojicha-ozbek-modeli-qandaj-samara-beryapti>

50. Эндерсон Э. Организованная преступность, мафия и правительство // Экономика и организация промышленного производства. 1994. № 3. С. 161.

51. Экстремизм ва терроризм таҳдидларига қарши курашиш бўйича “ўзбек модели” қандай самара бeryпти? 15:35 01 Ноябрь 2018 Жамият // <http://xs.uz/uzkr/post/ekstremizm-va-terrorizm-tahdidlariga-qarshi-kurashish-bojicha-ozbek-modeli-qandaj-samara-beryapti>

52. Экономическая теория преступлений и наказаний. Вып. 5 (1). Криминальная глобализация экономики. Под ред. Л.М. Тимофеева и Ю.В. Латова. М.: РГГУ, 2002.

53. Экономическая теория преступлений и наказаний. Вып. 5 (2). Криминальная глобализация экономики. Под ред. Л.М. Тимофеева и Ю.В. Латова. М.: РГГУ, 2002. С. 120-133, 154-156.

54. 2019 йилда Ўзбекистонда ишсизлик даражаси қанча?. 2020 йил 04.02.// <https://mehnat.uz/uz/news/2019-yilda-uzbekistonning-ishsizlik-darazhasi-qancha>

V.Xorijiy nashrlardagi kitob va maqolalar.

1. Artikovich, A.S., Kurbandurdievich, M.K. (2020). THEORETICAL BASIS OF METHODS OF MEASUREMENT AND FUNCTIONING OF THE SHADOW ECONOMY. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24 (2), pp. 1360-1370.

<https://www.psychosocial.com/article/PR200435/10137/>. DOI: 10.37200/IJPR/V24I2/PR200435

2. *Azam J.-P., Besley T.* General Equilibrium with Parallel Markets for Goods and Foreign Exchange: Theory and Application in Ghana // *World Development*. 1989. Vol. 17. No. 12. P. 1921 – 1930.

3. Becker G. S. Crime and Punishment: An Economic Approach // *Essays in the Economics of Crime and Punishment / Ed. by G. S. Becker, W. L. Landes*. N. Y., 1974. P. 10.

4. *Bevan D., Collier P., Gunning J. W.* Black Markets: Illegality, Information and Rents // *World Development*. 1989. Vol. 17. No. 12. P. 1955-1964.

5. *Bromley R.* The Urban Informal Sector: Why is it Worth Discussing? // *World Development*. 1978. Vol. 6. No. 9/10. P. 1035-1936.

6. *Butterworth J.* The Theory of Price Control and Black Market. Aldershot etc., Avebury, 1994. P. 26-35.

7. Cameron S. The Economics of Crime Deterrence: A Survey of Theory and Evidence // *KYKLOS*. 1988. Vol. 41. Fasc. 2. P. 301-323.

8. Cassel D., Cichy U. Explaining the growing shadow economy in East and West: A comparative system approach. // *Comparative Economic Studies*. Vol.28. P. 20-41.

9. Dallago B. The «Second Economy»: A Mechanism for the Functioning of Society in Eastern Europe // *Journal of the Washington Institute for Values in Public Policy*. Washington, D.C. Spring 1991. Vol. 1. №. 1. P. 76-113.

10. *Deacon R. T., Sonstelie J.* Price Controls and Rent-Seeking Behavior in Developing Countries // *World Development*. 1989. Vol. 17. No. 12. P. 1945-1954.

11. *Devarajan S., Jones C, Roemer M.* Markets under Price Controls in Partial and General Equilibrium // *World Development*. 1989. Vol. 17. No. 12. P. 1881-1894.
12. *Economics of Organized Crime*. Cambridge Univ. Press, 1995.
13. *Eide E.* Economics of Crime. Deterrence and the Rational Offender. North Holland, Amsterdam etc., 1994. P. 47–71.
14. *Feige E. L., Feige E.* How big is the irregular economy? // *Challenge*. 1979. Vol. 6. No. 22. P. 5-13.
15. *Feige E. L.* Defining and Estimating Underground and Informal Economies: The New Institutional Economics Approach // *World Development*. 1990. Vol. 18. No. 7. P. 992.
16. *Fidier P., Webster L.* The Informal Sectors of West Africa // *The Informal Sector and Microfinance Institutions in West Africa* / Ed. by *L, Webster, P. Filder*. Washington, 1996. P. 5-20.
17. *Gutmann P. M.* Statistical Illusions, Mistaken Policies // *Challenge*. 1979. Vol. 6. No. 22. P. 14-17.
18. *Gutmann P.* The Subterranean Economy // *Financial Analysis Journal*. 1977. Vol. 33.
19. *Hart K.* Informal Urban Income Opportunities and Urban Employment in Ghana // *Journal of Modern African Studies*. 1973. Vol. 11. No. 1. P. 61-90.
20. ILO. Employment, incomes and equality: a strategy for increasing productive employment in Kenya. Geneva, 1972.
21. International Organization for Migration (IOM), The UN Migration Agency. World migration report 2019. International Organization for Migration. 17 route des Morillons. P.O. Box 17.1211 Geneva 19
22. *Johnson S., Kaufmann D., Shleifer A.* Politics and Entrepreneurships in Transition Economies // *The William Davids – on Institute, University of Michigan. Working Paper Series.No.57*;
23. *Jones C, Roemer M.* Modeling and Measuring Parallel Markets in Developing Countries // *World Development*. 1989 Vol. 17. No. 12. P. 1865.

24. Kaufmann D., Kaliberda A. Integrating the Unofficial Economy into Dynamics of Post-Socialist Economies: A framework for Analysis and

25. Kopp P. Les analyses formelles des marchés de la drogue // *Revue tiers-monde*. 1992. T. XXXIII. No. 131. P. 576.

26. Lacko M. Rejtett gazdaság nemzetközi összehasonlításban // *Közgazdasági Szemle*. 1995. S. ;

27. Lasko M. Hidden economy an unknown quantity? Comparative analysis of hidden economies in transition countries, 1989-1995 // *Economics of transition*. 2000. Vol. 8. №1. P. 117-145.

28. Mead D. C, Morrison C. The Informal Sector Elephant // *World Development*. 1996. Vol. 24. No. 10. P. 1611-1619.

29. Nguyen T. T., Whalley J. Equilibrium under price controls with endogenous transactions costs // *Journal of Economic Theory*. 1986. Vol. 39. P. 290-300.

30. Nozim Muminov, Shoir Olimjanova, Akmal Salimov, & Tatyana Kim. (2020). DIGITALIZATION AS AN IMPORTANT FACTOR OF LEGALIZATION OF THE SHADOW ECONOMY. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(2), 16-19. Retrieved from

<http://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/371>

31. Pitt M. Smuggling and Price Disparity // *Journal of International Economics*. 1981. Vol. 11. P. 447-458.

32. Portes A., Sassen-Koob S. Making It Underground: Comparative Material on the Informal Sector in Western Market Economies // *American Journal of Sociology*. 1987. Vol. 38. No. 1. P. 34.;

33. Rubin P. H. *The Economics of Crime* // *The Economics of Crime*. Cambridge (Mass.), 1980. P. 13.

34. Schneider F., Enste D. Shadow economies: Size, Causes and Consequences // *Journal of Economic Literature*. 2000. Vol. 38. №1. P. 77-114.

35. Schnaider F., Enste D. Increasing Shadow Economies All Over the World – Fiction or Reality? A Survey of the Global Evidence of their Size and of their Impact from 1970 to 1995. (<http://www.economics.uni-linz.ac.at/Members/Schneider/EnstSchn98.html>)

36. *Schneider F.* Comment // *Economic Policy*. 1998. April.;

37. Sesnowitz M. Returns to Burglary // *The Economics of Crime*. Cambridge (Mass.), 1980. С. 181 - 186. (*Western Economic Journal*. 1972. Vol. 10. No. 4. P. 477-481.)

38. Tallock G. An Economic Approach to Crime // *The Economics of Crime*. Cambridge (Mass.), 1980. P. 75.

39. *Tanzi V.* *The Underground Economy in the United States and Abroad*. Lexington, Mass., 1982.

Statistik to'plam va manbalar

1. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётнинг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. Т.: Ўзбекистон, 2011.

2. Ўзбекистон иқтисодиёти: ахборот-таҳлилий бюллетень. 2011йил.-Т., ИТМ, 2012.

3. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari/ nashr etilgan: 17/07/2017//<http://stat.uz>;

4. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. Статистик тўплам 2016 йил.-Тошкент, 2016.

5. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги/Сельское хозяйства Узбекистана.2011-2014йй.-Т., 2015.-20-бет;

6. Ўзбекистон Республикасида қишлоқ хўжалиги кўрсаткичлари.//<http://stat.uz>;

7. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2018йил январь-декабрь. Статистик тўплам.-Т.,ДСҚ, 2019.-87-бет.

8. Ўзбекистон рақамларда. Статистик тўплам 2016 йил.-Тошкент, 2016.

9. Экономика Узбекистана: информационно-аналитический бюллетень за 2016год.-Т.,ЦЭИ, 2017.

10. Монетар сиёсатнинг 2017 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари //Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотлари.

11. <https://www.statista.com/statistics/202871/number-of-fatalities-by-terrorist-attacks-worldwide/>

12. Ўзбекистон Республикасини 2016-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари тўғрисида/ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси ҳисоботи.

13. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год.-Т.:Госкомстат РУз, 2018.

VII.Internet saytlari

1. www.cer.uz.
2. <http://www.uzland.uz>.
3. www.economyta-culty.uz.
4. <http://www.imf.org>.
5. <http://www.bank.uz>.
6. <http://www.Stat.uz>

Ilovalar

1-ilova.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 181-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi va Markaziy banki boshqaruvi qarori bilan ofshor yurisdiksiyalarning ro‘yxati tasdiqlanadi.

Ofshor yurisdiksiyalarning ro‘yxati²⁰²:

1. Amerika Samoasi (AQSh) - Amerika (Sharqiy) Samoasi (Amerika Qo‘shma Shtatlari)
2. Angilya (Brit.) - Angilya (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo‘shma qirolligi)
3. Andorra - Andorra Knyazligi
4. Antigua va Barbuda - Antigua va Barbuda
5. Aruba (Nid.) - Aruba oroli (Niderlandiya Qirolligi)
6. Bagama orollari - Bagama orollari hamdo‘stligi
7. Barbados - Barbados
8. Beliz - Beliz
9. Bermud orollari (Brit.) - Bermud orollari (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo‘shma qirolligi)
10. Britan hududlari (Brit.) - Hind okeanidagi Britaniya hududlari (Chagos orollari)
11. Bruney-Dorussalom - Bruney-Dorussalom davlati
12. Vayoming shtati (AQSh) - Vayoming shtati (Amerika Qo‘shma Shtatlari)
13. Vanuatu - Vanuatu Respublikasi
14. Virgin orollari (AQSh) - Virginiya orollari (Amerika Qo‘shma Shtatlari)
15. Virgin orollari (Brit.) - Britaniya Virginiya orollari
16. Gvatemala - Gvatemala Respublikasi
17. Gibraltar (Brit.) - Gibraltar (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo‘shma qirolligi)
18. Gonkong-Syangan (Xit.) - Gonkong-Syangan Xitoyning maxsus ma‘muriy hududi

19. Grenada - Grenada
20. Delaver Shtati (AQSh) - Delaver Shtati (Amerika Qo'shma Shtatlari)
21. Dominika - Dominika Hamdo'stligi
22. Dominika Respublikasi - Dominika Respublikasi
23. Janubiy Jorjiya va Janubiy Sandvich orollari (Brit.) - Janubiy Jorjiya va Janubiy Sandvich orollari (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)
24. Jibuti - Jibuti Respublikasi
25. Kayman (Brit.) - Kayman orollari (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)
26. Kergelen orollari (Fr.) - Kergelen Orollari (Fransiya Respublikasi)
27. Kipr - Kipr Respublikasi
28. Kiribati - Kiribati Respublikasi
29. Kosta-Rika - Kosta-Rika Respublikasi
30. Kuk orollari (Yangi Zel.) - Kuk orollari (Yangi Zelandiya)
31. Labuan oroli (Mal.) - Malay Labuan oroli
32. Liberiya - Liberiya Respublikasi
33. Livan - Livan Respublikasi
34. Lixtenshteyn - Lixtenshteyn Knyazligi
35. Mavrikiy - Mavrikiy Respublikasi
36. Madeyra oroli (Port.) - Madeyra oroli (Portugaliya Respublikasi)
37. Makao-Aomin (Xit.) - Makao-Aomin Xitoyning maxsus ma'muriy hududi
38. Maldiv - Maldiv Respublikasi
39. Malta - Malta Respublikasi
40. Marshall orollari - Marshall orollari Respublikasi
41. Monako - Monako Knyazligi
42. Montserrat (Brit.) - Montserrat (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)
43. Men oroli (Brit.) - Men oroli (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)
44. Nauru - Nauru Respublikasi
45. Niderlandiya Antillari (Nid.) - Niderlandiya Antil orollari (Niderlandiya Qirolligi)

46. Niue (Yangi Zel.) - Niue Respublikasi (Yangi Zelandiya)
47. Normand Gernsi oroli (Brit.) - Normandiya Gernsi oroli (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)
48. Normand Jersi oroli (Brit.) - Normandiya Jersi oroli (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)
49. Normand Sark oroli (Brit.) - Normandiya Sark oroli (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)
50. Palau - Palau Respublikasi
51. Panama - Panama Respublikasi
52. Pitkern (Brit.) - Pitkern (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)
53. Puerto-Riko (AQSh) - Puerto-Riko (Amerika Qo'shma Shtatlari)
54. Samoa - Samoa Mustaqil Davlati
55. San-Marino - San-Marino Respublikasi
56. Seyshel Orollari - Seyshel orollari Respublikasi
57. Sen-Marten (Sint-Marten) (Nid.) - Sen-Marten (Sint-Marten) (Niderlandiya Qirolligi)
58. Sent-Vinsent va Grenadin - Sent-Vinsent va Grenadin
59. Sent-Kits va Nevis - Sent-Kits (Sent-Kristofer) va Nevis Federatsiyasi
60. Sent-Lyusiya - Sent-Lyusiya
61. Terks va Kaykos (Brit.) - Terks va Kaykos orollari (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)
62. Tonga - Tonga Qirolligi
63. Urugvay - Sharqiy Urugvay Respublikasi
64. Fiji - Fiji Respublikasi
65. Filippin - Filippin Respublikasi
66. Fransuz Polineziyasi (Fr.) - Fransuz Polineziyasi (Fransiya Respublikasi)
67. Shri-Lanka - Shri-Lanka Demokratik Sotsialistik Respublikasi
68. Yamayka - Yamayka.

MUNDARIJA

KIRISH	BET
I BOB. XUFYONA IQTISODIYOTNING TARKIBI, SABABLARI VA OQIBATLARI	6
1.1. Xufyona iqtisodiyotning mohiyati	6
1.2. Xufyona iqtisodiyotni namoyon bo‘lishining asosiy shakllari va sohalari	13
1.3. Xufyona iqtisodiyotning rivojlanish sabablari va omillari	22
1.4. Xufyona iqtisodiyot rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari	27
II BOB. XUFYONA IQTISODIYOTNI O‘LCHASH VA UNING MIQYOGLARI	34
2.1. Xufyona iqtisodiyotni o‘lchashning mikrousullari	34
2.2. Xufyona iqtisodiyotni o‘lchashning makrousullari	41
2.3. Xufyona iqtisodiyot miqyoslari.	45
2.4. O‘zbekiston Respublikasida xufyona iqtisodiyot ko‘lami.	54
III BOB. IQTISODIY TIZIMLAR TARAQQIYOTIDA XUFYONA IQTISODIYOTNING O‘RNI	59
3.1. Xufyona iqtisodiyot jahon iqtisodiy tarixining elementi	59
3.2. Xufyona iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiruvchi omil sifatida	61
3.3. Xufyona iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotni sekinlashtiruvchi omil sifatida	64
IV BOB. “IKKINCHI” XUFYONA IQTISODIYOTNING UMUMIY TAVSIFI.	67
4.1. Buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida davlat sektoridagi “oq yoqalilar” xufyona iqtisodiy faoliyati	67
4.2. Bozor xo‘jaligining tijorat sohasida xufyona iqtisodiy faoliyatning “oq yoqali” shakllari	73

4.3. Xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish tajribalari.	83
V BOB. KORRUPSIYA VA UNGA QARSHI KURASH	89
5.1. Korruptsiyaning mohiyati, turlari va evolyutsiyasi	89
5.2. Korruptsiyaning vujudga kelish sababalari	99
5.3. Korruptsiyani o'ldash va uning ko'lamlari.	104
5.4. Korruptsiyaning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri	110
5.5. Korruptsiyaga qarshi kurash yo'llari	116
VI BOB. SOLIQLARNI TO'LASHDAN BO'YIN TOVLASH	126
6.1. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashning mohiyati va sabablari	126
6.2. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashning asosiy turlari	131
6.3. Offshor zonalar va firmalar (kompaniyalar) - soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash vositasi	138
6.4. O'zbekistonda soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi chora-tadbirlar.	146
VII BOB. NORASMIY ("KULRANG") XUFYONA IQTISODIYOT	160
7.1. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda «norasmiylik»	160
7.2. MDH mamlakatlarida norasmiy iqtisodiyot	175
7.3. "Norasmiylik"ni tahlil qilishga neoinstitutsional yondashuvlar	185
7.4. Ernando de Sotoning "kul rang" xufyona iqtisodiyot konsepsiyasi	191
7.5. Norasmiy iqtisodiyotning rivojlanishining hozirgi zamon umumiy qonuniyatlari	198
VIII INDIVIDUAL JINOYATCHILIK XATTI-BOB. HARAkatLARINING IQTISODIY TAHLILI	201
8.1. Jinoyatchilik individual ratsional tanlov sifatida.	201
8.2. Ratsional jinoiy xatti – harakat modelining cheklanganligi.	204

8.3.	Jinoyatlarga qarshi kurashning optimal xarajatlari. G. Bakkerning jinoyat va jazo iqtisodiyot nazariyasi.	210
8.4.	Erlix modelining asosiy mazmuni	214
8.5.	Iqtisodiyotning kriminallasishiga qarshi kurash yo'llari.	215
IX BOB.	UYUSHGAN JINOYATCHILIK	
	IQTISODIYOTI: TASHKILOT	
	IQTISODIYOT NAZARIYASI	
	YONDOSHUVI	220
9.1.	Uyushgan jinoyatchilikning umumiy iqtisodiy nazariyasi	220
9.2.	Mafiya firma sifatida	222
9.3.	Mafiya xufyona hukumat sifatida	229
9.4.	Mafiya jamoa sifatida	231
X BOB.	JAHON JINOIY XO'JALIGI	236
10.1.	Jahon xo'jaligining jinoiy "egizagi"	236
10.2.	Shimol va Janubning o'zaro munosabatlaridagi jinoiy global muammolar	239
10.3.	Narkobiznes iqtisodiyoti va uning xususiyati	245
10.4.	Terrorizm iqtisodiy nazariyasi	252
10.5.	Jahon mamlakatlari rivojlanishining jinoiy global muammolari	268
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	
	RO'YXATI	273
	ILOVA	290

**Abulqosimov Hasan Pirnazarovich
Muminov Nozim Gaffarovich**

XUFYONA IQTISODIYOT
O'quv qo'llanma

Muharrir:

Musahhah:

Badiiy muharrir:

Texnik muharrir: